

28.0  
266

A. ZIKIRYAYEV  
S. FAYZULLAYEV



# BIOLOGIYA ATAMALARINING IZOHЛИ LUG'ATI



66

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

A. ZIKRIYAYEV, S. FAYZULLAYEV

# BIOLOGIYA

ATAMALARINING IZOHLI LUG'ATI

4-6111/91

TOSHKENT  
«BILIM»  
2004

**A. Zikriyayev, S. Fayzullayev.**

**Biologiya atamalarining izohli lug'ati.** Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. T.: «Bilim» nashriyoti, 2004- y. 160 bet.

**TAQRIZCHILAR:**

Biologiya fanlari doktori, professor *O. Mavlonov*,  
Biologiya fanlari doktori, professor *O. Eshonqulov*

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zosi,  
professor *J. A. Musayev* tahriri ostida.

Ushbu lug'at umumiy biologiyadan tuzilgan dastlabki izohli lug'at bo'lib, uning asosiy maqsadi tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan biologiyada keng foydalilanilayotgan 3000 ga yaqin tushuncha hamda atamalarga keyingi ilm-fan taraqqiyoti darajasida qisqacha izoh berish bilan o'quvchilar bilim doirasini kengaytirishga hissa qo'shishdir.

Lug'at akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining o'qituvchilari hamda o'quvchilari, biologiyaga oid turli sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan yosh mutaxassislar, tarjimonlar va keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

## **SO'Z BOSHI**

Bugungi kunda biologiya juda tez rivojlanayotgan bir qator fanlarning murakkab majmuidan iboratdir. Bunday taraqqiyot nafaqat hayotiy jarayonlarning elementar mexanizmlarini tushuntirish va aniqlash bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy yo'nalishlar, chunonchi biokimyo va biofizika, molekulyar biologiya, gen va hujayra muhandisligi, biotexnologiya kabilarga, balki biologiyaning mumtoz tarmoqlari — botanika, zoologiyaga ham taalluqlidir. Fanning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan aksariyat ilmiy adabiyotlar, darslik va qo'llanmalar asosan chet tilida bo'lib, o'zbek tilida ta'lim oluvchi o'quvchilar uchun bunday kitoblardagi maxsus atamalardan foydalanish bir qator qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Shu bilan birga respublikamizda qabul qilingan til to'g'risidagi Qonun fanning barcha sohalari bo'yicha, jumladan, biologiya sohasida ham ajnabiylardan olingan atamalarni milliylashtirish yoki ularning yangilarini yaratish masalalarini hal qilishni zarur deb topdi.

Kitobning asosiy maqsadi yuqorida qayd qilingan dolzarb masalalarni hal qilishga qaratilgan. Bu, o'z navbatida, turli-tuman adabiyotlardan keng foydalanishga, biologiya fanidagi yangidan-yangi atamalarni tushuntirib berishga va uni chuqur o'rganishga imkon yaratadi. Kitob faqat atamalarning ma'nosini ochish bilan chegaralanmay, balki izohli lug'at elementlari bilan ham boyitilgan.

Lug'at uch mingga yaqin asosiy biologik atamalarni o'z ichiga olgan. Lug'atda atamalarning o'zbek tilidagi mavjud ekvivalentlari bilan bir qatorda, ularning hozirgi kunda qabul qilingan xalqaro shakllari ham keltirilgan. Risolada atamalarning mazmunan o'zaro ichki bog'lanishini ta'minlashda havolalar tizimidan foydalanildi (havola maqola nomi kursiv bilan terilgan).

Bu lug'atni tuzishda mualliflar Respublikamiz va chet ellarda chop etilgan biologiyaga oid juda ko'p qo'llanmalar, darsliklar, ilmiy kitoblar, ma'lumotnomalar, qomuslardan foydalaniib, ulardan eng muhim atamalarni tanlab olganlar. Ushbu lug'at, umumiy biologiyadan tuzilgan dastlabki izohli lug'at bo'lib, ayrim kamchilik va nuqsonlardan

xon emas, aynan. Shuning uchun ushbu risolaga bildirilgan barcha fikr-mulohazalar uchun mualliflar oldindan minnatdorchilik izhor qiladilar.

Mualliflar ushbu lug'atni nashrga tayyorlashda katta yordam berган biologiya fanlari nomzodi M. M. Nabiyevga, dotsent Sh. Tojiboyevга, professorlar O. Ashurmetov, O. Eshonqulov va O. Mavlonovga samimiy minnatdorchilik bildiradilar.

## A

**Abaksial tomon** (o'simlikda) — o'simlik organi (gul, barg, yonshox, kurtak)ning o'zi joylashgan novda o'qiga nisbatan teskari tomoni (q. *Adaksial* tomon).

**Abakterial** — **Bakteriyasiz** — bakteriyalardan *xoli* bo'lan, steril, toza.

**Abdomen** — qorin — ko'pgina bo'g'imoyoqlilar tanasining bosh, ko'krakdan keyingi oxirgi (uchinchchi) qismi.

**Abduktor** — **Uzoqlashtiruvchi** — tana qismlarini uning markaziy o'qidan uzoqlashtiruvchi mushak.

**Biogenez** — tirik organizmga xos bo'lgan organik birikmalarning organizmdan tashqarida, fermentlar ishtirokisiz anorganik moddalardan hosil bo'lishini tushuntiruvchi nazariya (q. *Biogenez*).

**Abiotik omillar** — **Jonsiz omillar** — anorganik muhit omillari: yorug'lik, harorat, namlik, tuproq, bosim kabilalar. Tirik organizmlar faoliyatiga ta'sir etib, ularning hayotga moslashuvida muhim ahamiyatga ega.

**Abiotrofiya** — to'qimalar faoliyatining o'zgarishiga sabab bo'luvchi jarayonlar yig'indisi; masalan, degeneratsiya.

**Abioz** — hayotiylikka xos bo'lgan xususiyatlар yashash layoqatining sustlashuvi. Jonsiz holat.

**Ablaktatsiya** — **Sutsizlanish** — sut kelishining susayishi va to'xtashi.

**Ablaktirlash** — **Qo'shpayvand, yondosh payvand** — o'simlik novdasini tanasidan qirqib olmasdan, bir-biriga yaqinlashtirib payvand qilish. Uzumchilikda ko'p qo'llanadi.

**Ablastin** — bakteriyalarning ko'payishi shiga to'sqinlik qiluvchi oqsil tabiatli modda.

**Aboral** — og'iz bo'shlig'iga qaramaqarshi tomon. Ovqat hazm qilish kanali elementlari bilan bog'liq.

**Aborigen** — tub joyli, jaydari — ma'lum bir joyda uzoq vaqt davomida yashayotgan organizm (odamlar, hayvon yoki o'simlik). Biologiyada ko'pincha avtoxtonlar atamasi qo'llanadi.

**Abort** — *homila (bola) tashlash* — homiladorlikning muddatidan ilgari to'xtashi va yashashga layoqatsiz homilanling bachadondan tushishi. Beixtiyor (biron sabab bilan o'z-o'zidan) va sun'iy Abort bo'ladi.

**Abrin** — oqsil tabiatli o'simlik zahari. Ayrim hujayralardagi oqsil sintezini pasaytiruvchi modda, ingibitor.

**Abssizat kislota** — o'simlik gormoni. O'simlik bargi va mevalarining to'kilishini tezlashtiruvchi, urug'larning tinim davrini vujudga keltirib, uzaytiruvchi, shuningdek, o'sishni sekinlashiruvchi modda. Dastlab g'o'za ko'saklaridan ajratib olingen.

**Abuminuriya** — oqsilning siydik bilan birga chiqishi; buyrak faoliyatining buzilganligini ko'rsatadi.

**Adaksial tomon** — yonshox, gul, barg va kurtakning o'zi joylashgan o'qqa (poyaga) qaragan tomoni. Masalan, yaproqning ustki qismi.

**Adaptatsiya — Moslashish** — organizmning evolutsiya jarayonida o'zgaruvchan yashash sharoitlariga moslanishi.

**Adaptiv o'simlikshunoslik** — moslashish xususiyatiga ega bo'lgan navlarni yaratish, nav agrotexnikasini ishlab chiqish, yangi bioregulyatorlardan foydalanish, o'simliklarni himoya qilishda integrativ usullardan foydalanish.

**Adaptiv zonası — Moslashuv makoni** — ekologik sharoitning o'ziga xos xarakterli belgilariiga ega, organizmlar turli guruhi uchun makon vazifasini bajaruvchi aniq bir turdag'i manzil (masalan, tuproq, suv havzasi va boshalar).

**Adaptor gipotezasi — moslashish gipotezasi** — t-RNK adaptorlik vazifasini bajaradi, ya'ni u polipeptid zanjirdagi aminokislota o'rnnini yoki kodonga antikodon mos kelishini aniqlab beradi deb tushuntiradi.

**Adelomorfli — Shaklsiz** — aniq bir shaklga ega bo'lmaslik (hujayra to'g'risida).

**Adenilatsiklaza** — liazalar sinfiga mansub ferment; ATFdan siklik AMF hosil bo'lishida ishtirok etadi. Plazmatik membranalarda bo'ladi.

**Adenin** — purin asoslaridan biri. DNK va RNK hamda erkin nukleotidlari, adeninli kofermentlar tarkibiga kiradi.

**Adenoblast** — bezning embrional hujayrasi.

**Adenomer** — hayvonlarning sekret hosil qiluvchi ko'p hujayrali bezining oxirgi bo'limi.

**Adenopetaliya** — gultojbarglarda bezchalarning mavjudligi.

**Adenoviruslar** — tashqi lipoprotein qobig'i yo'q DNKli viruslar. Sut emizuvchilar, jumladan, odamda turli kasalliklarga, shuningdek rakka sabab bo'lishi mumkin.

**Adenozindifosfat kislota (ADF)** — murakkab organik birikma; adenin, fosfat kislotaning ikki qoldig'i va ribozadan iborat nukleotid. Hujayra energetikasida muhim ahamiyatga ega. Adenozinmonofosfat kislota (AMF) — tarkibi adenin, riboza va fosfat kislotaning bitta qoldig'idan iborat murakkab organik birikma. Nuklein kislotalar, kofermentlar tarkibida va erkin holda uchraydi.

**Adenozintrifosfat kislota (ATF)** — adenin, riboza va fosfat kislotaning uchta qoldig'idan tashkil topgan birikma. Tirik organizmlarda universal energiya tarqatuvchi va asosiy kimyoviy energiya manbaidir.

**Adenozintrifosfataza (ATFaza)** — gidrolazalar sinfiga mansub ATF ning parchalanishini tezlashtiruvchi ferment. Bunda tirik organizmlar uchun kerak bo'lgan energiya ajralib chiqadi. Kaliy, natriy, kalsiy, magniy ionlari yordamida faollashadi.

**Adinamiya — Madorsizlanish** — muskullarning haddan tashqari kuchsizlanishi tufayli quvvatning keskin kamayishi; ochlik, uzoq davom etgan kasallik yoki qarilik oqibatida vujudga keladi.

**Adipogenez** — organizmda yog' hosil bo'lish jarayoni.

**Adrenalin** — buyrak ubti bezi gormoni, asab tizimi mediatori (vositachisi). Ayniqsa stress (tanglik) holatlarda ko'p ishlab chiqariladi. Inson va hayvon organizmi hayot faoliyatida muhim ahamiyatga ega.

**Adrenokortikotrop gormoni** — gipofiz old bo'lagida ishlab chiqarila-

di, buyrak usti bezi po'st qavati funksiyasini tezlashtiradi.

**Adsorbent** — adsorbsiyalash (yutish) xususiyatiga ega modda; bularga korbolen, faollashtirilgan ko'mir kabilalar kiradi.

**Adventiv organlar** — **Tasodiffiy organlar** — odatdan tashqari joylarda tasodifan paydo bo'luvchi organlar (masalan, ildizlarda kurtaklarning hosil bo'lishi).

**Aeratsiya** — havoni yangilash, turli muhitlarga atmosfera havosining tabiiy kirishi yoki uni mexanik yo'l bilan kiritish.

**Aerenxima, havo qopchiqli to'qimalar** — suv va botqoq o'simliklari hujayra oralig'idan havo to'la bo'shliqlari bo'lgan to'qimalar.

**Aerobler** — atmosfera kislorodi hisobiga hayot kechiruvchi organizmlar. Bularga deyarli barcha hayvonlar va o'simliklar hamda ko'pgina mikroorganizmlar kiradi.

**Aerofitlar** — faqat havo nami (shudring, yomg'ir)da erigan ozuqa moddalar hisobiga o'suvchi o'simliklar. Masalan, yo'sinlar, lishayniklar va ko'pgina epifitlar.

**Aeroponika** — o'simliklarni tuproqsiz sharoitda o'stirish usuli. Havoda osilib turuvchi ildizlarga vaqtı-vaqtı bilan ozuqa eritmalari maxsus vositalar yordamida purkab turiladi.

**Aerotaksis** — ba'zi tuban o'simlik, bakteriyalar va eng sodda hayvonlarining kislorodli muhitga intilishi.

**Aerotropizm** — o'simlik ildiz va novdalar o'suvchi qismining kislorodli muhit tomon intilib o'sishi.

**Afagiya** — hasharotlarning rivojlanish bosqichlaridan biri. Bunda ular tabiiy ochlik holatida yashaydi.

**Afaziya** — nutq va eshitish a'zolarining sog'lom bo'lgani holda so'lash qobiliyatining buzilishi. Bosh miya katta yarim sharlari po'stining shikastlanishi natijasida paydo bo'ladi.

**Afferent tolalar** — bosh miya po'stlog'iga to'qimalardan xabar kelтирuvchi, ya'ni markazga intiluvchi asab tolalari (q. *Efferent tolalar*).

**Affin antitanalar** — **Zidditanalar affinligi** — zidditanalar molekulasing faol markazlarini antigenlarning reaksiyon xususiyatga ega bo'lgan guruhlar bilan mustahkam birlashishi.

**Afil o'simliklar** — Bargsiz o'simliklar — bargi bo'limgan uchun fotosintez jarayoni yashil poyalarda kechuvchi o'simliklar. Masalan, kakatuslar, qora saksovul.

**Afinlar** — o'simlik bitlari gemolimsafasining binafsha qizil pigmentlari. To'q rangli hasharotlarga xarakterli bo'lib, o'simlik bitlaridagi yashil rang esa afinlar hosilasi — afininlar bilan bog'liq.

**Afisidlar** — o'simlik bitlariga qarshi qo'llanadigan kimyoiy moddalar.

**Aflatoksinlar** — mog'or zamburug'lari hosil qiladigan zaharli moddalar. Mog'or va ozuqa mahsulotlari da bo'ladi. Bunday mahsulot iste'mol qilinsa, zaharlanish yuz beradi.

**Agamiya, jinssiz** — jinsga ajralma ganlik. Tuban o'simliklarga, urug'-lanishsiz ko'payuvchi umurtqasiz, shuningdek, ba'zi umurtqali hayvonlar (masalan, kavkaz kaltakesagi)ga xos.

**Agamogenez** — organizmlarning jinssiz yo'l (bo'linish, kurtaklanish) bilan ko'payishi.

**Agamospermiya** — o'simliklarda urug'lanmasdan (otalanmasdan) urug' hosil bo'lishi.

**Agamospora** — Jinssiz spora.

**Agar-agar** — ba'zi qizil suvo'tlardan ajratib olinadigan murakkab uglevodlar aralashmasi. Oziq-ovqat sanoatida, mikrobiologiya, biokimyo va boshqalarda ilmiy maqsadlar uchun ishlatalidi.

**Agarikdoshlar**, plastinkali zamburug'lar — bularga ko'pchilik yeyiladigan zamburug' (shampinon, oq zamburug')lar kiradi.

**Ageneziya** — 1) naslsiz, bepusht, pushtsiz nasl qoldirish; 2) organ yoki uning biror qismi, yo tana bir qismining yo'qligi bilan bog'liq anomal rivojlanishning umumiy nomi.

**Agevziya** — ta'm bilish sezgisining yo'qolishi.

**Agglyutinatiya**, yopishuvchanlik — antigen zarrachalar (masalan, bakteriyalar, eritrotsitlar, leykotsitlar va boshqalar)ning, shuningdek, antigenlar yopishgan har qanday inert zarralarning agglutininlar ta'sirida yopishib va agregatlar hosil qilib cho'kmaga tushishi. Bu reaksiyadan infeksion kasalliklarni, qon guruhlari, shuningdek mikroorganizmlarni aniqlashda foydalaniadi.

**Agglyutininlar** — qon zardobida hosil bo'luvchi oqsil tabiatli moddalar. Ular ta'sirida oqsilning ivishi, mikroblar va qon tanachalarining bir-biriga yopishishi ro'y beradi. Antitanachalar guruhiiga kiradi.

**Aglikon** — glikozidlar molekulasining uglevod bo'lмаган qismi; glikozidlarning biologik faolligini belgilaydi.

**Aglomeratsiya** (botanikada) — ekologik jihatdan bir xil bo'lgan turlardan tashkil topgan fitotsenozi.

**Agnoziya** — miya po'stlog'i yuqori bo'limlarining shikastlanishi natijasida zehn, qobiliyat, bilish xususiyatinguzbuzilishi.

**Agonistlar** — ma'lum harakatni bajarishga ta'sir qiluvchi muskullar.

**Agrobiogeosenoz** — qishloq xo'jalik mahsulotlarini beruvchi sun'iy yaratilgan biotik uyushmadan bo'lgan noturg'un biogeosenoz. Agrobiogeosenoz inson tomonidan doimo qo'llab-quvvatlangandagina uzoq yashash qobiliyatiga ega bo'ladi.

**Agrobiosenozi** — qishloq xo'jalik ekinlari ekiladigan maydonlarda yashovchi organizmlar va ular orasidagi o'zaro munosabatlari yig'indisi (q. *Biosenozi*).

**Agrofitosenoz** — sun'iy yaratilgan o'simliklar jamoasi; odam ekip yoki ko'chat qilish yo'li bilan hosil qiladi.

**Agroindustriya**, industrial qishloq xo'jaligi — o'simlik yoki chorva mahsulotlarini yetishtirishda mexanizatsiyalash, kimyolashtirish va qisman avtomatlashtirishga asoslangan, jadal, ko'p tarmoqli qishloq xo'jaligi.

**Ajraluvchi kurtak** — o'simlikdan ajralib tushib, xuddi shunday mustaqil o'simlik hosil qiluvchi maxsus kurtak.

**Ajriq** — ko'p yillik ildizpoyaga ega o'simlik. Ekinlar uchun xavfli begona o't.

**Akariotsit** — **Yadrosiz hujayra**.

**Akarioz** — kanalar vositasida vujudga keluvchi kasalliklar.

**Akaritsid** — kanalarni o'ldiruvchi kimyoviylarni moddalar.

**Akarologiya** — zoologiyaning kanalarni o'rjanuvchi bo'limi. Qishloq xo'jalik, veterinariya va meditsina akarologiyasiga bo'linadi.

**Akar** — **Mevasiz**.

**Akineziya**, harakatsiz — ixtiyoriy harakatlanish xususiyatining yo'qolishi. Bo'g'imgilarning harakatsizligi, shollik natijasida yoki og'riq ta'sirida vujudga keladi. Ruhiyat bilan bog'liq akineziya ham mavjud.

**Akklimatizatsiya** — *Iqlimga moslashish, iqlimlashish* — organizmning yangi yashash sharoitiga moslashishi.

**Akkomodatsiya** — atrof-muhitga moslashish. Masalan, ko'zning turli masofadagi narsalarni ochiq-ravshan ko'rishga moslashuvi.

**Akkumulyatsiya** — biron-bir modda yoki narsaning yig'ilishi, to'planishi.

**Akrodont tishlar** — jag' chetlari ga qarab o'suvchi, o'z o'rindig'ida turmagan tishlar.

**Akromegaliya** — ba'zi a'zolar (lab, qulqoq, burun, qo'l va oyoq panjalari va hokazo)ning haddan tashqari o'sib ketishi. Gipofiz funksiyasining buzili shi tufayli vujudga keladi.

**Akropetal** — *Yuqoriga intilish* — o'simlikning asos qismidan uchki qismiga qarab rivojlanishi, o'sishi.

**Akseleratsiya, tezlashish, yetilish** — bolalar va o'smirlar o'sishi hamda rivojlanishining tezlashishi, shuningdek, ancha erta jinsiy balog'atga yetishi.

**Akseptorlar** — qabul qiluvchi. Biron-bir moddadan elektron, atom, kimyoviy guruhlarni qabul qilib oluvchi modda.

**Aksion** — asab impulslarini asab hujayrasidan boshqa neyron yoki effektor a'zolarga o'tkazuvchi tarmoqlanmagan asab tolasi.

**Aktin** — muskul to'qimalardagi asosiy oqsillardan biri.

**Aktiniyalar** — ssifomeduzalar sinfiga mansub yakka olti sho'lali mar-

jon poliplari turkumi. Orol va Kaspiy dengizlaridan boshqa hamma dengizlarda uchraydi. Badanga tegsa kuydiradi.

**Aktinofaglar** — nursimon zamburug'lar zararkunandasi. Antibiotiklarni sanoat miqyosida olishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

**Aktinomitsetlar** — *Nursimon zamburug'lar* — tuban o'simliklar tartibi. Tuproq, suv va havoda tarqalgan. Antibiotiklar ishlab chiqaradi.

**Aktiv (faol) ko'chirilish** — biologik membranalar orqali konsentratsiya gradiyentiga qarama-qarshi tomonga moddalarning ko'chirilishi; bunda moddalar konsentratsiya past bo'lgan qismdan konsentratsiya yuqori qismga energiya sarflanish hisobiga ko'chiriladi.

**Aktiv markaz** — **Faol markaz** — fermentning substratni biriktirib olib, uni o'zgartiruvchi qismi.

**Aktivator (ferment)** — **Ferment aktivatorlari** — fermentlarning faolligini oshiruvchi moddalar. Bular ko'pincha turli metall ionlaridir.

**Aktomiozin** — muskul tolalarining oqsili; aktin va miozinning o'zaro birikishidan hosil bo'ladi. Qisqarish xususiyatini ta'minlaydi.

**Akulasimonlar** — tog'ayli baliqlar kenja sinfi; akulalar va lappak baliqlar turkumlaridan iborat.

**Akvakultura** — *Suvda o'stirish* — foydali suvo'tlar, mollyuskalar, baliqlar va boshqa organizmlarni den-giz sohillarida (marikultura), limanlarda, daryo va ko'llarda yoki sun'iy tashkil qilingan suv havzalarida o'stirish, yetishtirish.

**Akvarium baliqlari**, shishaxum baliqlari — mayda, ko'pincha turli-

tuman chiroyli rangga ega bo'lgan suvli shishaxumda yashashga, ko'-payishga moslashgan baliqlar guruhni.

**Alanin** — ko'pchilik oqsillar tarkibida uchraydigan aminokislota.

**Alar** — poyaning bo'yiga o'sishini sekinlashtiruvchi sun'iy kimyoviy modda.

**Albinizm**, *rangsizlanish, oqarish* — organizmning o'ziga xos rangining tug'ma yo'qligi; bu — odam va hayvonlar teri qoplamida, ko'z rangdor pardasida uchraydi. Rangli pigmentlarning sintez qilinishiga to'sqinlik qiluvchi gen yoki plazmogenlar faoliyati buzilishi tufayli vujudga keladi (q. *Pigmentatsiya*). O'simliklarda butunlay yoki ularning ma'lum qismalarida yashil rangning bo'lmasligi. Irsiy o'zgarish yoki tashqi muhit ta'sirida yuz beradi.

**Albuminlar** — suvda yaxshi eriydigan oddiy oqsillar. Ko'pchilik o'simlik urug'laridagi jamg'arma oqsillar tarkibida va boshqalarda uchraydi.

**Aldosteron** — steroid gormon; asosan umurtqali hayvonlar buyrak usti bezining po'st qismi ishlab chiqaradi. Organizmdagi mineral almashinuvni jarayonini boshqaradi.

**Aldozalar** — tarkibida aldegidli gruppa bo'lgan monosaxaridlar. Massalan, glyukoza, riboza, eritroza.

**Aleyron donalari** — donli, dondukkakli va boshqa o'simliklar urug'i hujayralaridagi jamg'arma oqsil donachalari.

**Algisd** — suvo'tlariga qarshi qo'llaniladigan kimyoviy moddalar.

**Algologiya** — Suvo'tshunoslik — suvo'tlarni o'rjanuvchi fan.

**Alimentar** — Ozuqaga oid.

**Alkaloidlar** — tarkibida azot tutuvchi organik birikmalar; ishqoriy xususiyatga va fiziologik faollikka ega. Asosan o'simliklardan olinadi. Morfin, kofein, tein va boshqalar misol bo'ladi.

**Alkogoldegidrogenaza** — atsetat aldegidini etil spirtiga aylantirish reaksiyasini tezlashtiruvchi ferment.

**Allelizm**, ko'plik allelizm — turgenofondida bir genning uch va undan ortiq allel yordamida nazorat qilinishi. Bunda bir belgi bir necha xil shaklda ko'rindi.

**Allellar** (allel genlar) — gomologik xromosomalar bir xil qismlari (lokuslar)da joylashgan bir genning muqobil shakkiali. Bir belgining har xil ko'rinishda rivojlanishini belgilaydi.

**Allelopatiya** — bir muhitda yashayotgan organizmlarning hayot faoliyati tufayli hosil bo'lgan kimyoviy mahsulotlari orqali bir-biriga ta'sir ko'r-satishi. Bu o'simliklarda ko'p uchraydi; bunda ular bir-birining rivojlanishiga xalaqit berishi yoki aksincha bo'lishi mumkin. Ekinlarni almashlab ekish va aralash ekinlar yaratishda bu hodisaga ahamiyat berish kerak.

**Allergiya, o'ta sezgirlik** — odam va hayvon organizmining biron-bir modda ta'siriga nisbatan o'ta sezgir bo'lib qolishi. Og'ir kasalliklar (qichima, eshakyermi, bronxial astma, ya'ni nafas siqish) ko'rinishida kechishi mumkin. Atrof-muhitning ifloslanishi ham allergiyaning ko'payishiga sababchi bo'ladi.

**Allogamiya** — Chetdan changlanish.

**Allokarpiya** — chetdan changlanish natijasida meva hosil bo'lishi.

**Allomonlar** — organizmda vujudga keluvchi va boshqasiga ta'sir ko'r-satuvchi moddalar; masalan, o'simlik hidi, gulshira, feromonlar, repellent-lar va boshqalar.

**Allosterik boshqarish** — organizmdagi ba'zi metabolik jarayonlar tezligini shu jarayonda ishtirok etuvchi, boshqaruvchi (allosterik) ferment faolligining, o'zgarishi hisobiga nazorat qilish.

**Alloxoriya** — meva va urug'larning turli tashqi omillar yordamida tarqalishi.

**Alloxtonlar** — **Boshqa yerlik, kelgindi organizmlar** — dastlab paydo bo'lgan joyidan, keyinchalik tarqalishi natijasida boshqa yerdagi fauna yoki flora tarkibida uchraydigan organizmlar.

**Almashlab ekish** — qishloq xo'jalik ekinlarini ma'lum davr ichida navbatma-navbat almashlab ekish. Dehqonchilik sistemasining muhim qismi. Almashlab ekishga rioya qilmaslik ekinlarning yakka hokimligini vujudga keltiradi.

**Alp o'simliklari qoplami, yaylov zona o'simliklari, baland tog' o'simliklari** — asosan past bo'yli o'tloqlardan iborat. Ozuqabop o'tlarga boy, yozgi o'tloq sifatida foydalilanadi.

**Alternativ yo'l** — **Muqobil yo'l, boshqacha yo'l, qo'shimcha yo'l** — modda almashinuv jarayonining ikki yoki undan ortiq bir-biridan keskin farq etuvchi yo'llardan birida kechishi.

**Alveola** — o'pkadagi mikroskopik pufakchalar bo'lib, ular devori juda mayda qon tomirchalari — kapillyarlar bilan o'ralgan.

**Amarillisilar**, Chuchmoma guldoshlar — bir pallalilar sinfiga mansub

yuksak o'simliklar oilasi. Agava, chuchmoma kabilar kiradi.

**Ambra** — mumsimon modda; tishli kit — kashalotning ovqat hazm qilish yo'lida hosil bo'ladi; hidni saqlash xususiyatiga ega.

**Amfibiylar** — suvda va quruqda yashovchi umurtqali hayvonlar.

**Amfifil birikmalar** — xossalari qutbli taqsimlangan birikmalar, ya'ni bittasi qutblangan (gidrofil), ikkinchisi qutblanmagan (gidrofob) xususiyatli birikmalar.

**Amfigen** — ikki jins nasllarini berish xususiyati.

**Amfikarpiya** — bir o'simlikda bir vaqtning o'zida ham yer ustki, ham yer ostki qismida meva hosil bo'lishi.

**Amfimiksiz** — o'simlik va hayvonlar jinsiy ko'payishining oddiy yo'li; bunda yangi organizm ikki individga mansub otalik va onalik gametalari ning qo'shilishidan hosil bo'ladi.

**Amfitrixlar** — hujayrasining ikki tomonida bittadan xivchini bor bakietyalar.

**Amfotropizm** — simpatik va para-simpatik asab tizimlarining birdaniga g'o'zg'algan holati.

**Amidlar** — organik kislotalar hosilasi; tarkibidagi gidroksil guruh amin guruhga almashtgan. O'simliklarda azotning ko'chib yuruvchi va jamg'arma shakllari sifatida muhim ahamiyatga ega.

**Amigdalın** — murakkab organik birikma; tarkibida glyukoza, benzaldegid, sianid kislota bor. Achchiq danakli bodom, o'rik, shaftolilar mag'izida uchraydi. Ulardagi o'ziga xos hid, taxirlik amigdalining bog'liq.

**Amilaza** — kraxmal va glikogenni maltoza disaxaridigacha parchalanish reaksiyasini katalizlovchi ferment.

O'simlik, hayvon va mikroorganizmlarda ko'p.

**Amilopektin** — kraxmalning tarkibiy qismi. Kartoshka va bug'doy kraxmalining 75—80% ni tashkil qiladi. Yod ta'sirida gunafsha rangga kiradi.

**Amiloza** — kraxmalning tarkibiy qismi. Kartoshka va bug'doy tarkibidagi kraxmalning 20—25% ni tashkil qiladi. Yod ta'sirida ko'k rangga kiradi.

**Aminokislotalar** — tarkibida bir yoki ikkita amin va karboksil guruhi bor organik birikmalar; tabiatda keng tarqalgan.

**Aminotransferazalar** — aminoguruhni bir moddadan ikkinchisiga ko'chirish reaksiyalarini katalizlovchi fermentlar.

**Amitoz, to'g'ri bo'linish** — dastlab hayvon va o'simlik hujayrasidagi mag'izning, keyin ketma-ket hujayraning to'g'ridan-to'g'ri yoki oddiy bo'linishi (q. *Mitoz*). Bunda irlsiy material hosil bo'layotgan ikkita hujayra o'rtaida teng taqsimlanmaydi. Ba'zan amitoz natijasida hujayra ko'p yadroli bo'lib qolishi mumkin.

**Ammonifikatsiya** — azotli moddalarning mikroorganizmlar yordamida ammiakkacha parchalanish jarayoni. Tabiatda azot aylanishining muhim bosqichlaridan biri.

**Amniotalar** — quruqlikda rivojlanishga moslashgan yuksak tuzilishga ega umurtqali hayvonlar (sudralib yuruvchilar, qushlar, sut emizuvchilar).

**Ampel o'simliklar** — poyasi osilib yoki yuqoriga o'rmalab o'suvchi manzarali, asosan xona o'simliklari.

**Ampelografiya** — botanikaning uzum turlari va navlarini o'rganuvchi bo'limi.

**Amyobalar** — yolg'on oyoqlilar sinfiga mansub bir hujayrali hayvon; tanasi doimiy shaklga ega emas.

**Amyobashakllilar** — zirhli (ustki qobig'i qattiq) baliqlarga yaqin turkum. Ovlanmaydi.

**Amyobasimon harakat** — tanadagi suyuqlikning oqib o'tishi natijasida yuz beradigan sekin (amyobaga o'xshab) harakatlanish.

**Amyobositlar** — **O'zgaruvchan hujayralar** — umurtqasiz hayvonlarning noto'g'ri yulduz shaklli, rangsiz, harakatchan hujayralari; umurtqali hayvonlar va odamdagagi leykotsitlarga o'xshab ketadi.

**Anabioz** — hayotiy jarayonlar (mas., modda almashushi va b.) keskin sekinlashgan organizm holati; bunda ko'zga ko'rindigan hayotiy belgilar sezilmay qoladi. Yashash sharoiti juda yomonlashganda (harorat o'ta yuqori yo past kabida) kuzatiladi. Anabioz ba'zan me'yorli holat hisoblanadi. Massalan, urug'lar, tirik vaksinalar, ma'lum sharoitlarda saqlash uchun qo'yilgan to'qimalar va hokazo.

**Anaboliya, ravnaq** — filoembriogenetik ko'rinishlaridan biri; bunda pusht rivojlanishining oxirgi bosqichida shakllanishning yangi bosqichlari ning qo'shilishi natijasida ontogenetik uzayib, o'zgaradi.

**Anabolizm, sintezlanish** — metabolismning tarkibiy qismi bo'lib, oddiy molekulalardan murakkab organik birikmalar vujudga keladi (q. *Asimilyatsiya*).

**Anaerobioz** — erkin kislorod yo'q sharoitdagisi hayot.

**Anaeroblar** — erkin kislorodi kam yoki butunlay yo'q bo'lgan sharoitda yashab, rivojlanuvchi organizmlar. Ikki xil guruh mavjud bo'lib, bular

obligat va fakultativ mikroorganizmlardan iborat.

**Anaeroblar — Majburiy (obligat) anaeroblar** — faqat erkin kislorodsiz sharoitda yashaydigan organizmlar.

**Anaeroblar** (fakultativ) — **Ikkiyoqlama anaeroblar, fakultativ anaeroblar** — kidlorodsiz, shuningdek kislorodli sharoitda ham yashovchi organizmlar Bularga achitqi zamburug'lari, ayrim bakteriyalar va boshqa prokariot organizmlar kiradi.

**Anafaza** — hujayra mitoz bo'linishining uchinchi fazasi. Bunda gomologik xromosomalar bir-biridan ajralib, hujayraning qarama-qarshitomonlari — qutblarga tortiladi (q. *Kariokinez*).

**Anakarddoshlar**, pistadoshlar — ikki pallalilar sinfiga mansub o'simliklar oilasi; bularga pista, totim kabi daraxt va butalar kiradi. O'rta Osiyo janubidagi tog' yonbag'irlarida keng tarqalgan.

**Anakondalar** — bo'g'ma ilonlar. Hozirgi zamон ilonlarining eng yirigi bo'lib, uzunligi 10 m gacha boradi.

**Anal teshik** — orqa chiqaruv teshigi.

**Analizatorlar, tahlilchilar** — tashqi va ichki ta'sirotlarni qabul qilib hamda aniqlash xususiyatiga ega sezgi asab hosilalari. Terminni fiziologiya faniga I. P. Pavlov kiritgan (q. *Sensor organlar*).

**Analogik strukturalar** — *O'xshash strukturalar* — funksional jihatdan o'xshash, lekin kelib chiqishi bo'yicha farq qiluvchi strukturalar.

**Ananasdoshlar** — bir pallali o'simliklar oilasi.

**Anatomiya** — odam, hayvon va o'simliklarning ichki tuzilishini o'rganadigan fan.

**Androgenez** — organizmlarning jinsiy ko'payish shakli; bunda tuxum hujayra rivojlanishida faqat sperma mag'izi (yadrovi) ishtirok etadi.

**Androgenlar** — odam va umurtqali hayvonlarning erkaklik jinsiy gormonlari; ikkilamchi erkaklik jinsiy belgilar rivojlanishini kuchaytiradi. Asosan urug'donlar, shuningdek, buyrak usti bezining po'st qavati va tuxumdonlarda hosil bo'ladi. Bularga testosteron, androsteron va boshqalar kiradi.

**Androginiya, ikki jinslilik** — urug'chi va changchi gullarining bir o'simlikda bo'lishi.

**Androspora**, erkak spora, mikrospora — urug'lanayotgan spora, ayrim yashil suvo'tlaridagi jinssiz sporalardan erkak organizmlar hosil bo'ladi.

**Androsteron** — erkak jinsiy gormoni, testosteron almashinuvining asosiy mahsuli. Ikkilamchi jinsiy belgilarning rivojlanishini tezlashtirish xususiyatiga ega.

**Anemiya, kamqonlik** — qon tarkibida eritrotsitlar va gemoglobinning kamayish holati; qator kasalliklarga sabab bo'ladi. Masalan, qon ketish, qon buzilish, qon hosil bo'lish jarayonining izdan chiqishi kabilar. Ba'zi anemiyalar, masalan, o'roqsimon anemiya irlari kasallik hisoblanadi.

**Anemotropizm** — organizmlarning havo oqimi ta'sirida harakatga kelish jarayoni.

**Anemoxoriya** — meva, urug' va sporalarning shamol vositasida tarqalishi. Bularda, odatda, shamolda uchishiga moslamalar — popuk, qanon va boshqalar bo'ladi.

**Aneuploidlar** — xromosomalar to'plami qisman o'zgargan (bir yoki

bir necha xromosomaga ko‘paygan yoki kamaygan) organizmlar.

**Angidrobioz** — suv kamligi yoki yetishmasligi bilan bog‘liq hayot; ba‘zi hayvon organizmlar. Bularga achitqi zamburug‘ining qishlov davrida sувsizlanishi misol bo‘ladi.

**Angiologiya** — anatomiyaning qon va limfa tomirlari tizimini o‘rganuvchi bo‘limi.

**Angiotenzin, angiotonin, gipertenzini** — gormon. Qon bosimining oshishi, bachadonning qisqarishi kabiga ta’sir etish xususiyatiga ega.

**Animal** — hayvonni, shuningdek, hayvonga aloqadorlikni anglatadi. Masalan, animal a’zolar (sezgi a’zolari, asab tizimi, muskulatura).

**Anizofilliya — Tengsiz barg** — o‘simplik gorizontal novdalaridagi barglarning shakl, struktura va kattakichikligining har xil bo‘lishi. Odatta, novdaning uchki qismidagi barglar kichikroq (masalan, terak, tutda).

**Anizogeniya** — retsiprok chatishtirish natijalarining har xil bo‘lishi.

**Anizotropiya** — o‘simplik organlarning tashqi muhit omillarining bir xildagi ta’siriga nisbatan turlicha yo‘nalishda joylanishi. Masalan, poya yorug‘likka qarab o’ssa, barg plastinkalari quyosh nurlariga perpendikulyar holatda joylashadi.

**Ankilozavrlar, zirhli dinozavrlar** — qirilib ketgan qushtosli sudralib yuruvchilar.

**Anogotoksik** — toksinlarning ta’sirini pasaytiruvchi, to‘xtatuvchi modda.

**Anoksemiya** — qonda kislород miqdorining kamayib ketishi.

**Anoksiya** — odam va hayvon organizmi to‘qimalarida kislород yetishmasligi.

**Anomaliya, anormal, me'yordan chiqish** — umumiy qonuniyatlardan cheklanish — organizm tuzilishidagi irlsriy kamchilik.

**Antagonizm**, ziddiyat, qaramaqarshi kuchlar (mikroorganizmlarda) — bir tur mikrobynning ikkinchi turdagisining o‘sishini susaytirishi yoki qarshilik qilishi.

**Antekologiya** — o‘simpliklarning gullashi va changlanish ekologiyasini o‘rganuvchi botanikaning bir bo‘limi.

**Antennal bezlar** — qisqichbaqsimonlarning juft chiqarish a’zolari; yo’llari antennalar (mo‘ylovlari) asosiga ochilgan (nomi shundan).

**Antennalar — Mo‘ylovlari** — qisqichbaqsimonlar va hasharotlar boshidagi ko‘p bo‘g‘imli o‘simtalar; ko‘philigidagi sezgi a’zosi vazifasini bajaradi.

**Antennulalar** — qisqichbaqsimonlarning birinchi juft kalta mo‘ylovlari.

**Anteridiy** — sporali o‘simpliklar (yo‘sin, qirqbo‘g‘im, suvo’tlari) va ba‘zi zamburug‘larning erkak jinsiy organi.

**Anti** — biron narsaga nisbatan ziddlik, qarama-qarshilikni ifodalovchi old qo‘srimcha.

**Antibiotiklar** — mikroorganizmlar o‘sishini to‘xtatish yoki ularni nobud qilish xususiyatiga ega biologik faol moddalar. Zamburug‘lar, bakteriyalar, aktinomitsetlar va ayrim yuksak o‘simpliklarda (fitonsidlar) hosil bo‘ladi. Antibiotiklardan odam, hayvon va o‘simplikda kasallik tug‘diruvchi mikroorganizmlarga qarshi foydalaniлади.

**Antibioz** — bir guruuh organizmlarning boshqa guruuh organizm rivojla-

nishiga salbiy ta'sir qilishi, qarshilik ko'rsatishi.

**Antidarvinizm** — organik dunyoning evolutsion rivojlanishida tabiiy tanlanishning muhim ahamiyatini inkor etuvchi turli qarashlar majmui.  
**Antidotlar** — **Ziddizaharlar** — organizmdagi zaharli moddalarni adsorbsiyalab, zararsizlantiruvchi kimyoviy birikmalar.

**Antifermentlar** — organizmda ishlab chiqariladigan va fermentlar foddigini pasaytiradigan moddalar (q. *Repressor*).

**Antifidantlar** — hasharotlar oziqlanishini susaytiruvchi moddalar.

**Antigelmintlar** — **Ziddigelmintlar** — organizmdan gelmintlar (parazit chuvalchanglar)ni haydashda foydalaniладigan kimyoviy moddalar.

**Antigenlar** — **Begona tanachalar** — yuqori molekulali oqsil tabiatli moddalar. Organizmga kirganda yoki kiritilganida antitanaga qarshi moddalar hosil bo'lishi va immunitetning rivojlanishiga sharoit yaratadi.

**Antikoagulyantlar** — qon ivishiغا to'sqinlik qiluvchi moddalar.

**Antikodon** — transport-RNK molekulasining uchta nukleotiddan tashkil topgan bir qismi; informatsion-RNK dagi o'ziga mos komplementlar (to'ldiruvchi) qismni (kodonni) aniqlash xususiyatiga ega.

**Antimetabolitlar** — organizmda ishlab chiqariladigan yoki sintezlangan tuzilishiga ko'ra metabolitlarga o'xshash kimyoviy birikmalar. Metabolitlarning organizmdagi ta'siriga to'sqinlik qiladi. Dori-darmon, pestisid sifatida ishlataladi.

**Antimutagenlar** — sun'iy yoki tabiy iksiy o'zgarishlar, ya'ni mutatsiya-

larning yuzaga chiqishiga qarshilik qiluvchi biologik faol moddalar (q. *Mutagenlar*).

**Antiovipozitantlar** — hasharotlarning tuxum qo'yishini susaytiruvchi, o'simliklarga xos moddalar.

**Antiport** — **qarama-qarshi to-monga ko'chirish** — biron-bir moddaning hujayra membranalari orqali ko'chirilishining boshqa moddaning qarama-qarshi tomonga ko'chirilishi bilan bog'liqligi.

**Antiseptika** — zararsizlantirish vositalari. Turli jarohatlarni, jarroh qo'llarini, jarrohlarning asbob-uskunalarini yuqumli mikroblardan tozalash, zararsizlantirish vositalari.

**Antitsitokininlar** — sitokininlar yordamida o'simlik to'qimalari o'sishi faollashuvini pasaytiruvchi moddalar.

**Antitanalar** — **Zidditanalar** — immunitet hosil qiluvchi oqsil tabiatli birikmalar. Organizmda antigenlar ta'sirida paydo bo'ladi (q. *Antigenlar*). Antigenlar (bakteriyalar, viruslar, toksinlar va boshqalar) bilan birikib, ko'pgina yuqumli kasalliklarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va ularni zararsizlantiradi.

**Antitelexorlar** — urug'larini bir joyda saqlab turuvchi va ularni noqulay sharoitdan asrovchi moslamalarga ega o'simliklar.

**Antitoksinlar** — **Ziddazaharlar** — organizmda toksin ta'sirida hosil bo'lувchi antitanalar. Zaharli moddalarni zararsizlantirish xususiyatiga ega.

**Antitranspirantlar** — fotosintez jadalligini o'zgartirmagan holda, transpirasiya jarayonini sekinlashtiruvchi (bargog'izchalarni yopish bilan) kimyoviy moddalar.

**Antivitaminlar** — **Ziddivitaminlar** — vitaminlar ta'sirini pasaytiruv-

chi yoki to'xtatib qo'yuvchi moddalar. Kimyoviy jihatdan vitaminlarga yaqin bo'lsa-da, qarama-qarshi biologik ta'sirga ega.

**Antofil** — gullar bilan oziqlanuvchi yoki gullar bilan jalb qiluvchi.

**Antotsianlar** — flavonoidlar guruhi-ga mansub pigment (bo'yoq)lar. O'simlik gullari, mevalari, bargida uchraydi. Antotsianlar muhit rN ga qarab qizil, ko'k yoki binafsha rangli bo'lishi mumkin.

**Antraxinonlar** — lishayniklar, zamburug'lar va yuksak o'simlik-larning qizil pigmentlari (masalan, alizarin).

**Antropo...** — odamga aloqadorlikni bildiruvchi old qo'shimcha.

**Antropogen yuklama** — **Odam ta'siri** — tabiat yoki uning ayrim ekologik komponentiga odamning bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatish darajasi.

**Antropogenez** — odamning paydo bo'lishi va jamiyatning vujudga keli-shida uning tur sifatida shakllanishi.

**Antropologiya** — odamning paydo bo'lishi, evolyutsiyasi, irqi va tuzilishini o'rganadigan fan.

**Antropomorfizm** — faqat insonga xos bo'lgan xususiyatlarni (tasavvur, ong, iroda va hokazolar) tabiat hodisalari, o'simlik va hayvonlarga ham xos deb tasavvur qilish.

**Antropoxoriya** — o'simlik urug' va mevalarining odam faoliyati vositasi-da tarqalishi.

**Antropoxorlar** — inson yordamida tarqaladigan (ongsiz ravishda) o'simliklar.

**Aorta, shoxtomir, katta tomir** — arterial tizimdagи eng katta tomir. Yurakning chap qorinchasidan boshlanadi. Barcha to'qima va a'zolarni qon bilan ta'minlaydi.

**Apikal** — yuqori, uchki qism; masalan, o'simliklarning o'suvchi uchki (apikal) qismi (q. *Bazal*).

**Apikal dominantlik** — o'simliklarda uchki o'sish ustunligi; bunda faol o'suvchi uchki qismlar uyqudagи yonbosh kurtaklarning uyg'onishiga, o'sishiga to'sqinlik qiladi.

**Apitoksin** — asalari zahari.

**Aplaziya** — tananing biron-bir qismining yo'qligi (q. *Ageneziya*).

**Apo...** — inkor qilish, yo'qotish, bo'linish kabilarni bildiruvchi murakkab so'z qo'shimchasi.

**Apobioz** — organizmning ayrim qismlari yoki to'qimalari hayotiylik xususiyatining pasayishi yoki yo'qolishi.

**Apoenzim** — q. *Apoferment*.

**Apoferment, apoenzym** — ikki komponenli fermentlarning oqsil qismi. Fermentlarning tanlab ta'sir qilish xususiyati apoferment bilan aniqlanadi.

**Apofitlar, begona o'tlar** — tabiiy o'sish joyidan odam faoliyati bilan yaratilgan ekinzorlar, dalalar va yaylovlarga osonlik bilan o'tadigan mahalliy yovvoyi o'tlar. Masalan, yan-toq, lolaqizg'aldoq.

**Apogamiya** — sporofitning tuxum hujayradan emas, balki gametofitning biron-bir vegetativ to'qimasidan rivojlanishi. Ba'zi gulli o'simliklar, qirq-qulqlarda uchraydi. *Apomiks* xilaridan biri.

**Apomiks** — hayvon va o'simlikning jinssiz ko'payish usuli; bunda yangi organizm urug'lanmagan tuxum hujayralardan (q. *Partenogenet*) yoki vegetativ hujayralardan paydo bo'ladi (q. *Apogamiya*).

**Apoplast** — o'simlik to'qimalaridagi erkin bo'shliqlar to'plami bo'lib, hujayra devori, hujayralararo bo'sh-

liqlardan tashkil topgan. Moddalar erkin diffuziyasini ta'minlaydi.

**Appendiks** — ko'richakning chuval-changsimon o'simtasi.

**Apteriya** — uchuvchi qushlarning pat bilan qoplanmagan teri qismi.

**Aralash o't** — ma'lum maydondagi xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan o'simliklar to'plami.

**Arborisidlar** — xo'jalik uchun ke-raksiz buta va daraxtlarga qarshi ish-latiladigan kimyoviy moddalar.

**Arboviruslar** — bo'g'imoyoqli hasharotlarda uchraydigan viruslar; kanalar, chivinlar tarqatadi. Umurtqali hayvonlar va odamda ba'zi kasalliliklar (ensefalit)ni qo'zg'atadi.

**Areal, maydon, hudud** — o'simlik va hayvonlarning ma'lum turi, turkumi yoki oilasi tarqalgan geografik hudud, maydon,

**Arenaviruslar** — lipoprotein qo'big'ida qumsimon granulalari bo'lgan ribonuklein kislotali viruslar. Umurtqali hayvonlarning hujayra sitoplazmasida ko'payadi. Bevosita tarqaladi.

**Arg'uvon** — dukkaklilar oilasiga mansub o'simliklar turkumi.

**Ari asali** — shirin sharbatsimon modda. O'simliklar gul shirasining ishchi asalari organizmida qayta ish-lanishidan hosil bo'ladi. Tarkibida 13—20% suv, 80% dan ko'proq ug-levodlar (fruktoza, glukoza, saxaroza), 0,4% oqsil va 0,3% kul modda bor.

**Arid** — **Qurg'oqchil.**

**Arid o'lka, qurg'oqchil o'lka** — yog'in-sochin kam bo'ladijan quruq iqlimli geografik hudud. O'rta Osiyo-ning ko'pgina cho'l va chalacho'l qis-mi ana shu zonalarda joylashgan.

**Aromatik aminokislotalar** — **Halqali aminokislotalar** — tarki-

bida fenol, imidazol va boshqa halqalar bo'lgan siklik aminokislotalar.

**Aromatik o'simliklar**, xushbo'y o'simliklar — uchuvchi xushbo'y moddalarni sintez qiluvchi o'simliklar.

**Arterial qon, toza qon** — kislorodga boy qon.

**Arteriyalar** — **Qon tomirlari, qon arteriyalari** — kislorodga boyigan qon ni yurakdan barcha tana a'zolari va to'qimalariga eltuvchi qon tomirlar.

**Arxallaksis** — embrional rivojlani-shning dastlabki davrida sodir bo'la-digan keskin va kuchli o'zgarish.

**Arxegon** — yo'sin, qirqquloq, qirq-bo'g'im, ba'zi ochiq urug'lilar, suvo'tlar, zamburug'larning hamda yuksak o'simliklarning urg'ochi jinsiy or-gani.

**Arxegonli o'simliklar** — arxego-niyasi (urug'chi jinsiy organi) bo'lgan o'simliklar guruhi.

**Arxeopteriks, qadimgi qush** — qushlarning qazilma holda topilgan eng dastlabki vakillaridan biri.

**Arxikarp** — xaltachali zamburug'-larning ikki hujayradan iborat urg'ochi jinsiy a'zosi.

**Arximitsetlar** — zamburug' tanasi juda sust taraqqiy etgan, eng sodda shaklli, asosan suvo'tlar, suv zam-burug'lari va gulli o'simliklarda parazit hayot kechiruvchi tuban zam-burug'lar. Yangi sistematika bo'yicha xitridiomitsetlar deb yuritiladi.

**Arxitektonik maydonlar** (miyada) — bosh miya po'stlog'ining ayrim qismlari.

**Arxozaavlari** — sudralib yuruvchilar kenja sinfi. Bulardan hozir faqat bitta turkum — timsohlar saqlanib qolgan.

**Asalari zahari** — asalarining zahar bezlari ishlab chiqaradigan suyuq-lik.

**Asalarilar** — pardaganotlilar kenja turkumiga mansub hasharotlarning katta oilasi.

**Asalchil o'simliklar, asal beruvchi o'simliklar** — gullarida nektar (gulshira) bo'lgan o'simliklar.

**Atsetilxolin** — asab tizimi faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan organik birikma. Asab qo'zg'alishlarini o'tkazish vazifasini bajaradi.

**Atsetilxolinesteraza** — atsetilxolining parchalanish reaksiyasini katalizlovchi ferment.

**Atseton tanachalar, keton tanachalar** — modda almashuvi jarayonining oraliq mahsulotlari. Bularga atseton, atsetoatsetat, oksimoy kislotalari kiradi.

**Atsfiksya, bo'g'ilish** — qonda kislorodning yetishmasligi va karbonat angidrid gazining ko'payib ketishi tufayli nafas olishning keskin buzilishi.

**Atsidofil bakteriyalar** — nordon muhitda yashaydigan bakteriyalar.

**Atsidofil o'simliklar** — nordon tuproqlarda yaxshi o'sadigan o'simliklar.

**Atsidofiliya** — organizm hujayra va to'qimalarining kislotali bo'yoqlar bilan bo'yاليish xususiyati. Qon hujayralarini bir-biridan ajratishda ishlatalidi.

**Atsidoz** — organizmda nordon-ish-qoriy muvozanatning buzilishi. Nati-jada qon va boshqa to'qimalarda anionlar ko'payadi.

**Atsiklik aminokislotalar** — alifatik yoki halqasiz aminokislotalar. Glisin, metionin, leysin va boshqalar kira-di.

**Asingamiya** — bir turga mansub o'simliklarning har xil vaqtida gullashi tufayli ularning changlanish xususiyating yo'qolishi.

**Askaridalar** — yumaloq chuval-changlar sinfining tipik vakili. Umurtqali hayvonlar va odam ichagi-da parazitlik qilib, askaridoz kasalligini qo'zg'atadi.

**Askomitsetlar, Xaltachali zamburug'lar.**

**Askorbat kislota, C vitaminini** — suvda eriydigan vitamin. Asosan o'simliklarda, ayniqsa, na'matak, bulg'or qalampiri, sitrus mevalari va boshqalarda ko'p. Organizmning no-qulay sharoitlarga chidamliligin oshiradi. Askorbat kislotaning yetishmasligi lavsha (singa) kasalligiga sabab bo'ladi.

**Askorbatoksidaza** — askorbat kislota oksidlanishini katalizlovchi ferment.

**Askosporalar** — xaltachali zamburug'lar xaltachasida hosil bo'ladigan sporalar.

**Asparagin** — aspartat kislota amidi. Organizmda erkin holda va oqsillar tarkibida uchraydi. O'simliklarda jamg'arma azot sifatida to'planadi va ammiakni zararsizlantiradi.

**Aspartat kislota** — dikarbon aminokislota, oqsil tarkibida uchraydi. Amidlarning hosil bo'lismida va transaminlanish reaksiyalarida muhim ahamiyatga ega.

**Assidiyalar** — pardalilar kenja tipiga mansub dengizlarda yashovchi xordalilar sinfi.

**Assimilyatsion kuch, o'zlash-tirilgan kuchlar** — quyosh energiyasi hisobiga hosil bo'ladigan va karbonat angidridning assimilatsiya qilinishida sarflanadigan energiyaga boy birikmalar (ATF, NADFN<sub>2</sub>).

**Assimilyatsiya** — O'zlashtirish, hayot faoliyati uchun zarur ozuqa moddalarning, organizm tomonidan

**A**

o'zlashtirilishi. Modda almashinuvi jarayonining muhim tomonlaridan biri.

**Assimilatlar, o'zlashtirilgan mod-dalar** — fotosintezning oxirgi mahsulotlari, karbonat angidrid gazining qaytarilishi tufayli hosil bo'luvchi organik birikma (glukoza, saxonzoza, kraxmal va boshqalar).

**Astigmatizm** — yorug'lik nurlari dastasining optik tizimdan o'tishda deformatsiyalanishi tufayli bir nuqta-da emas, balki har xil nuqtalarda kesishishi. Bunda narsalarning tasviri buzilib, xira ko'rindi. Ko'z astigmatizmi ko'zoynak orqali bartaraf etiladi.

**Atavizm, ajdodga tortish** — organizm naslida odatda uchramaydigan, lekin ajdodlarga xos belgining namoyon bo'lishi.

**Atirguldoshlar** — ikki pallali o'simliklar oilasi.

**Atlant** — yuqori tuzilishga ega umurtqalilarda bosh suyak bilan birikkan birinchi bo'yin umurtqasi.

**Atoksiq — Zaharsiz, atoksiq.**

**Atoniya** — muskullar va ichki a'zolar (masalan, ichak) me'yordagi tonusining yo'qolib, susayishi. Atoniya ozish yoki boshqa kasalliklar tufayli yuz beradi, ba'zan tug'ma bo'ladi.

**Atrofiya** — odam yoki hayvon organizmidagi a'zo yohud to'qimalar ning kichiklashishi. Bu ular vazifasining buzilishiga yoki butunlay to'xtab qolishiga sabab bo'ladi. Atrofiya me'yorli sharoitda, qarilik va turli kasalliklarda yuz beradi.

**Atrof-muhitni muhofaza qilish** — odam salomatligini saqlash bilan bog'liq bo'lgan xalqaro, davlat, respublika, mahalliy sohada olib borila-

digan xo'jalik, texnologik, siyosiy va jamoat tadbirdari kompleks majmui.

**Atropin** — alkaloid. Mingdevona va bangidevona o'simliklarida ko'p uchraydigan zaharli modda. Tibbiyotda dori sifatida ishlataladi.

**Attraktant** — hayvonlarni, xususan, hasharotlarni jalb qiladigan tabiiy yoki sintetik kimyoviy modda. Asosan o'simlik zararkunandalariga qarshi ishlataladi.

**Auksanometr** — o'simlikning o'sishini o'lchaydigan asbob.

**Auksinlar** — fitogormonlar. O'simlik o'sishini boshqaradi. Sun'iy yo'il bilan olinadigan geteroauksin o'simlikshunoslikda qo'llaniladi.

**Autbriding** — bir turga mansub, biroq qarindoshlik nuqtayi nazaridan bir-biridan uzoqroq organizmlarni yaxshi nasl olish uchun o'zaro chatish-tirish (urchitish).

**Auto... — q. Auto...**

**Autoekologiya** — ayrim individ (populyatsiya, tur)ning atrof-muhit sharoiti bilan o'zaro munosabatini o'rganuvchi ekologiya bo'limi.

**Autogamiya — q. Autogamiya.**

**Autoimmunitet — O'z-o'zini himoya qilish** — organizmning o'zida hosil bo'ladigan va zidditanalar yordamida parchalanadigan ma'lum moddalarga nisbatan chidamliligi.

**Autoinfeksiya, O'zidan kasallanish** — organizmdagi shartli patogen mikroorganizmlarning qulay sharoitlarda jonlanib, kasallik qo'zg'atishi.

**Autokarpiya** — o'zidan changlanish natijasida meva hosil bo'lishi.

**Automutagen, o'z naslini buzuvchi** — organizmning o'zida hosil bo'ladigan naslini buzuvchi mutagen omillar.

**Autoorientatsiya** — o'ziga nisbatan yo'nalishni belgilash.

**Autopoliploidiya** — o'simlik, ba'zan hayvon organizmi hujayralaridagi xromosomalar gaploid to'plamining karrali o'zgarishi. Ko'pincha tashqi muhitning keskin o'zgarishi natijasida vujudga keladi.

**Autosomalar** — ayrim jinsli organizmlar hujayrasidagi (jinsiy hujayralardan boshqa) xromosomalar to'plami. Masalan, odam hujayralarining diploid to'plamida 22 juft autosomalar va bir juft jinsiy xromosomalar bor.

**Autotomiya** — q. *Autotomyia*.

**Avidin** — qushlar va sudralib yuruvchilar tuxumi tarkibidagi oqsil tabiatli modda; glikoprotein, biotin antagonisti. Biotin bilan birikib, suvda erimaydigan kompleks modda hosil qiladi.

**Avirulentlik** — patogen mikroorganizmlar ba'zi shtammlarining kasallik qo'zg'ata olmaslik xususiyati.

**Avitaminoz** — **Vitaminsizlanish** — organizmda vitamin yetishmasligi. Avitaminoz inson va hayvon organizmida har xil kasallik hollarini vujudga keltiradi.

**Avlod** — ajdodiga nisbatan keyingi bo'g'in individlari.

**Avlodga g'amxo'rlik** — ota-onayayvonlardagi o'z bolasi yoki shu guruhga mansub boshqa hayvon bolalarini boqish, parvarishlash, himoya qilish xususiyati.

**Australopiteklar** — ikki oyoqda harakatlangan yuqori tuzilishga ega qazilma maymunlar.

**Avto..., auto...** — o'zi, o'z-o'zidan; qo'shma so'z qismi.

**Avtogamiya** — 1) gulli o'simliklarda o'zidan changlanish va o'zidan urug'lanish, masalan, bug'doy, arpa-da; 2) amyoba, diatom suvo'tlari kabi

bir hujayrali organizmlarda ikki yadro (mag'iz)ning qo'shilishi.

**Avtogenez** — evolutsion ta'lilmotdagi yo'nalishlardan biri. Evolyutsiya tashqi muhit ishtirokisiz, faqat «ichki kuch» ta'sirida yuz beradi deb tushuntiradi.

**Avtoklav** — yuqori bosim ostida bug' bilan qizdirishga moslashgan qopqog'i zikh yopiladigan asbob. Biologiya, tibbiyot, veterinariya, mikrobiologiyada (sterillash), shuningdek, oziq-ovqat, kimyo sanoatlarida foydalaniladi.

**Avtoliz** — **O'z-o'zidan parchalanish** — tirik organizmlar tarkibidagi organik moddalar (oqsillar, yog'lar, uglevodlar)ning hujayralardagi o'z fermentlari ta'sirida o'zgarishida (masalan, metamorfoz), shuningdek ayrim ishlab chiqarish jarayonlari (xamirning ko'pchishi, yem-xashakni siloslash)da ham kuzatiladi.

**Avtoproteoliz** — oqsillar avtolizi, o'z-o'zidan parchalanishi.

**Avtoradiografiya** — biologik materiallarda radioaktiv moddalar (izotoplarning tarqalishini o'rganish usuli. Bunda radioaktiv modda (izotop) tutuvchi biomaterial radioaktiv nurni sezuvchi fotoemulsiya bilan yaqinlashtirilsa, u o'zini o'zi «suratga» tushiradi. Sitologiya va gistologiyada keng qo'llaniladi.

**Avtoreduplikatsiya** — **O'zidan-o'zi ikki barobarga ko'payish** — DNK molekulasining o'z-o'zidan ikki barobar ko'payishi.

**Avtoregulyatsiya** — q. *O'zini o'zi boshqarish*.

**Avtosporalar** — ba'zi suvo'tlarda ona hujayrasi ichida jinssiz yo'l bilan shakllanuvchi sporalar.

**Avtotomiya — O'zidan uzib tashlash**, o'zini-o'zi nogiron qilish, — bezovta qilingan, hayvon tanasining biron-bir qismining uzilib tushishi. Ko'pchilik hayvonlarga xos himoya reaksiyasi, masalan, kaltakesak dumini, ba'zi polip va aktiniyalar paypaslagichini, qisqichbaqasimonlar oyoq yoki qisqichlarini tashlab ketadi.

**Avtotransplantatsiya** — o'zidan ko'chirib o'tkazish — odam, hayvon, o'simlik to'qimalari yoki organini kesib olib, shu organizmning boshqa joyiga ularash.

**Avtotroflar** — *avtotrof organizmlar* — anorganik moddalardan hayot faoliyati uchun zarur organik moddalarni hosil qiluvchi organizmlar. Jarayon quyosh energiyasi (q. *Fotosintez*) yoki kimyoviy reaksiyalar natijasida ajralib chiquvchi energiya (q. *Xemosintez*) hisobiga kechadi. Bularga deyarli barcha yashil o'simliklar, suvo'tlar, ba'zi bakteriyalar kiradi.

**Avtotropizm** — biron-bir tashqi omil ta'sirida egilgan o'simlik yoki uning organlarini, shu ta'sir yo'qolgach, yana o'z-o'zidan dastlabki holatga qaytishi, masalan, yomg'ir tufayli yotib qolgan g'alla o'simliklarining keyin qad rostlashi (yana q. *Tropizmlar*).

**Avtoxoriya**, o'z-o'zidan tarqalish — meva, urug'larning tashqi omillar ishtirokisiz o'zidan-o'zi to'kilishi, sochilishi va tarqalishi (q. *Alloxoriya*).

**Avtoxtonlar** — *Tub joyli* — evolutsion jarayon natijasida shu yerda paydo bo'lgan va yashayotgan organizmlar. Masalan, o'rdakburun Avstraliyaning, chumolixo'r esa Janubiy Amerikaning avtoxtoni hisoblandi (q. *Aborigen*).

**Axiliya — Me'da axiliyasi** — me'da shirasida kislota va fermentning bo'lmasligi.

**Axlorgidriya** — me'da shirasida xlorid kislotaning bo'lmasligi.

**Axromatin** — hujayra yadrosining moddasi bo'lib, histologik tekshirishlarda xromatindan farqli ravishda sust bo'yalish xususiyatiga ega.

**Axromatoliz** — xromatinning parchalaniши.

**Ayiq ini** — ayiqlarning sovuq qish oylarida qishki uyquga yotadigan joyi.

**Ayiqtovondoshlar** — ikki pallali o'simliklar oilasi. Aksariyat o'tsimon o'simliklar. Masalan, ayiqtovon.

**Ayiruv tizimi** — hayvon organizmidan modda almashinuvining oxirgi mahsulotlari, ortiqcha suv, tuzlar, zaharli moddalarni ajratib chiqaruvchi organlar majmui.

**Aynish** — asl holidan chekinish, dastlabki xususiyatlarning yomonlashishi yoki yo'qolib ketishi.

**Ayozga chidamlilik** — tirik organizmlarning past haroratga bardosh bera olish xususiyati.

**Azigota, partenospora** — ba'zi zamburug'lar, suvo'tlarda gaploid partenogenez natijasida gametadan hosil bo'lувchi spora. Tashqi ko'rinishi zigotaga o'xshash.

**Azot muvozanati** — odam va hayvon organizmdan chiqadigan azot miqdorining ozuqa bilan olinadigan miqdoriga tengligi. Voyaga yetgan organizm me'yorli holatida azot muvozanatiga ega.

**Azotifikatorlar** — **Azot to'plovchilar** — havodagi molekulyar azotni o'zlashtirib, organik moddaga aylantiruvchi bakteriyalar. Bularga azotobakterlar, tugunak bakteriyalari, sianobakteriyalar va boshqa mikroorganizmlar kiradi.

**Azotli o'g'itlar** — tarkibida azot bo'lgan o'g'itlar. Bularga ammiakli, ammoniyli, nitratli, ammoniy-nitratli, amidli o'g'itlar kiradi.

**Azotobakter** — tuproqda erkin yashovchi aerob bakteriyalar turkumi; havodagi azotni o'zlashtirish xususiyatiga ega.

**Achitish, ko'pchitish** — ozuqa modalarining, masalan, glukozaning kislorod ishtirokisiz (anaerob sharoitda) parchalanishi.

**Achitqilar, turushlar** — bir hujayrali xaltachali zamburug'larning bir guruh. Kurtaklanish yoki bo'linish bilan ko'payadi.

## B

**Bahor kapalaklari** — hasharotlar turkumi. Oqar suvlarda yashaydi, kamharakat, ba'zilari uchish xususiyatini yo'qotgan.

**Bahori, lalmi** — qurg'oqchilik zonalarda sug'ormasdan, atmosfera yog'ini hisobiga ekin yetishtiriladigan yerlar.

**Bakterial o'g'itlar** — tarkibida qishloq xo'jalik ekinlari uchun foydali bo'lgan tuproq mikroorganizmlari bor preparatlar; masalan, nitragin, azotobakterin.

**Bakteriodlar** — ko'rinishi o'zgargan bakteriyalar. Dukkakli o'simliklarning ildiz tuganaklarida ko'payib, ular bilan simbiotik assotsiatsiyaga kiradi va havodagi molekular azotni o'zlash-tirishda ishtirok etadi. Erkin yashovchi tuganak bakteriyalardan hajminining kattaligi (10—12 marta) bilan ajralib turadi.

**Bakteriofag** — bakteriya viruslari; bakteriya hujayrasiga ta'sir etib, uni eritib yuboradigan ultramikroskopik tuzilma. Yuqumli kasalliklarning oldini olishda va davolashda foydalani-ladi.

**Bakteriolizinlar** — bakteriya qobig'iga ta'sir ko'rsatib, uni parchaydigan immun modda.

**Bakteriologiya** — mikrobiologiyaning bakteriyalar morfologiysi, sistematikasi, fiziologiyasi va amaliy ahamiyatini o'rganuvchi sohasi.

**Bakteriotsidlik** — turli omillarning (fizik, kimyoviy, biologik) bakteriyalarni o'ldirish xususiyati. Masalan, fitonsidlar va boshqalar.

**Bakteriotsinlar** — ba'zi bakteriyalarda hosil bo'ladigan o'ziga xos modalar. Bakteriotsinlar boshqa bakteriyalar hayot faoliyatini to'xtatib qo'yish xususiyatiga ega.

**Bakteriostaz** — bakteriyalarning noqulay muhit (fizikaviy, kimyoviy va boshqa) ta'sirida o'sish va ko'payishining butunlay to'xtashi.

**Bakterioxlorofilllar** — qirmizi va yashil bakteriyalardagi fotosintezni amalga oshirish xususiyatiga ega pigmentlar.

**Bakteriozlar** — o'simliklarda bakteriyalar qo'zg'atadigan kasallik. Masalan, pomidordagi bakterial shish kasali.

**Bakteriyalar** — asosan bir hujayrali prokariotlarga mansub mikroskopik organizmlar guruhi. Tayoqchasimon, sharsimon, vergulsimon va boshqa shakllarga ega. Oddiy bo'linish yo'li bilan ko'payadi. O'simlik, hayvon va odamda kasallik qo'zg'atuvchi pa-

togen bakteriyalar bilan bir qatorda odamga foyda keltiruvchi turlari ham mavjud.

**Balanoforadoshlar** — ikki pallalilar sinfiga mansub o'simliklar oilasi. Xlorofillsiz, daraxt ildizlarida parazitlik qiladi.

**Baliqlar** — umurtqali hayvonlar sinfi.

**Balzam** — tarkibida efir moylari, qatron, aromatik va boshqa birikmlar bo'lgan o'simlik muddasi. Asosan subtropik va tropik o'simliklarda to'planadi. Tibbiyot va boshqalarda foydalaniadi.

**Bangidevona** — tomatdoshlarga mansub o'simliklar turkumi. Tarkibidagi atropin alkaloididan tibbiyotda foydalaniadi.

**Barg** — o'simlik tana va novdalarida o'rashgan asosiy a'zolardan biri. Fotosintez, gaz almashinushi, suv bug'lantirish jarayonlari barglarda kechadi. Barg yaproq va banddan iborat, uning yashil rangda bo'lishi tarkibidagi xrorofill donachalariga bog'liq. Bargning shakli nihoyatda xilma-xil. Ayrim hollarda uning ko'rinishi o'zgargan; masalan, tikanlar.

**Barg bandi** — barg yaprog'ini poya bilan birlashtiruvchi qismi.

**Barg qo'lting'i** — yaproq bilan poya oralig'i.

**Barg to'kilishi** — turli xil tashqi noqulay sharoitlar ta'sirida yoki sun'iy yo'l bilan o'simliklar bargining to'kilishi.

**Barg yaprog'i, barg shapalog'i** — bargning kengaygan qismi.

**Barg yostiqchasi** — bargning novda yoki shoxcha bilan birlashadigan yeridagi bo'rtma.

**Bargxo'rlar, barg kemiruvchilar** — qo'ng'izlar oilasi. Keng tarqalgan.

Qo'ng'izi va qurti barg bilan oziqlanib madaniy o'simliklarga zarar keltiradi.

**Baroretseptorlar** — sezgi asablari ning bosim o'zgarishini qabul qiluvchi uchlari (ichak va qon tomirlari da).

**Baroxoriya** — meva va urug'larning bevosita o'z og'irligi ta'sirida to'kiliishi, tarqalishi.

**Batsilla** — spora hosil qilib ko'-payadigan tayoqchasimon bakteriyalar. Tabiatda keng tarqalgan. Patogen batsillalar odam va hayvonlarda kasallik qo'zg'atadi. Masalan, qoqshol, kuydirgi.

**Batraxologiya** — zoologianing suvda va quruqda yashovchi hayvonlarni o'rganuvchi sohasining eski nomi. Hozir gerpetologiya bilan qo'shilib ketgan.

**Bazal (tayanch) membrana** — qoplovchi va biriktiruvchi to'qimalarni chegaralab turadigan hujayralararo tayanch qavat yoki qatlam. Moddalarning shamilishi va diffuziyasi uchun to'siq hamda elastik tayanch vazifasini bajaradi. Ayrim a'zolardagi kabi tanlab o'tkazish xususiyatiga ega.

**Bazal tana, kinetosoma** — hujayra xivchini yoki kipriklari asosidagi mayda tanacha ko'rinishidagi tuzilma. Strukturasi, funkisiyasiga ko'ra sentrioliga o'xshaydi.

**Bazal, Asos** — biron-bir narsaning asosini tashkil qilgan, asosga taalluqli, asosida yotgan kabi ma'nolarga ega.

**Bazidiomitsetlar, bazidiyali zamburug'lar** — yuksak zamburug'lar sinfi. Maxsus ko'payish a'zosi — bazidiyalarga ega. Bularga yeyiladigan (masalan, oq zamburug') va zaharli zamburug'lar kiradi.

to'dalari ksilemaga ikki tomonidan yonma-yon o'ralgan bo'ladi. Masalan, qovoq poyasida.

**Bilateral simmetriya** — Ikkitonlama (qo'shtomonlama) simmetriya — biror organizm yoki a'zodagi ikki tomonining bir-biriga teng, monand (simmetrik) bo'lishi.

**Bilirubin** — o't suyuqligining sarg'ish-qizil tusli pigmenti. Biliverdindan hosil bo'ladi.

**Biliverdin** — o't suyuqligining yashil pigmenti; umurtqali hayvonlar jigarda, talog'i va iligida gemoglobinning parchalanishidan hosil bo'ladigan oraliq modda.

**Binomen, binar nomenklatura, qo'shnom** — tirik organizmlarning asosiy taksonomik kategoriyasi hisoblangan turni aniqlashda qo'llaniladigan qo'shnom bo'lib, birinchisi turkum (avlod) nomini bildiradi va katta harf bilan yoziladi, ikkinchisi esa tur nomini anglatadi.

**Bio...** — hayot ma'nosini bildiradi; hayotiy jarayonlar yoki hayotga aloqadorlikni anglatuvchi qo'shma so'zlar tarkibiy qismi.

**Bioakustika** — biologiya va fizikaning bir sohasi; hayvonlar tovushi (ovozi)ni va ularning tovush orqali bir-biri bilan aloqa bog'lashini, tabiiy exokoktorlar yordamida fazoda mo'ljal qila olish xususiyatlarini, shuningdek, tovush to'lqinlarining odam va hayvon organizmiga ta'sirini o'rganadi.

**Bioelektrik potensiallar** — tirik organizmlar hujayra va to'qimalarida yuzaga keladigan elektr potensiallari. Hayvon va odamda qo'zg'alish hamda tormozlanish, o'simliklarda ta'siranish jarayonlarida muhim ahamiyatga ega.

**Bioenergetika** — molekulyar biologiyaning bir bo'limi; tirik organizmlar hayat faoliyati davomida energiya aylanish mexanizmi, to'planishi va sarflanish jarayonlarini o'rganadi. B

**Biofabrika** — biologik qarshi kurash olib borish maqsadida foydali hasharotlar yoki boshqa biologik vositalarni ko'p miqdorda yetishtirib beradigan muassasa.

**Biofiltratsiya** — sanoat korxonalarini, chorva qarorgohlari yoki shaharlardan chiqadigan oqava suvni biologik yo'l bilan tozalash.

**Biofizika** — bir butun organizm, hujayra, to'qima, organlardagi fizik va fizik-kimyoviy xossalarni, biologik hodisalardagi fizik qonuniyatlarini, turli xil fizik omillarning tirik sistemalarga ta'sirini o'rganadigan fan.

**Biogaz** — qishloq xo'jaligi va turmush chiqindilarini qayta ishlash natijasida hosil bo'ladigan karbonat angidrid hamda metan gazining aralashmasi.

**Biogelmintlar** — tuxumdan chiqqan qurti (lichinkasi) oraliq xo'jayin (odam yoki hayvonlar)da parazitlik qilib, voyaga yetgach, asosiy xo'jayingga o'tuvchi parazit chuvalchanglarining umumiy nomi. Bularga trematodalar, sestodalar va ayrim nematodalar misol bo'ladi.

**Biogen elementlar** — organizm tarkibida doimo uchraydigan va ma'lum biologik ahamiyatga ega kimyoviy elementlar (uglerod, vodorod, kislorod, azot, fosfor va boshqalar).

**Biogen stimulyatorlar** — hayvon va o'simlik to'qimalarida noqulay sharoitga moslashish davomida hosil bo'ladigan biologik faol moddalar; organizm me'yorli funksiyasini tiklashga yordam qiladi.

**Bazidiosporalar** — zamburug'lar bazidiyasida hosil bo'ladigan sporalar. Odatda, har bir bazidiyada to'rttadan spora rivojlanadi.

**Bazidiya** — bazidiyalı zamburug'larning sporalar hosil qiluvchi jinsi organi. Odatda, to'g'nag'ichsimon hujayra ko'rinishida bo'lib, uning yuzasida bazidiospora rivojlanadi.

**Bazifil o'simliklar** — ishqoriy muhitda yaxshi o'suvchi o'simliklar.

**Bazikarpik mevalar** — pishgan dan keyin joyida qoladigan mevalar. Masalan, oshqovoq, qovun va hokazo.

**Bazipetal o'sish** — o'simlikning yonshoxlari yoki a'zolarining yuqoridan pastga qarab yo'nalishda o'sishi yoki rivojlanishi. Bunda poyaning yuqori qismida qari, quriyotgan, pastki qismida esa yosh shoxlarning yoki a'zolarning joylashishini kuzatish mumkin.

**Bazofiliya** — hujayra komponentlarining ishqoriy bo'yoqlar bilan bo'yaliish xossasi (q. *Atsidofiliya*).

**Bazofillar** — ishqoriy bo'yoqlar bilan bo'yalganda donadorligi yuzaga chiquvchi oq qon tanachalari.

**Bachadon** — odam va hayvonlarda urg'ochi jinsiy tizimning pastki ken-gaygan qismi. Yetilgan tuxum hujayralar vaqtinchalarda joylashadi. Tirik tug'uvchilarda embrion riojlanadi.

**Begona o't, yovvoyi o'simlik** — ekinzorlarda, qishloq xo'jalik ekinlari ichida o'sib, ular bilan birligida ozuqa elementlari, yorug'lik va namlikdan foydalanuvchi, natijada ekinlar hosildorligini kamaytiradigan o'simlik. **Begoniya** — ikki pallali o'simliklar turkumi. Buta yoki o'tsimon bir va ko'p yillik o'simliklar. Ko'pchilik turlari manzaralii o'simlik.

**Bekkross — Qayta duragaylash, takroriy chatishtirish** — birinchi avlod duragayini ota yoki ona individi bilan qayta chatishtirish. Bunda ma'lum genlar bo'yicha geterozigotali hisoblangan organizmni, shu genlari gomozigotali bo'lgan zotlar bilan chatishtiriladi.

**Bental** — mikroorganizm, o'simlik va hayvonlar yashovchi suv havzasini tubining yuza qismi yoki qatlami.

**Bentos — Suv osti organizmlari, bentos** — suv havzasini tubida yashovchi organizmlar majmui. Dengiz bentosi ko'pchilik baliqlar va boshqa den-giz hayvonlari uchun ozuqa, ba'zilari (suvo'tlari, krablar va baliqlar) dan inson ham foydalanadi.

**Bepushtlik, naslsizlik** — 1) yetuk organizmning nasli, avlod bera olmaslik xususiyati. 2) **Urug'sizlanish** — o'zidan changlanganda urug'lanmaslik, meva bermaslik.

**Berikssimonlar** — suyakli baliqlar turkumi.

**Beshiktervatlar** — hasharotlar turkumi.

**Beso'naqaylik, g'ayritabiylilik, mayib-majruhlik, anormallik** — organizm rivojlanish jarayonida yuz beradigan morfologik, anatomik, fiziologik va biokimiyoviy buzilishlar.

**Bezlar** — odam va hayvon organizmidagi fiziologik jarayonlarda ishtirok etuvchi moddalar (gормонлар, со'lak, shilliq modda va boshqalar) ishlab chiqarib, ajratadigan a'zolar.

**Bijg'ish, achish** — murakkab organik birikmalarning kislorod ishtirokisiz fermentlar yordamida parchalanish jarayoni. Spiritli achish, sutli achish va sirkali achish jarayonlariga bo'linadi.

**Bikollateral to'da, qo'shyonli to'da** — o'tkazuvchi to'da; bunda lub

**Biogenetik qonun** — tirik tabiat qonunlaridan biri; biror organizm individual taraqqiyoti (ontogenez) da shu tur qadimiy ajdodlari tarixiy rivojlanish (filogenez)idagi muhim bosqichlarning qichqacha takrorlanishi.

**Biogenez** — 1) organik moddalarning tirik organizmlarda hosil bo'lishi; 2) keng ma'noda tirik mavjudotlar faqat tirik mavjudotlardan hosil bo'ladi degan umumiy tushuncha (q. *Abiogenez*).

**Biogeografiya** — tirik mavjudot (mikroorganizm, o'simlik va hayvon)larning yer yuzida tarqalish qonuniyatlarini o'rganadigan fan. Bu fan ma'lumotlaridan biologiya, qishloq xo'jaligi va tibbiyotda foydalaniлади.

**Biogeotsenologiya** — biogeosenozlarning shakllanish qonuniyatları, vazifasi va rivojlanishini o'rganuvchi fan.

**Biogeotsenoz** — tabiatning ma'lum hududidagi modda va energiya almashinuvida o'zaro bog'liq jonli va jonsiz komponentlarining yagona tizimi.

**Biogeoximik halqalar** — biosfera ning turli komponentlari o'rtasida modda va energiya almashinuvi. Bular organizmlarning hayot faoliyati bilan bog'liq va siklik xarakterga ega.

**Biogeoximiya** — biosferadagi tirik organizmlar ishtirokida kechadigan geokimyoiy jarayonlarni o'rganuvchi fan sohasi; ma'lumotlaridan veterinariya va amaliy tibbiyotda foydalanadi.

**Bioindikatorlar** — biron-bir tabiyi jarayon yoki atrof-muhit sharoitining muhim holatini ko'rsatish uchun xizmat qiluvchi organizmlar. Bular yordamida foydali qazilmalar, atrof-muhitning ifloslanishi yoki boshqalar to'g'risida ma'lumot olish mumkin.

**Biokibernetika** — kibernetikaning texnik vositalari, g'oya va usullarini biologiyada qo'llaydigan ilmiy yo'naliш.

**Biokommunikatsiya** — hayvonlarning o'zaro aloqa bog'lashi. Bunda har xil signal (kimyoiy, mexanik, optik, akustik va hokazo)lar turli a'zolar (ko'rish, eshitish, ta'm-hid bilish va hokazo) yordamida qabul qilib olinadi.

**Biolaboratoriya** — qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandalarini va kasalliklarga qarshi kurashni biologik usullar bilan amalga oshiradigan va uni nazorat qiladigan muassasa. Bu yerda hasharotlarning tabiiy kushandalari (entomofaglar) ko'paytirilib, ekinzorlarga qo'yib yuboriladi va tabiatda ularning ko'payishiga qulay sharoit yaratiladi.

**Biolinlar** — organizmlar hayot faoliyati natijasida hosil bo'ladigan va yashash muhitiga ta'sir ko'rsatadigan gazsimon, suyuq hamda qattiq fizioligik faol moddalar.

**Biolitlar** — hayvon va o'simliklarning hayot faoliyati tufayli yoki ular qoldiqlарidan hosil bo'lgan tog' jinslari.

**Biologik drenaj** — juda yuqori suv bug'lantirish xususiyatiga ega bo'lgan tabiiy o'simliklar qoplamasi, daraxtlar va ayrim qishloq xo'jalik ekinlaridan yer osti suvlari sathini pasaytirishda foydalanish (masalan, bedadan).

**Biologik guruh** — biologik nuqtayi nazardan egalik qilish. Ma'lum bir joyni egallagan o'simlik va hayvon organizmlarining yig'indisi.

**Biologik ifloslanish** — ekotizimlarga oldin bu joylarda bo'lмаган begona o'simlik yoki hayvonlarning tasodifan yo'adam faoliyati tufayli kelib qolishi.

**Biologik kurash (himoya) usuli**

— qishloq xo'jaligi zararkunandalari, kasalliklari va begona o'tlarni yo'q qilish yoki ular ta'sirini xo'jalik uchun sezilarsiz holga keltirishda tabiiy kushandalardan foydalanish.

**Biologik mahsuldarlik** — o'simlik yoki hayvon populyatsiyasi tomonidan ma'lum vaqt birligida belgilangan maydonda ishlab chiqariladigan biomassa miqdori.

**Biologik mahsuldarlik** — u yoki bu ekotizim tarkibiga kiruvchi hayvon, o'simlik va mikroorganizmlar biomassasining ma'lum darajada qayta tiklanib turishi. Odatda, ma'lum vaqt mobaynida ma'lum maydon yoki hajmi (suv, tuproq) birligida yetishgan mahsulot massasi bilan ifodalanadi. Tor ma'noda odam foydalanadigan yovvoyi hayvon va o'simliklarning tiklanib turishi.

**Biologik mahsuldarlik (o'simliklarda)** — o'simlikda vegetatsiya davrida to'plangan organik moddalar miqdori.

**Biologik membranalar** — hujayra va uning ichki tuzilmalari (mitoxondriya, xloroplastlar, lizosoma, yadro va boshqalar)ni o'rab turadigan lipid — oqsil tarkibli juda mayda strukturalar. Tanlab ta'sir qilish xususiyatiga ega bo'lib, hujayra va uning tarkibiy qismlaridagi moddalar almashinuvi mahsulotlari miqdorini ular o'tkazilishini hamda almashinishini boshqaradi. Hozirgi zamon tushunchalariga ko'ra, biologik membranalar energiyaning bir turdan ikkinchi turga aylanishini ta'minlashda, fermentlarning faolligini boshqarishda, asab impulslari va hujayralararo informatsiyaning uzatilishida, gormonlarning funksional xususiyatlari va hu-

jayradagi boshqa jarayonlarni amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

**Biologik nomlash (nomenklatura)**

— bir-biriga yaqin organizmlar guruhi uchun biologiyada qabul qilingan ilmiy nomlar tizimi.

**Biologik nurlanish** — tirik organizmlarning o'zidan yorug'lik chiqarishi. Bu hayotiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan maxsus modda — lutsiferinlarning fermentativ oksidlanishi tufayli yuz beradi.

**Biologik oksidlanish** — barcha tirik hujayralarda kechadigan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalar yig'indisi. Bunda energiya hujayralarning sarflashi uchun qulay bo'lgan shakl — ATF ko'rinishida yoki energiyaga boy boshqa birikmalar holida to'planadi. Jarayon asosan mitoxondriylarda yuz beradi.

**Biologik regress** (qaytish) — turlarning miqdor jihatidan kamayishi, istiqomat hududlarining torayishiga va bora-bora shu sistematik guruuning so'nib, halok bo'lib ketishiga olib keladigan evolyutsion jarayon.

**Biologik ritmlar** — organizmda ro'y beradigan biologik hodisalar va jarayonlar xarakteri hamda jadalligining davriy (kunlik, mavsumiy va boshqalar) o'zgarishi; bu atrof-muhit o'zgarishlariga moslashish imkonini beradi.

**Biologik rivojlanish** (progress) — tur, kenja tur va boshqa taksonomik guruahlarning ko'payishi, yashash arealining kengayshi, individlar miqdorining ortishi bilan bog'liq evolutsion rivojlanish jarayoni. Bu yashash uchun kurash natijasida sodir bo'ladi.

**Biologik soatlar** — organizmning ko'pgina holat (xususiyat)larining ma'lum tartibda va ma'lum vaqt

oralig'ida o'lchovli ravishda bir tekisda takrorlanib turish hodisasi. Bunday hodisalar organizmning ichki (endogen) mexanizmlari yordamida vujudga keladi. Masalan, dukkakli o'simliklar bargining kunduzi gorizontal, kechasi vertikal holatda bo'lishi yoki inson tanasi haroratining ertalab minimal va kechqurun maksimal darajada bo'lishi.

**Biologik stansiyalar** — biror katta hududning o'simlik va hayvonlarini tabiiy sharoitda har tomonlama o'rganish uchun tashkil qilingan ilmiy tadqiqot muassasalari. Bu tashkilotlar iqlimlashtirish, baliqchilik, cho'llar va tog'li hududlarni o'zlash-tirish, tabiiy majmualarning biologik mahsulorligini oshirish kabi masalalar bilan shug'ullanadi.

**Biologik tizim** — vazifa jihatidan o'zaro bog'liq va yagona biologik obyektni hosil qiluvchi elementlar majmui. Bir biologik obyekt (hujayra, to'qima, a'zo, a'zolar tizimi, organizm, populyatsiya va hokazo) o'zi alohida yagona biologik tizimni va ayni paytda tizim qismi (elementi)ni tashkil etishi mumkin.

**Biologiya** — tirik organizmning tuzilishi, vazifasi, tarqalishi, kelib chiqish va rivojlanishi, tabiiy uyushmalar, sistematikasi, o'zaro va jonsiz tabiat bilan munosabatlarini o'rGANADIGAN ilmiy fanlar majmui. Biologiya hayotga xos barcha ko'rinish va xususiyatlar (modda almashinuv, ko'payish, irsiyat, o'zgaruvchanlik, sharoitga moslashish, o'sish, harakatlanish va boshqalar)ning umumiy hamda xususiy qonuniyatlarini tadqiq etadi.

**Biom** — biror geografik joy (masalan, tundra, cho'l va hokazo)dagi

hayvon va o'simlik turlarining majmui.

**Biomassa** — **Jonli massa** — o'zi yashab turgan maydon yoki hajm birligiga to'g'ri keladigan biron organizm (populyatsiya, tur, turlar guruhi, uyushmasi) massasi (og'irlig'i) yoki tirik modda energiyasi miqdori (kg/ga, kg/m<sup>3</sup>). Bular ho'l yoki quruq moddalar holida ifodalanadi. O'simliklar biomassasi fitomassa, hayvonlar biomassasi zoomassa deyiladi.

**Biomassaning o'sish darajasi** — populyatsiya tirik moddalarining ma'lum vaqt ichida miqdoriy ko'payishi.

**Biometriya** — biologik eksperimental tadqiqotlarni rejalashtirish va olin-gan ma'lumotlarni ishlab chiqishda matematik (variatsion) statistika usullaridan foydalanish.

**Biomexanika**, jonli mexanika — to'qima, a'zo va butun bir organizmlar sodir bo'ladigan mexanik xususiyatlar hamda hodisalarini o'rganadigan biologiya (biofizika va fiziologiya)ning bir bo'limi.

**Biomorfoz**, *bioshakllanish* — organizmdagi atrof-muhitga moslashish bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar.

**Biomuhit** — organizm uyushmalari hosil qiladigan yoki ular ta'sirida o'zgargan muhit. Biomuhit ma'lum biogeotsenoz yoki ekotizim tarkibiga kiruvchi turlar uchun qulay sharoit yaratadi.

**Bionavigatsiya** — hayvonlarning mavsumiy migratsiya (ko'chishi) davrida harakat yo'naliшини va yashash joylarini (qishlash yoki bolalash uchun mo'ljallab) topish xususiyatlari.

**Bionika** — kibernetikaning tirik organizmlar tuzilishi va hayot faoliyatini o'rganish asosida aniqlangan

qonuniyatlar hamda xususiyatlarni texnikaga tatbiq etish bilan shug'ullanuvchi bo'limi.

**Biont** — evolutsiya davomida ma'lum muhit (biotop)da yashashga moslashgan organizm. Ular aerobiont, gidrobiont, geobiont va boshqalarga bo'linadi.

**Biopolimerlar** — yuqori molekulali tabiiy birikmalar (oqsillar, nuklein kislotalar, polisaxaridlar) bo'lib, molekulasi ko'p marotaba takrorlanadigan kichik molekulali monomer yoki ularning qismlaridan iborat.

**Bioritm** — biologik jarayonlar va hodisalarning jadalligi hamda xarakteri davriy ravishda qaytarilib turadigan o'zgarishlari. Masalan, kecha va kunduz, yil fasllari o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan davriy o'zgarishlar.

**Bioritmlogiya** — biologik tizimlarda gi davriy jarayonlarni o'rganuvchi fan.

**Bioseston** — suvdagi muallaq (su-zib yuruvchi) tirik organizmlar.

**Biosfera** — tarkibi, tuzilishi va energetikasi qadimgi hamda hozirgi organizmlar faoliyati bilan bog'liq Yer qobig'i. Biosfera atmosferaning quyi qismini, gidrosfera va litosferaning yuqori qismini qamraydi. Ular moddalar va energiya migratsiyasi nati-jasida vujudga keluvchi murakkab biokimyoiv halqlar orqali chambarchas bog'langan.

**Biosfera qo'riqxonasi** — tabiiy muhit antropogen o'zgarishlarini instrumental o'lchagichlar va maxsus bioindikatorlar yordamida doimo ku-zatib turiladigan yer maydoni. Bu yerda tabiiy komplekslarni muhofaza qilish bilan birga, ilmiy-tekshirish ishlari olib boriladi va tabiatni muhofaza qilish to'g'risida ma'lumotlar to'planadi.

**Biosfera turg'unligi** — biosfera ning tashqi (kosmik) va ichki (tirik organizmlar yashayotgan atrof-muhit) qarshiliklarga, shu jumladan, antropogen ta'sirlarga ham bardosh beresh xususiyati.

**Biosintez** — fermentlar yordamida oddiy moddalardan organik birikmalar (oqsil, nuklein kislotalar, polisaxaridlar)ning hosil bo'lish jaryoni.

**Biota** — biron-bir katta hududda yashovchi, tarixiy shakllangan tirik organizmlar majmui. Biotada turlararo ekologik munosabatlar tushunilmaydi.

**Biotexniya** — tabiiy sharoitda foydali yovvoyi hayvonlarni qo'riqlash, ko'paytirish, mahsulorligini yaxshilash hamda ulardan ratsional foydalanishga oid o'tkaziladigan tadbirlar tizimi. Bu ishlar qo'riqxonalar, ovchilik xo'jaliklari va boshqalarda amalga oshiriladi.

**Biotexnologiya** — biologik jarayonlar va omillardan sanoat miqyosida foydalanish. Bunga gen muhandisligi, to'qimalar hamda hujayralarni o'stirish usullari yordamida aminokislotalar, gormonlar va boshqa moddalarni sanoatda ishlab chiqarish, yem-xashak achitqlari, fermentlar, antibiotiklar va boshqalarni mikrobiologik yo'l bilan sintez qilish usullari kiradi.

**Biotik omillar, tirik omillar** — tirik organizmlarning o'z hayot faoliyati bilan o'zaro bir-biriga ta'siri. Masalan, inson faoliyatining tabiatga ta'siri.

**Biotik quvvat, biotik potensial** — organizmning tashqi muhit omillari noqulay ta'siriga qarshilik qilish qobiliyati. Vaqt birligida bir individ

hisobida populyatsiyaning o'sishi bilan ifodalanadi.

**Biotik uyushma** — fizik va biotik omillar (raqobat, o'lja-yirtqich munosabatlari) orqali o'zaro bog'liq hayvon hamda o'simliklar majmui.

**Biotin, N vitaminini** — suvda eruvchi vitaminlar guruhiga kiradi. U tabiatda keng tarqalgan. O'sirnlik va mikroorganizmlarda hosil bo'ladi. Bu vitamin yetishmasa, butun organizm qipiqlashadi, soch to'kiladi, tiroqlarning shikastlanishi kuzatiladi. Asosiy manbalari: karam, qizilquyruq, qoqio't, otqulog, kungabogar.

**Biotiplar** — populyatsiya tarkibida gi o'xshash genotipli individlar majmui.

**Biotop** — ma'lum biotsenozi egallagan relyefi, iqlimi va boshqa abiotik omillari o'xshash bo'lgan joy. Biotop organizmlarning tur tarkibi va ularning yashash xususiyatlarini ham belgilab beradi.

**Biotroflar** — geterotrof organizmlarga mansub bo'lib, boshqa tirik organizmlar bilan oziqlanadigan organizmlar. Masalan, fitofaglar va zoofaglar.

**Biotsenologiya** — biotsenozlarni ularning tuzilishi, rivojlanishi, atrof-muhit bilan o'zaro munosabati, kelib chiqishi va biron-bir makonda tarqalishini o'rzanadigan fan.

**Biotsenoz** — yashash sharoitlari ma'lum darajada bir xil bo'lgan hudud (masalan, ko'l, o'tloq)ni egallagan o'simlik, hayvon va mikroorganizmlar majmui.

**Biotsid** — barcha tirik organizmlar ni o'ldiradigan kimyoviy yoki biologik modda.

**Biotsikllar** — 1) biosferaning yirik bir qismi. 3 xil biotsikl mavjud: quruqlik, dengiz (okean) havzasi va chuchuk suvlari. Bular o'z navbatida bioxorlarga bo'linadi; 2) organizm rivojlanishida ro'y beradigan muayyan davrlar yoki bosqichlarning qonuniy almashinishi.

**Bioximiya** — tirik organizmlar kimyoviy tarkibini, ularda uchraydigan kimyoviy birikmalar tuzilishi, vazifasi, kimyoviy xossalari, hosil bo'lish va parchalanish yo'llarini o'rganadigan fan.

**Bioxor** — bir-biriga o'xshash biotoplar guruhini o'z ichiga olgan biosferaning yirik qismi. Bioxorlar o'zaro birlashib, biotsikllarni hosil qiladi.

**Bipolyarlik, qo'shqutblik** — biron-bir tur yoki boshqa taksonomik birliklarga oid individlarning ham shimaliy, ham janubiy kengliklarda tarqalgani holda subtropik va tropik zonalarda uchramasligi.

**Bir jinsli gul** — urug'chi yoki changchisi yo'q gul.

**Bir pallalilar** — murtaklari bitta urug' pallali sodda gul tuzilishiga ega gulli o'simliklar sinfi.

**Bir uyli o'simliklar** — **Bir jinsli** — changchi hamda urug'chi gullarining bir o'simlikda bo'lishi. Masalan, makko'xori, bodring.

**Bir xujayrali organizmlar** — tanasi bitta hujayradan iborat organizmlar. Ular prokariot yoki eukariot bo'lishi mumkin. O'lchami turlich. Masalan, xivchinlilar, infuzoriyalar, ulkan suvo'tlari.

**Bir yillik o'simliklar, terofitlar** — hayot jarayoni bir vegetatsion davr (mavsum) da tamom bo'ladigan o'simliklar.

**Biriktiruvchi to'qima** — mezoderma hosilasi mezenxima to'qimasidan rivojlangan va organizmda biriktirish, zarbani yumshatish, tayanch, himoya va boshqa vazifalarni bajaradigan to'qima. Masalan, suyak va tog'ay to'qimalari, shuningdek, qon hamda limfa ham shu to'qimalar qatoriga kiritiladi.

**Birlamchi hujayra qobig'i** — o'sayotgan hujayralar qobig'i. Pektin va gemitselluloza molekulalaridan tashkil topgan murakkab polisaxaridli matriks bilan qoplangan sellulozning mustahkam tolalaridan iborat.

**Birlamchi mahsuldarlik** — yashil o'simliklar va boshqa avtotrof organizmlar tomonidan ozuqa moddalari hamda energiyaning to'planish tezligi.

**Birlamchi nasl almashinish** — ilgari hayot bo'limgan joyda yangidan paydo bo'lgan hayot belgilarining ketma-ket rivojlanib, almashinishi (masalan, qoyatoshlarda).

**Birlamchi qanotsizlar** — eng qadimiylar hasharotlar. Yetuk individrlari azaldan qanotsiz.

**Bitlar** — qon so'ruvchi hasharotlar turkumi. Sut emizuvchi hayvonlar va odamda parazit holda yashaydi. Hayvon biti odamga o'tmaydi; bit tuxumlari (sirkalar) soch yoki kiyim iplariga yopishgan bo'ladi. Bitlar turli kasallikkarni tarqatishi mumkin. Ularning ko'payishi gigiyena qoidalaring buzilishi bilan bog'liq.

**Bivalent, gemini** — meyozda o'zaro yondoshgan bir just gomologik xromosomalar. Ularning soni gaploid to'plamdagagi xromosomalar soniga teng bo'lib, har biri yana uzunasiga ikkita xromatidaga bo'lingan. Shunday qilib bivalent to'rtta xromatid hosil qiladi.

**Blastotsel, pusht bo'shlig'i, birlamchi bo'shliq** — ko'pchilik blastulalar bo'shlig'i.

**Blasto...** — pusht, kurtak, o'simta; pushtga aloqadorlikni bildiruvchi murakkab so'z tarkibiy qismi.

**Blastoderma, pusht qavatlanishi** — blastula devorini tashkil qiladigan bir yoki bir necha qavatdan iborat hujayralar to'plami.

**Blastogenez, pusht kurtaklanishi** — ko'p hujayrali hayvon organizmning jinssiz (vegetativ) ko'payishidagi individual taraqqiyoti. Odatda, embrionedan farqlanib, rivojlanish davri tuxumdan emas, balki kurtakdan boshlanadi.

**Blastomerlar, pusht qismlari** — ko'p hujayrali hayvonlar tuxumining mitoizza bo'linishi natijasida hosil bo'ladigan bir xildagi hujayralari. Bu hujayralar o'sish xususiyatiga ega emas.

**Blastopor, pusht teshikchasi, birlamchi og'iz, gastropor** — ko'pchilik ko'p hujayrali hayvonlarning ikki qavatlari embrionida gastrulaning muhit bilan aloqasini ta'minlaydigan teshikcha.

**Blastotsista, pusht pufakchasi** — sut emizuvchi hayvonlar embrional taraqqiyoti davrida morula bosqichidan keyingi pufakchali fazasi.

**Blastula, pusht kurtakchasi** — ko'p hujayrali hayvonlar embrional rivojlanishidagi bosqich. Bu davrda tuxumning blastomerlarga bo'linishi butunlay tugallanadi.

**Blastulatsiya** — ko'p hujayrali hayvonlar tuxumi. Bu jarayonda blastulalar hosil bo'ladi.

**B-limfotsitlar** — timusga bog'liq bo'limgan holda fabritsiyev xaltachalarda yoki ilikda rivojlanuvchi limfotsitlar. Bular asosan zidditanachalarning hosil bo'lishini boshqaradi.

**Bokalsimon hujayralar** — umurtqalilar havo yo'llari va ichaklarining shilliq pardasi epiteliy qavatida joylashgan bezsimon hujayralar.

**Boreal, shimoliy** — o'simlik, hayvon turlari, geografik viloyatlar va boshqa shu kabilarga nisbatan olin-ganda shimolga aloqadorlikni bildiradi.

**Botanik geografiya, fitogeografiya** — o'simliklar dunyosining yer yuzida tarqalishi qonuniyatlarini o'rganadigan fan.

**Botanika bog'lari** — ilmiy tadqiqot o'quv va madaniy-maorif muassasa-si, unda tirik o'simliklar kolleksiyasi yig'ilib, ular asosida planetamiz o'simliklarining xilma-xilligi hamda boyliklari o'rganiladi.

**Botanika, nabotot** — biologyaning asosiy bo'limlaridan biri; o'simlik-larning tuzilishi, hayot faoliyati, tarqalishi, sistematikasi va evolutsiyasi kabilarni o'rganadigan fan.

**Botqoqlanish** — tuproq namligi-ning keskin ortishi. Bu tuproq faunasi va florasi hamda shu yerlarning hayvonot dunyosining o'zgarishiga olib keladi.

**Botqoqlik** — namligi me'yordan ortiq va namsevar o'simliklar bilan qoplangan yer yuzasi.

**Botrik to'pgul** — monopodial shoxlarining uchki gullari keyin ochiladi-gan to'pgullar (masalan, shoda, boshqoq, so'ta).

**Bosh miya** — umurtqali hayvonlar va odam markaziy asab tizimining oldingi qismi; kalla bo'shlig'ida joylashgan. Oliy asab faoliyatining mod-diy negizi. Endokrin tizim bilan bir qatorda organizmning barcha muhim hayotiy vazifalarini boshqaradi.

**Bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'i** — odam va sut emizuvchi

hayvonlar bosh miya katta yarim sharlarini o'rab turuvchi (1—5 mm qalinlikdagi) kulrang moddadan tashkil topgan yuza qatlam. Bu qism oliy asab faoliyatida muhim ahamiyatga ega.

**Bosh poya** — o'simlikning asosiy poyasi, undan yon shoxchalar chi-qadi.

**Boshsuyaksizlar, boshskeletsizlar** — tuban xordali hayvonlar. Bular da tananing bosh qismi ajralmag'an, bosh suyak esa umuman bo'lmaydi. Keng tarqalgan vakili — lansetnik.

**Bosh-ko'krak** — ba'zi bo'g'imoyoqlilarning bosh hamda ko'krak bo'g'imlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan qismi.

**Boshhoq** — gullari poya uchidagi gulpoyada bandsiz yoki qisqa band bilan joylashgan to'pgul. Masalan, bug'doyda.

**Boshoyoqli molluskalar** (yumshoq tanlilar) — yuqori darajada tuzilgan dengiz molluskalari sinfi. Tana uzunligi paypaslagichlari bilan 1 sm dan 18 m gacha (bahaybat kalmarlar). Barcha dengizlarda (chuchuklaridan tashqari) keng tarqalgan.

**Boshqaruvchi genlar, regulatoryor genlar** — strukturali genlar harakati ni boshqaruvchi, oqsil-repressorlar sinteziga javob beruvchi genlar.

**Bradikardiya** — yurak urishining sekinlashuvi (bir daqiqada 60 tadan kam); asosan sog'lom odamlarda kuzatilib, me'yorli holat hisoblana-di.

**Brakonyer, zararkash** — qonuniy ravishda man qilingan joylarda ov qiladigan, baliq tutadigan, o'rmondag'i daraxtlarni kesadigan, giyohlarni teradigan va shu kabilalar bilan shug'ul-anadigan shaxs.

**Braximorflik** — odamning keng gavda va qisqa qo'l-oyoqli tuzilishi tipi.

**Braxizavrilar** — trias davrida yashab, qirilib ketgan qadimgi sudralib yuruvchilar turkumi (og'irligi 50 t gacha).

**Briologiya** — botanikaning bir bo'limi; yo'sinlar tuzilishi, tarqalishi, sistematikasi va ekologiyasini o'rganadi.

**Brontazavr, apatozavr** — yura davrida yashagan, o'simlik bilan ovqatlangan, to'rt oyoqli, tana uzunligi 20 metrga yetadigan qadimgi sudralib yuruvchi hayvon.

**Bronxial «daraxt»** — bronxlar o'pkada juda mayda ayrisimon tarmoqlarga bo'linib (18—19 martagacha), bronxial «daraxt»ni tashkil etadi.

**Bronxiolalar** — sut emizuvchi hayvonlar bronxlarining o'pkadagi oxirgi tarmog'i.

**Bronxlar** — quruqlikda yashovchi umurtqalilar traxeyasidan tarqalgan havo o'tkazuvchi naysimon tarmoqlar. Bu kanalar, barcha birlamchi qanotsizlar, to'g'riqanotlilar, tengqanotlilar va boshqalarga xos.

**Bufadiyenolidlar** — o'simlik va hayvonlardan olinadigan, yurakka ta'sir ko'rsatuvchi steroidli birikmlar.

**Bujg'un, g'uddalar** — o'simlik to'qimalarining viruslar, bakteriyalar, zamburug'lar, nematoda va boshqalar ta'sirida g'ayritabiiy o'sib ketishi. Ularni barg, poya, mevalarda kuzatish mumkin. Pista, eman daraxtlaridagi bujg'un oshlovchi moddalarga boy.

**Bulutlar** — umurtqasiz hayvonlar tipi. Kurtaklanib koloniylar hosil qiladi. Koloniyalarning bo'yisi 1,5 m gacha boradi.

**Bungarotoksinlar** — o'ta zaharli polipeptidlар. Bungaralar urug'iga mansub ilondan ajratib olingan.

**Burgalar** — qon so'ruvchi hasharotlarning turkumi.

**Burma to'pgul** — to'pgulning bir turi. Uning asosiy bir gulli o'qidan ikki yonboshga ketma-ket bir gull o'qlari chiqadi (masalan, ilongulda).

**Buyrak usti bezlari** — odam va hayvonlar buyrak ustidagi ikkita kichkina bez — endokrin a'zo. Miya va po'stloq qismlardan tashkil topgan.

**Buyraklar** — umurtqali hayvonlardagi organizm uchun keraksiz moddalarni ajratuvchi organ. Buyraklar shakli har xil organizmlarda turlicha. Masalan, baliqlarda tasmasimon, qushlarda bir necha palladan iborat, sut emizuvchilarda loviya shaklida. Asosiy vazifasi siyidik hosil qilish va uni ajratish.

**Bo'g'im oralig'i** — o'simlik poyasining ikki bo'g'im oralig'i.

**Bo'g'imoyoqlilar** — umurtqasiz hayvonlar tipi. 1,5 mln ga yaqin suvda, quruqda yashovchi va parazit turлari ma'lum. Tanasi xitinli kutikula bilan qoplangan. Kasallik qo'zg'atuvchi, zaharli va parazit xillari bor.

**Bo'g'in** — tuzilishi, ko'payish usuli va boshqa jihatdan o'xhash bo'lib, hayot davriyligi davomida bir-birining o'rnini qonuniy egallovchi tur shakllari.

**Bo'g'in (avlod) almashinishi** — ba'zi organizm (kovakichlilar, bo'g'imoyoqlilar)larda jinsiy va jinssiz avlodlarning navbat bilan almashinib turishi.

**Bo'g'ma ilonlar** — ilonlar turkumining kenja oilasi. Uzunligi 10 m gacha. Boshqa ilonlardan ko'z ustki

suyaklarining yo'qligi bilan farqlanadi. Ko'pchiligi tropik va subtropik zonada yashaydi. O'ljasini bo'g'ib o'ldiradi. Masalan, anakonda.

**Bo'linish** — pusht rivojlanishidagi boshlang'ich bosqichlarda tuxum hujayraning bir tekis ketma-ket bo'linishi. Bunda tuxumhujayra kattaligi o'zgarmagan holda juda ko'p mayda hujayralar — blastomerlarga ajraladi. Barcha ko'p hujayrali hayvonlar ontogeneziga xos.

**Bo'linish urchug'i** — hujayra bo'linishi arafasida hosil bo'ladigan mikronaychalar tizimi. Xromosomalarining hujayra ikki tomoniga (qutb-

larga) qarab harakat qilishini ta'minlaydi.

**Bo'r davri** — mezozoyning uchinchi davri. Paleogendan oldin, yura davridan keyingi davr. Bu davrda yirik sudralib yuruvchilarining ko'pgina turlari, tishli qushlar, suyakli baliqlar tarqalgan. O'simliklardan qirqulloqlar, ochiqurug'lilar va oxirida gulli o'simliklar ko'plab o'sgan.

**Bo'rtish, bo'kish** — urug'ning unish oldidan suvni shimb, hajmining kattalashishi.

**Bo'taloqlar, tuyabo'yinlar** — hasharoqlar turkumi. Boshqa hasharoqlarning lichinkasi (qurti) va tuxumlari bilan ovqatlanadi.

## D

**Daltonizm** — rang (asosan qizil va yashil) farqlashning buzilishi.

**Damanlar — Jiryaklar** — sut emizuvchi hayvonlar turkumi. Osiyo va Afrikada keng tarqalgan. Ko'rinishi kemiruvchilarga o'xshaydi. Yerda va daraxtlarda yashaydi.

**Danakli meva** — etli yoki yumshoq shirador qavat va qattiq danakdan tashkil topgan meva. Masalan, shaf-toli, olcha va boshqalar.

**Dandon tishlar** — fil, morj, yovvoyi cho'chqa kabi sut emizuvchi hayvonlarning kuchli rivojlangan qoziq yoki kurak tishlarining umumiy nomi.

**Daraxtzorlash, o'rmonlashtirish** — ochiq yerkarta, eroziyaga uchragan maydonlarga urug'lar sepish yoki ko'chatlar o'tkazish yo'li bilan daraxtzorlar, o'rmonlar hosil qilish.

**Darvinizm** — Ch. Darwin ta'llimatiga asoslangan, organik dunyo rivojlanishining umumiy qonuniyat-

lari haqidagi nazariya. Shunga ko'ra, evolutsiya asosan o'zgaruvchanlik, irsiyat va tabiiy tanlanishning o'zarota'siri natijasida amalga oshadi. Yangi belgi va xususiyatlar asosan o'zgaruvchanlik tufayli vujudga keladi. Irsiyat uni mustahkamlaydi, tabiiy tanlanishda esa sharoitga moslasha olmagan organizmlar nobud bo'ladi va nihoyat yangi turlar shakllanadi.

**Dasta to'pgul, soxta soyabon — to'pgul xili.**

**De... (dez.., dezo...)** — qo'shma so'zlarda yo'qotish, to'xtatish, xoli bo'lish, inkor etish ma'nolarini anglatadi.

**Defoliantlar** — barg to'kuvchi mod-dalar. Asosan g'o'za bargini to'kishda foydalilanildi.

**Degeneratsiya, buzilish, aynish, aslidan chekinish** — organizm ontogenezida a'zo va to'qimalar tuzi-

lishining soddalashuvi yoki reduksiysi; masalan, itbaliqning baqaga aylanishida dumining yo'qolishi.

**Degidrogenazalar** — oksidoreduktaza sinfiga mansub fermentlar. Kimyoviy birikmalarning biridan vodorodni olib boshqasiga berish reaksiyalarini kataliz qiladi.

**Dekapitatsiya, chilpish, boshsizlantirish** — 1) poyaning uchki o'sish nuqtasini olib tashlash; 2) fiziologik va biokimyoviy tadqiqotlar maqsadida hayvonlarni boshsizlantirish.

**Dekarboksilazalar** — liza sinfiga mansub fermentlar. Aminokislota yoki ketokislotalar karboksil guruhini ajratish reaksiyalarini katalizlaydi.

**Dekonyugatsiya, ayirish, ajratish, uzilib qolish** — profazadan oldin qo'shilib qolgan xromosomalarini ajratish.

**Dekortikatsiya — Po'stloqsizlantirish** — 1) daraxt po'stloqlarini olib tashlash; 2) tadqiqot maqsadlarida bosh miya po'stloqlarini qisman yoki butunlay olib tashlash.

**Dekstrinlar** — tirik organizmlarda kraxmalning qisman fermentativ parchalaniши natijasida hosil bo'ladigan oraliq modda.

**Deletsiya, tushib qolish, yo'qolish** — xromosomalarda ayrim qismlarining yoki DNK molekulasida ayrim nukleotidlarining tushib qolishi yoki yo'qolishi.

**Delfintilar** — dengiz sut emizuvchi hayvonlari kenja oilasi. Tana uzunligi 1,2—10 m gacha. To'da bo'lib yashaydi. Markaziy asab tizimi murakkab tuzilgan. Juda ko'p axborotni qayta ishslash, shuningdek odam ovoziga javob berish xususiyati rivojlangan. Laboratoriya hayvoni sifatida delfinariyalarda boqiladi.

**Delignifikatsiya — Ligninsizlantirish, lignindan tozalash** — sellulozaning qayta ishslash texnologiyasida qo'llaniladi. Masalan, kanop tolalari olishda.

**Demografik jadval** — populatsiyadagi har bir individning ma'lum yoshgacha yashash darajasi va ularning har yoshdagi pushtdorligi to'g'risidagi muhim statistik ma'lumotlar majmui.

**Denaturatsiya** — biopolimerlarni qizdirish, kimyoviy ishlov berish va boshqalarda tabiiy fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlarining buzilishi.

**Dendrariy, daraxtzor** — xilma-xil daraxt va butalar ekilib, ulardan ilmiy, o'quv va madaniy-oqartuv maqsadlarda foydalaniladigan botanika bog'i yoki uning bir qismi.

**Dendrit, asab uchlari** — asab hujayralarining sezuvchi o'simtlari; nevron tanasiga asab impulslarini o'tkazish vazifasini bajaradi.

**Dendrobatsillin** — kristallar hosil qiluvchi sporali bakteriyalar asosida olinadigan bakterial preparat.

**Dendrologiya** — botanikaning daraxt, buta va butachalar morfologiyasi, sistematikasi, ekologiyasi, geografiyasini o'r ganuvchi sohasi.

**Denitrifikatsiya, nitratsizlantirish** — bakteriyalar yordamida nitratlarining molekulyar azotgacha qaytarish jarayoni.

**Deplazmoliz** — hujayraning plazmoliz holatidan turgor holatiga qaytish jarayoni.

**Derma** — umurtqali hayvonlar va odam terisining biriktiruvchi to'qimali qismi.

**Dermatologiya** — tibbiyot bo'limi; teri va uning hosilalari (soch, tirnoq)ning tuzilishi, fiziologik vazifalari, kasalliklari va ularning sabablari, di-

agnostika, davolash va profilaktika usullarini o'rganadi.

**Desikantlar, qurutuvchi moddalar** — o'simlik to'qimalarini suvsizlantirib, quritish xususiyatiga ega kimyoviy moddalar. Meva yetilishini tezlatadi va hosil yig'imini osonlashтиради.

**Desmon** — o'sish jarayonining sitoplazmatik omili.

**Desmosomalr** — hayvon hujayralari yuzasidagi tuzilmalar. Hujayralararo aloqani amalga oshiradi.

**Detergentlar** — hujayraning membrana tuzilishlarini parchalovchi moddalar. Masalan, natriy detsesulfat.

**Detoksikatsiya, zaharsizlantirish** — zahar va zaharli moddalarni zararsizlantirish.

**Detrit** — nobud bo'lgan o'simlik va hayvonlarning suv havzasini tubiga cho'kkani yoki undagi muallaq parchalari. Detrit suv hayvonlari uchun yaxshi ozuqa.

**Devastatsiya, qirish** — gelmintoz va boshqa kasalliklar qo'zg'atuvchilariga qarshi qirib tashlashga oid tadbirlar qo'llash. Atamani rus olimi K. G. Skryabin taklif etgan.

**Deviatsiya, og'ish** — organizm individual rivojlanishining o'rta bosqichlarida biron-bir a'zo shakllanishining og'ishi natijasida yangi belgilarning paydo bo'lishi.

**Devon davri** — paleozoy erasining to'rtincha davri (Buyuk Britaniyadagi Devonshire grafligi nomi bilan bog'liq). Bu davorda qirqulloqsimonlar juda rivoj topgan.

**Dezaminlash** — organik moddalardan amin guruhining ajralib chiqishi.

**Dezoksiribonukleazalar** — gidrolazalar sinfiga mansub fermentlar. Dezoksiribonuklein kislotalarning parchalanish reaksiyalarini kataliz qiladi.

**Dezoksiribonuklein kislotasi** (DNK) — nuklein kislotalaning bir turi. Tirik organizmlarda irlari belgilarni saqlash vazifasini bajaradi. Asosan, hujayra yadrosida, qisman mitoxondriya va xloroplastlarda bo'ladi.

**Dezoksiriboza** — oddiy uglevod; dezoksiribonuklein kislotalaning shakar komponenti.

**Dezokshakarlar** — bir yoki bir nechta gidroksil guruhi vodorod bilan o'r'in almashgan monosaxaridlar.

**Diabet** — organizmdan ko'p siydiq va u bilan haddan tashqari ortiq ba'zi kimyoviy moddalarning chiqib ketishidan rivojlanadigan bir qator kasalliklar. Bir necha xili mavjud: qandli diabet — organizmda insulin tanqisligi; qandsiz diabet — gipotalamus vazifasining buzilishi; buyrak diabeti — qonda qand miqdori me'yordi bo'lsa-da, siydiq hamda qandning chiqib ketishi bilan bog'liq va hokazolar.

**Diafragma — Parda**, 1) odam va hayvon organizmiga xos ko'krak bilan qorin o'rta sidagi mushak-payli to'siq-parda; 2) donli o'simliklar, qirqbo'g'implar va soyabonguldoshlarining moyasidagi havo bilan to'la oraliqlarni bo'g'implarda bir-biridan ajratib turadigan hujayralardan iborat parda.

**Dializ, ajratish** — yuqori molekulalari birikmalardan membrana orqali diffuziya yo'li bilan quyisi molekulalari moddalarni ajratish jarayoni.

# D

**Diapauza, *tinim*** — hayvonlarda rivojlanish davri (*shakllanish*)ning vaqtinchalik fiziologik to'xtashi. Tashqi muhitning noqulay sharoitlari bilan bog'liq.

**Diaspora** — o'simlikning organizmdan tabiiy holda ajralib, ko'payuvchi hamda tarqaluvchi qismi. Masalan, sporalar, urug'lar, meva (generativ diasporalar) va boshqalar.

**Diastola, *kengayish*** — yurak mu-shaklarining bo'shashuvi va natijada bo'shlqlarning qonga to'lishi.

**Diatom suvo'tlar, *kremniyli suvo'tlar*** — sariq rangli yakka yoki koloniya bo'lib yashaydigan bir hujayrali suvo'tlar. Bularga ikki pallali kremniyli qattiq qobiq xos.

**Diatropizm, *ko'ndalang tropizm*** — o'simlik a'zolarining ta'sir qiluvchi omillarga nisbatan perpendikular joylashuvi. Ko'pincha o'simlik barglariga xos.

**Diffuziya — Singish, *tarqalish*** — molekulalar, atomlar, ionlarning tartibsiz harakati tufayli bir-biri bilan aralashib, birining ikkinchisiga singib ketishi.

**Diffuziyali parenxima** — yog'ochlikdagi yillik halqa bo'ylab tekis tarqalgan parenxima.

**Diktiosomalar** — hayvon hujayralaridagi Golji apparatining tarkibiy qismi; o'simlik hujayralarida diktiosomalar ixtisoslashgan.

**Diloq, *jinsiy qin*** — 1) ayollar jinsiy organining bachadondan keyingi bo'limi; 2) barg qini, barg novi — bargning nov shakliga ega pastki kengaygan qismi, poyaga birikkan joyini o'rab turadi.

**Dimeriya** — bir belgining ikki juft allelomorf genlar bilan ifodalanishi.

**Dimorfizm** — bir turga mansub individlar orasida tashqi ko'rinishi bilan keskin farq qiluvchi ikki xil shaklning mavjudligi. Jinsiy dimorfizm, mavsumiy dimorfizm va boshqa xillari uchraydi.

**Dinozavrlar, *bahaybat kaltakesaklar*** — qirilib bitgan sudralib yuruvchilarning katta turkumi. Bular trias davridan bo'r davrigacha keng tarqalgan. Uzunligi 30 m gacha bo'lган. O'rta Osiyoda qoldiqlari topilgan.

**Dipeptidlar** — ikki aminokislota qoldig'idan tashkil topgan birikmalar.

**Diploid** — hujayrasi gormologik juft xromosomalar to'liq to'plamiga ega organizm.

**Diplokokklar** — odatda juft bo'lib joylashgan sharsimon, yumaloq bakteriyalar.

**Dipterologiya** — zoologiyaning qo'shganotli hasharotlarni o'rganadigan sohasi.

**Disaxaridlar** — ikki monosaxarid qoldig'idan tashkil topgan shakarlar.

**Diskomitsetlar** — xaltali zam-burug'lar guruhi. O'simliklarda kasallik qo'zg'atuvchi va yeylimadigan turлari (qo'zigorinlar) bor.

**Dissimilyatsiya** — tirik organizmlarda organik birikmalarning energiya ajratishi bilan bog'liq parchalanish reaksiyaları. Nafas olish va bijg'ish asosiy dissimilyatsion jarayonlar hisoblanadi.

**Distrofiya** — ovqatlanishning buzilishi.

**Disulfid bog'lar** — sulfgidril guruhlardagi oltingugurtlararo kovalent bog'lanish. Oltingugurtli aminokislotalar o'rtaida hosil bo'ladi va oqsilning tuzilishida katta rol o'ynaydi.

**Divergensiya, *chetlashish, farqlanish*** — evolutsiya davomida umumiy bir ajdoddan tarqalgan organizm

belgilaringin farq qila borib, bir-biridan uzoqlashishi. Turli sharoitda yashash va tabiiy tanlanishning har xil yo'nalishda borishi natijasidir. Fanga Ch. Darwin kiritgan. Asosan tabiatdagi biologik turlarning, hayvon zotlari va o'simlik navlarining turlitumanligini tushuntirish uchun qo'llaniladi (q. *Konvergensiya*).

**Dixogamiya** — o'simliklarda jinsiy a'zolar (changchi va urug'chi) ning turli muddatlarda yetilishi. Bu — gulni o'zidan changlanishiga to'sqinlik qiladi.

**Dixotomik shoxlanish** — **Ayri shoxlanish** — o'sish konusi ikkita o'sish nuqtasiga ajralib, ikkita bir xil yoki deyarli bir xil shox hosil qilib rivojlanish.

**Dixromofilyatsiya** — **Ikki rang-lilik** — organizm to'qima va hujayralaring ishqoriy hamda nordon bo'yoqlar yordamida rang hosil qilish xususiyati.

**Dofamin** — neyrogormon; asab tizimining mediatori.

**Doim yashil o'simliklar** — barglari yil davomida yashil turuvchi o'simliklar; tropik mamlakatlarda ko'p uchraydi, mo'tadil va sovuq zonalarda esa asosan ninabargli daraxtlar doim yashillik xususiyatiga ega.

**Dokembriy, tokembriy, kripto佐** — yer tarixida paleozoydan oldingi davr. Bu davrda suvda dastlabki bir hujayrali organizmlar — suvo'tlar va bakteriyalar paydo bo'lgan.

**Domestikatsiya, xonakilashtirish** — yovvoyi hayvonlarni uy sharoitiga o'rgatish.

**Dominant belgi, ustun belgi** — duragay organizm birinchi naslida ota yoki ona o'simlikka xos belgilardan birontasining ustun bo'lishi.

**Dominantlar — Ustun turlar** — fitosenozning turli yaruslarida soni va hajmi jihatidan ustunlik qiluvchi o'simlik turlari.

**Dominantlik, ustunlik** — allel irsiy belgilari — genlarning o'zaro munosabati; bunda allelning biri ikkinchisiga nisbatan kuchliroq ta'sir ko'rsatadi.

**Don** — donli va dukkakli don o'simliklarining mevasi, urug'i.

**Donli ekinlar** — bir pallali o'simliklar.

**Donning shira olishi** — donli o'simliklarning rivojlanish bosqichlidan biri. Bu davrda don tarkibidagi organik moddalar to'planib, suv miqdori esa kamayadi.

**Donor** — o'z qoni, a'zo yoki to'qimasini davo maqsadida ixtiyoriy topshiruvchi shaxs.

**Dorivor o'simliklar** — farmatsevtika, tibbiyotda odam va hayvonlarni davolashda foydalilanligan, tarkibida organizmga fiziologik ta'sir qilish xususiyatiga ega moddalari bor shifobaxsh o'simliklar. Ularning shifobaxshligi tarkibida uchraydigan alkaloidlar, glikozidlar, vitaminlar, oshlovchi moddalarga bog'liq.

**Dorsal, dorzal** — a'zoning yelka, orqa tormonda joylashganligini anglatadi: masalan, dorsal (yelka) suzgich qanot.

**Dorsal** — q. *Dorsal*.

**Dozimetriya** — nurlanish darajasini o'lchash. O'simlik, hayvon va insон organizmiga radioaktiv nurlarning ta'sirini, radioaktiv ifloslanish darajasini, ion hosil qiluvchi nurlarning dozasini aniqlashda qo'llaniladigan usullar yig'indisi.

**Driopiteklar** — eng qadimiy qazilma odamsimon maymunlar ajdodi.

## E

**Dromedar** — *bir o'rkachli tuya* — O'rta Osiyo va Shimoliy Afrikada keng tarqalgan.

**Drozofilalar** — meva pashshalarining bir urug'i. Juda mayda (uzunligi 3,5 mm gacha). Drozofila lichinkalari sun'iy muhitda tez rivojlanadi va 7—10 kunda tajriba natijasini aniqlash mumkin. Shuning uchun undan genetik tadqiqotlarda foydalaniлади.

**Dukkak** — loviya, mosh kabi dukkakdoshlarga mansub o'simliklarning pishgandan keyin chokidan ikki pallaga ajraluvchi quruq mevasi. Urug'lar chok bo'yab joylashgan.

**Dukkakdoshlar** — ikki pallali o'simliklar oilasi.

**Dumbul** — donli o'simliklarning pi-shib yetilish davrlaridan biri; don qat-tiqlik darajasiga ko'ra mumni eslataldi. Bunda don sarg'ish tusga kiradi, organik moddalar to'planishi sekinalashib, to'xtaydi. Donning namligi 22—30% gacha kamayadi.

**Dumg'aza** — odam umurtqasining pastki oxirgi — 4—5 ta qisqargan

dum umurtqalarining qo'shib o'sishi-dan hosil bo'lgan qismi, chanoq suyak-lariga kiradi.

**Dunyo, olam** — biologiyada taksonomik tabaqalanishning eng yuqori pog'onasi. Tirik organizmlar ikki — o'simliklar va hayvonlar dunyosiga bo'linadi. Hozirgi vaqtida organik olam «dunyo» taksonomik pog'onasidan ham yuqori hisoblangan ikki bo'lim: prokariot va eukariotlarga ajratilgan. Prokariotlarga arxebakteriyalar va bakteriyalar, eukariotlarga esa hayvonlar, zamburug'lar hamda o'simliklar kiritilgan.

**Duplikatsiya** — **Ikki barobar oshish** — xromosomali mutatsiya turi; bunda xromosomaning biron-bir qismi ikki barobarga ko'payadi.

**Duragay hujayralar** — ikki hu-jayraning qo'shilishidan geterokarion (har xil yadroli) hosil bo'ladi. Ma'lum vaqt o'tgandan so'ng geterokarion duragay hujayra hosil qiladi, bunda xromosomalar qo'shib, bitta katta yadroga aylanadi.

## E

**Ebendoshlar, xurmadoshlar** — ikki pallali o'simliklar oilasi. Asosan daraxt va butalar. Qimmatbaho yog'och beradi. Ko'pincha qora yog'och deb yuritiladi.

**Edafon** — tuproq biotsenozi.

**Edifikatorlar** — ekosistemadagi ma'lum bir biosharoitni, biomuhitni hosil qilishda asosiy ahamiyatga ega bo'lib, uni harakterlovchi, ko'pincha biogeotsenozning dominantlari hisoblangan turlar. Edifikatorlar asosan o'simliklardan iborat.

**Efemerlar** — qisqa vegetatsiya davriga ega bir yillik o'simliklar. Asosan, bahor va kuzda tuproq nam bo'lgan vaqtida o'sadi.

**Efferent tolalar** — miyadan boshlangan asab impulslarini organizm bo'yab uzoq masofaga uzatuvchi asab tolalari.

**Efir moyli o'simliklar** — tarkibida efir moylar tutuvchi o'simliklar.

**Egizaklar** — odatda, faqat bir bola tug'ib ko'payadigan sut emizuvchilar,

jumladan, odamda bir vaqtning o'zida dunyoga kelgan ikki va undan ortiq bolalar. Egizaklar bir tuxumli yoki monozigotali, ikki tuxumli yoki dizigotali, parazit va birikib qolgan turlarga bo'linadi.

**Egizaklar usuli** — odam organizmi belgilaringin rivojlanishiga irlsi va muhit omillarining ta'sirini o'rganish usullaridan biri. Bunda bir tuxumli (monozigotali), ikki tuxumli (dizigotali) va boshqa egizaklar-dagi o'xshashlik yoki farqlar tadqiq etiladi.

**Ekdizonlar** — ko'pchilik bo'g'imoyoqlilar (hasharotlar, qisqichbaqsimonlar) gormoni. Politen (juda katta) xromosomalardagi genlar faolligini, metamorfozni nazorat qiladi.

**Ekogenez** — organizm bilan muhit o'rtaсидаги тарихи о'заро муносабатлар жарони.

**Ekoiqlim, muhit iqlimi** — birmuncha katta hududlardagi nisbiy iqlim.

**Ekologik bashorat** — odam faoliyatini ta'siri yoki tabiiy jarayonlar natijasida tabiiy tizimlarning qanday bo'lishi, rivojlanishi va oqibatini oldindan aytib berish.

**Ekologik halokat** — ko'pincha odam xo'jalik faoliyatining tabiiy jarayonlarga bevosita yoki bilvosita ta'siri tufayli ro'y beradigan tabiiy me'yordan chetlanishlar (masalan, uzoq qurg'oqchilik). Bu noqulay iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Ayrim joylarda aholi yoppasiga qirilishi ham mumkin.

**Ekologik javon, ekologik o'rindiq** — tabiatning tur mavjudligini ta'minlovchi barcha omillari majmui.

**Ekologik ma'rifat** — ekologik dunyoqarashni tarbiyalash. Bunda tabiatdagi ekologik jarayonlar bilan

insoniyat o'rtaсида chuqur uzviylik borligiga katta ahamiyat beriladi.

**Ekologik mustahkamlik**, ekologik ishonch — ekologik tizimlarning o'zini o'zi tiklash va o'zini o'zi boshqarish qobiliyat.

**Ekologik omillar** — organizmga ta'sir qiluvchi tashqi muhit omillari (abiotik, biotik va antropologik).

**Ekologik ravonlik** — organizm bilan muhit omillarining o'zaro ta'sirlariga chidamlilik (kelishuvchanlik) darajasi.

**Ekologik tanglik** — biosfera resurslari va ekologik imkoniyatlarining jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari hamda munosabatlarining rivojlanishi-ga mos kelmay qolganini xarakterlovchi jiddiyashgan holat.

**Ekologik tur hosil qilish** — populasiyaning tur areali chegarasida yangi joylarni o'zlashtirish bilan turning hosil bo'lishi.

**Ekoliya** — biologianing o'simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlar bilan o'zaro hamda atrof-muhitaro munosabatlarining umumiyligini qonuniyatlarini, shuningdek, odam bilan biosferaning o'zaro ta'sirini ham o'rganuvchi bo'limi. Bir turga mansub bo'lgan organizmlar ekoliya — aut(o)ekoliya, uyushmalar ekoliya — sinekoliya, odam va muhit o'rtaсида о'заро муносабатлар муаммолари haqidagi ekoliya — sotsial ekoliya deyiladi.

**Ekotip** — 1)hayotiy shakllarning birlashuv; 2)yashash joyi sharoitlari ga moslashgan va ma'lum morfolojiyik belgilarga ega bo'lgan har qanday o'simlik turining guruhi.

**Ekotizim, ekologik tizim** — tirik organizmlarning har qanday uyushmasi bilan ular yashayotgan mu-

## E

hitning birgalikdagi majmui. Bular mikroekotizimlar (masalan, chiriyotgan daraxt tanasi), mezoekotizimlar (hovuz, o'rmon) va makroekotizimlar (okean, qit'a)ga bo'linadi.

**Ekotur** — biologik tur ichidagi ekologik turlar yig'indisi.

**Ekskret, chiqindi** — modda almashinuvining organizmlardan tashqariga chiqariladigan oxirgi mahsuloti.

**Ekskretsiya, ajralish** — moddalar almashinuvni jarayonining oxirgi mahsulotlari, ortiqcha suv, tuzlar, begona va zaharli birikmalarini organizmdan ajratib chiqarish.

**Ekspressiya, genlar namoyonligi, genlar ekspressiyasi** — aniq gen tomonidan aniqlanuvchi belgining fenotipda organizmning yashash sharoitiiga qarab namoyon bo'lish darajasi.

**Eksteroreseptorlar** — tashqi muhit bilan bog'liq bo'lgan qo'zg'atgich (qitiqlagich)lar ta'sirini qabul qiluvchi, tananing ustki qismida joylashgan maxsus sezgir hosilalar.

**Ektoderma, tashqi qavat** — gastrulatsiya jarayonida, ya'nii hujayrning ko'p qavatlari strukturaga aylanish vaqtida hosil bo'ladigan qavat; undan epiderma va asab tizimi shakllanadi.

**Ektoparazit, tana usti paraziti** — xo'jayin tanasining sirtida yashovchi parazit organizm.

**Ekzo...** — biron narsadan tashqarida, chetda ekanlikni anglatuvchi murakkab so'zlarning tarkibiy qismi.

**Ekzobiologiya** — biologiyaning yerdan tashqari boshqa sayyoralardagi hayot shakllarini izlash va uni o'r ganish bilan shug'ullanuvchi bo'limi. Yerdag'i organizmlarning o'ta noqulay sharoitda yashovchanlik mexanizmi va chegarasini, muhim bioorganik birikmalarning abiogen sintezlanish

yo'llari hamda ilk biologik evolutsiya bosqichlarini aniqlash, avtomatik-biologik laboratoriylar yordamida boshqa sayyoralardagi hayot belgilari topish usullarini ishlab chiqish kabi masalalarini tadqiq etadi.

**Ekzoderma, tashqi po'stloq** — il-diz epidermisi tagida joylashgan bir-lamchi po'stloq to'qima qavai, himoya vazifasini bajaradi.

**Ekzokarpiy** — Meva qobig'i.

**Ekzonlar** — gen (DNK)ning genetik axborotga ega bo'lgan, ya'nii amino-kislotalar ketma-ketligini ifodalovchi (kodlovchi) bo'lagi. Ekzonlar intronlar bilan gallanib turadi (q. Intron).

**Ekzoosmos** — suv va unda erigan moddalarning hujayra tashqarisiga chiqish jarayoni.

**Ekzotsitoz** — plazmatik membranalar bilan hujayra ichida hosil bo'lgan membrana pufakchalarining qo'shilish jarayoni. Natijada pufakcha ichidagi suyuqlik tashqi muhitga chiqariladi.

**Ekzospora, tashqi spora** — spora hosil qiluvchi a'zoning ustki qismida rivojlanib, yetilgandan keyin ajralib tarqaluvchi sporalar. Masalan, konidiyalar, bazidiosporalar.

**Elastin, glikoprotein** — hujayra tashqarisidagi matrits elastik tolalari ning asosiy tarkibiy qismi. To'qimalarga egiluvchanlik xususiyatini beradi.

**Eliminatsiya** — 1)struktura o'zgarishlariga ega xromosomalar, shuningdek genlar, zigota yoki pusht hujayralarining yo'qolishi, tushib qolishi; natijada yashovchanlik xususiyati susayadi; 2)tabiiy tanlanish tufayli ayrim zot yoki organizmlar guruhi ning yo'qolishi.

**Elita** — oliy navli (elita) o'simliklardan olinadigan yuqori sifatli urug'-lar.

**Elongatsiya, cho'zilish, uzunlanish** — oqsil biosintezida ko'p marta qaytariladigan va polipeptid zanjirning uzunlashishiga olib keladigan jarayon.

**Embriologiya, pusht haqidagi fan** — biologyaning o'simlik, hayvon va odam pushtlarining hosil bo'lish, rivojlanish bosqichlari qonuniyatlarini o'r ganadigan bo'limi. Qiyo siy evolutions va eksperimental embriologiya turlariga bo'linadi.

**Embrion, murtak, pusht** — 1) urug'-dagi boshlang'ich ildiz, poya va bargchalariga ega yosh o'simlik; 2) dastlabki taraqqiyot bosqichidagi hayvon organizmi.

**Emlash** — yuqumli kasalliklarning oldini olish yoki davolash uchun organizmga zardob (emlik) kiritish.

**Endemiklar, mahalliy** — ma'lum bir geografik hududda tarqab, boshqa joylarda uchramaydigan o'simlik yoki hayvon turlari.

**Endo...** — murakkab so'zlarning ichki qismga tegishli ekanligini anglatuvchi tarkibiy qismi.

**Endoderma, ichki qavat** — 1) gastrulatsiya jarayonida hosil bo'ladigan ichki qatlami; 2) yuksak o'simliklar o'q organlari birlamchi po'stlog'ining ichki qatlami; 3) kovakichlilar tanasi ning ichki devori.

**Endokard** — yurak devorining ichki qavat pardasi. Yurakning barcha bo'limalari va qorinchalarini qoplab turadi.

**Endokarpiy, Mevaning ichki qismi** — danakning ichki qattiq qavati.

**Endokrin bezlar, ichki sekretsiya bezlari** — gormonlar ishlab chiqaruv-

chi va ularni bevosita qon hamda gemolimfalarga ajratuvchi bezlar.

**Endoparazit, ichki parazit** — xo'jayin almashtirish bilan bog'liq murakkab sikllar xarakterlidir.

**Endoplazma, ichki plazma** — hujayra sitoplazmasining ichki qismi. Hujayra ichida sodir bo'ladigan modda almashuv jarayonlarida faol ishti rok etuvchi tuzilish komponentlarga boy hujayrning asosiy organoidlari endoplazmada joylashgan. Yadro va sitoplazma o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonlari endoplazma faoliyati bilan bog'liq.

**Endoplazmatik to'r** — ichki membrana tizimlaridan iborat hujayraning tuzilma komponenti. Ikki xil endoplazmatik to'r mavjud: silliq (ribosomasiz; zaharli moddalarni zararsizlantirish reaksiyalarini katalizlaydi, shuningdek unda lipidlar va uglevodlar sintezida hamda glikogenning parchalanishida ishti rok etuvchi fermentlar joylashgan) va donador endoplazmatik to'r (ribosomal; unda oqsil sintezi sodir bo'ladi).

**Endorfinlar** — markaziy asab tizimi ishlab chiqaradigan endogen peptidlari; morfinga o'xshash ta'sir ko'r satadi.

**Endosperm, ichki urug'** — urug'-ning rivojlanish jarayonida paydo bo'ladigan jamg'arma ozuqadan iborat to'qima; pusht (murtak) oziqlanishida sarflanadi.

**Endotsitoz, ichga yutish** — hujayra yuzasiga tegib turgan oqsil va boshqa makromolekulalarning yutilib, hazm qilinishi.

**Eng sodda hayvonlar** — bir hujayrali eukariot organizmlar. Hujayralarda umumiy vazifalarni bajaruvchi organoidlar kompleksi mavjud.

# E

Yadro qo'sh membranali qobiq bilan o'ralgan bo'lib, karioplazma, xromosomalar, nukleolalarga ega. Sarkodallilar, xivchinlilar, sporalilar, infuzoriyalar va knidosporiyalar sinfiga bo'linadi.

**Entomofaglar, hasharot kushandalari** — hasharotlar bilan ovqatlanuvchi yirtqich va parazit organizmlar. Ayrim entomofaglardan qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi kurashda foydalaniladi.

**Entomofiliya** — o'simliklarning hasharotlar yordamida chetdan changlanishi.

**Entomologiya** — zoologiyaning hasharotlar tana tuzilishi, a'zolar faoliyati, hayot kechirish xususiyatlari, tashqi muhit bilan o'zaro munosabati va boshqalarni o'rganuvchi sohasi.

**Enzimologiya** — biokimyoning fermentlar tuzilishi, vazifasi va fermentativ reaksiyalar kinetikasi, fermentlarning ta'sir qilish mexanizmlari, ularning tasnifi, nomenklaturasi va boshqalarni o'rganuvchi sohasi. (q. *Fermentlar*)

**Epidermis, yupqa po'st** — 1) yuksak o'simliklarning qoplovchi to'qimasi; 2) umurtqali hayvonlar va odam terisining tashqi qavati.

**Epifauna** — biron-bir asosga yopishgan holda parazitlik qilmasdan hayot kechiruvchi hayvonlar; bentosning bir qismi.

**Epikard** — yurakning ustki (sirtqi) kulrang pardasi.

**Epikotil** — (q. *Urug'palla usti bo'g'ini*).

**Episomalar** — hujayrada avtonom (sitoplazmada) yoki birlashgan (integratsiyalashgan) holda (xromosoma-da) uchraydigan irlsiy omillar. DNK molekulalaridan iborat.

**Epistaz, to'xtatish, to'sqinlik** — ikki noallel (har xil lokuslarga qarashli) genlarning o'zaro munosabatlari. Bunda bir gen — suppressor, boshqa gen (gipostatik gen) ta'sirini susaytiради.

**Epiteliy** — zinch tutashgan tirik hujayralardan iborat qoplovchi to'qima. Ko'p hujayrali hayvonlar tanasini tashqi tomondan va tana bo'shilg'ini o'raturadi. Himoya, ajratish va so'rish vazifalarini bajaradi.

**Epizootiya** — ma'lum hududga xos bo'lgan hayvonlarning yuqumli kasalliklar bilan yoppasiga kasallanishi; odatdagi kasallanish darajasidan ancha yuqori bo'ladi.

**Eritrotsitlar** — qizil qon tanachalari — hayvon va odamdagи mag'izi yo'q (yadrosiz) hujayralar. U organizmning barcha hujayralarini kislород bilan ta'minlaydi va bir vaqtning o'zida karbonat angidridni hujayralardan o'pkaga uzatadi. Muhitning kislota asosli muvozanatini uyg'unlashtiradi. Eritrotsitlarning asosiy qismini gemoglobin tashkil qiladi va unga qizil rang beradi.

**Etalon qo'riqxona** — tabiiy komplekslar rivojlanishiga tashqaridan biron-bir aralashish qat'iy man qilingan yer maydoni yoki to'liq ko'r-gazmali qo'riqxona.

**Etilen** — fitogormon, to'yinmagan uglevodorod. O'sishga ta'sir qiladi. Mevalarni sun'iy pishirish maqsadida foydalaniladi. Oz miqdorda o'simliklarning o'suvchi to'qimalarida hosil bo'ladi.

**Etobiya** — hayvonlarning xattiharakatining biologik asoslarini o'rganadigan fan.

**Etxo'r** — boshqa hayvonlar (isisiqxonilar) go'shti bilan ovqatlanadigan organizmlar.

**Eukariot hujayralar** — oddiy prokariot hujayradan tubdan farq qilib, ularda yadro, mitoxondriya va xlo-roplast kabi komponentlar mavjud (q. *Eukariotlar*).

**Eukariotlar**, yadrolilar (mag'izlilar) — hujayrada mag'iz bo'lgan organizmlar. Bularga mag'iz qobig'i va boshqa hujayra organoidlarning mavjudligi xosdir. Yuksak o'simliklar, ko'p hujayrali hayvonlar, zamburug'lar, amyo balar kiradi.

**Evant nazariyasi, gul nazariyasi** — yopiq urug'li o'simliklar gulini evolutsiya davomida novdadan ke lib chiqqan deb tushuntiruvchi nazi riya.

**Evolutsion rivojlanish qonuni** — organik dunyoning irlsiy o'zgaruvchanlikka olib keluvchi harakatlantiruvchi kuchi — tabiiy tanlanish asosidagi taraqqiyoti.

**Evolutsion ta'limot, evolyutsiya nazariyasi** — organik dunyo tarixiy taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari va harakatlantiruvchi kuchlari haqidagi fan. Bu ta'limotning ilmiy asoslangan umumlashtirilgan shaklini dastlab Ch.Darvin, ta'riflagan. Irsiy o'zgaruvchanlik, yashash uchun kurash va u bilan bog'liq bo'lgan tabiiy hamda sun'iy tanlash tirik tabiatning harakatlantiruvchi kuchlaridir. Evolutsion ta'limot adaptatsiya (moslashish), ontogenez va filogenezni hamjihatlikda o'rganadi.

**Evolutsiya** — tirik tabiatning takrorlanmas va yo'naltirilgan tarixiy rivojlanishi. Evolutsiya populyatsiyalar irlsiy tarkibining o'zgarishi, adap-

tatsiyalar (moslashuvlar)ning shakl lanishi, tur hosil bo'lishi hamda qirilib ketishi, biogeosenozlar va umuman biosferaning tashkil topishi kabilar bilan birgalikda kechadi. Atamani fanga shveysariyalik olim Sh.Bonne kiritgan (1762).

**Evribat organizmlar** — suv havzasining har xil chuqurliklarda yashovchi organizmlar.

**Evribiontlar** — tashqi muhitning keskin farqlanuvchi xilma-xil sharoitlarida yashash xususiyatiga ega organizmlar.

**Evritermlar** — muhit harorating keskin farqlanuvchi sharoitlarda yashashga moslashgan organizmlar.

**Evtrof** — ozuqa moddalariga boy bo'lgan tuproqlardagina o'suvchi o'simlik.

**Eshitish a'zolari** — umurtqali hayvonlar va odamning tovush to'lqinlarini qabul qiluvchi a'zolari. Ayniqsa sutmizuvchi hayvonlarda yaxshi taraqqiy etgan.

**Eshituv suyakchalar** — o'rta qulqoqning kichik suyakchalari bo'lib, bolg'acha, sandon va uzangidan iborat. Bu suyakchalar tovush to'lqinlarini suyuq muhitga uzatadi.

**Eshkakoyoqlilar** — tuban qisqicha basimonlar kenja sinfi. Asosan den gizda yashovchi turlari ko'p tarqal gan. Shuningdek, chuchuk suvda yashaydiganlari ham (siklop) bor.

**Eshkakqanotlilar** (q. *Kattaqanotlilar*).

**Echkemarlar** — yirik kaltakesak lar oilasi.

# F

**Fabritsiyev xaltasi** — faqat qushlarga xos limloid a'zo; V-limfotsitlar hosil bo'ladi.

**Faglar, kushandalar** — bakteriyalar (bakteriofag) yoki aktinomitsetlar (aktinofag) hujayrasining ichida rivojlanib, ularni hazm qiladigan mikroorganizmlar.

**Fagotrof, geterotrof** — boshqa organizmlar yoki ular tomonidan hosil qilingan tayyor organik modda zarrachalarini iste'mol qiluvchi hayvon, o'simlik.

**Fagotsit** — q. *Himoya hujayralari*.

**Fagotsitoz** — 1) hayvon organizmlarining himoya vositasi. Hujayraning ichidagi katta makromolekulyar komplekslar, bakteriyalar va boshqa begona tanachalarni qamrab olib, parchalab yuboradigan jarayon; 2) bir hujayrali organizmlar yoki sodda ko'p hujayrali organizmlarning ovqat hazm qilish usuli yoki ovqatlanishi.

**Fakultativ anaeroblar** — kislordli, shuningdek, kislordsiz sharoitlarda ham yashash xususiyatiga ega organizmlar. Masalan, achitqi zamburug'lari.

**Fanerofitlar** — qishlovchi kurtaklari yer yuzasidan ancha yuqorida joylashgan daraxt va butalar.

**Fassiatsiya, yapaloqlanish** — o'simlik poyasi, guli, novdasi kabi qismalarning anormal taraqqiyot natijasida yassi, yapaloqlanib o'sishi. Masalan, gultojixo'roz.

**Fassiya, mushak pardasi** — umurtqali hayvonlar ichki a'zolari va mushaklarini qoplab turuvchi biriktiruvchi to'qimali parda.

**Fauna** — **Hayvonot olami** — ma'lum hudud yoki akvatoriyada yashovchi hayvonlar dunyosi.

**Faunistik qo'riqxona** — ma'lum guruhga mansub hayvonlar yoki ularning yig'indisini himoya qilish maqsadida tashkil qilingan qo'riqxona.

**Fazeolin** — no'xat urug'laridagi oqsil.

**Fellogen, po'kak kambiy** — o'simliklarning ikkilamchi hosil qiluvchi to'qimasi bo'lib, tashqi tomonda fellema (po'kak)ni, ichkari qavatda felloderma (tirik xlorifilli to'qima)ni to'playdi.

**Feminizatsiya, xotinchalishlik** — erkak individlarda urg'ochilarining ikkilamchi jinsiy belgilarining rivojlanishi. Masalan, ovozning ingichka bo'lishi yoki ko'krak bezlarining katetalashishi.

**Fen** — irlisyat bilan bog'liq belgi.

**Fenilalanin** — deyarli barcha oqsillar tarkibiga kiruvchi zaruriy aminokislota. Erkin holda uchraydi.

**Fenol birikmalar** — o'simliklar dunyosida keng tarqalgan turli-tuman tabiiy moddalar guruhi. Ular uchun umumiy bo'lgan belgi — aromatik (benzol) halqanining mavjudligidir.

**Fenologiya** — biologiyaning tirik tabiat rivojlanishidagi yil fasllarining almashinuvi bilan bog'liq mavsumiy hodisalarning namoyon bo'lish muddatlari va bu muddatlarni belgilaydigan sabablarni o'rGANADIGAN bo'limi. Masalan, kurtak va gullarning ochiliishi, qushlarning uchib kelishi va ketishi, hayvonlarning qishki uyqudan uyg'onishi.

**Fenotip** — organizm individual rivojlanishining ma'lum bosqichida geno-

# F

tipning tashqi muhit bilan o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan barcha xususiyat va belgilari yig'indisi.

**Ferment ingibitorlari** — biokimyoviy reaksiyalarda ishtirok etuvchi fermentlarning katalitik faolligini sekinlashtiruvchi birikmalar. Masalan, og'ir metall tuzlari, har xil zaharli moddalar.

**Fermentlar, enzimlar, biologik katalizatorlar** — barcha tirik organizmlarda hosil bo'ladigan va katalizatorlik vazifasini bajardigan oqsil tabiatli moddalar. Biokimyoviy reaksiyalar tezligini oshiradi. Dastlab achitqi zamburug'larida aniqlangan. Ayrim ribonuklein kislotalar (ribozimlar) ham fermentativ faollikka ega (q. *Enzimologiya*).

**Fermentlarning aylanish soni** — ferment substrat bilan to'la to'yingan vaqt birligida reaksiya mahsuliga aylanigan substrat molekulasinинг soni.

**Feromonlar** — hayvon organizmi ishlab chiqaradigan, asosan hidli biologik faol moddalar. Ma'lum sistematik kategoriya individlariga (rivojlanish va xatti-harakatiga) ta'sir qilish xususiyatiga ega.

**Ferridoksin** — tarkibida temir tutuvchi murakkab oqsil; oksidlanish va qaytarilish reaksiyalarida ishtirok etadi.

**Fertillik (o'simlikda), o'simlikning pushtdorligi (serpushtligi)** — o'simliklarning serunum, unish layoqatiga ega urug'lar berish xususiyati.

**Fertillik faktori, pushtdorlik omili, F-faktor** — bakteriyalarning konyugatsiya (genetik materialning almashish)ga layoqatliligini nazorat qiluvchi episoma.

**Fibrillyar oqsillar, tolasimon oqsillar** — suvda erimaydigan, ipsimon, asosan struktura oqsillari.

**Fibrin** — qon plazmasi tarkibidagi suvda erimaydigan oqsil. Fibrinogenidan qon ivishi paytida hosil bo'ladi.

**Fibrinogen, qon oqsili** — qonning ivishida asosiy rol o'ynovchi eriydigan murakkab oqsil. Fibrinogen preparatlari tibbiyotda qo'llanadi.

**Fibroblastlar** — biriktiruvchi to'qimalarning keng tarqalgan hujayra shakli.

**Fiksatsiya** — 1) tirik obyektlarni maxsus suyuqliklarda o'zgartirmay saqlash; 2) organizm yoki organni ma'lum holatda mahkamlab qo'yish.

**Filamentlar, oqsil to'rlar** — hujayra sitoskeletining oqsil tolalaridan iborat turlari. Hujayra harakati mehanizmlarida ishtirok etadi. Masalan, mushak qisqarishida.

**Filembriogenez** — organizm individual rivojlanish (embriogenez) davrida yuz beradigan evolutsion o'zgarishlar. Bu o'zgarishlar voyaga yetgan organizmlarda saqlanadi va avloddan-avlodga o'tadi. Filembriogenezning asosiy mazmuni ontogenetik o'zgarishlarning filogenetik o'zgarishlarga nisbatan birlamchi ekanligini ta'kidlashdir.

**Fillobiont** — daraxt va buta shoxlari orasida yashovchi organizmlar.

**Filogenez** — ma'lum bir hayvon, o'simlik (tur, turkum, sinf, tip)ning evolutsion tarixiy taraqqiyoti. Filogenezning eng qisqa davri yangi turning hosil bo'lishi bilan ifodalanadi.

**Fitin** — inozitfosfat kislotaning kalsiy va magniyli tuzi. Jamg'arma organik modda. Ayniqsa chigit tarkibida ko'p.

**Fito, ...fit...** — o'simlik. O'simliklarga oid bo'lgan murakkab so'zlarining tarkibiy qismi.

**Fitoaleksinlar** — o'simlikda kasalilik qo'zg'atuvchi patogen mikroorganizmlarning faoliyatiga javoban hosil bo'ladigan maxsus birikmalar. Ular mikroorganizmlarning hujumini qaytarish xususiyatiga ega.

**Fitobentos** — suv tubi o'simligi. Suv havzalarining tubida o'sadigan o'simliklar (suvo'tlari, zamburug'lar, lishayniklar va boshqalar) majmui.

**Fitofaglar, o'simlikxo'rlar** — faqat o'simliklar bilan oziqlanadigan hayvonlar. Bularga asosan hasharotlar kiradi. Ko'p o'simlikxo'r umurtqalilar mayda umurtqasiz hayvonlarni ham yeydi.

**Fitogemagluttenin** — qonning maxsus moddalarini tanlab cho'ktirish xususiyatiga ega va eritrotsitlarni agglutinatsiyaga uchratadigan o'simlikning murakkab oqsillari.

**Fitogeografiya** — q. *Botanik geografiya*.

**Fitogormonlar, o'simlik gormonlari** — o'simliklarning maxsus (asosan uchidagi) to'qimalarida hosil bo'ladigan fiziologik faol moddalar. Ta'siri juda past konsentratsiyada namoyon bo'ladi va o'simlikning o'sish, rivojanishi kabi bir qator jarayonlarini boshqarishda ishtirok etadi.

**Fitol** — xlorofill tarkibiga kiruvchi yuqori molekulali alifatik spirt. Erkin holda uchramaydi.

**Fitonsidlar** — yuksak o'simliklarda sintezlanadigan, bakteriyalar, zamburug'lar va eng sodda organizmlarni o'ldiruvchi yoki ular rivojini pasaytiрадиган biologik faol moddalar. B.P.Tokin atamasi. O'simlik immunitetida muhim ahamiyatga ega.

**Fitopatologiya** — o'simlik kasalliklari, ularning oldini olish va davolash choralarini haqidagi fan.

**Fitotsenologiya** — o'simliklar uyushmalari va ularning taraqqiy etish qonuniyatlarini hamda o'zaro munosabatlarini o'rganadigan fan.

**Fitotsenoz, o'simliklar uyushmasi (qavmi)** — ma'lum hududning bir xil qismida bir-biriga moslashgan holda yashovchi o'simliklarning tabiiy guruhi. Bu uyushmalar tegishli shartlarda paydo bo'lishi va doimiy tarkibi bilan xarakterlanadi.

**Fitotron** — o'simliklarning o'sishi uchun zarur bo'lgan barcha asosiy omillarni boshqarib turuvchi, to'liq avtomatlashgan asbob-uskunalarga ega sun'iy iqlim stansiyasi.

**Fitoxrom** — o'simliklarning havorang pigmenti. O'simliklarning unib chiqishi, gullashi, fotodavriyligi va boshqa jarayonlar fitoxrom bilan bog'liq.

**Fiziologik ritmlar** — organizm, a'zo va hujayra ichida kechadigan jarayonlar jadalligi va xarakteri o'zgarib turishining davriy ravishda qaytarilishi.

**Fiziologik yetilish** — donlarda jamg'arma moddalarning to'planishi to'xtagan, lekin donni boshoqdan to'kilib ketishi hali boshlanmagan davr.

**Fiziologiya** — tirik organizm hayot faoliyati va vazifasining umumiyoq qonuniyatları haqidagi fan. Organizmning ayrim tizimlari, a'zo, to'qima, hujayra va uning tuzilish elementlarida sodir bo'ladigan jarayonlarni, shuningdek, organizmning tashqi muhit bilan aloqadorlik qonuniyatlarini o'rganadi.

**Flavoproteinlar, sariq rangli oqsillar** — murakkab oqsillar; bularning oqsil bo'limgan qismi sariq pigment FAD (flavinadenindinukleotid) yoki

**FMN** (flavinadeninmononukleotid)dan tashkil topgan. Bular asosan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida ishtirok etadi.

**Floema, lub** — to'rsimon naylar (yadrosiz tirik hujayralar va lub hujayralar)dan tashkil topgan o'tkazuvchi to'qima hujayralarining murakkab yig'indisi. Jamg'arma holda toplash yoki iste'mol qilish uchun kerakli bo'lgan eruvchan organik moddalarni o'tkazishni ta'minlaydi.

**Flora** — 1)o'simlik turlarining tari-xan tarkib topgan majmui. Unda shu joyning tabiiy sharoitlari bilan bog'liq o'simlik taksonolarning vakillari yig'ilgan bo'ladi; 2)organizmning bi-ron-bir a'zosi, bo'shilg'i yoki yarasi-da to'plangan mikroorganizmlar yig'indisi.

**Floristik qo'riqxona** — xillangan mahalliy o'simliklarning sistematik guruhi yoki ular yig'indisi o'sadigan va alohida qo'riqlanadigan hudud.

**Follikulalar, pufakchalar** — har xil vazifa va joylanishga ega bo'lgan yumaloq ichi bo'sh hosilalar. Masalan, sut emizuvchilarining tuxumdonidagi follikulalarida tuxumhujayralar rivojlanadi.

**Forma, shakl** — 1)tur ichidagi irsiy barqaror taksonomik birlik; 2)bir organizmning yoki a'zoning ko'rinishi.

**Fosfolipidlар, murakkab yog'lar, fosfotidlар** — molekulalarida fosfat kislota tutuvchi murakkab lipidlar. Tarkibiga glitserin, yog' kislota, azot tutuvchi birikma va fosfor kislota kira-di. Biomembranalarning tuzilishida muhim ahamiyatga ega.

**Fosfoproteinlar** — aminokislolar va fosfat kislotadan tashkil topgan murakkab oqsillar. Bularga sutdag'i kazein, baliqdagi ixtulinlar misol.

**Fosforlangan oqsillar, maxsus fermentlar** — proteinkinazalar yordamida fosforlanuvchi membrana, ribosomal va boshqa oqsillar. Bunday fosforlanish vaqtinchalik ahamiyatga ega bo'lib, boshqaruvchilik vazifasini bajaradi.

**Fosforlanish** — organik moddalar molekulasiga fosfat kislota qoldig'ining kirishi. Bunda tashqi energetik resurslar energiyasi yuqori energetik birikmalar (ATF) energiyasiga aylanadi. Uch: substrat, oksidativ va fotosintetik fosforlanish xillari mavjud.

**Fosforli o'g'itlar** — tarkibida fosfor elementi bor mineral o'g'itlar.

**Fotobiologiya, yorug'lik biologiyasi** — biologiyaning yorug'lik, ultrabi-nafsha va infraqizil nurlarning organizmga ta'siri natijasida sodir bo'ladi-gan jarayonlarni o'rganadigan bo'limi.

**Fotofil, yorug'sevar** — yorug'lik sevuvchi o'simliklar.

**Fotofov, yorug'likdan qochuvchi** — soya-salqin joylarda o'suvchi o'simliklar.

**Fotolitotroflar** — toshli muhitda yashab, yorug'likdan energiya man-bai sifatida foydalanuvchi organizmlar. Bunda elektronlarning donori sifatida anorganik birikmalar ishtirok etadi. Masalan, sianobakteriyalar.

**Fotoliz, yorug'likda parchalanish** — suvning parchalanishi natijasida qaytaruvchi moddalarning hosil bo'lishi. Bu jarayon yorug'lik energiyasi yordamida amalga oshadi va kislorod ajralishi bilan boradi.

**Fotonastiya** — yorug'lik jadalligining o'zgarishi ta'sirida o'simlik a'zolaring harakatga kelishi.

**Fotoperiodizm**, fotodavriylik, kun uzunligi ta'siri — o'simliklarning

# G

kunni yoki fotodavrni yorug'lik bilan qorong'ulik o'rtasidagi nisbatga bo'lgan talabi. Bular ta'sirida o'simliklarning gullashi, mevaga kirishi kuzatiladi.

**Fotoretseptorlar, yorug'lik sezuvchilar** — yorug'lik yutish xususiyatiga ega bo'lgan va organizmda fotobiologik jarayonlar (fotodavriylik, fototaksis, fototropizm, ko'rish va boshqalar)ni vujudga keltiradigan hosilalar pigment molekulalari, maxsus hujayralar, a'zolar.

**Fotosintez** — quyoshning yorug'lik energiyasi ta'sirida yashil bargli o'simliklar xloroplastlarida va ayrim mikroorganizmlarda anorganik moddalar (suv, karbonat angidrid)dan organik moddalarning hosil bo'lish jarayoni. Bunda atmosferaga erkin kislород ajratiladi.

**Fotosintezning yorug'lik reaksiyaları** — quyosh nuri energiyasi hisobiga ATP va NADFN<sub>2</sub>, kabi kimyoviy energiyaga boy bo'lgan birikmalarining hosil bo'lish reaksiyaları.

**Fotosintezning yorug'lik talab qilmaydigan reaksiyası** — karbonat angidrid va suvdan fotosintez dastlabki mahsulotlarining hosil bo'li-

shini ta'minlovchi reaksiyalar yig'in-disi.

**Fototaksis** — erkin harakatlanuvchi mikroorganizmlar, o'simliklar va hayvonlarning hamda hujayra yoki uning qismlari (plastida)ning yorug'lik ta'siriga javoban harakati.

**Fototerapiya, nur bilan davolash** — davolash yoki profilaktik maqsadlar uchun har xil nur (ultrabinafsha, infraqizil)lardan foydalanish.

**Fototizim antennalari** — quyosh nurlari energiyasini to'plovchi, xlorofill-oqsildan iborat yorug'lik nurlarini yig'uvchi kompleks.

**Fototropizm, yorug'likka intilish** — o'simlik o'sish a'zolarining yorug'lik yo'nalishiga qarab harakat qiliishi.

**Fumigantlar, dudlovchi moddalar** — kasallik tug'diruvchi organizmlar va qishloq xo'jalik zararkunandalari ga qarshi qo'llaniladigan kimyoviy preparatlar.

**Fungitsidlar, zamburug' o'ldiruvchi** — zamburug'larga qarshi kurash uchun ishlataladigan kimyoviy birikmalar.

**Fuzariozlar** — o'simlik kasalliklari; fuzarium zamburug'i qo'zg'atadi. Ko'pchilik o'simliklar, shu jumladan, g'o'za, g'alla va sabzavotlarda uchraydi.

# G

**Gabitus, tashqi, qiyofa** — organizm tashqi ko'rinishini ifodalovchi belgilari majmui.

**Gajak to'pgul** — simpodial to'pgul shakli bo'lib, ochilmagan uchki g'uncha qismi qayrilib, gajaklangan to'pgul. Masalan, sigirquyruqlarda.

**Gala, to'da** — bir turga mansub hayvonlarning (baliqlar, qushlar,

hasharotlar) yashash joyi yoki ko'payishi bilan bog'liq harakatchan to'pi.

**Galofillar** — q. *Tuzsevarlar*

**Galofoblar** — faqat chuchuk yoki kam tuzli suvlarda yashaydigan organizmlar. Masalan, ko'pgina suvo'tlar, ba'zi bulutlar hamda kovakichllilar va boshqalar.

**Gameta, jinsiy hujayra** — gaploid to'plamli xromosomalarga ega tuxum-hujayra va spermatozoid; hayvonlar va o'simliklarning urug'lanish jarayonida bir-biri bilan qo'shilish xususiyatiga ega.

**Gametalar** — tuxumhujayra (urg'o-chi individlarda) va spermatozoidlar (erkak individlarda). Jinsiy ko'payish va yangi zot (nav)ning paydo bo'lishi shu hujayralarga bog'liq.

**Gametangiy, gametodon** — o'simliklarning harakatchan gametalar hosil qiluvchi jinsiy organi. Asosan suvo'tlari va zamburug'larga xos.

**Gametofit, jinsiy bo'g'in** — game-ta hosil qiluvchi o'simlik, gametachi o'simlik. Avlod gallanishi bilan rivoj-lanadigan o'simliklar hayotiy halqa-sidagi jinsiy bo'g'in.

**Gametogenez** — jinsiy hujayralar (gametalar)ning hosil bo'lish va yeti-lish jarayoni. Gametogenezning mo-hiyati, jinsiy hujayralarning rivojla-nish va shakllanish davrida hu-jayralarning bo'linishini maxsus yo'l bilan amalga oshirishdan iborat. Bu yo'l meyoz deb ataladi va gaploid to'plamli xromosomalarga ega jinsiy hujayralarning hosil bo'lishini ta'minlaydi.

**Gametogoniya** — sodda hayvon-larning jinsiy ko'payishi.

**Gametotsit** — yetilayotgan jinsiy hujayra (q. *Ovotsit*).

**Gametotsitlar** — eng sodda hayvonlarning ko'payishi (gametogoniya) da yuzaga kelib, rivojlanadigan jinsiy hujayralar.

**Gamma-aminomoykislota (GAMK)** — aminokislota; asab tizimining qo'zg'atgichlaridan biri.

**Gammaglobulinlar** — qon zardo-bi tarkibidagi globulin fraksiyalaridan

biri. Tarkibida bakteriyalar va viruslar-ga qarshi ko'pgina zidditanachalar bor. Davolash va profilaktika maqsad-larida yuqumli kasalliklar (masalan, qizamiq, ko'kyo'tal va boshqalar)ga qarshi qo'llanadi.

**Gamma-nurlar** — qisqa elektro-magnit nurlanish, ya'ni gamma-nur-lanish natijasida hosil bo'ladigan nur-lar. Atom yadrolarining yemirilishi va yadro reaksiyalari natijasida hosil bo'ladi. Juda katta singish, predmet va jism ichiga kirish xususiyatiga ega. Defektoskopiya, nazorat qilish ishlari-da va boshqa sohalarda foydalaniлади.

**Ganglioziidlar** — sialat kislota qol-diqqlarini tutuvchi tabiiy organik bi-rikmalar hisoblangan glikolipidlar vakili. Neyronlarning plazmatik mem-branalarida ko'p miqdorda uchraydi. Bakterial toksinlarning retseptori hisoblanadi. Odam organizmida gan-glioziidlar miqdori va tuzilishining o'zgarishi asab kasalliklariga sabab bo'ladi.

**Gangliy, asab tuguni** — asab hu-jayralari, tolalari va ular atrofidagi to'qimalar to'plami. Odam va umurt-qali hayvonlarda gangliy yirik asab yo'llari bo'ylab va ichki a'zolar devorlarida joylashgan. Umurtqasiz hay-vonlarda gangliy markaziy asab tizimi vazifasini o'taydi.

**Gaplobakteriyalar — Yakka yashovchi bakteriyalar** — koloniya hosil qilmay, yakka yashovchi bakteriyalar guruhi.

**Gaplobiont** — hujayralari gaploid sonli xromosomalarga ega jinsiy nasl.

**Gaploid, yakka, oddiy ko'rinish** — gaploid to'plami xromosomaga ega bo'lgan hujayra yoki organizm.

**Gaploid to'plamli xromosomalar** — jinsiy hujayralar (gametalar)da

reduksion bo'linish natijasida yuzaga keladigan xromosomalarining ikki hissa kam soni. Gaploid holat meyozi natijasidir.

**Gaploid o'simliklar** — xromosomalarining gaploid to'plamiga ega o'simliklar. Bunday o'simliklar ba'zan tabiatda hosil bo'lib turadi va ular diploidli o'simliklardan past bo'yiligi va kuchsiz rivojlanishi bilan farqlanadi.

**Gaplostemon gul, yakka doirali gul** — changchilari faqat gul ichida doira bo'lib joylashgan gul.

**Gaptenlar** — immunogen xususiyati chala, ammo zidditanachalar va immunotsitlar bilan o'ziga xosta'sir qilish xususiyatiga ega kichik molekulali moddalar.

**Gapterlar** — suvo'tlari va ba'zi yusakk o'simliklarning biror substratga yopishib o'sishi uchun xizmat qiluvchi rizoidlari (soxta ildizlari).

**Gaptoglobin** — qon zardobining murakkab oqsili (glikoprotein). Gemoglobin bilan birga kompleks hosil qiladi. Himoya vazifasini bajaradi. Zaharsizlantirish jarayonlarida ishtirok etadi.

**Gaptotropizm** — o'simliklarning biron narsaga tegish, ishqalanishdan ta'sirlanib, bukilib, qayrilib o'sishi. Masalan, chirmashib yoki o'ralib o'suvchi o'simliklarda.

**Gastrin** — oshqozon shilliq pardasini tashkil qilgan hujayralar ishlab chiqaradigan ekzokrin gormon. Ichaklarda va ayrim hayvonlarning gipofizida topilgan.

**Gastrula** — pusht rivojlanishidagi bosqich. Ko'p hujayrali hayvonlarning embrion taraqqiyotidagi bosqichlardan biri bo'lib, blastuladan shakllanadi.

**Gastrulatsiya** — ko'p hujayrali hayvonlarning embrion rivojlanishidagi dastlabki jarayonlardan. Bunda bir qavatlari embrion (blastula)dan ikki qavatlari (gastrula), umurtqalilarda esa uch qavatlari embrion (ya'ni ekto-va entoderma oralig'ida mezoderma) hosil bo'ladi.

**Gaversov kanallari** — suyakning zinch qatlamidagi qon tomirlari va asab tolalari o'tadigan kanal.

**Gaz almashinuvi** — organizm bilan tashqi muhit o'rtafiga gaz almashinuvi. U organizm kislorodni qabul qilishi, karbonat angidrid, juda oz miqdorda boshqa gazsimon muddalar va suv bug'ini chiqarishidan iborat.

**Gazandalar** — har xil oilalarga mansub bo'lgan, chaqadigan ikki qanonli, qon so'ruchchi hasharot turlarining yig'indisi. Masalan, chivinlar, mayda chivinlar, iskaptoparlar.

**Gazga chidamlilik** — odatda, havodagi zararli gazsimon muddalar: oltingugurt, uglerod, azot oksidlari va boshqalarning kuchli konsentratsiyasiga o'simlik organizmlarining chidamlilik xususiyati. Bunday o'simliklar (jiyda, qayrag'och, zarang) aysiqa shahar havosini tozalashda muhim ahamiyatga ega.

**Geliofitlar, quyoshsevar o'simliklar** — quyosh nuri ko'p tushadigan joyda o'suvchi o'simliklar.

**Gelmintlar, gjijalar, parazit chuvalchanglar** — bularga ko'pgina yassi va birlamchi bo'shliqli chuvalchanglar kiradi. Masalan, trematodalar, sestodalar, nematodalar.

**Gelmintologiya** — o'simliklar, hayvonlar, odamlarda kasallik qo'zg'atadigan parazit chuvalchanglarni hamda ularga qarshi kurash choralarini

## G

va profilaktika tadbirlarini o'rganadigan fan. Zoologiya, tibbiyot va veterinariya fanlari bilan bog'liq.

**Gelmintozlar** — odam, hayvon va o'simliklarda gelmintlar qo'zg'atadigan kasalliklar. Masalan, shistomozlar, fassiolezlar, nematodozlar, askaridoz va boshqalar.

**Gelofit, botqoq o'simliklari, gelofitlar** — botqoqlik sharoitida o'sishga moslashgan o'simliklar. Masalan, sholi, qamish, kurmak.

**Gemikriptofitlar** — yangi poya beruvchi kurtaklari tuproq orasiga qisman yashirinib qishlaydigan ko'p yillik o'tlar. Masalan, qoqio't.

**Gemini** — q. *Bivalent*.

**Gemitselluloza** — yuksak o'simliklar hujayra qobig'idagi selluloza bilan birgalikda uchraydigan yuqori molekulali polisaxaridlar guruhi. O'simliklarning yog'ochli qismida ko'p.

**Gemo...** — qonga taalluqli murakkab so'zlar tarkibiy qismi.

**Gemoglobin** — qon oqsili. Odam, umurtqali va ba'zi umurtqasiz hayvonlar qoni tarkibidagi temir atomini tutuvchi qizil rangli nafas pigmenti. U nafas olish a'zolaridan to'qimalarga kislorodni va to'qimalardan nafas olish a'zolariga karbonat angidridni olib o'tadi.

**Gemolimfa** — rangsiz yoki yashil tusli suyuqlik. Ochiq qon aylanish tizimiga ega ko'pchilik umurtqasiz hayvonlar (bo'g'imoyoqlilar, moluskalar va boshqalar) qon tomirlari va to'qimalararo bo'shlqlarida harakatlanadi. Qonga xos bo'lgan vazifalarni bajaradi.

**Gemoliz, qonning parchalanishi** — eritrotsitlarning parchalanishi natijasida gemoglobinlarning muhitga chiqishi. Gemoliz me'yorli holat bo'lib,

u bilan eritrotsitlarning hayot sikli tugaydi (120 kunga yaqin).

**Gemotsianin** — ba'zi umurtqasiz hayvonlar gemolimfasining ko'k-yashil nafas pigmenti.

**Gemotsit** — qonning to'liq shakllangan har qanday hujayrasi: eritrotsit, trombotsit, shuningdek, leykotsitning hamma turlari.

**Gemotsitoblastlar** — ilikdagi qon yaratuvchi hujayralardan biri.

**Gemostaz** — organizmda qon ketishini to'xtatish va uning oldini olishni ta'minlovchi biologik va biokimoviy jarayonlar.

**Gen** — irsiy ornil. DNK (viruslarda RNK) molekulاسining bir qismi. Irsiy informatsiyaning tuzilishli va funksional birligi.

**Gen muhandisligi** — rekombinat DNKlar texnologiyasi. Genetik va biokimoviy usullar yordamida organizm yoki hujayra biologik informatsiyasini o'zgartirish bilan tabiatda uchramaydigan, yangi xususiyatga ega bo'lgan genlar to'plamini va shu asosda yangi nav hamda zotlarni yaratish.

**Genealogiya, shajara, nasabnama** — o'simliklar, hayvonlar va odamlarning kelib chiqishi, ajodalari va qon-qardoshlik aloqalari haqidagi ma'lumotlar yig'indisi. Tibbiyot, qishloq xo'jaligi, chorvachilikda genetik va seleksion ishlarda muhim ahamiyatga ega.

**Generativ a'zolar** — o'simliklarning kelib chiqishi, ajodalari va qon-qardoshlik aloqalari haqidagi ma'lumotlar yig'indisi. Tibbiyot, qishloq xo'jaligi, chorvachilikda genetik va seleksion ishlarda muhim ahamiyatga ega.

**Genetik (irsiy) kartalar** — xromosomalarda genlarning chiziqli tartibda joylashish chizmasi. Seleksion ishlarda va nazariy tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega.

## G

**Genetik (irsiy) kod** — irsiy informatsiyani ma'lum belgilar yordamida ifodalash tizimi; DNK molekulasi-dagi nukleotidlar tartibini, oqsil molekulasi-dagi aminokislotalar tartibiga aylantirish (tarjima qilish) qoidalari yig'indisi. Genetik kod birligi kodon yoki triplet deb ataladi. Hammasi bo'lib 64 kodon mavjud, shulardan 61 tasi aminokislotalarni ifodalaydi; qolgan 3 tasi polipeptid zanjir sintezi-ning tamom bo'lganligini bildiradi.

**Genetik belgi (nishon), genetik marker** — faqat retsessiv gomozigotada namoyon bo'ladigan retsessiv genlar va ular tomonidan nazorat qili-nadigan belgilar.

**Genetik informatsiya, irsiy axborot** — avlodlarga ajodlardan genlar to'plami sifatida beriladigan irsiy tu-zilmalar (genlar, xromosomalar, sitoplazma, hujayra organoidlari)da joy-lashgan organizmnинг tuzilishi va vazifasi to'g'risidagi axborot.

**Genetika** — irsiyat va o'zgaruv-chanlik haqidagi fan. Hozirgi zamон genetikasiga irsiy omillarni nasldan naslga o'tish qonuniyatlarini kashf etgan G. Mendal va irsiyatning xro-mosoma nazariyasini yaratgan T. Morgan asos solgan.

**Genlar ylanishi (tutashishi, bi-rikishi)** — genlarning ma'lum tar-tibda bir xromosomada joylanishi va nasldan naslga ma'lum bir kombinat-siyada, birqalikda tutashgan holda o'tishi. Bu hol belgilarning mustaqil taqsimlanishidan farq qiladi. Tutash-gan genlar krossingover paytida bu-ziladi.

**Genlarni klonlash** — o'ta toza holdagi ma'lum genni yoki shu gen yordamida hosil bo'ladigan oqsilni ko'p miqdorda ajratib olish usuli.

**Genofond** — tur yoki populyatsiya individlarida mavjud genlar to'plami. Mazkur guruh organizmlariga xos mutatsiyalarning tez-tez qaytarilishi bilan xarakterlanadi. Atamani fanga A. S. Serebrovskiy kiritgan (1928). Genofond populyatsiyaning allel tarkibi belgilaydi.

**Genom** — Genlar yig'indisi, xromosomalarning asosiy gaploid to'plami. Genomning genotipdan farqi shundaki, u ayrim zot yoki navni emas, balki bir turni xarakterlab beradi.

**Genosistematiка** — tirik organizmlar barcha taksonomik guruhlari DNKsining nukleotidli tarkibini o'r-ganuvchi fan.

**Genotip** — biron bir zot yoki nav bar-cha genlarining yig'indisi bo'lib, irsiy informatsiya asosini tashkil qiladi.

**Geobiont** — tuproqda yashovchi organizmlar majmui.

**Geobotanika** — o'simliklar qop-lamining yer yuzida tarqalish qonu-niyatlarini o'rganadigan fan. Ko'p-chilik olimlar geobotanikaga fitosenologiya va botanik geografiyani ham kiritadilar.

**Geogelmintlar** — tuxumlari oraliq xo'jayinsiz to'g'ridan to'g'ri tuproq-da rivojlanadigan parazit chuval-changlar. Geogelmintlarning tuxum-lari tuproqqa axlat bilan birga o'tadi (q. *Biogelmintlar*).

**Geotropizm** — o'simlik a'zolarining yerni tortish kuchi ta'sirida ma'lum yo'nalishni olish xususiyati. Geotropizm tufayli poya va daslabki ildiz vertikal yo'nalishda rivojlanadi.

**Gerbariy** — maxsus yig'ilib, quritilgan o'sirnliklar kolleksiyasi va ularni saqlaydigan muassasa. Ulardan o'quv va ilmiy maqsadlarda foydalaniadi.

**Gerbitsidlar** — yovvoyi o'tlarga qarshi qo'llaniladigan kimyoviy modalar.

**Germafroditizm** — Xunasalik, qo'shjinslilik — bir individda ham erkaklik, ham urg'ochilik jinsiy a'zolarining mavjudligi. Germafroditizm tabiiy (umurtqasiz hayvonlarga xos) va g'ayritabiyy holda (odamda) uchraydi. **Gerontologiya** — tirik organizmlarning, jumladan, odamlarning qarish hodisasini o'rganadigan biologiya va tibbiyot tarmog'i.

**Gerpetologiya** — sudralib yuruvchilar bilan suvda va quruqda yashovchilarni o'rganadigan zoologiya tarmog'i. **Geter..., Getero...** — murakkab so'zlarning tarkibiy qismi; har xillikni bildiradi.

**Geterofilliya — Har xil barglik** — bir o'simlikning o'zida turlicha shaklda, kattalikda va tuzilishdagi barglarning bo'lishi. Masalan, tut bargari.

**Geterogamiya — Har xil game-talik** — jinsiy urchishning bir turi; tashqi ko'rinishdan shakli va kattaligi turlicha bo'lgan ikki gametaning o'zaro qo'shilib otalanishi.

**Geterokarpiya — Har xil mevali** — gulli o'simliklar ayrim turlarining bir individda morfologiyasi, tarqalishga moslashuvi va unish xarakteriga ko'ra, bir-biridan farq qiluvchi har xil turdag'i generativ murtak (meva) hosil qilish xususiyati.

**Geterostiliya — Har xil ustun-chali** — bir turga mansub o'simlik gullaridagi urug'chi ustunchalarining har xil uzunlikda bo'lishi.

**Geterotopiya — Har xil joyli** — evolutsiya jarayonidagi embrional rivojlanishda biron-bir a'zo o'rning o'zgarib qolishi.

**Geterotrof organizmlar** — oziq-lanishda boshqa turdag'i organizmlar tomonidan sintezlangan tayyor organik moddalardan foydalanuvchi organizmlar. Bularga barcha hayvonlar, tekino'r o'simliklar, ko'pchilik mikro-organizmlar kiradi.

**Geterozigota — Har xil zigotali** — zigota yoki organizm gomolik xromosomalarida biron-bir gen turli allellari (har xil shakl)ning mavjudligi. Geterozigotali organizmlar muhit o'zgaruvchanligiga o'ta moslashish xususiyatiga ega.

**Geterozis — Duragay kuchi** — duragaylarning asosan birinchi avlodda hayotchan, ya'ni baquvvat va kuchli bo'lib, mahsulдорligi hamda boshqa xususiyatlari bilan ota-onalardan ustun turish hodisisi.

**Geydelberg odam — Mauer oda-mi** — qazilma odamlarning pitekantrop odamga yaqin shakllaridan biri. Arxantroplar vakili, yoshi 400 mingdan ortiqroq. Geydelberg (Germaniya) yaqinidagi Mauer qishlog'ida topilgan.

**Gialoplazma — Oynasimon plazma, sitoplastra matriksi** — hujayradagi murakkab, rangsiz kolloid tizim (q. *Sitozol*).

**Gibberellinlar** — o'simlik gormonlari (fitogormonlar)ning bir guruhi. Gibberella zamburug'idan ajratib olin-gan. O'simlikning o'sishi va rivojlanishini jadallashtiradi. Tomatlarni changlatishda, uzum mevalarini kat-talashtirishda qo'llaniladi.

**Gibrild — Duragay** — duragaylash, ya'ni irlsiy belgilari bilan bir-biridan farq qiladigan ikki organizm (hujayarlar)ni jinsiy yoki vegetativ usulda birlashtirish natijasida olingan organizm yoki hujaya.

# G

**Gibridizatsiya — Duragaylash** — irlsiy jihatdan har xil bo'lgan organizmlarni chatishtirish yo'li bilan duragay hosil qilish jarayoni. Duragaylash ikki xil bo'ladi: bir turga mansub nav yoki zotlarni o'zaro (tur ichida duragaylash) va har xil turlar yoki turkumlar o'rtasida bo'ladigan chatishtirish (turlararo duragaylash).

**Gibridologik tahlil**, Tahliliy duragaylash — chatishtirilayotgan zot yoki navlarning irlsiy tuzilishini aniqlashga imkon beruvchi irlsiy tekshirishning asosiy usuli. Bu usulni G. Mendel kashf qilgan (1865).

**Gibridoma, qo'sh hujayra** — biron-bir foydali birikmaning sintezlanishini nasldan naslga o'tkazaoladigan me'yorli hujayra bilan amalda cheksiz o'sish (ko'payish) xususiyatiga ega bo'lgan rak, shish hujayralarining qo'shilishidan hosil bo'lgan duragay hujayra.

**Gidatodlar, suv og'izchalar** — o'simlik bargidan suv va tuzlarning ajralishini ta'minlovchi hujayralar kompleksi.

**Gidra** — chuchuk suvda yashovchi kovakichli hayvonlar turi vakili.

**Gidrobiologiya** — suv ekotizimi va uning komponentlarini, asosan suv organizmlari hamda ularning yashash qonuniyatlarini o'rganadigan biologyaning bir bo'limi.

**Gidrofiliya, suv ichida changlanish** — ayrim suv o'simliklarining suv ichida yoki uning yuzasida changlanishga moslashganligi.

**Gidrofililar** — Suvchan o'simliklar — tanasining pastki qismi bilan suvga ko'milgan va ildizi grunta birikkan suv o'simliklari. Masa-lan, qamish.

**Gidrolazalar** — suv ishtirokida boradigan reaksiyalarni kataliz qiluvchi fermentlar sinfi.

**Gidroponika** — o'simliklarni mineral tuzlarning suvli eritmalarida toshli asosga ega bo'lgan joylarda o'stitirish.

**Gidrotaksis — Suvga intilish** — organizmlarning namlik ko'p yoki namlik kam tomoniga harakati.

**Giflar, shoxlangan iplar** — zamburug' tanasi, ya'ni tallomini hosil qiladigan shoxlangan iplar. Ular ustida urchish a'zolari — orgoniy va anterediy vujudga keladi (q. *Tallom*).

**Gifomisetlar** — takomillashmagan zamburug'lar sinfining tartibi. Bular orasida tuproqda yashaydigan saprofitlar, shuningdek, o'simliklarda kasallik qo'zg'atadigan parazitlar ham bor.

**Gigantizm — Beso'naqaylik** — organizm yoki uning ayrim a'zolarining (akromegaliya) haddan tashqari o'sib, kattalashib ketishi. Ko'pincha erkaklarda kuzatiladi. O'sish gormonlari bilan bog'liq deb qaraladi.

**Gigrofillar, namsevarlar** — namligi yuqori darajada bo'lgan sharoitda yashashga moslashgan yer usti organizmlari.

**Gigrofitlar, namsevar o'simliklar** — suvga boy sharoitda o'sishga moslashgan o'simliklar.

**Gigromorfizm** — tuprog'i yoki havosi sernam bo'lgan joyda o'sayotgan o'simliklarning ichki va tashqi tuzilishidagi o'ziga xos xususiyatlari.

**Gimeniy, sporachi qatlam** — zamburug'lar (diskomitsetlar, gimenomitsetlarda) va lishayniklarning meva tanalaridagi spora hosil qiluvchi hujayralar qavati.

**Ginandromorfizm** — bir organizmda har xil jinsga xos xromosomalar

to'plamiga ega hujayralar guruhi, to'qimalar yoki a'zolarning mavjud bo'lishi.

**Ginetsey**, *urug'chi, jinsiy a'zo* — guldagi bir yoki bir necha urug'chi (urg'ochi jinsiy a'zo)ni hosil qiluvchi meva barglar majmui.

**Ginogenez** — organizmning ko'payish xillaridan biri. Bunda spermatozoid tuxum-hujayralarga kirkach, u bilan qo'shilib ketmaydi, balki uning rivojlanishini faollashtiradi. Shuning uchun ba'zan partenogenezning bir turi deb qaratadi. Baliqlar, yumaloq og'izlilarda, ba'zi yopiq urug'li o'simliklarda uchraydi.

**Gipermetamorfoz** — ayrim hasharotlar (qo'ng'izlar, yelpig'ichqanothilalar)ning murakkab rivojlanish usuli bo'lib, ularning turli yoshdagagi lichinkalarining tuzilishi va hayot tarzi bir-biridan keskin farq qiladi.

**Gipermorfoz, ortiqcha metamorfoz** — muhitning tez o'zgarishi tufayli organizm bilan uning orasidagi munosabatlarning buzilishi natijasida organizm yoki uning biror a'zoining ma'lum yo'nalishdagi filogenetik rivojlanishi.

**Giperpolarizatsiya (membranlar)** — Membrana potensialining ortishi — fiziologik tinch holatdagi tirik hujayra tashqi va ichki membranalardagi potensiallar farqining ortishi, ya'ni potensial tinchlikning ortishi.

**Gipoderma — Ostki qatlam** — ayrim umurtqasizlarning yirik epitelial hujayralaridan tashkil topgan tana devorining bir qismi.

**Gipofiz** — umurtqali hayvonlar bosh miyasi asosida joylashgan ichki sekretsiya bezi. Gipofiz ishlab chiqaradigan gormon organizmdagi moddalar almashinuvli jarayonini uyg'unlash-tirishda katta ahamiyatga ega.

**Gipokotil** — poyaning ildiz bo'yni va urug'palla o'rtaсидаги qismi.

**Gipomorfoz** — evolutsiya jarayonida organizm tuzilishining soddalashuvvi. Bunda ko'pincha ixtisoslashuv belgilari yo'qoladi.

**Gipotalamus** — oraliq miyaning talamus ostidagi qismi. Unda organizmning endokrin va asab tizimlari bir-biri bilan bog'langan bo'ladi. Organizm vegetativ vazifasi va ko'payishini boshqarishda (uyg'unlashtirishda) ishtirok etadi.

**Gipotermiya** — issiq qonli hayvonlar va odam tanasi haroratining pasayishi.

**Gistidin** — ko'pchilik oqsillar tarkibida uchraydigan zaruriy aminokislota.

**Gistologiya** — odam, hayvon kabi ko'p hujayrali organizm to'qimalari tuzilishi, rivojlanish qonuniyatları va vazifasini o'rganadigan fan.

**Gistonlar** — o'simlik va hayvon hujayralari yadrosida uchraydigan arginin va lizin qoldiqlariga boy ishqoriy xususiyatlari oqsillar.

**Glikogen** — hayvon kraxmali. Molekulasi glukozadan iborat; odam, umurtqali hayvonlarning asosan jigari va muskullarida hamda achitqi zamburug'larda, ko'k-yashil suvo'tlarida to'planadigan polisaxarid. Glikogen makkajo'xori donida ham topilgan.

**Glikolipidlar** — uglevodlar va lipidlardan tashkil topgan murakkab birikma. Biologik membranalarning tashqi qismida uchraydi.

**Glikoliz** — tirik organizmlarda glukozaning sut kislotasigacha fermentativ yo'l bilan parchalanishini ta'minlovchi anaerob jarayon.

**Glikoproteinlar** — uglevodlar va aminokislotalardan tashkil topgan

murakkab oqsillar. Qon zardobidagi oqsillar; ko'pchilik fermentlar, membrana oqsillari misol bo'ladi.

**Glikozidlar** — shakar qoldiqlari va boshqa organik birikmalardan tashkil topgan moddalar guruhi. Ko'pchiligi achchiq ta'mga ega. Ba'zilari tibbiyotda ishlatalidi.

**Glioksilat halqasi** — mikroorganizmlar, zamburug'lar va yuksak o'simliklarda ro'y beradigan fermentativ jarayon; natijada yog'lardan uglevodlar hosil bo'ladi. Buni moyli o'simliklar urug'inining unish davrida kuzatish mumkin.

**Glioksisomalar** — hujayra organoidi. Unayotgan urug'larda uchraydigan peroksisoma turi. Glioksilat halqasi reaksiyalari shu organoidlarda amalga oshiriladi.

**Glitseridlar** — glitserin va yuqori molekulali yog' kislotalar efiri; o'simlik va hayvon hujayralarida to'planadigan yog'larning asosiy qismi.

**Globin** — gemoglobin oqsili. Har xil hayvonlar gemoglobini dagi farq asosan globin bilan belgilanadi.

**Globulinlar** — suyultirilgan tuzli eritmalarda eruvchi oddiy oqsillar. Dukkakli va moyli ekinlar urug'inining asosiy oqsili hisoblanadi. Qon zardobidagi zidditanachalar, ya'ni gammaglobulinlar ham shu oqsillar vakilidir.

**Glukagon** — oshqozon osti bezi gormoni. Insulin gormoni antagonisti. Glukagon ta'sirida glikogenning parchalanishi tezlashadi va qonda glyukozaning miqdori ortadi.

**Glukoneogenez** — glukozaning uglevod bo'limgan moddalardan biokimyoiy jarayonda hosil bo'lishi.

**Glukoza, uzum shakari** — geksozalar guruhiiga mansub monosaxarid.

Keng tarqalgan. Hayvonlar va mikroorganizmlarning muhim energiya manbai hisoblanadi.

**Glutamin** — o'simliklarda azot almashinuvida muhim rol o'ynaydigan aminokislotasi.

**Glutamit kislota** — muhim aminokislotalardan biri, ko'pchilik oqsillar tarkibida uchraydi.

**Glutation** — barcha tirik organizmlarda uchraydigan tripeptid. Oksidlanish qaytarilish reaksiyalarida ishtirok etadi.

**Glutelinlar** — g'alla o'simliklari donida uchraydigan, kuchsiz ishqoriy eritmalarda eriydigan oddiy oqsil. Glutamin kislotosi va lizinga boy. G'o'za chigitida ham oz miqdorda uchraydi.

**Golji apparati, Golji majmuasi** — diskasimon membranalar to'plami va pufakchalardan tashkil topgan hujayra organoidi.

**Golofit oziqlanish** — o'simlik va zamburug'larga xos ozuqlanish yo'llaridan biri. Odatda, erigan moddalar hujayraning yuza strukturalari orqali ko'chirilishi yoki yutishi bilan amalga oshiriladi.

**Gologamiya, makrogamiya** — bir hujayrali organizmlar (volvokssimon suvo'tlar va boshqalar) dagi jinsiy jarayonning oddiy xili. Bunda maxsus jinsiy hujayralar hosil bo'lmay, balki ikki individning o'zaro qo'shilishi ro'y beradi.

**Gomeostaz** — organizmning asosiy fiziologik vazifalarining turg'unligi (nafas olish va qon aylanish) va nisbiy dinamik doimiyligi (qon, limfa).

**Gominidlar** — odamsimon maymunlar turkumining oilasi. Bularga qazilma va hozirgi zamon odamlari kiradi.

## G

**Gommoz, moyli dog' kasalligi** — bakteriyalar qo'zg'atadigan o'simlik kasalligi. Danakli o'simliklar va g'o'za barglari, poyasi, ko'saklarida kulrang moysimon dog'lar hosil qilib rivojlanadi.

**Gomologik a'zolar, o'xshash a'zolar** — tirik organizmlardagi vujudga kelishi, tuzilishi va rivojlanishi bir xil bo'lgan a'zolar. Ular shakli va bajarayotgan vazifasi bo'yicha farqlanishi mumkin. Masalan, qushlarning qanoti va sut emizuvchilarining oldingi oyog'i o'xshashdir

**Gomologik (o'xshash) xromosomalar** — morfologik belgilariga ko'ra o'xshash bo'lgan bir xildagi juft xromosomalar. Bular bir xil genlar to'plamiga ega. Diploidli organizmlarda gomologik xromosomalar soni doimo juft bo'ladi.

**Gomologiya — O'xshashlik** — kelib chiqishi bir xil, lekin bajaradigan vazifalari har xil bo'lgan a'zo (qush qanoti, odam qo'li).

**Gomoseksualizm** — o'z jinsidagi kishilar bilan jinsiy aloqa qilishdan iborat g'ayritabiyy xatti-harakat.

**Gomotallizm, ikki jinslik** — ayrim zamburug'lar va suvo'tlaridagi ikki jinslik. Bunda bir tallomdan hosil bo'lgan gametalar o'zaro qo'shila olish xususiyatiga ega.

**Gomoyoterm hayvonlar, issiqqonli hayvonlar** — tana ichki haroratini muhit haroratiga amalda bog'liq bo'lмагan holda nisbatan bir xil darajada saqlash xususiyatiga ega organizmlar (q. *Poykiloterm hayvonlar*).

**Gomozigota** — irsiy belgilari bir xil ikki gametaning qo'shilishidan hosil bo'lgan zigota yoki organizm.

**Gonadalar, jinsiy hujayralar** (tuxumhujara va spermatozoid) va jinsiy gormonlar hosil qiladigan a'zo. Erkak gonada — urug'donlar va urg'ochi gonada — tuxumdonlar deb ataladi.

**Gonadotrop gormonlar** — umurtqali hayvonlar jinsiy bezlarining endokrin vazifasini boshqaradigan gormonlar.

**Gormonal muvozanat** — ichki sekretsya bezlari tomonidan gormonlarning nisbatan bir xil darajada ishlab chiqarilishi.

**Gormonlar, qo'zg'atgichlar** — organizmning ichki sekretsya bezlari qonga ajratib chiqaradigan, fermentativ jarayonlarni tezlatish yoki sekil latish yo'li bilan organizm faoliyatiga ta'sir qiladigan kuchli biologik faol moddalar.

**Grana** — xloroplastlarning silindrik tuzilishi. Bir necha tilakoidlar (membrana qopchalar) dan hosil bo'ladi. Granalarda yorug'lik energiya ATP ning kimyoviy energiyasiga aylanadi.

**Grena** — Ipak qurti urug'i.

**Guanin** — purin asosi; nuklein kislotalar, nukleotidlар va boshqalar tarkibida uchraydi.

**Gul** — o'simliklarning jinsiy ko'payish vazifasini bajaruvchi a'zosi. Gul — ko'rinishi o'zgargan novdadir.

**Gul formulasi** — gul tuzilishini latin harflari, simvollar va raqamlar bilan shartli ravishda ifodalash. Masalan, kosacha — K, changchi — A, tojbarg — S, urug'chi — G.

**Gul oldi bargcha, yondosh bargcha** — gul dastasining tagida o'rashgan bargchalar.

**Gulband** — gulni poya bilan biriktirib turuvchi qism.

# G

**Gulbarg, tojibarg** — tojni tashkil etuvchi, gulkosa ichida joylashgan har xil shakl va rangdagi bargchalar.

**Gulkosacha** — gulqo'rg'onning tashqi tomonidagi yashil bargchalar to'plami.

**Gulkosachabarg** — odatda yashil rangdagi kosachani tashkil qiluvchi bargchalar.

**Gullash** — gulli o'simliklar hayotidagi ma'lum davr. Bu — gul hosil qiluvchi kurtaklarning paydo bo'lishidan boshlab, to gulqo'rg'on va changchilarning o'z vazifasini bajar-gach, qurib qolishgacha o'tgan davrni o'z ichiga oladi.

**Gulo'rin** — gulbandning kosacha, gultoj, kosachabarg, changchi va boshqalar joylashgan yuqori qismi.

**Gultoj, toj** — turli rangga ega bo'lgan gultojibarglar majmui.

**Gulxayridoshlar** — ikki pallali o'simliklar oilasi; masalan, g'o'za.

**Gumoral regulyatsiya** — **Qon yordamida boshqarish** — organizmdagi hayotiy jarayonlarni uyg'unlashtirish mexanizmlaridan biri; mod-dalar almashinuvni mahsulotlari yordamida organizmning suyuq muhitini (qon, limfa, to'qima suyuqligi) orqali amalga oshiriladi.

**Gumus — Chirindi** — tuproqdagi nobud bo'lgan o'simlik va hayvon qoldiqlari hamda ularning hayot faoli-yati mahsulotlarining parchalani-shidan vujudga kelgan organik birik-malar. Gumusga boy bo'lgan tuproqlar unumdon bo'ladi.

**Gunafshaguldoshlar** — ikki pal-lali o'simliklar oilasi.

**Gulqo'rg'on** — changchi va urug'-chini o'rab olgan qoplovchi barglar (gulkosa va gultojibarg) majmui. Ular changlanishga yordam qiladi va himoya vazifasini bajaradi.

**Guttapercha, tabiiy saqich, oq saqich** — lateks beruvchi o'simliklarning qotgan shirasidan olinadigan terisimon elastik mahsulot.

**Guttatsiya, shira chiqarish, tom-chilash** — o'simlik ildizidagi bosimning ortishi ta'sirida barg orqali suyuqlikning tomchilab chiqishi.

**Go'dak, jo'ja** — hayvon yoki par-randa bolalari; mustaqil hayotga o'rgangunga qadar ota-onasi bilan birga yashaydi.

**Go'ng** — mahalliy organik o'g'it. Yerni yumshatish va o'simlikning me'yorli oziqlanishi uchun sharoit yaratadi. Tarkibi azot va barcha kul elementlariga boy.

**Go'ng qo'ng'izlari** — plastinka mo'ylovililar oilasiga mansub qo'n-g'izlar urug'i. 1500 ga yaqin turi mavjud. Tuproq hosil qilish qatnashchisi va sanitар sifatida foyda keltiradi.

**Go'ngxo'rilar** — qo'ng'izlarning bir necha turkumini birlashtiruvchi guruh. Ko'pchiligining qo'ng'iz va qurtlari go'ng bilan oziqlanadi, ba'zilari o'likxo'r, ayrimlari esa o'simlikxo'rdir. Bular atrof-muhitni tozalashda sanitар hasharotlar sifatida muhim ahamiyatga ega.

# H

**Halqali chuvalchanglar** — chuvalchanglar turi; ularning tanasi halqalarga bo'lingan. Masalan, yomg'ir chuvalchangi.

**Halqum, tomoq** — ovqat hazm qilish yo'lining oldingi bo'limi. Nafas olish va ovqat hazm qilish tizimlari bilan bog'liq.

**Haqiqiy ko'payish tezligi** — bir urg'ochi individning umri davomida o'rta hisobda beradigan avlodlar soni.

**Haqiqiy mahsulot** — organizmning o'sishi va rivojlanishi natijasida to'planadigan ozuqa moddalar yoki energiya miqdori.

**Harakatchan genlar, «sakrovchi» genlar** — hujayra genomi bo'ylab ko'chib yuruvchi DNK qismlari (q. *Transpazonlar*).

**Harakatlantiruvchi tanlanish** — tabiiy tanlanish shakllaridan biri bo'lib, tanlanish faqat ma'lum bir yo'nalishda boradi.

**Hasharotlar** — bo'g'imoyoqlilar turiga mansub umurtqasiz hayvonlar sinfi. Hayvonot dunyosining eng turga boy qismi. Tanasi uch qismdan: bosh, ko'krak va qorinchalardan iborat. Ko'krak qismida uch juft oyoqlar bor. Traxeyalari bilan nafas oladi. Tuxum qo'yuvchi va tirik tug'uvchi turlari bor. Hamma joyda keng tarqalgan. Foyda, shuningdek, zarar kelтирувчи xillari mavjud.

**Hasharotlar kolonizatsiyasi** — zararkunandalarining tabiiy dushmanlari hisoblangan hasharotlarni sun'iy yo'l bilan ko'paytirib, har yili tabiatga mavsumiy qo'yib yuborish.

**Hasharotxo'r o'simliklar** — maxsus proteoletik fermentlar yordamida hasharotlarni hazm qilib, oziqlanuvchi

o'simliklar guruhi. Bunday o'simliklarda hasharotlarni ushlab oluvchi maxsus moslamalar, yopishqoq moddalar mavjud.

**Hasharotxo'rlar** — hasharotlar bilan ovqatlanuvchi sut emizuvchilar turkumi. Qishloq xo'jalik zararkunandalarini yo'qotishda muhim ahamiyatga ega.

**Havo ildizlar** — o'simlik yer ustki poyalarida hosil bo'luvchi qo'shimcha ildizlar; havodan nam yutish vazifasini bajaradi.

**Havo qopchiqlari** — yer yuzida yashovchi hayvonlar tanasidagi havo bilan to'la bo'shliqlar. Masalan, dumsiz amfibiyalarning tovush qopchiqlari, sudralib yuruvchilarning o'pka qopchiqlari va boshqalar. Qushlarda o'pka aeratsiyasi, tana haroratini boshqarishda, uchish hamda sho'ng'ishda tana tig'izligining o'zgarishida ishtirot etadi.

**Hayot** — moddalar almashinushi, ko'payish, o'sish, o'z tuzilishi va vazifasini boshqarish, harakatlansh, ta'sirlanish, muhitga moslashish va boshqa shu kabi xususiyatlarga ega bo'lgan materiyaning mavjudligi.

**Hayotchanlik, yashovchanlik** — tirik organizmning tashqi muhit o'zgarishlariga moslanuvchanlik xususiyati.

**Hayotiy shakl (o'simliklarda)** — o'simliklarning muhitga mos xarakterli tashqi tuzilish shakli. Masalan, fenerofitlar, kreptofitlar, terofitlar.

**Hayvonlar** — faol harakatlantuvchi, tayyor organik birikmalar bilan ozuqlanuvchi geterotrof tirik organizmlar dunyosi.

**Hayvonlar morfologiysi** — hayvon organizmining tuzilishi va shaklini o'rganuvchi fan.

# H

**Hayvonlar ovozi** — hayvonlardagi xabar beruvchi aloqa vositalaridan biri.

**Hayvonlarni tamg'lash (belgilash, nishonlash)** — hayvonlar biologiyasini o'rganish yoki biror zotni boshqasidan ajratish maqsadida belgi qo'yish.

**Hayvonlarning ko'chishi, hayvonlar migratsiyasi** — hayvonlarning yashash sharoiti yoki rivojlanish siklining o'zgarishi bilan bog'liq (mavsumiy, kunlik, yillik) yoppasiga ko'chish.

**Hid bilish** — organizmning tevarak-atrofda mavjud turli moddalar hidini sezish xususiyati.

**Hiloldoshlar** — bir pallali o'simliklar oilasi.

**Himoya hujayralari, fagotsitlar** — hayvonlar va odamning biriktiruvchi to'qimalaridagi himoya vazifasini bajaradigan maxsus hujayralar.

**Homila** — sut emizuvchi hayvonlar urg'ochisi organizmida rivojlanadigan embrion.

**Homiladorlik, bo'g'ozlik** — tirik tug'uvchi hayvonlar va ayol bachadonida bolaning vujudga kelishi, o'sib, yetilishi bilan bog'liq fiziologik jarayon.

**Homiy bez, prostata bezi** — erkak jinsiy tizimiga kiruvchi toq bez. O'ziga xos hidli sutsimon rangli suyuqlik ajratadi va erkak jinsiy hujayralar harakatini faollashtiradi.

**Hosil tuzilishi** — o'simlik hosildorligini ifodalovchi elementlar majmui. Masalan, g'o'zada bunday elementlar hosil shoxi va ko'saklar soni, tola miqdori, 1000 ta chigit og'irligi kabilardan iborat.

**Hujayra** — barcha tirik organizmlarning o'zidan ko'payish va o'zini boshqarish xususiyatlariga ega struk-

tura-funksional birligi; elementar tirik tizimi. Har bir hujayra uch asosiy qism: plazmalemmayadro va sitoplazma hamda undagi organoidlardan tashkil topadi.

**Hujayra agregatsiyasi, hujayra-ning to'planishi** — hujayralardan ko'p hujayrali to'plamlarning shakllanish jarayoni. Organizm me'yori rivojlanishida yuz beradi.

**Hujayra differentsiatsiyasi** — dastlabki hujayra bir xil massasidan har xil ixtisoslashgan to'qima hujayralarining shakllanishi.

**Hujayra kiritmalari** — sitoplazmadagi noturg'un hosilalar — moddalar almashinuvni mahsulotlari jamg'arma holda to'planuvchi oqsil va kraxmal donachalari, moy tomchilari, turli xil pigmentlar, ayrim tuzlarning kristallari va boshqalar.

**Hujayra markazi** — membranasiz tuzilishga ega bir-biriga nisbatan perpendicular joylashgan ikkita sentrioladan iborat organoid.

**Hujayra membranasi, sitoplazmatik membrana, plazmolemma** — asosan oqsillar va lipidlardan tashkil topgan hujayra sitoplazmasini tashqi muhitdan yoki hujayra qobig'idan (o'simlik hujayralarida) ajratib turadigan membrana. U hujayraning yaxlitligini ta'minlaydi, hujayra bilan tashqi muhit o'rtasidagi aloqalarni boshqarib turadi.

**Hujayra muhandisligi** — hujayralarni o'stirish, duragaylash va rekonstruksiya qilish asosida ularning yangi hayotiy shakllarini yaratish. Duragaylash jarayonida butun hujayralar bir-biri bilan birlashtirilib, duragay genom hosil qilinadi. Hujayra rekonstruksiyasida har bir hujayralarning ayrim qismlari (yadro,

sitoplazma)dan hayotiy hujayra yaratiladi. Shu yo'l bilan inson uchun foydali xususiyatlarga ega bo'lgan yangi zot va navlar vujudga keladi.

**Hujayra nazariyasi** — biologiyaning eng muhim nazariyalaridan biri bo'lib, unga ko'ra barcha tirik organizmlar hujayra va uning hosilalaridan tashkil topgan. 1838—1939 yillarda M. Shleydin va T. Shvann ishlab chiqqan.

**Hujayra oralig'i** — o'simlik tana hujayralararo kovak (bo'shliq). Turli suyuqlik yoki havo bilan to'lgan bo'lishi mumkin. Maxsus kanallar hosil qiladi yoki gaz almashinuvida ishtirok etadi.

**Hujayra qobig'i** — faqat o'simlik hujayralariga xos va plazmatik membrana tashqarisida joylashgan qobiq. Hujayraga qattiqlik beruvchi selluloz-a tolalaridan iborat bo'lib, shaklni saqlab turadi.

**Hujayra seleksiyasi** — seleksiya (tanlash) yo'li bilan mutant hujayralar va undan hosil bo'lgan klon variatsiyalarni ajratib olish usuli.

**Hujayralararo aloqalar** — plazmatik membranalarning maxsus qismlari hisobiga hosil bo'ladigan tirik hujayralar o'rtaсидagi tolalar (q. *Plazmodesmalar*).

**Hujayralararo suyuqlik** (q. *To-qima suyuqligi*).

## I

**Idioblastlar** — ma'lum to'qimalar orasida yakka holda uchraydigan o'ziga xos hujayralar. Ular shakl va vazifasi bilan mazkur to'qima hujayralaridan farqlanadi. Masalan, tosh hujayralar, tuz va boshqa moddalar saqllovchi hujayralar.

**Idiogamiya, o'zidan changlanish** — gulli o'simliklarning changlanish xillaridan biri.

**Idiotip, maxsus tip** — organizm barcha irsiy omillarining yig'indisi bo'lib, genotip, plazmon va plastomni qamraydi.

**Ifloslovchi** — atrof-muhitga tushadigan har qanday fizik agent, kimyo-viy modda yoki biologik tur (asosan mikroorganizmlar)ning ayni vaqtida ularning odatda uchraydigan me'yorli miqdoridan bir necha barobar ortib ketishi.

**Ignabarg** — ko'pchilik ochiqurug'li o'simliklar bargi.

**Ignabarglilar** — ochiqurug'li o'simliklarning asosiy guruhi. Barglari ignasimon. Odatda baland bo'yli daraxtlar, ba'zan butalar. Xalq xo'jalgida yog'ochning asosiy manbai. Ulardan suv saqlash, eroziyaga qarshi kurashda keng foydalaniladi.

**Ignatanlilar, ignaterililar** — umurtqasiz hayvonlar tipi. Masalan, dengiz yulduzları, dengiz kirpilari.

**Ikki jinsli gul** — urug'chi va changchilarga ega bo'lgan gul.

**Ikki pallali o'simliklar** — mur-taklari ikkita urug' pallaga ega yopiq urug'li o'simliklar. Masalan, g'o'za, loviya, beda va hokazo.

**Ikki tabaqalilar, ikki pallali mol-luskalar, plastinka jabralilar** — chig'anoqli molluskalar sinfi. Chig'anog'i ikki tabaqali. Ba'zi turlarida mantiya bilan chig'anoq o'rtaсиda marvarid rivojlanadi, ayrimlarining chig'anog'idan sadaf olinadi. Go'shti

yeylimadigan turlari ham bor. Suv havzalari tubida yashaydi.

**Ikki uyli o'simliklar** — changchi (otalik) va urug'chi (onalik) gullarning boshqa-boshqa o'simliklarda bo'lishi. Masalan, tol, terak.

**Ikki yillik o'simliklar** — hayoti ikki yil davom etuvchi o'simliklar. Birinchi yili faqat vegetativ a'zolari rivojlanib, oziq modda jamg'aradi. Ikkinchisi esa urug', meva tugib, nobud bo'ladi. Masalan, qand lavlagi, sabzi va boshqalar.

**Ikkilamchi jinsiy belgilar** — odam va hayvon organizmi bir jinsini ikkinchisidan ajratuvchi belgilar yig'indisi. Jinsiy yetilish davrida gormonlar ta'sirida shakllanadi.

**Ikkilamchi og'izlilar** — hayvonlar bo'limi. Bularga ikkilamchi tana bo'shlig'i (selom)ga ega hayvonlar kiradi. Masalan, ignatanlilar, chalaxordalilar, xordalilar va boshqalar.

**Ikkilamchi qanotsizlar** — evolutsiya jarayonida yashash tarzining o'zgarishi tufayli qanotlarini yo'qtgan hasharotlar. Masalan, bitlar, burgalar.

**Ikkilamchi qobiq** — o'sishdan to'xtagan, qattiq tuzilishga ega tayanch hamda o'tkazuvchi to'qima vazifasini bajaruvchi o'simlik hujayrasining qobig'i.

**Ikkilamchi struktura** — oqsillar, nuklein kislotalar va uglevodlarning vodorod bog'lar tufayli hosil bo'ladiyan tuzilishi.

**Ikkinchchi signal tizimi** — odam organizmiga xos bo'lgan yuksak asab tizimining sifat jihatidan maxsus shakli; nutq signal tizimi. Bu haqdagi tushunchani fanga 1932-yilda fiziolog olim I. P. Pavlov kiritgan.

**Ikra, uvildiriq** — baliqlar, amfibiyalar va boshqa dengiz hayvonlarining tuxumi.

**Ildiz** — o'simlik asosiy vegetativ a'zolaridan biri. O'simlik tanasining substratga mahkam o'rashishini hamda undan ozuqa moddalarini tanga yetkazib berishni ta'minlaydi va boshqa vazifalarni bajaradi.

**Ildiz bosimi** — ildizning o'tkazuvchi naylaridagi bosim; yer ustki a'zolarni (transpiratsiya bilan bir qatorda) suv bilan ta'minlaydi.

**Ildiz qini (g'ilofi)** — o'simlik ildizlarining eng uchki qismidagi hujayralar to'plami. Bular ildizni mexanik shikastlanishdan saqlaydi.

**Ildiz tizimi** — bir o'simlik barcha ildizlarining majmui.

**Ildiz tukchalar** — ildiz qoplovchi to'qimasidan hosil bo'lувchi tukchalar.

**Ildiz yoyish, tomir otish** — yangi ekilgan o'simlik ildizining kuchli rivojlanishi. Bu — o'simlikning tuproqqa mahkam o'rashishiga va ozuqa moddalar bilan ta'minlanishiga imkon yaratadi.

**Ildizdan tashqari oziqlantirish** — ozuqa elementlarining barg va poya orqali o'zlashtirilishi.

**Ildizpoya, yertana** — ba'zi ko'p yillik o'simliklarning ko'rinishi o'zgargan yer osti moyasi. Jamg'arma moddalar to'plash, vegetativ yo'l bilan qayta tiklanish va ko'payish uchun xizmat qiladi.

**Ilik** — umurtqali hayvonlar suyak bo'shliqlarini to'ldiruvchi to'qimalar.

**Ilonlar** — sudralib yuruvchilar sinfining turkumi. 3000 ga yaqin turlari mavjud, shulardan 400 ga yaqini zaharli.

**Imago** — hasharotlar rivojlanishidan so'nggi voyaga yetgan davri.

**Immigratsiya, ko'chib kelish** — ilgari yashamagan (o'smagan) biron-bir joyga tirik organizmning ko'chib kelishi.

**Immobilizatsiya qilingan fermentlar, sustkash fermentlar** — biron-bir usul yordamida molekulalariга suvda erimaydigan organik moddalar biriktirilgan fermentlar. Natijada bunday fermentlarning denaturatsiya yaga olib keluvchi kuchlarga nisbatan chidamligi bir necha barobar ortadi va ta'sirini asta-sekinlik bilan ko'rsatadi.

**Immun tizim — Himoya qiluvchi tizim** — organizmdagi kimyoiyi moddalarni aniqlash, bilish xususiyatiga ega bo'lgan tizim. Bu tizimning vazifasi hayvon va odam organizmiga kirgan har qanday begona modda (mikroorganizm)ni aniqlash va uni bartaraf etishdan iborat.

**Immunitet** — organizmning himoya reaksiyasi.

**Immunogen, himoyachi gen** — zidditanachalar hosil qilish xususiyatiga ega yot (begona) makromolekula.

**Immunoglobulin, himoya oqsili** — begona (yot) moddalar — antigenlar bilan o'ziga xos birikish xususiyatiga ega murakkab oqsil. Odam va umurtqali hayvonlar qonida bo'ladi.

**Immunologiya, organizmning himoya reaksiyalari** — immunitet haqidagi fan.

**Immuntolerantlik, chidamlilik** — organizmning qolgan barcha begona tanacha (antigen)larga immunoreaktivlikni saqlagan holda mazkur antigenga nisbatan immunologik javobning susayishi yoki yo'qolishi.

**Implantatsiya** — inson yoki hayvon organizmida qilinadigan jarrohlik operatsiyalarining bir necha xili. Masalan, otalantirilgan tuxumhujayrani bachadonga yopishtirib qo'yish.

**Inbred tizim** — genotipik bir xil nasllar yoki zotlar.

**Inbriding** — chatishtrish turi; bunda yaqin qarindosh organizmlar bir-biri bilan chatishtriladi.

**Individ** — mustaqil yashash xususiyatiga ega organizm.

**Induksiya, qo'zg'atish** — ikki asosiy fiziologik jarayon — qo'zg'alish va to'xtash jarayonlariga asab markazlarining o'zaro ta'siri. Bunda bir jarayonning hosil bo'lishi qaramaqarshi hisoblangan ikkinchisining ham rivojlanishiga sabab bo'ladi.

**Induktor, qo'zg'atuvchi** — induksirlangan fermentlarning hosil bo'lishini tezlatuvchi modda.

**Infauna** — biron-bir muhit ichida, masalan, suv havzasи tubida yoki uning yuzasida yashovchi organizmlar majmui. Masalan, chuvalchanglar, molluskalar va boshqalar.

**Infeksiya, yuqum** — kasallik qo'zg'atuvchi mikrobynning o'simlik, hayvon yoki odam organizmiga kirib, ko'payishi.

**Informatsion RNK, vositachi RNK, qolip RNK** — hujayra oqsilalarining sintezi uchun qolip, vositachi bo'lib, genetik informatsiyani DNK dan poliribosomalarga ko'chiradi.

**Informosomalar** — eukariotlar hujayrasidagi ribonuklein kislota va oqsildan iborat zarrachalar.

**Infuzoriyalar** — ichki tuzilishi bir-muncha murakkablashgan bir hujayrali eng sodda hayvonlar. Ko'pslonli kiprikchalar yordamida harakatlana-

di va oziqlanadi. Ularning o'troq, yakkala, koloniya hosil qiluvchi va boshqa xillari mavjud.

**Ingibitorlar — O'simliklarning o'sish ingibitorlari** — o'simliklar o'sishini sekinlashtiruvchi tabiiy yoki sintetik moddalar. Bularga etilen, absizat kislota, xlortexolinxlorid (tur) kabilar kirdi.

**Ingichka ichak** — oshqozon-ichak yo'lining birinchi bo'limi. Bu bo'limda ko'pchilik ozuqa hazm bo'ladi va so'rildi.

**Inokulyatsiya** — tirik mikroorganizmlarni ozuqa muhitiga, o'simlik yoki hayvon organizmiga kiritish. Masalan, dukkakli o'simliklar urug'ini tunganak bakteriyalari bilan emlash (yuqtirish).

**Insektitsidlar** — zararkunanda hasharotlarni yo'qotish uchun ishlataladigan kimyoviy moddalar.

**Instinkt, beixtiyor harakat** — organizmning ichki va tashqi ta'sirotlarga javoban ko'rsatadigan tug'ma, zaruriy xatti-harakatlari. U har bir hayvon turida o'ziga xos ko'rnishga ega bo'ladi va nasldan naslga o'tadi.

**Insulin** — oshqozon osti bezi ishlab chiqaradigan oqsil tabiatli gormon. Qondagi shakar miqdorini boshqaradi.

**Interfaza** — hujayraning mitotik bo'linishlar orasidagi holati.

**Interferon** — virus infeksiyasiga (masalan, grippga) qarshi organizm (asosan sut emizuvchilar va qushlarda) ishlab chiqaradigan oqsil. Immun tizimiga aloqador emas.

**Intoksikatsiya, zaharlanish** — organizmning o'zida hosil bo'lgan (endogen) yoki tashqaridan kirgan (ekzogen) moddalar bilan zaharlanishi.

Masalan, mikroblar (botulizm), o'simlik zaharli moddalar (alkaloidlar).

**Introduksiya, joriy etish, kiritish** — hayvon yoki o'simlik turlarini ilgari yashamagan yoki o'smagan, tabiiy sharoiti boshqacha joylarga ko'chirish, iqlimlashtirish, tarqatish. Yovvoyi o'simliklarni madaniylashtirish.

**Intron, oraliq qism** — gen (DNK) ning irlsiy axborotga ega bo'lmagan va ekzonlarni ajratib turuvchi bir qismi. Faqat eukariotlarga va ularning viruslariga xos.

**Inulin** — suvda eriydigan polisaxarid, gidrolizlanganda fruktozagacha parchalanadi. Topinambur (yer noki), kartoshkagul, sachratqi kabi o'simliklarda jamg'arma modda sifatida to'planadi.

**Invaziya** — odam, hayvon yoki o'simliklarga parazitlarning yuqib, kasallik paydo qilishi.

**Inversiya, o'rin almashtirish** — xromosoma tizilishining ichki o'zgarishi bo'lib, uning biron-bir qismi  $180^\circ$  ga burilishi natijasida yuz beradi.

**Involutsiya, teskari evolutsiya** — evolyutsiya davrida ayrim a'zolar, to'qima va hujayraning o'ziga xos bo'lmagan shaklga o'tishi yoki vazifasining o'zgarishi.

**Ion almashtiruvchilar** — tabiiy yoki sun'iy yuqori molekulalni erimaydigan qattiq organik yo anorganik moddalar. O'z ionlarini muhitdagi boshqa ionlarga ekvivalent miqdorda almashtirish xususiyatiga ega. Kation va anion almashtiruvchi turlarga bo'linadi.

**Ion kanallari** — tirik hujayra va uning orgonoidlari membrana tizimi

bo'lib, turli xil ionlarning tanlab o'tkazilishini ta'minlaydi.

**Ion nasoslari** — ayrim ionlarning hujayra membranalarida elektrokimyoviy potensiali yuqori bo'lgan tommonga maxsus ion kanallari orqali ko'chirilishini amalga oshiruvchi tizim.  
**Ionlovchi nurlanish** — elektromagnit nurlanish zarralari va kvantlari oqimi. Organizm to'qimalaridagi moddalar orqali o'tganda uning atom va molekulalarining ionlashishiga hamda qo'zg'alishiga sabab bo'ladi. Natijada to'qima, a'zo yoki organizm kuchli mutagen o'zgarishlarga uchraydi.

**Ionoforlar, ion o'tkazuvchi vositalar** — membranalarning ma'lum ionlarni o'tkazish xususiyatini oshirib berish imkoniga ega kichik molekulali birikmalar. Masalan, valinomitsinta'sirida kaly ionlarining membranalar orqali o'tishi bir necha barobarga ortadi.

**Ipak qurtlar** — tungi kapalaklar ayrim oilalarining umumlashgan nomi. Qurtlari ipakdan pilla o'raydi. Masalan, tut ipak qurti, eman ipak qurti, oq qayin ipak qurti va boshqalar.

**Ipakchilik, pillachilik** — ipak qurtlarini ko'paytirish, boqish, pilla tayyorlash va yangi ipak qurti zot hamda duragaylarni yaratish bilan shug'ullanuvchi fan.

**Irq** — morfologik jihatdan shu joyda yashovchi boshqa guruhdan farq qiluvchi bir turning ekologik guruhi.

**Irsiyat** — organizmnинг avlodlar o'rtaсидаги moddiy va funksional izchilligini, ya'ni ota-onadagi belgi hamda xususiyatlarning keyingi avlodga o'tishini ta'minlash xususiyati. Irsiyat hayotning doimiyligini va tur-

li shakkarda namoyon bo'lishini ta'minlab, tirik organizmlar eolvutsiyasining asosini tashkil etadi.

**Irsiyatning xromosoma nazariyasi** — hujayra xromosomalarida irsiy belgilarning joylanishi va ularning nasldan naslga o'tishi to'g'risidagi ta'llimot; T. Morgan ishlab chiqqan.

**Irsiylanish, nasldan naslga o'tish** — organizmlarning irsiy informatsiyasini avloddan avlodga o'tkazish jarayoni.

**Issiqliq chidamlilik** — tirik organizmlarning o'ta yuqori harorat ta'siriga chidamlilik xususiyati.

**Issiqliqonlik** — tananing tashqi muhit iqlimiga bog'liq bo'limgan doimiy harorati. Asosan qushlar va sut emizuvchilarga xos.

**Itbaliq** — suvda va quruqda yashovchi dumsiz hayvonlarning suvda rivojanadigan lichinkasi.

**Ituzumdoshlар** — ikki pallali o'simliklar oilasi (tomat, kartoshka, baqlajon va hokazo).

**Ixota daraxtzorlar** — qishloq xo'jalik ekinlarini noqulay sharoitdan saqlash uchun dala chetlariga ekiladigan o'rmon daraxtlari.

**Ixtiofauna** — biron-bir suv havzasini yoki uning ma'lum qismida yashovchi baliqlar majmui.

**Ixtiobiya** — baliqlarning tuzilishi, vazifasi, rivojanishi, tarqalishi, eolvutsiyasi, sistematikasi va xalq xo'jaligidagi ahamiyatini o'rganadigan zoologiyaning bo'limi.

**Ixtiotsid** — baliqlarni yo'qotishda ishlataladigan kimyoviy moddalar.

**Ixtiozavrlar** — mezozoy erasida yashab, so'ng qirilib bitgan sudralib yuruvchilarning kenja sinfi. Yura davrida eng ko'p tarqalgan. Tana tuzili-

shi baliqlar yoki delfintarga o'xhash bo'lgan.

**Izoelektrik nuqta** — amfoter modalarning anodga ham, katodga ham harakat qilmaydigan muhit — rN ning qiymati. Oqsil moddalarining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Izoelektrik nuqtada oqsil beqaror bo'ladi va osonlik bilan cho'kmaga tushadi.

**Izofermentlar** — bir biologik turda bir-biriga o'xhash katalitik reaksiyalarni bajaruvchi, biroq tuzilishi va fizik-kimyoviy hamda immunologik xususiyatlari bilan farq qiluvchi fermentlar guruhi.

**Izogamiya, teng qo'shilish** — ayrim tuban o'simliklarda morfologik jihatdan bir xil ikkita teng, harakatchan gametaning qo'shilishi.

**Izoleysin** — zaruriy aminokislota. Ko'pchilik oqsillar tarkibida uchraydi. **Izolyatsiya, ajratish** — bir turga mansub individlarning erkin chatishishiga nisbatan qarshilik. Natijada tur ichida har xil shakllar, yangi turlar vujudga kelishiga zamin yaratiladi.

**Izomerazalar** — organik birikmalarning o'zaro almashinuv reaksiyalarni kataliz qiluvchi fermentlar sinfi.

**Izotonik eritma** — osmotik bosimi o'simlik yoki hayvon hujayrasidagi osmotik bosimga teng eritma. Sun'iy izotonik eritma fiziologik eritma deb ham yuritiladi.

**Ichak** — ko'pchilik hayvonlarda og'iz bo'shlig'idan boshlanadigan va orqa chiqaruv teshigi (anus) bilan tugay-

digan hazm yo'li. Odam va ayrim hayvonlarda ichak ovqat hazm qilish yo'lining oshqozondan keyingi qismini tashkil etadi.

**Ichak tayoqchasi** — odatda, odam va hayvon ichaklarida uchraydigan zararsiz mikrob. Dastlab avstriyalik vrach T. Esherix (1885) ta'riflab berган. Ko'rinishi ikki uchi dumaloq tayoqchani eslatadi, xivchinlarga ega, spora hosil qilmaydi, gram-musbat ko'rsatkichli. Ichak florasing me'yorli komponenti. Genetika, biotexnologiyada amaliy tadqiqotlar uchun muhim obyekt.

**Ichak shirasi** — ingichka va yo'g'on ichak shilliq pardasidagi bezlar ajrata-digan ishqoriy xususiyatga ega rangsiz yoki sarg'ish suyuqlik. Tarkibida ozuqa moddalarni parchalovchi fermentlar bor.

**Ichaktutqich, mezenteriy** — qorin pardasining bir qismi; ichaklarni o'rab, qorin bo'shlig'inining orqa devoriga torit turadi.

**Ichki qulop, pardasimon labirint** — umurtqali hayvonlar eshitish va muvozanat a'zolarining asosiy qismi.

**Ichki sekretsiya** — ichki sekretsuya bezlarining maxsus hujayralarida hosil bo'lувчи va to'g'ridan to'g'ri qonga, limfaga ajralib chiquvchi biologik faol moddalar (q. *Gormonlar*).

**Ichki urug'lanish, ichki otalanish** — jinsiy hujayralarning urg'ochi yoki ikki jinsli organizmning jinsiy yo'llarida qo'shilishi.

**Jabra qopqoqchalari — Oyqu-loq qopqoqchalari** — ba'zi tog'ayli va suyakli baliqlar oyqu-log'ini to'sib turuvchi qattiq suyak plastinkalar.

**Jabralar — Oyquloqlar, jabralar** — suv hayvonlarining nafas olish a'zolari. Qator umurtqasiz hayvonlar, baliqlar va boshqalarga xos.

**Jako, kulrang to'ti** — tovushlarga taqlid qilish xususiyatiga ega qush.

**Jamg'arma ozuqa moddalar** — o'simliklarning keyingi hayot faoliyati uchun jamg'arma ozuqa sifatida to'plagan organik moddalari (urug', tuganak va boshqada).

**Jamoatchi hasharotlar, doimiy jamaoa** — oila hosil qiluvchi hasharotlar. Bunday oilalarda har xil vazifalarni bajaruvchi individlari bo'ladi. Masa-lan, chumolilar, asalarilar.

**Jayralar** — kemiruvchilar turku-mining bir urug'i. O'simliklar bilan ovqatlanadi. O'rta Osiyo va Qozo-g'istonda ham keng tarqalgan.

**Jelatin — Yelimshak** — kallogen-ing denaturatsiyaga uchrashidan hosil bo'ladigan modda. Suyak, tog'ay, paylarni uzoq qaynatib olina-di. Oziq-ovqat sanoati va boshqa maqsadlarda foydalaniadi.

**Jigar** — ba'zi umurtqasizlar va barcha umurtqali hayvonlarning ovqat hazm qilish bezi. O't (safro) ishlab chiqaradi va organizm uchun muhim bir qator vazifalarni bajaradi.

**Jins tanlash** — tabiiy tanlanish usullaridan biri. Hayvonlarning ba'zi guruuhlariga xos xususiyat. Bunda erkak individlar o'rtasida urg'ochisi uchun kurash ketadi. Juftlashish

uchun urg'ochi individlar erkaklarini faol tanlaydi.

**Jinsiy a'zolar** — jinsiy ko'payish bilan bog'liq bo'lgan a'zolar Ularda gametalar (jinsiy hujayralar) yeti-ladi.

**Jinsiy davr** — yuksak tuzilishga ega hayvonlarning balog'atga yetgan urg'ochi individlaridagi ko'payish bilan bog'liq davriy ravishda qaytarilib turuvchi fiziologik va morfologik o'zgarishlar. Ba'zi hayvonlarda bu davr ko'payish mavsumida bir, boshqalarida esa bir necha marta qaytariladi.

**Jinsiy gormonlar** — buyrak usti va jinsiy bezlarda hosil bo'ladigan biologik faol moddalar Organizmda moddalar almashinushi, jinsiy ko'payish, shuningdek, birlamchi va ik-kilamchi jinsiy belgilarga ta'sir qila-di.

**Jinsiy hujayra** — o'simlik chang-langandan so'ng urug'chidagi game-tofitga aylangan ikki hujayradan biri. U o'z navbatida bo'linib, erkak jinsiy hujayraga aylanadi.

**Jinsiy ko'payish** — tirik organizmning ko'payish usullaridan biri. Bunda otalik va onalik gameta (hujayra)larining qo'shilishidan yangi individ (nasl) vujudga keladi.

**Jinsiy yetilish, balog'atga yetish** — hayvon va odam organizmining individual rivojlanishidagi jinsiy ko'payish xususiyatiga ega bo'lish davri. Bu davrda organizmda chuqur ichki o'zgarishlar sodir bo'ladi.

**Jinssiz ko'payish** — organizmlarning ko'payish usullaridan biri. Odatta, maxsus hujayralar, sporalar orqa-li yoki vegetativ usul bilan yangi av-

lod vujudga keladi. Yashil suvo'tlar, yo'sinlar, paporotniklar, yuksak o'simliklar, bir hujayrali va ko'p hujayrali hayvon organizmlariga xos. Ba'zan jinsiy ko'payish bilan jinssiz ko'payish bir organizmda ro'y bera-di.

**Juft tuyuoqlilar, qo'shtuyuoqlilar** — sut emizuvchi hayvonlar turkumi. Ularda ayniqsa uchinchi va to'rtinchchi barmoq yaxshi rivojlangan. Masalan, qoramol, qo'y, cho'chqa, bug'u va boshqalar.

**Juftlashish davri** — hayvonlarning mavsumiy xarakterga ega bo'lgan justlashish, qo'shilish davri.

**Jun** — sut emizuvchilar terisidagi qoplovchi qatlam. Momiqqa nisbatan birmuncha uzun va kamroq bo'ladi.

**Jungli, changalzor o'rmon** — daraxtlar, butalar va o'tlardan tashkil topgan quyuq o'rmonlar. Janubi-sharqiyy Osiyo va Hindistonda keng tarqalgan.

## J-K

## K

**Kaatinga** — qurg'oqchilikka chidamli (kserofil) tropik o'rmon tipi. Tikanli o'simliklar, ayniqsa, kaktuslar juda ko'p. Ko'proq Braziliyada uchraydi.

**Kabarga** — kavsh qaytaruvchilar kenja turkumiga mansub just tuyuoqli sut emizuvchi hayvon. Tog'li tayga hududlarida keng tarqalgan. Kiyikka o'xshash. Erkaklarining ustki qoziq tishlari juda uzun, qornida xushbo'y modda — mushk ajratadigan bezlari bor.

**Kadeverin** — fiziologik faol modda. Lizin aminokislitasining dekarboksilanishi natijasida hosil bo'ladi. Buzilgan go'sht yoki baliq mahsulotidan zaharlanishning asosiy sababchisi.

**Kaktusdoshlar** — ikki pallali o'simliklar oilasi; moyasi sersuv, etli, tikanlar yoki tuklar bilan qoplangan. Manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi.

**Kalla suyagi** — umurtqali hayvonlar bosh miyasini o'rab, himoya vazifasini bajaradigan skelet.

**Kallus — Qadoq, bo'rtiq** — o'simliklarning shikastlangan (kesilgan) qismidagi hujayralarning betartib

bo'linishi va o'sishidan hosil bo'lgan qabariq yoki bo'rtiq. Ko'pincha o'simlik to'qimalari yoki hujayra o'stirishda foydalilanildi.

**Kalmarlar** — boshoyoqli molluskalar turkumi. Tanasining uzunligi 2 sm dan 5 m gacha. Keng tarqalgan.

**Kalmodulin, boshqaruuchi oqsil** — hujayra ichida joylashgan retseptor. Kalsiy-kalmodulin kompleksi har xil fermentlar faolligini o'zgartiradi, bu esa hujayra biokimiyoviy funksiyasini o'zgartirishga olib keladi.

**Kalsefillar — Ohaksevarlar** — ohagi ko'p tuproqlarda (kalsiy tuzlari ga boy) o'suvchi o'simliklar.

**Kalsefoblar — Ohakyoqmaslar** — serohakli tuproqlarda o'sa olmaydigan o'simliklar.

**Kalsiferollar, D vitaminini** — antiraxit xususiyatlari yog'da eriydigan vitaminlar guruhi. Suyaklarning o'sishini ta'minlaydi; yetishmasligi bolalarda raxit kasaliga sabab bo'ladi.

**Kalsitonin** — umurtqali hayvonlar organizmida kalsiy va fosfor al-mashinuvini boshqaruvchi gormon.

**Kambalasimonlar** — suyakli baliqlar turkumi.

**Kambiy** — hosil qiluvchi to'qima; asosan ochiq urug'li hamda ikki pal-lali o'simliklar poyasi va ildizida joy-lashgan. Kambiy faoliyati natijasida o'q a'zolar eniga o'sadi. Tashqi tomonda ikkilamchi floema (lub)ni va ichki tomonda ikkilamchi ksilema (yog'och)ni hosil qilib, yillik halqalar shakllanadi.

**Kamfora** — o'ziga xos hidga ega rangsiz modda. Efir moylar tarkibiga kiradi. Kamfora nomli daraxtdan ol-nadi. Sibir oqqarag'ayi (pixtasi)da ko'p miqdorda uchraydi.

**Kamqonlik** — qon miqdorining kamayishi va uning sifat tarkibining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan kasallik (q. *Anemiya*)

**Kanal hosil qiluvchi oqsillar** — passiv ko'chirilishni amalga oshiruvchi membrana oqsillari. Yengil diffuziya hisobiga membranalar orqali modalarning o'tishiga imkon beruvchi teshiklarni hosil qilishda ishtirok etadi.

**Kanalar** — o'rgimchaksimonlar sinfiga mansub bo'g'imoyoqli hasharotlar.

**Kanifol** — ignabargli daraxtlarning yelimsimon, sarg'ish qizil yoki to'q jigarrang tusdagi mo'rt, uvalanuvchan yaltiroq moddasi.

**Kannibalizm, odamxo'rlik, vah-shiylik** — bir turga mansub bo'lgan individlarning bir-birini yeb qo'yishi; tur ichidagi yirtqichlik.

**Kanserogen, shish hosil qiluvchi** — organizmga ta'sir etib, xavli o'smalar (rak) vujudga keltiruvchi yoki ular-

ning paydo bo'lishiga zamin yaratuv-chi moddalar.

**Kapalaklar, tangaqanotlilar, lepi-dopteralar** — hasharotlar turkumi. 140 mingga yaqin turlari mavjud, qanotlari tangachalar bilan qoplangan; og'iz apparati so'rvuchi tipda.

**Kapillarlar, qil tomirlar,** — yopiq qon aylanish tizimiga ega hayvonlar-ning to'qima hamda a'zolarigacha ki-rib boradigan mayda va ingichka qon tomirchalar.

**Kapsid** — virusning tarkibiy qismini qamrab oluvchi oqsil parda.

**Kapsula — Qobiq** — hayvonlar va odamda turli a'zolar (buyrak, jigar va boshqalar)ni o'rab turuvchi parda. Bakteriyalarda va boshqa mikroorganizmlarda hujayra atrofini o'rab ol-gan shilliq parda.

**Karakatitsalar** — boshoyoqli mol-luskalar turkumi. Asosan tropik va subtropik zonalardagi dengizlarda tar-qalgan. Xavf tug'ilganda dushmandan yashinrinish uchun maxsus bezdan qora suyuqlik (sepiya) chiqarib, suvni loyqatadi.

**Karantin** — 1) yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish uchun ko'rildigan vaqtinchalik ma'muriy-sanitariya tadbirlar majmui. Karantin e'lon qilingan joylarga kirish-chiqish qat'iyan man qilinadi yoki cheklana-di. Hayvonlarni olib kirish, u yerdan olib chiqish taqiqlanadi; 2) yuqumli kasalliklar tarqalgan joylardan ke-layotgan odamlar, mashina va kema-lar, tovarlarni tekshiruvchi sanitariya punkti.

**Karantin inspeksiyasi** — karantinga oid tadbirlarni amalga oshiruvchi davlat muassasasi. Yuqumli kasal-liklarning epidemik va epizootik man-badan tarqalishining oldini olish uchun

ko'rildigani tadbirlarni amalga oshiradi.

**Karaxtlik (hayvonlarda)** — sovuq qonli hayvonlarda hayot faoliyatining keskin susayishi; noqulay yashash muhiti (issiq, namlik yo ozuqa yetishmasligi kabi) dan omon chiqishni ta'minlaydi. Yozlik va qishlik karaxtlik bo'ldi.

**Karbamid, siydkhil** — odam va hayvonlarda azot almashinuvining oxirgi mahsuli. Ba'zi o'simliklarda azotning jamg'arma shakli sifatida to'planadi.

**Karbon, toshko'mir davri** — paleozoy erasining beshinchil davri. Perm dan oldingi va Devondan keyingi davr. O'simliklardan plaunlar, paporotniklar rivojlangan. Dengizlarda mollusklar, akulalar ko'p, shuningdek, dastlabki sudralib yuruvchilar paydo bo'lgan.

**Kario...** — hujayra yadrosiga taalluqni anglatuvchi murakkab so'zning tarkibiy qismi.

**Kariogamiya** — urug'lanish vaqtida erkak va urg'ochi jinsiy hujayralar yadrosining qo'shib, zigota yadrosini hosil qilish jarayoni. Natijada gomologik xromosomalar juftligi tiknadi.

**Kariogramma** — bir hujayra xromosoma to'plamining grafik tasvirini tuzish; xromosoma tuzilishlarini o'rganishda qo'llanadi. Tibbiyotda shunga asosan xromosomalar kasalligi aniqlanadi.

**Kariokinez** — hujayra yadrosining noto'g'ri bo'linishi. Mitozning eskirgan nomi.

**Kariobiya** — hujayra yadrosining tuzilishi vazifasi, evolutsiyasi, xromosomalar to'plami va boshqalarni o'rganadigan sitologiya bo'limi.

**Karioplazma — Yadro plazmasi, yadro shirasi** — xromatin iplar, yadrocha va boshqa ko'pgina yadro tuzilishlari oralig'ini to'ldiruvchi modda.

**Kariotip** — ma'lum turga mansub xromosomalar diploid to'plami belgilaring (soni, kattaligi, shakli) majmui. Bir organizm hujayralaridagi kariotipning doimiyligi mitoz bilan, tur doirasida esa meyoz bilan ta'minlanadi. Kariotipni aniqlashda kariogrammadan foydalaniladi.

**Karotinlar** — sarg'ish-pushti tusli, asosan yashil o'simliklarda hosil bo'ladigan karotinoidlarga mansub pigment. Sabzi va na'matak mevasida ko'p. Karotin — A vitamin provitaminidir.

**Karotinoidlar** — asosan o'simliklar va ba'zi hayvonlarda uchraydigan sariq, zarg'aldoq yoki qizil tusli yog'da eriydigan pigmentlar; ba'zi bakteriyalar va zamburug'lar ham sintezlaydi.

**Karpsimonlar, zog'ora baliqlar** — suyakli baliqlar turkumi.

**Kasallikka moyillik** — o'simlik, hayvon va odam organizmining kasallikka qarshilik ko'rsata olmaslik xususiyati. Bu — organizmning o'ziga xos xususiyati va agentlarning kasallik tug'dirish darajasiga bog'liq.

**Kasallikni yuqtirmaslik** — organizmning yuqumli kasalliklarga nisbatan umumiy chidamliligi. Bu organizm immuniteti hamda anatomik va fiziologik jarayonlar bilan bog'liq.

**Kastratsiya (gullar), gullarni bichish** — o'simlik gullarining yetilmagan changdonlarini sun'iy ravishda uzib tashlash. Bunda o'zidan changlanish jarayoni yuz bermaydi.

**Katabolizm, parchalanish reaksiyalari** — tirik organizmlarda mu-

## K

rakkab organik moddalar — oqsillar, nuklein kislotalar, uglevodlar, yog'larning yoki organizmlarning o'zida to'plangan ozuqa moddalarning fermentativ yo'l bilan parchalanishi. Bunda ularda to'plangan energiya ajralib chiqadi va ATF yoki membrana potensiali shaklida to'planadi (q. *Dissimilatsiya*).

**Katagenez, teskari evolutsion o'zgarish** — organizmning soddaroq ekologik muhitga yashashga o'tishi bilan bog'liq uning yashash tarzi va morfoliziologik tuzilishidagi sod-dalashuv jarayoni. Masalan, o'troq hayot kechirishga, parazitlik qilishga o'tgan vaqtdagi regressiv o'zgarishlar.

**Katal** — fermentativ faoliyot o'lg'och birligi. Bu — substratning 1 mol / sekund tezlik bilan o'zgarishini katalizlovchi ferment miqdoriga teng.

**Katalaza, oksidlovchi ferment** — oksidoreduktaza sinfiga mansub vodorod peroksidning suv va kislorodgacha parchalanish reaksiyasini katalizlovchi ferment. Barcha tirik organizmlar tarkibida uchrab, ularni vodorod peroksidining zaharli ta'siridan saqlanishiga imkon beradi.

**Katexinlar** — flavonoidlar guruhi-ga mansub o'simliklarda uchraydigan birikmalar. Choyning qora, sariq, qizil rangi katexinlarga bog'liq. Bulardan oshlovchi moddalar hosil bo'ladi.

**Katexolaminlar** — pirokatexin hosilalari; hayvonlarda hujayralar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarda kimyo-viy vositachi vazifasini bajaruvchi fiziologik faol moddalar. Masalan, adrenalin va noradrenalin — buyrak usti bezlari gormonlari, dopamin esa asab tizimining mediatori.

**Katta (eshkak) qanotlilar** — hasharotlar turkumi.

**Katta qorin** — kavshqaytaruvchi hayvonlar 4 bo'limli oshqozonining boshlang'ich eng katta bo'limi.

**Kaudal** — dumga oidlikni bildiradi. **Kaulifloriya, tanagullar** — gul va to'pgulning bevosita daraxt povasida rivojlanishi. Ko'pincha tropik o'simliklar (masalan, non daraxti)da uchraydi.

**Kauchuk** — kauchukdor o'simliklarning sutli shirasidan (lateks) olinadigan elastik tabiiy modda. O'rta Osiyoda o'sadigan ko'ksag'iz kabi o'simliklar tarkibida ham uchraydi.

**Kavsh qaytaruvchilar** — qo'shtuyoqli hayvonlar turkumi. O'simlik bilan oziqlanadi. Oshqozon to'rt (katta qorin, to'r qorin, qatqorin va shirdon) bo'limdan iborat. Ozuqa oshqozon (siqma)dan og'izga qaytarilib, qaytadan kavshaladi. Uy hayvonlaridan qoramol, qo'y, echkilari kiradi.

**Kaynazoy, Kaynazoy erasi** — Yer qobig'i qatlamlari stratigrafik shkolasining eng yosh guruhi, yer geologik tarixining uchinchi erasi, hozir ham davom etmoqda.

**Kaynofit** — Yer yuzida o'simliklar qoplamli evolutsiyasidagi mezofitdan keyingi yangi bosqich bo'lib, Bo'r davringin oxirlaridan boshlanib hozirgacha davom etayapti.

**Kayromonlar** — bir organizm tomonidan tashqi muhitga chiqariladi-gan va boshqasiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadigan moddalar. Masalan, ba'zi feromonlar.

**Kazein, pishloq oqsili** — suttagi asosiy oqsil. Fosfoproteinlar vakili. Yosh organizmlarning ovqatlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kekirdak** — umurtqali hayvonlar nafas olish yo'lining boshlang'ich

# K

bo'limi. Hiqildoq bilan bronxlar o'rtaida joylashgan.

**Kembriy, Kembriy davri** — Paleozoy erasining birinchi davri. Asosan bakteriyalar, ko'k-yashil suvo'tlar va zamburug'lар rivojlangan.

**Kenja tur** — o'simlik va hayvonlar sistematikasidagi taksonomik birlik. Bunga ma'lum bir yerda yoki joyda yashovchi va ayrim sistematik belgilarga ega bo'lgan, bir turga mansub organizmlar kiradi.

**Keratinlar — Muguz oqsillar** — terining ustki qismi va uning hosilalari: soch, pat, tirnoq, shox, tuyog oqsillari.

**Keratofag, muguzzo'r** — shox moddalar bilan oziqlanadigan organizmlar (masalan, mikroorganizmlar, kemiruvchilar).

**Keton tanachalar** — (q. *Atseton tanachalar*).

**Keylonlar** — hujayralar va to'qimallarga gormonlarga o'xshash ta'sir qiluvchi oqsil yoki peptid tabiatli moddalar.

**Kiparislar, Sarvdoshlar** — ignabargli doim yashil buta yoki daraxtlar oilasi.

**Kiprikli infuzoriyalar** — sodda hayvonlar tipiga mansub infuzoriylar sinfi.

**Kitsimonlar** — ikkilamchi suvgaga qaytgan sut emizuvchilar turkumi. Tana uzunligi 30 m gacha. Massasi 30 kg dan 150 t gacha.

**Klass, sınıf** — sistematikada yuqori taksonomik mezonlardan biri. Hayvon turkumlari yoki o'simlik qabilalarini o'z ichiga oladi. Massalan: qushlar sinfi, bir pallali o'simliklar sinfi.

**Klassifikatsiya, tasnif qilish** — biologiyada ko'pdan-ko'p tirik organizmlarni ma'lum bir tartibga solish.

**Klimaks, so'nggi ko'tarinkilik** — odamlar va maymunlarda jinsiy navqironlikdan keksalikka o'tish davri.

**Klimakteriy, so'nggi ko'tarinkilik** — mevalar pishib yetilishining oxirgi davrida nafas olishning vaqtincha kuchayishi. Ko'pincha meva yig'ib olingandan so'ng kuzatiladi.

**Kloaka, orqa teshik** — umurtqalillardan to'garak og'izlilar, ba'zi baliqlar (akula, skat), barcha suvda va quruqda yashovchilar, qushlar, bir teshikli sut emizuvchilarda orqa ichakning oxirgi kengayib tashqariga ochiladigan qismi. Kloakaga siydiq yo'llari, urug' yoki tuxum yo'llari ham ochiladi.

**Klon** — jinssiz ko'payish yo'li bilan bir ajdoddan vujudga kelgan individ, avlod yoki hujayralar majmui.

**Koagulatsiya — Ivish** — mayda zarrachalarning ilashish kuchlari ta'sirida bir-biriga birikib, kattaroq zarrachalarni hosil qilish jarayoni. Masalan, oqsillarning ivishi va ularning cho'kmaga tushishi.

**Kod jadvali** — kodonlarning qaysi aminokislotani ifodalashini ko'rsatib beruvchi jadval.

**Kodein** — ko'knor o'simligi mevasi tarkibida uchraydigan alkaloid, morfin hosilasi.

**Kodon, triplet** — irsiy informatsiya (axborot) birligi. Uchta ketma-ket turuvchi nukleotiddan iborat informatsion RNK ning bir qismi.

**Kofaktorlar — Koomillar** — oqsil bo'limgan birikmalar. Ko'pgina fermentlar faolligining to'la namoyon bo'lishi uchun juda zarur.

**Kofein** — kofe daraxti urug'i, choy bargi tarkibida uchraydigan alkaloid; purin hosilasi.

**Kofermentlar, koenzimlar** — ba'zi fermentlar faol markazining tarkibiga

kiruvchi oqsil bo'lmagan organik birlamalar. Ko'pchilik kofermentlar vitaminlar hosilasidir.

**Kokarboksilaza**, *tiamindifosfat* — vitamin B<sub>1</sub>ning pirofosforli efiri. Odam va hayvon organizmida glukozaning parchalanishida muhim ahamiyatga ega, piruvatdekarboksilaza fermentining kofermenti.

**Kokklar**, *donador bakteriyalar* — sharsimon bakteriyalar turi.

**Koleoptil** — **Naycha barg** — g'allasodshlarning yerdan endigina unib chiqqan rangsiz, yashil yoki qizg'ish birinchi naychasimon yoki qinsimon bargi. Haqiqiy barglardan farqli ravishda barg plastinkasiga ega emas.

**Koleoriza** — **Ildizparda** — asosan g'alla o'simliklari murtak ildizini o'rabituruvchi parda.

**Kollagen** — **Yelimshiq oqsil** — biriktiruvchi to'qimadagi kollagen tolalar asosini tashkil qilib, uning mustahkamligini ta'minlaydigan uzun tolali oqsil. Suyak, pay, tog'ay, teri va boshqa to'qimalarda uchraydi.

**Kollaterallar** — umurtqali hayvonlar qon tomirlarining yonbosh shoxllari. Asosiy tomirlar ishtirokisiz qonning kelishi yoki qaytib ketishini ta'minlaydi.

**Kolleksiya**, *to'plam* — o'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar, tuproq va boshqalarning ilmiy yoki amaliy maqsadlarda tartibga solingan majmui.

**Kollenxima** — **Yelimshiq to'qima** — ikki pallali o'simliklarning birlamchi tayanch (mexanik) to'qimasi. Yosh o'suvchi a'zolar elastikligi va mustahkamligini ta'minlaydi.

**Kolonial organizmlar**, *to'dalashib yashovchi organizmlar* — jinssiz ko'payish (kurtaklanish)dan so'ng yuzaga kelgan avlod individlarining ona or-

ganizm bilan qolib, to'da — koloniya holida yashashi. Masalan, suvo'tlar.

**Kolovratkalar** — **Parmasimonlar** — birlamchi bo'shligi chuvalchanglar sinfi.

**Kommensalizm**, *hamtovoqlik* — simbioz turlaridan biri bo'lib, bunda har xil turga mansub organizmlar biri (kommensal) ikkinchisiga zarar kelitmay, birgalikda yashaydi. Masalan, ba'zi baliqlar goloturiyalardan boshpana sifatida foydalanadi.

**Komplementarlik**, *to'ldiruvchanlik* — biopolimerlarning kimyo-viy tuzilishidagi o'zaro muvofiqlik. Masalan, DNK molekulasidagi bir polinukleotid zanjir nukleotidlarning ketma-ketligi ikkinchi zanjirdagi nukleotidlar ketma-ketligini aniqlab beradi va to'ldiradi.

**Komplementatsiya**, *to'ldirish* — bir genning ikki mutant allelini bir zigotada birlashushi. Bunda yovvoyi yoki unga yaqin fenotip o'zining boshlang'ich holatiga qaytadi.

**Kompost**, *mahalliy o'g'it* — mikroorganizmlar ta'sirida chirigan organik moddalardan hosil bo'lgan mahalliy o'g'it.

**Konidiya**, *xaltacha* — zamburug'larning jinssiz urchish sporasi. Bazidiali, takomillashmagan va ayrim boshqa zamburug'larda hosil bo'ladi.

**Konkurentlar**, *raqobatlar* — bir xil yashash vositalari hamda bir xil ekologik joy uchun organizmlar orasida bo'ladigan o'zaro raqobatlar.

**Konsorsiya**, *hamkorlik* — yashash joyi va ozig'i tufayli o'zaro bog'liq avtotrof hamda geterotrof organizmlarни birlashtiruvchi biosenozning tuzilish birligi.

**Konstitutusyon moddalar**, *tarkibiy moddalar* — tirik hujayra sitoplaz-

# K

masi va pardasini tashkil qiluvchi moddalar. Bular jamg'arma moddalardan farqli ravishda hujayrada doimo bo'ladi va ularni faqat hujayra tuzilishlarini buzish yo'li bilan ajratib olish mumkin.

**Konsumentlar, iste'molchilar** — fotosintetik va xemosintetik organizmlar hosil qilgan organik birikmalar bilan oziqlanuvchi bir trofik zanjirdagi organizmlar.

**Konvergensiya — O'xshash belgilar** — bir xil tashqi muhit sharoitlarida yashaydigan turli xil organizmlarda o'xshash belgilarning hosil bo'lishi.

**Konversiya, fagli konversiya, o'zgarish** — bakteriofag bilan zaralanganda bakteriya hujayrasi belgilarning o'zgarishi.

**Konyugatsiya — Juftlashish** — 1) suvo'tlar va tuban zamburug'larda jinsiy jarayon shakli; bunda xivchinsiz ikkita bir-biriga o'xshash vegetativ hujayralar o'zaro qo'shiladi; 2) gomologik xromosomalar bir-biriga vaqtincha yaqinlashganda, ularning gomologik qismlari o'zaro o'rın almashinishi mumkin bo'lgan holat.

**Koprofaglar, chiqindixo'rlar** — asosan sut emizuvchilarning ekskrementlari (chiqindilari) bilan oziqlanadigan hayvonlar.

**Koprofillar, chiqindisevarlar, chiqindida o'suvchilar** — go'ng to'plamlarida rivojlanadigan zamburug'larning ekologik guruhi.

**Kopulatsiya, qo'shilish** — jinsiy aloqa shakli, bunda ko'p hujayralilar ning gametalari yoki eng soddalilari ning haploid hujayralari bir-biriga qo'shilib, zigota hosil qiladi.

**Kormobiont — Po'stloqda yashovchi** — daraxt va butalar

po'stlog'i yoki to'ngagida yashaydigan organizmlar.

**Kormofitlar, bargpoyali o'simliklar** — tanasi poya, barg va ildizlarga differensiyalangan yuksak o'simliklar.

**Korrelatsiya, o'zaro munosabat** — organizm har xil belgilarining o'zaro munosabati. Bu — organizm ichki muhitining doimiyligini saqlashga imkon beradi va uning tashqi sharoitga moslashuvini ta'minlaydi.

**Korti organi** — sut emizuvchilar eshitish tizimining tovush qabul qiluvchi qismi, tovush to'lqinini asab qo'zg'alishlariga aylantirib beradi. Qulog chig'anog'ida joylashgan. Italyan gistologi A. Korti kashfi etgan.

**Kortikosteroidlar** — buyrak usti bezi po'stlog'ining gormonlari. Kimyo-viy tuzilishiga ko'ra steroidlarga kira-di. Organizmda tuz va suv (mineral kortikoidlar), uglevod va oqsil (glukokortikoidlar) almashinuviga hamda ikkilamchi jinsiy belgilarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

**Kosmik biologiya, koinot biologiyasi** — turli koinot omillarining tirik organizmlarga ta'sirini va fazoviy sharoitga yerdagи organizmlar faoliyatini o'rganadigan biologiyaning bo'limi.

**Kosmolitlar — Vatansizlar** — joy tanlamaydigan o'simlik va hayvonlar, Yer yuzida juda keng tarqalgan o'simlik va hayvon turlari, urug'lari, turkumlari va hokazolar. Masalan, uy pashshasi, chumchuqlar.

**Kovakichlilar** — umurtqasiz hayvonlar tipi. Masalan, meduzalar, poliplar.

**Kovullar** — ikki pallali o'simliklar oilasi.

**Kraxmal** — o'simliklarning asosiy jamg'arma uglevodi.

**Kreatsionizm** — organik olamning ilohiy kuch tomonidan yaratilgani va uning o'zgarmasligi haqidagi idealistik ta'lilot.

**Kriobiologiya** — past va o'ta past haroratning ( $0^{\circ}\text{C}$ dan absolut nolga yaqningacha bo'lgan) turli biologik obyektlar va jarayonlarga ta'sirini o'r ganadigan biologiya bo'limi. Asosan sovuq sharoitdagi hayotni va organizmning sovuqqaga chidamliligini tadqiq etadi.

**Kriofillar, sovuqsevar organizmlar** — nisbatan barqaror past haroratli sharoitda yashaydigan organizmlar.

**Krifitlar, sovuqsevar o'simliklar** — sovuq va quruq sharoitga moslashgan o'simliklar.

**Kristal, naysimon o'simtalar** — mitokondriya ichki membranalarining joylashishi. Qat'iy, o'ziga xos o'tkazuvchanlikka va moddalarni faol ko'chirish tizimiga ega.

**Kromanonlar** — qazilma neoantroplarning bir guruhi. Yevropada yashagan hozirgi zamon tipidagi odamlar.

**Krossingover** — juft xromosomalar qismlarining o'zaro almashinishi. Natijada xromosomadagi genlar qayta taqsimlanib, irlari o'zgaruvchanlikka zamin yaratiladi.

**Ksantofillar** — karotinoidlar guruhiга mansub tabiiy sariq pigmentlar; karotinlarning kislорodli hosilari.

**Kseniyalar** — kattaligi, rangi, shakli jihatidan ona urug'dan farq qiluvchi duragay urug'. Otalik belgilari birinchи avloddayoq namoyon bo'ladi.

**Ksenobiotiklar** — organizm uchun yot moddalar: pestisidlar, maishiy xizmatda qo'llaniladigan kimyoviy preparatlar, dorivor moddalar va shunga o'xshash birikmalar.

**Ksenogamiya — Chetdan changlanish** — bir o'simlik gullarining shu o'simlik turiga mansub boshqa o'simlik changi bilan changlanishi.

**Kserofil, qurg'oqsevar** — suv yetishmasligiga moslashgan, shunga ko'ra namligi kam joylarda yashaydigan organizmlar (masalan, yumronqoziqilar).

**Kserofitlar, qurg'oqchil o'simliklar** — quruq, namgarchilik kam joylarda o'sishga moslashgan o'simliklar.

**Ksilema** — o'simliklarning suv va unda erigan moddalarni o'tkazuvchi naysimon to'qimasi.

**Kulrang modda** — bosh va orqa miya moddasi. Uning asosini neyron tanalari va glial hujayralar tashkil qiladi. Rangi hujayralarning ko'pligi va miyelin moddasining kamligiga bog'liq.

**Kultura — Ekma** — mikroorganizmlarning ekish yo'li bilan boshqa turlardan tozalangan turi.

**Kultura** (to'qimalar), *to'qimalarni o'stirish* (ekish) — organlar yoki organlardan ajratib olingan to'qima, hujayralarni uzoq vaqt davomida organizmdan tashqarida o'stirish va saqlash usuli. Masalan, changdonlar, urug' kurtak yoki meristema to'qimalar.

**Kun davriyiligi** — biologik jarayonlar yoki hodisalar jadalligi va xarakterining kunning almashinishi (kunduzi yoki kechasi)ga mos ravishda davriy o'zgarib turishi.

**Kurak suyagi** — umurtqali hayvonlarning kurak suyagi.

**Kurak tishlar** — ko'pchilik sut emizuvchilar va odamning oldingi bir ildizli tishlari.

**Kurakoyoqlar** — ikkilamchi suvgaga qaytgan umurtqali hayvonlar oyog'i. Tyulen, morj va shu kabilarga xos.

# K

**Kurakoyoqlilar** — dengiz molluskalari sinfi. Oyoqlarida qo'shimcha pardasimon bir juft o'simtalar mavjud.

**Kurtak** — o'simliklarning poyasi, guli, gulto'plami va boshqa qismalarini hosil qiluvchi boshlang'ich o'sish organi.

**Kurtaklanish** — vegetativ ko'payish usullaridan biri. Bunda ona organizmida kurtak — o'simta rivojlanib, undan yangi individ shakllanadi va ajralib chiqadi.

**Kustarnik, buta** — ko'p yillik, bo'y 2—3 m dan oshmaydigan, yerning yuza qismidayoq sershox yog'ochlangan tana hosil qiluvchi o'simliklar (masalan, na'mata).

**Kutikula** — hayvonlarda epitelial to'qima yuzasida paydo bo'lgan hujayrasiz hosil; o'simliklarda esa poya, barg va ayrim mevalar yuzasini qoplagan yupqa yaltiroq parda. Kutikula yog'simon kutin moddasidan tashkil topgan.

**Kutin — Mumsimon parda** — o'simliklarning epidermis hujayralaridan ajraladigan va hujayra qobig'i yuzasida yupqa parda ko'rinishida yig'iladigan mumsimon modda.

**Kuyikish davri** — sut emizuvchi hayvonlarning juftlashish davridagi xulq-atvorlarining ko'rinishi. Mavsumiy xarakterga ega.

**Kuyindi, jizg'in** — o'simlik o'sayotgan joyning o't ketgan yoki kuyib bitgan qismi.

**Kuzgi ekinlar** — rivojlanishi va me'yorli o'sishi uchun past harorat talab qiluvchi bir yillik o'simliklar. Shuning uchun ularni kuzda ekilib, qishlaydi.

**Kuchala** — to'pgul xili. Masalan, terak, oq qayin va boshqalar guli.

**Ko'knordoshlar** — ikki pallali o'simliklar oilasi, ko'knoridan oliy navli moy, morfin, papaverin tayyorlanadi.

**Ko'krak** — tananing oldingi (hayvonlarda) yoki yuqori (odamda) qismi.

**Ko'krak bo'shilig'i** — ko'krak qafasi ichidagi bo'shilq; unda kekirdak, qizilo'ngach, yurak, o'pka joylashgan.

**Ko'krak qafasi** — ko'krak umurtqalari, qovurg'alar va to'sh suyagining birikishidan hosil bo'lgan skelet o'qining bir qismi. Sudralib yuruvchilar, qushlar va sut emizuvchi hayvonlar yelka kamarini ushlab turuvchi mustahkam tayanch.

**Ko'krak suyagi** — yerda yashovchi umurtqalilar skeletining bir qismi; yelka kamarining tayanchi.

**Ko'krak toji, ko'krak toj suyagi** — umurtqali hayvonlar ko'krak-to'sh suyagidagi o'simta; katta va kichik ko'krak mushaklari birikadigan joy. Uchish layoqatiga ega ko'pgina va ba'zi uchmaydigan umurtqali hayvonlar (masalan, qushlar, ko'rsichqon, uchar kaltakesaklar, pingvin)da yaxshi rivojlangan.

**Ko'krak tojsiz qushlar, yuguruchi qushlar** — uchish layoqatini yo'qotgan ko'krak toji yo'q qushlar. Masalan, tuyaqushlar.

**Ko'k-yashil suvo'tlar** — asosan chuchuk suvlarda yashovchi suvo'tlar guruhi, hujayra tuzilishiga ko'ra prokariotlarga yaqin turadi. (q. *Sianobakteriyalar*).

**Ko'lmaksevarlar** — oqmaydigan, ko'lmak suvlarda yashovchi tirik organizmlar.

**Ko'p hujayrali organizmlar** — tuzilishi, vazifasi va boshqa jihatlari bir-biri bilan bog'liq juda ko'p hujayralardan iborat organizmlar. Proka-

riotlarning ko'p hujayrali koloniyalarda barcha hujayralar bir xil, eukariotlarda esa shakli, vazifasiga qarab har xil bo'ladi. Organizmlar o'lchami 50 mkm dan 30 metrgacha (o'simliklar) boradi.

**Ko'p qilli chuvalchanglar** — halqali chuvalchanglar tipiga mansub bo'lgan sinf. Asosan dengizlarda yashaydi.

**Ko'p uqli o'simliklar** — ikki jinsli gullar bilan bir qatorda bir jinsli gullarga ham ega bo'lgan o'simliklar. Masalan, chinor, grechixa, zaytun va boshqalar.

**Ko'p yillik o'simliklar** — ikki yildan ortiq yashaydigan o'simliklar.

**Ko'payish** — tirik organizmning o'ziga o'xshash organizm hosil qilish xususiyati. Hayotning saqlanishi va uzuksizligini ta'minlaydi. Organizmning ko'payishi assosida hujayralarning bo'linishi yotadi. Ko'payishning har xil shakkllari bor; jinsiy ko'payish, jinssiz ko'payish, vegetativ ko'payish va hokazo.

**Ko'richak** — yo'g'on ichakning boshlang'ich qismi. Ko'richakda chuvalchangsimon o'simta — appendiks bo'ladi.

**Ko'rish** — organizmning tashqi muhitdagi narsalar shakli, kattakichikligi, rangi, bir-biriga nisbatan o'rni hamda oralig'ini aniqlash va boshqalarda obyektdan qaytayotgan yoki sochilayotgan nurni sezib, idrok etish.

**Ko'rish a'zolari** — hayvonlar va odamdagи yorug'lik sezadigan a'zolar. Ularga fotoretseptorlar, ko'ruv nervlari, pigment ekranlari, ko'zni harakatlantiruvchi hamda muhofaza qiluvchi moslamalar va boshqalar kiradi.

**Ko'ruv nervi** — bosh miya nervlarining ikkinchi jufti. Ko'z to'r pardasi ning yorug'lik sezuvchi hujayralari qabul qilgan ta'sirlarni bosh miyaga o'tkazadi.

**Ko'sak** — ko'pchilik yopiq urug'li o'simliklarning ko'p urug'li quruq mevasi. Masalan, g'o'za ko'sagi.

**Ko'z** — yorug'lik ta'sirini sezadigan a'zo. Odam va barcha umurtqali, ayrim umurtqasiz hayvonlarning ko'rish a'zosi.

**Ko'z pardasi** — ko'zning yupqa harakatchan diafragmasi. Umurtqali hayvonlar ko'zining oldingi bo'limi hisoblanib, uning markazidagi teshikda ko'z qorachig'i joylashgan. Sut emizuvchilar ko'z pardasida pigmentli hujayralar — melanotsidlar mavjud.

**Ko'zcha, kurtak** — o'simlik poyasi va tuganaklaridagi kurtaklar.

**Ko'zchalar** — ba'zi umurtqasiz hayvonlarning oddiy tuzilgan, yorug'likni sezuvchi a'zolari.

**Ko'zoynakli ilonlar** — ilonlarning qator urug'larini birlashtirgan nomi. Yuqori jag'ning oldingi qismida katta zaharli tishlari bor. Afrika va Janubiy Osiyoda, jumladan, O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikistonda uchraydi. Afrika ko'zoynakli iloni (mamba) zaharini tuflaydi.

**Ko'chat** — bog', o'rmon hosil qilish uchun maxsus maydonlarda urug'dan unib chiqqan yoki qalamchalardan parvarish qilinadigan nihol.

**Ko'chmanchi qushlar** — uya qurib yashaydigan joyidan sovuq qish fasilda boshqa issiq makonlarga uchib ketuvchi va yana bahorda qaytib keluvchi qushlar.

# L

**Labguldoshlar** — ikki pallali o'simliklar oilasi. Rayhon, jambil, yalpiz va boshqalar kiradi.

**Labillik, noturg'unlik, beqarorlik** — organizmning tashqi va ichki muhit o'zgaruvchanligiga bog'liqligi, ya'ni ularning ta'siriga turg'unsizligini bildiradi.

**Laboratoriya hayvonlari** — biologiya, tibbiyot va qishloq xo'jaligida ilmiy maqsadlar uchun foydalaniladigan hayvonlar. Bu hayvonlar kichik gavdasi, odamga oson o'rganishi, tez ko'payishi, boqish va unga qarab turishning qulayligi bilan farqlanishi shart. Asosan oq sichqonlar, kalmushlar, quyonlar, itlar, ba'zan maymunlar olinadi.

**Lag-faza — Karaxt davr** — ozuqa muhitga inoculat (ta'sirchan modda) qo'shilgandan keyin mikroorganizmlar o'sishining sekinlashish yoki butunlay to'xtab qolish vaqtini, davri.

**Laktatsiya** — sut emizuvchi hayvonlarning sut bezlarida sutning hosil bo'lishi, to'planishi va uning vaqtivaqti bilan ajralib turishi.

**Laktat** — sut kislotasi tuzlari.

**Laktatdegidrogenaza** — oksidoreduktazalar sinfiga mansub ferment. Tibbiyotda diagnostik maqsadlar uchun ishlatalidi.

**Laktaza** — sut shakari fermenti; lakoza disaxaridini ikki molekula glukozagacha parchalaydi.

**Laktobakteriya, sut bakteriyalari** — sut achish jarayonini qo'zg'atuvchi bakteriyalar va streptokokklar.

**Laktobatsellin** — sut achituvchi bakteriyalar turi. Sutga biron-bir sut achituvchi bakteriya turidan qo'shib,

achigan sutdan (qatiqdan) olinadigan mahsulot.

**Laktoza — Sut shakari** — ikki molekula glukozadan tashkil topgan disaxaridlar. Ko'p miqdorda sutda va ba'zi o'simliklar tarkibida qisman uchraydi.

**Lamarkizm** — J. B. Lamarkning organik dunyoning tarixiy rivojlanishi haqidagi dastlabki evolutsion ta'lomi. Lamark evolutsion rivojlanishning haqiqiy sabablarini ochib bera olgani yo'q, u evolutsiyani harakatlantiruvchi qandaydir bir kuch bor deb hisoblaydi. Ammo shunga qaramay u taraqqiy parvar olim hisoblanadi. Chunki u turlarning tashqi muhit ta'sirida o'zgarishini, organizmlarning kelib chiqishi bir asosga ega ekanligini, irlsiy belgilarning avloddan-avlodga o'tishini va boshqalarni tan olgan.

**Lamella** — membrana tuzilishlari ga xos bo'lgan yassi, lappaksimon tuzilma. Xloroplastlar tuzishlarining asosi hisoblanadi.

**Laminariya — Dengiz karami** — qo'ng'ir suvo'tlar turkumi. Ayrim turlari ozuqa, ba'zilari dori-darmonlar manbai hisoblanadi.

**Landshaft, biogeokimiyoviy to'siq** — 1) suv oqimi tarkibidagi tabiiy o'zgarishlar bo'lib, ular o'simliklar xususiyatining o'zgarishiga olib keldi; 2) manzara, ko'rinish — chegaralangan ma'lum bir maydonda tabiiy komponentlar tomonidan yuzaga keltilrilgan va bir-biriga moslashgan hamda o'zaro ta'sirchan bo'lgan tabiiy geografik kompleksning ko'rinishi, manzarasi.

**Lanolin, jun mumi** — asosan qo'yjunidan olinadigan hayvon mumi.

# L

**Lansetniklar** — tuban xordalilar bilan umurtqali hayvonlar o'rtasidagi oraliq o'rinni egallagan xordali hayvonlar.

**Latseratsiya** — **Bo'laklanish**, *fragmentatsiya* — tananing kichik bo'lakchalarining ajralib chiqishi va ular asosida yangi organizmning shakllanishi.

**Lateks** — **Sutshira** — o'simliklardagi sutsimon shira. Asosan kau-chuk olishda ishlatalidi. Sutlamadoshlar, tutdoshlarga mansub o'simliklar lateksga boy.

**Latent** — **Yashirin davr**, *sirtdan bilinmaydigan* — o'sish, biron-bir kasallik rivojlanishining latent davrida organizmda yashirinchcha, sirtdan bilinmaydigan o'zgarishlarning (o'sish yoki kasallikning moddiy asosining to'planishini) borishi.

**Lateral** — **Yonbosh** — organizm o'qiga nisbatan tananing yonbosh tomonida joylashganlikni bildiradi. Masalan, yonbargchalar.

**Lavrdoshlar** — ikki pallali o'simliklar oilasi. Efir moylariga boy. Bularga tropik va subtropik zonada o'suvchi lavr, dolchin, kamfora, avakado va boshqalar kiradi.

**Legoglobin** — dukkakli o'simliklarning ildiz tuganaklariga qizil rang beruvchi murakkab oqsil. Molekular kislородни осонлик билан биритириб олиб, ildiz tugunaklaridagi bakteriodlarga yetkazib beradi.

**Legumin** — **No'xat oqsili** — no'xat urug'idagi jamg'arma oqsil. Tuzli eritmalarda eriydigan globulin oqsili.

**Lektinlar** — glikoproteinlar, aminokislota va uglevodlardan tashkil topgan murakkab oqsillar. Hosil bo'lishi immunologik xarakteriga ega

emas. Polisaxaridlar va uglevod tutuvchi polimerlar bilan o'ziga xos birikish xarakteriga ega.

**Lemurlar** — primatlar turkumiga mansub chala maymunlar oilasi. Asosan Madagaskarda uchraydi. Tun-da faol hayot kechiradi.

**Lepidopterlar** — **Tangaqanotillar** — hasharotlar turkumi. «Kapalaklar» nomi bilan keng tarqalgan.

**Letal** — o'limga olib borishni anglatadi; masalan, pestitsidlarning o'lim (letal) dozasi.

**Levomitsetin** — antibiotik. Mikroorganizmlarning ko'pgina turiga halokatli ta'sir qiladi.

**Leykoplastlar** — **Rangsiz plastidalar** — o'simlik hujayralaridagi rangsiz sharsimon plastidalar. Ular xloroplastlarga, kamdan-kam xromoplastlarga aylanishi mumkin.

**Leykotsitlar** — **Oq qon tanachalari** — odam va hayvonlar qonidagi rangsiz hujayralar. Organizmni har xil infeksiyalardan saqlash vazifasini bajaradi. Leykotsitlarning qondagi soniga qarab ayrim kasalliklarni aniqlash mumkin.

**Leykozin** — *Bug'doy oqsili* — bug'doy donining suvda eriydigan oqsili.

**Leyshmanioz** — leyshmaniyalar qo'zg'atadigan yuqumli kasallik.

**Leyshmaniyalar** — parazit xivchililar sinfiga mansub eng sodda organizmlar. Odam va hayvon organizmida uchrab, bir qator og'ir kasalliklarni qo'zg'atadi. O'rta Osiyoning janubiy tumanlarida ko'p uchraydigan pendi yarasi, kala-azar kasalliklari shular jumlasidandir.

**Leysin** — zaruriy aminokislota. Ko'pgina hayvon va o'simlik oqsillarining tarkibida bor.

**Lianalar**, *o'raluvchilar*, *chirmashuvchilar* — boshqa o'simliklarga, qoya,

# L

tosh, bino va shu kabilarga o'ralib, chirmashib o'suvchi o'simliklar; masalan, toj, xmel, ayrim manzarali o'simliklar.

**Liazalar** — ma'lum birikmalarning substratdan suv ishtirokisiz ajralishi ni katalizlovchi fermentlar. Ularning faoliyati tufayli qo'shbog'lar hosil bo'ladi yoki yo'qoladi.

**Lichinka** — tuxumdan chiqqan, ko'pchilik umurtqasiz, ba'zi umurtqali hayvonlarning individual rivojlanish bosqichi. Ipak qurtining katta yoshli lichinkasi «qurt» deb yuritiladi.

**Ligazalar, sintetazalar** — ATF yoki shunga o'xshash birikmalar energiya-si hisobiga oddiy molekulalardan murakkab birikmalar hosil bo'lish reaksiyalarini katalizlovchi fermentlar sinfi.

**Lignifikatsiya** — *Yog'ochlanish* — sellulozaning lignin bilan to'lishi natijasida o'simlik hujayra qobig'ining qattiqlanishi.

**Lignin** — yog'och hosil qiluvchi modda; murakkab organik birikma, suvda erimaydi, hujayra qobig'ini yog'ochlantiradi. Yog'ochning qariyb 50% ligninga to'g'ri keladi.

**Likopin** — mevalarning qizil rangi bilan bog'liq bo'lgan pigment.

**Likopodiy** — plaunlarning yetilgan quruq sporalari, tarkibi 50% moy va boshqa birikmalardan iborat.

**Limfa** — limfatik tizimni to'ldirib turuvchi rangsiz yoki och sariq rangli suyuqlik.

**Limfa tizimi** — umurtqali hayvonlar va odamdag'i to'qima hamda a'zolardan limfa suyuqligini yig'ib, vena tizimiga o'tkazuvchi tomirlar majmui. Organizmda qon hosil qilish va himoya vazifalarini bajaradi.

**Limfatik tugunlar** — limfa tomirlarining qo'shilgan joylarida hosil

bo'ladigan tugunlar. Limfa tugunlarda limfotsitlar hosil bo'ladi.

**Limfotsitlar** — leykotsit guruhlaridan biri. Maxsus limfoid to'qimalarda, qonda limfotsit ko'p miqdorda to'planadi. Limfotsitlar ikki turda uchraydi. T — Limfotsitlar timusda, B-limfotsitlar ilikda rivojlanadi.

**Limnofitlar** — Ko'l o'simliklari — ko'llarda o'suvchi o'simliklar.

**Limon** — rutadoshlarga mansub subtropik va tropik zonalarda o'suvchi daraxtsimon o'simlik. Vatani Xitoy va Yaponiya. Mevasi ho'lligicha iste'mol qilinadi. Konditer mahsulotlari tayyorlashda, limon kislotasi olishda foydalilanadi. O'zbekistonda limonchi olim Z. Faxriddinov «Toshkent», «Yubiley» navlarini yaratgan.

**Liniya** — *Tizim* — jinsiy yo'l bilan ko'payuvchi bir gomozigotali doimo o'zidan changlanuvchi o'simlikning avlodи. Nasl nuqtai nazaridan bir-biriga yaqin bo'lgan zotlar, individlar guruhি. Bular inbred, autbred va toza tizimlarga bo'linadi (q. *Inbreeding, Autbreeding*).

**Lint** — **Qisqa tuk** — chigit tuki. Toladan tozalangan chigitning ustki qismida qolib ketgan qisqa tuklar (kalta tolalar), momiq. O'rta tolali paxtada 11—15 (ingichka tolali paxtada 3—5)% qoladi.

**Liofillash** — **Liofil quritish** — biologik materiallar — to'qima, hujayra va boshqalarni muzlatilgan holda vakuum ostida quritish, bunda muz suvg'a aylanmasdan to'g'ridan to'g'ri bo'g' holatiga o'tadi. Tabiiy birikmalar, xususan, oqsillar denaturatsiyaga uchramasdan ajratiladi. Quritilgan qon, quritilgan zar-dob, vaksinalar olishda ishlataliladi.

**Lipaza** — yog'larni glitserin va yog' kislotalariga parchalanish reaksiyasini

katalizlovchi gidrolazalar sinfiga man-sub ferment.

**Lipidlar** — organik erituvchilar (benzin, benzol, xloroform, geksan)da yaxshi eriydigan va suvda erimaydigan yuqori yog' hamda yog'simon moddalar. Glitserin yoki boshqa spirtlar va molekulali yog' kislotalarining murakkab efiri hisoblanadi. Hayotiy jarayonlarda favqulodda muhim rol o'ynaydi. Lipidlar biologik membranalar tarkibiga kiradi. Hujayraning o'tkazuvchanligiga ta'sir qiladi, muhim energetik manba bo'lib, himoya vazifasini bajaradi.

**Lipidli qo'shqavat, yog'li qo'shqavat**, — biologik membranalarning asosiy tuzilmasi. Ko'pchilik suvda eruvchi birikmalar uchun o'ta olmaydigan to'siq hisoblanadi.

**Lipoproteinlar** — aminokislota va yog'lardan tashkil topgan murakkab oqsillar. Biologik membranalarning tuzilish elementlari hisoblanadi.

**Lipotsit** — Yog'li hujayra.

**Liposoma** — **Yog'li tanacha, yog'li pufakcha** — 1) ichida eritma bo'lgan va lipidli membrana bilan o'ralgan pufakcha. Hujayradagi ayrim jarayonlarni o'rganishda qulay model bo'lib xizmat qiladi; 2) yog'dan iborat hujayra globulalari, Sun'iy ravishda tayyorlanadi va biologik tadqiqotlarda foydalilanadi.

**Lishaylar** — tanasi vegetativ a'zolar (poya, barg va ildizlar)ga differensiatsiyalanmagan tuban o'simliklar. Ular ikki toifa tuban o'simliklar (suvo'tlari va zamburug'lar)ning simbioz bo'lib yashashlari oqibatida shakllangan.

**Lixenologiya** — **Lishayshunoslik** — botanikaning lishaylarni o'rganuvchi bo'limi.

**Lizasoma** — hujayra tuzilmasi. Ularda murakkab organik birikmalar parchalovchi gidrolitik fermentlar mujassamlashgan bo'ladi. Hujayra ning himoya, hazm qilish, ajratib chiqarish va boshqa vazifalarini bajaradi.

**Lizin** — zaruriy aminokislota. Barsha to'la qiymatli oqsillar tarkibida uchraydi. Ozuqa va yem-xashaklar siyatini oshirish uchun sintetik lizindan foydalilanadi.

**Lizis, parchalanish, erish** — fermentlar va boshqalar ta'sirida hujayralar, to'qimalarning yemirilishi. Masalan mikroorganizmlarning parchalanishi.

**Lokus** — xromosomaning ma'lum irsiy ormil, ya'ni gen joylashgan qismi, o'rni.

**Loladoshlar, piyozdoshlar** — bir pallali o'simliklar oilasi. Masalan, piyoz, sarimsoq, lola va hokazolar.

**Los** — bug'ular oilasiga mansub hayvon. Asosan, o'rmonda, daryo va ko'l sohillarida yashaydi.

**Losossimonlar, Sulaymonbaliqlar** — dengiz va chuchuk suvda yashochi baliqlar. O'rta Osiyoda Orol lososi yoki kumja va gulmoxi degan turлari uchraydi.

**Lub tolesi, qobiq tola** — po'stloq (qobiq)dan ajratib olinadigan uzun tola. To'qimachilik sanoatida keng ishlataladi. Masalan, kanop, zig'ir tolallari.

**Lub, floema, qoviq** — o'simliklar poya va ildizlaridagi to'qima kompleksi. Lub to'qimasining asosiy vazifasi organik moddalarni o'simlik bo'ylab tarqatish.

**Lubxo'rilar, qoviqtolaxo'rilar** — po'stloqxo'rilar (qoviq) oilasiga mansub qo'ng'izlar turi.

**Lupin**, *lupin bo'ri dukkagi* — dukkakdoshlarga mansub bir va ko'p yillik ozuqabop o'simlik.

**Lutseferaza** — lutsefirinning oksidlanish reaksiyasini katalizlovchi ferment. Reaksiya natijasida yorug'lik chiqadi. Nur tarqatuvchi tirik organizmlarda ko'p.

**Lutserna — Beda** — dukkakdoshlarga mansub bir yillik va ko'p yillik o'simliklar. Paxtachilik zonalarida almashlab ekishda asosiy ekinlardan biri hisoblanadi.

**Lutein hujayralar** — sariq tana tashqi qavatini hosil qiladigan epitelial bez hujayralar. Bu hujayralarda progesteron gormoni hosil bo'ladi.

## M

**Madaniy o'simliklar** — ekib parvarishlanadigan o'simliklar. Bularga donli, tolali, moyli, dorivor va boshqa o'simliklar kiradi.

**Madaniylashtirish** — 1) biron o'simlik turini qishloq xo'jalik ekining aylantirish jarayoni; 2) tuproq unumdonligini oshirishga qaratilgan tadbirlar yig'indisi.

**Magnitobiologiya** — biofizika bo'llimi. Tabiiy va sun'iy magnit maydonining tirik organizmlarga ta'sirini o'rganadi va biologik moddalarning magnit xususiyatlarini aniqlaydi.

**Magnitotropizm — Magnit maydonida egilish** — o'simlik poya, il-dizining o'sish jarayonida tabiiy va sun'iy magnit maydoni ta'sirida egilishi.

**Magnoliyalar** — ikki pallali o'simliklarga mansub doim yashil daraxtlar. Qrim, Kavkaz va O'rta Osiyoda o'stiriladi.

**Mahsuldarlik, serhosillik** — 1) hayvon organizmlariga xos nasl qoldirish xususiyati. Bu jinsiy balog'atga yetish va ko'payish tezligi hamda tug'ilayotgan nasl (bola)ning katta-kichikligi bilan aniqlanadi; 2) o'simliklarning serhosilligi.

**Makakalar** — tor burunli maymunlar turkumi. 10—20 tadan poda bo'lib yashaydi. O'simliklar va hasharotlar bilan ovqatlanadi. Bir yilda bitta bola tug'adi.

**Makro... — Katta**, yuqori, yuksak ma'nosini anglatadi; murakkab so'zlarning tarkibiy qismi.

**Makroelementlar** — o'simliklarning oziqlanishi uchun ko'p miqdorda zarur bo'ladigan kimyoiy elementlar; masalan, azot, fosfor, kaliy va boshqalar.

**Makroenergetik birikmalar, ener-giyaga boy birikmalar** — ATP va fermentativ reaksiyalarda ATP hosil qilish xususiyatiga ega bo'lgan birikmalar. Bu birikmalarni gidroliz qilin-ganda ko'p miqdorda energiya ajralib chiqadi.

**Makroevolutsiya — Katta evo-lutsiya** — turdan yuqori pog'onada turuvchi taksonomik kategoriylar, ya'ni turkum, oila sinflarning vujudga kelishini ta'minlovchi evolutsion jarayon. Bunday taksonlar, odatda, uzoq vaqt davomida vujudga keladi.

**Makrofaglar — Katta hujay-ralar — biriktiruvchi to'qima hu-jayralari** — odam va umurtqali hay-

## M

von organizmi to'qimalari hamda qonida keng tarqalgan hujayralar. Bular organizmdagi zararli bakteriyalar, hujayra qoldiqlari va boshqa yot yoki zaharli moddalar, tanachalarni tutib, hazm qiladi. Shu bilan uni yuqishdan saqlaydi.

**Makrogameta — Katta jinsiy hujayra** — harakatsiz urg'ochi jinsiy hujayra.

**Makrogliya** — asab to'qimasi xillaridan biri. Neyronlarga o'xshash hujayralar, bir oz qo'zg'atish xususiyatiga ega.

**Makromolekula** — kichik molekulalarning takrorlanishi natijasida hosil bo'lgan polimerlar. Murakkab va o'ziga xos tuzilishga ega bo'lib, hujayrada ma'lum vazifalarni bajaradi.

**Makronukleus, yirik yadro** — infuzoriyalardagi katta somatik yadro. Modda almashinuvি jarayonlarini boshqarishda ishtirot etadi.

**Makroorganizmlar — Katta organizmlar** — o'chami 0,5 milimetrden ortiq bo'lgan ko'p hujayrali organizmlar.

**Makrospora — Katta spora** — sporali yuksak o'simliklarning urg'ochi jinsiy gametofit hosil qiluvchi katta sporasi.

**Makula — Eshitish dog'lari** — umurtqali hayvonlar ichki qulog'idagi sezuvchi hujayralar guruhi.

**Makvis** — O'rta dengiz atroflarida keng tarqalgan qattiq bargli, tikanli doim yashil buta va daraxtlardan iborat chakalakzor.

**Malpigiyan tanachalari** — odam va deyarli barcha umurtqali hayvonlarda-  
gi bauman kapsulasi bilan o'ralgan  
buyrakdagi arterial tomirchalar chi-  
galidan iborat to'pcha. Ularda qonda-  
gi suyuqlik filtrlanadi.

**Malpigiyan tomirlari** — hasharotlar, o'rgimchaksimonlar va ko'poyoqlilar o'rta hamda orqa ichagi chegarasida joylashgan tomirsimon kanallar Chiqarish va osmoregulatsiya vazifasini bajaradi.

**Maltoza, don shirasi, don shakari** — ikkita glukoza molekulasidan iborat disaxarid. Unayotgan don shiralarida ko'p miqdorda uchraydi.

**Mammologiya, mammaliologiya** — zoologiyaning sut emizuvchilarni o'rganuvchi sohasi.

**Mannanlar** — o'simliklarning jamg'arma va tayanch vazifasini bajaruvchi polisaxaridları; asosan, mannozalardan tashkil topgan.

**Manzarali o'simliklar** — ko'rinishi, shakli chiroyli, guli va barglari rang-barang, bog', xiyobonlar va ko'chalarga xushmanzara berishda foydalilanligan o'simliklar.

**Maqsadga muvofiqlik** — organizmnning yashash sharoitiga moslasib, turli a'zolarining o'zaro uyg'unlik bilan harakat qilishi. Darwin ta'limotiga ko'ra maqsadga muvofiqlik tabiiy tanlanish natijasidir.

**Markaziy asab tizimi** — odam va hayvon asab tizimining asosiy qismi bo'lib, bosh hamda orqa miyadan tashkil topgan. Uning asosiy faoliyatni reflekslarni, ya'ni organizmnning murakkab, yuksak ixtisoslashgan reaksiyalarini amalga oshirishdir.

**Maskulinizatsiya, erkaklanish** — urg'ochi zotlarda erkaklik ikkilamchi jinsiy belgilarning paydo bo'lishi.

**Matriks (sitologiyada)** — hujayraning asosiy moddasi.

**Matritsa** — genetik informatsiya nusxasini olish uchun qolip yoki asos. Bu DNK ning polinukleotid zanjiri bo'lib, undan yangi nusxa olish uchun xizmat qiladi.

**Matritsali-RNK** — q. *Information RNK*.

**Maturaza** — intronlarni qirqish va transport-RNKlarning «yetilish» reaksiyalarini katalizlovchi ferment.

**Mayda baliqchalar** — baliqlar rivojlanishidagi dastlabki bosqich.

**Maymunlar** — odamsion maymunlar (primatlar) turkumini tashkil qiluvchi yuksak darajada tuzilgan sut emizuvchilar. Kengburunli va torburunli guruhlarga bo'linadi.

**Maysa** — urug'dan endigina unib chiqqan o'simlik ko'kati.

**Mediatorlar** — asab tizimida vositasiz hujayralararo o'zaro ta'sirni amalga oshiruvchi fiziologik faol moddalar. Mediatorlar asab impulslarini ta'sirida ajralib chiqib, ularni asab uchidan ishchi a'zoga yoki bir asab hujayrasidan boshqasiga o'tishida ishtirot etadi. Simpatik asab tizimi mediatori — noraderenalindir.

**Meduzalar** — dengiz suvlarida erkin suzib yuruvchi kovakichlilar. Ssifoidlar yoki haqiqiy meduzalar sinfining paypaslagichlari zaharli, ba'zi turlari (masalan, kombomeduza yoki «dengiz arisi») esa odam uchun xavfi.

**Megakariotsitlar** — sut emizuvchilarning qon hosil qiluvchi a'zolaridagi yirik yadroli hujayralar. Qon ivishida ishtirot etuvchi trombotsitlar shu hujayralardan hosil bo'ladi, diametri 50—70 mkm ga teng.

**Megoevolyutsiya** — eng yirik takson (sinf, tur)larning shakllanishiga olib keluvchi evolutsion jarayonlar majmui.

**Melaninlar** — odam va hayvonlar terisi, sochlari (junlari), patlari va boshqalarning qora hamda jigarrang pigmentlari. Tirozin aminokislotosining oksidlanishi bilan bog'liq.

**Melanizm** — hayvonlardagi qora va qo'ng'ir rang pigmentlari bilan bog'liq hodisa.

**Melioratsiya, tuproq xususiyatlari yaxshilash** — yer resurslaridan samarali foydalanish maqsadida noqulay agroklimatik, tuproq va gidrogeologik sharoitlarni tubdan yaxshilashga yo'naltirilgan tashkiliy-xo'jalik, muhandislik va agroteknik tadbirlar tizimi. Uzoq vaqt davomida barqaror hosil olishga va yerdan samarali foydalanishga imkon beradi.

**Membrana, parda** — oqsil va lipid dan tashkil topgan yarim o'tkazgich molekular to'siq. Hujayra va hujayra orgonoidlari — yadro, mitoxondriya, xloroplast va boshqalarni o'rab turadigan parda.

**Membrana oqsillari** — biologik membranalarning maxsus vazifalarini amalga oshiruvchi oqsillar.

**Membrana potensiali** — membranalarning tashqi va ichki tomonlarida hosil bo'ladiyan elektrokimiyoviy proton potensiallari ATP hosil bo'lishini ta'minlaydi.

**Membrana retseptori** — **Biriktiruvchi membranalar** — plazmatik membranalardagi gormonlarni biriktirib olish xususiyatiga ega murakkab birikmalar.

**Mendelizm** — irsiyat va o'zgaruvchanlik qonuniyatlar haqidagi ta'lomit; irsiy ornillar korpuskular (molekular) tabiatga ega va ularning avlodlarga taqsimlanishi statistik qonuniyatlar yordamida amalga oshadi deb o'rgatadi. Chex olimi G. Mendel irsiyatni gibridologik usul yordamida o'rganishni ishlab chiqdi va shu asosda jinsiy ko'payishdagini belgilarning nasldan-naslga o'tish qonuniyatlarini kashf etdi.

**Mentol** — yalpizdan olinadigan eifr moyining asosiy qismi.

**Meristema** — *Hosil qiluvchi to'qima* — o'simliklarning bo'linish xususiyatini uzoq vaqt saqlaydigan hosil qiluvchi to'qimasi. Meristema o'simliklarning o'sishini ta'minlaydi va boshqa to'qimalarni hosil qilishda ishtirot etadi.

**Metabolit** — organizmda moddalar almashinuvi natijasida (metabolizmda) hosil bo'ladigan oraliq mahsulot. Ularning aksariyati organizmdagi biokimyoviy va fizilogik jarayonlarning ma'lum tartibda borishini ta'minlaydi.

**Metabolizm, moddalar almashinuvi** — hujayrada fermentlar ishtirotida boradigan moddalarning hosil bo'lishi, parchalanishi va o'zaro almashinuvidan iborat bo'lgan barcha reaksiyalarning yig'inisi. Bunda organizm hayot faoliyatni, o'sishi, ko'payishi uchun zarur moddalar va energiya bilan ta'minlanadi (q. *Anabolizm, Katabolizm*).

**Metafaza** — hujayra noto'g'ri bo'linishi (mitoz) bosqichlaridan ikkinchisi bo'lib, unda yadro qobig'i erib, xromosomalar hujayra o'rtasida (ekvatori bo'ylab bir tekislikda) taqsimlanib, xromatidlarga bo'linadi (q. *Mitoz*).

**Metalloproteinlar** — tarkibida metall atomi bo'lgan va organizmda xilma-xil vazifalarni bajaradigan oqsillar. Bularning ko'pchiligi fermentlardir. Ularning faolligi magniy, kaliy, natriy, kalsiy va boshqalarga bog'liq. Temir, mis, maraganets, molibden kabi elementlar muhim oqsillarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunday oqsillarga ge-

moproteinlarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

**Metamorfoz** — **Shakl o'zgarishi** — organizm tuzilishining o'zgarishi; 1) hayvonlarda lichinkaning voyaga yetgan individ (imago)ga aylanishi ga qadar yuz beradigan o'zgarishlar; 2) o'simliklarda bajaradigan vazifasining o'zgarishi bilan bog'liq holda asosiy a'zolar ko'rinishining o'zgarishi. Masalan, bargning tikanga aylanishi.

**Metastaz** — o'sma, shish yoki yallig'lanish jarayoni tufayli qon yoki limfa orqali organizm bo'ylab tarqaladigan ikkilamchi patologik manba. Hozir metastaz so'zi ko'pincha xavfli shish hujayralarning tarqalishini ifodalaydi.

**Metionin** — tarkibida oltingugurt bo'lgan zaruriy aminokislota. Barcha to'la qimmatli oqsillar tarkibiga kira-di. Sintetik metionin yem, ozuqlar qiyamatini oshirishda va tibbiyotda dori-darmon sifatida ishlataladi.

**Metislar, duragaylar** (antropologiyada) — irq aralashuvi natijasida hosil bo'lgan avlod vakillari.

**Meva** — gulning urug'lanishidan hosil bo'lib, yetilgan tuguncha. Gulli o'simliklarning ko'payish a'zosi.

**Meva po'sti** — meva tugunchasi qobig'idan hosil bo'ladigan qavat.

**Meva qobig'i, ekzokarpiy** — mevani o'rab turuvchi yupqa qobiq; masalan, danak ustidagi yumshoq qavat.

**Mevaband** — meva tugilgandan so'ng gulband shunday ataladi.

**Mevaning ichki qismi** — q. *Endokarkiy*

**Mexanik to'qimalar, tayanch to'qimalar** — o'simliklarga mustahkamlik beruvchi, ko'pincha yog'ochlashgan qobiqli hujayralardan

iborat, tayanch vazifasini bajaruvchi to'qima. Mexanik to'qimaning kollenxima va sklerenxima kabi asosiy turlari bor.

**Meyoz** — hujayraning bo'linish usuli. Reduksion bo'linish natijasida gaploid sonli xromosomalarga ega bo'lgan jinsiy hujayralar hosil bo'ladi. Bunda xromosomalalar to'plami ikki barobarga kamayadi. Meyoz jinsiy hujayralarning hosil bo'lishida asosiy rol o'yaydi. Bu jarayonda diploid hujayra ikki marta ketma-ket bo'lingach, xromosomalalar to'plami bit-tadan bo'lgan 4 gaploid jinsiy xujayra hosil bo'ladi.

**Mezenteriy** — q. *Ichaktutqich*.

**Mezoderma** — **Oraliq to'qima, oraliq teri** — embrion ko'p xujayrali to'qimalarida ektoderma va entoderma oralig'ida joylashgan to'qima.

**Mezofill** — yuksak o'simliklar bargi et qismidagi asosiy to'qima. Ustunsimon va g'ovak parenximadan tashkil topgan.

**Mezofitlar** — namligi o'rtacha bo'lgan tuproqlarda o'sadigan o'simliklar. Kserofitlar va gigrofitlar oralig'idan o'r'in olgan o'simliklar.

**Mezokarpiy, Mezokarp, meva oralig'i** — mevaning o'rta, ko'pincha iste'mol qilinadigan sersuv qatlami.

**Mezosaprob** — organik moddalariga uncha boy bo'lmasagan suv havzalarda yashovchi organizmlar.

**Mezosoma, sitoplazmatik kiritmalari** — ba'zi prokariotlar sitoplazmasidagi membrana tuzilmalari.

**Mezoterm organizmlar** — **Mo'tadil muhitda yashovchilar** — mo'tadil haroratli muhitda yashaydigan organizmlar.

**Mezozavrilar** — uzunligi 1 m gacha bo'lgan qirilib ketgan sudralib yuruvchilar turkumi. Qazilmalardan ma'lum

bo'lishicha tashqi ko'rinishi kaltakesaklarga o'xhash bo'lgan.

**Midiyalar** — ikki tabaqali mo'llusklar turkumi. Suvdagi muallaq (suzib yuruvchi) zarrachalar bilan oziqlanib, uni tozalaydi. Mo'tadil va tropik iqlimli okeanlarda keng tarqalgan. Go'shti yeyildi va yem-un tayyorlanadi.

**Mikologiya, zamburug'shunoslik** — botanikaning zamburug'lar tuzilishi, tarqalishi, sistematikasi, biologiyasi, shuningdek, ularning tabiatdag'i va inson hayotidagi ahamiyatini o'rganadigan bir bo'limi.

**Mikoplazmalar** — hayvon va o'simlik hujayralari bilan chambarchas bog'liq holda parazit hayot kechiruvchi bakteriyalarga o'xhash mayda organizmlar. Bularда hujayra qobig'i bo'lmaydi.

**Mikoriza, zamburug'ildiz** — tuproqdagi ayrim zamburug'lar mitseliysi va yuksak o'simliklar ildizing hamkorlikdagi yashashi. Mikorizalar o'simlikka foydali ta'sir ko'rsatadi.

**Mikotoksinlar — Zamburug' zahari** — zamburug'larning zaharli mahsullari. Ayniqsa, zaharli zamburug'lar bilan zararlangan yem-xashklarda ko'p bo'ladi va chorva mollarini zaharlaydi.

**Mikrobiologiya** — mikroorganizmlar hayot faoliyatini, sistematikasi, morfologiysi, biokimyosi, genetikasi, tarqalishi, tabiatda moddalar aylanib turishidagi ahamiyatini, odam, hayvon va o'simliklar hayotida tutgan o'rnini o'rganadigan fan. Mikrobiologiyaga fransuz olimi Lui Paster asos solgan.

**Mikroelementlar** — tirik organizmlar uchun juda oz miqdordagisi kifoya kimyoviy elementlar. Bularga mis, temir, marganets, kobalt, molibden va boshqalar kiradi. Asosan fermentlar tarkibini tashkil etib, ularning yet-

# M

ishmasligi yoki ortiqchaligi modda almashinuvining buzilishiga olib keldi.

**Mikroevolutsiya** — tur ichida, alohida yoki aralash populatsiya chegerasida boradigan boshlang'ich evolutsion jarayonlar yig'indisi. Irsiy o'zgaruvchanlik asosida yotuvchi mutatsiyalar va tabiiy tanlanish ta'sirida populatsiyaning genotipik tarkibi o'zgaradi. Kichik va katta masshtabdagi evolutsion hodisalarni ajratish uchun qo'llaniladigan atama.

**Mikrofilamentlar** — eukariot hujayralarning aktin oqsilidan iborat ipsimon organellalari. Hujayra harakatida ishtirot etadi.

**Mikroflora** — evolutsion jarayon natijasida hosil bo'lgan ma'lum muhitdagi tuban mayda organizmlar (bakteriya, ba'zi zamburug' va suvo'tlar) majmuasi.

**Mikroinyeksiya** — o'simlik yoki hayvon hujayralariga zidditanalar, har xil makromolekulalar, organellarni kiritish usuli.

**Mikroklimat** — *Mikroiqlim* — ma'lum bir kichik joyning yoki sun'iy hosil qilingan yopiq xonalarning o'ziga xos iqlim sharoiti.

**Mikrokokklar** — sharsimon, yuma-loq bakteriyalar turkumi. Bo'linib ko'payadi, spora hosil qilmaydi. Suvda va havoda yakka yoki to'p-to'p boilib yashaydi. Ba'zilari yiringli kasalliklar qo'zg'atadi.

**Mikronaychalar — Kichik naychalar** — eukariot hujayralarning uzun silindrik naychasimon tuzilmlari. Tubulin oqsilidan tashkil topgan. Mitotik urchuqning hosil bo'lishi va hujayra harakatida (kipriliklar, xivchinlilar) muhim ahamiyatga ega.

**Mikroorganizmlar, mayda organizmlar** — mayda, ko'zga ko'rinnmaydigan mikroskopik organizmlar. Bularga bakteriyalar, mikroskopik suv o'tlari va zamburug'lar, ba'zan eng sodda organizmlar hamda viruslar kiradi. Turli sharoitlarda yashay oladi. Oziq-ovqat va mikrobiologiya sanatida foydalaniladi.

**Mikrotsirkulatsiya** — mayda (kapillyar) qon tomirlardagi qonning harakati.

**Mikrosomal oksidlanish** — mikrosomalarda kechadigan oksidlanish jarayonlari. Mikrosomalarda kislordan ni to'g'ridan-to'g'ri har xil substratlarga biriktiruvchi faol oksigenazalar ko'p bo'ladi.

**Mikrosomalar, kichik tanachalar** — hujayra sitoplazmasidagi fraksiyalar.

**Mikrospora (kichik spora)** — har xil sporali qirqquloqsimonlar va yuksak o'simliklarning mayda sporalar. Mikrosporangiyalarda hosil bo'ladi.

**Mikrosporogenez** — qirqquloqsimonlar va gulli o'simliklarda mikrosporalar hosil bo'lish jarayoni.

**Mikrotermlar** — past haroratli sharoitda rivojlanadigan organizmlar.

**Mikrovorsinkalar — Kichik so'rg'ichlar, mikroso'rg'ichlar** — odam va hayvonlar ba'zi a'zolaridagi epiteliy hujayralarning barmoqsimon o'simtlari.

**Miksinlar** — to'garakog'izlilar sinfiga mansub, suvda yashovchi umurtqali hayvonlarning urug'i. Okeanlarning mo'tadil va subtropik zonalarida tarqalgan.

**Miksotrof organizmlar** — bir vaqtning o'zida har xil turdag'i (avtotrof va geterotrof) oziqlanish xususiga ega.

# M

yatiga ega bo'lgan organizmlar; masalan, xivchinlilar.

**Milklar, tish milki** — jag' suyaklarini qoplab, tish bo'g'izlarini yopib turuvchi yumshoq to'qima.

**Milliy bog'** — alohida qo'riqlanadigan katta tabiiy maydon. Dam oluvchilarning kiritilishi bilan qo'riqxonalardan farq qiladi. O'zbekistonda Zomin va Ugom-Chotqol milliy bog'lari bor.

**Mimikriya — Taqlid** — o'simliklar yoki hayvonlarning rang va shakl jihatidan yashab turgan atrof-muhitiga o'xshab ketish hodisasi; tabiiy tanlash natijasida shakllanadi. Bu hodisadan organizmlar o'zini himoya qilish uchun foydalanadi.

**Minixromosoma — Mayda xromosoma** — xo'jayin-hujayra gistonlari va virusning halqasimon DNK sidan iborat kompleks.

**Minogalar** — to'garakog'izlilar sinfiga mansub umurtqali hayvonlarning turkumi. Uzunligi 15—100 sm. Go'shti yeylimadi.

**Mio...** — muskul (mushak)ga oidlikni anglatuvchi murakkab so'zlarning tarkibiy qismi.

**Mioglobin** — mushak hujayralarida gi bir polipeptid zanjir va bitta gemdan tashkil topgan kislород tashuvchi oqsil.

**Miokard — Yurak mushagi** — yurakning asosiy qismi, go'shtdor devori. O'ziga xos ko'ndalang-targ'il mushak to'qimasidan tuzilgan.

**Miotsit** — Mushak hujayrasi.

**Miozin** — mushakning qisqaradigan tolalarining asosiy oqsili. Ikkita polipeptid zanjirdan tashkil topgan.

**Mitseliy — Zamburug'tana** — zamburug'ning ingichka, tarmoqlangan ipchalari (gifalar)dan tashkil topgan vegetativ tanasi.

**Mitsellalar** — hayvon va o'simliklarning tolasimon to'qimalarini hosil qiluvchi nozik ipsimon hosila.

**Mitoxondriya** — hujayraning quvvat markazlari; eukariot organizmlarni energiya bilan ta'minlaydigan donor hujayra organoidi.

**Mitoxondriya DNKsi** — mitoxondriyaning uncha katta bo'limgan halqasimon DNK molekulasi. Sito-plazmatik irlsiyat molekular antropologiya va paleogenomikada muhim ahamiyatga ega.

**Mitoz — Noto'g'ri bo'linish** — hujayralarning asosiy bo'linish usuli. Hujayra va yadroning bo'linishida xromosomalar ikki barobarga ko'payadi hamda yangi hujayralar o'rtaida barobar taqsimlanadi. Bir qancha bosqichdan iborat: profaza, metafaza, anafaza, telofaza.

**Miya** — hayvonlar va odam asab tizimidagi markaziy qism. Umurtqali hayvonlar va odamda bosh miya va orqa miyaga bo'linadi. Miya to'qimalari kulrang va oq moddadan tashkil topgan.

**Miya qutisi** — miya skeletining bir bo'limi, bosh miya, hid sezish va eshitish a'zolari, qisman ko'rish a'zolari himoya qiladi.

**Miyacha** — bosh miyaning organizmni muvozanatda saqlash va harakatlarni uyg'unlashtirishni boshqaruvchi qismi.

**Miyelin** — asab tolasining ko'p qavatlari membrana qobig'i.

**Mobil genetik element, harakatchan irlsiy elemetlar** — DNKnинг «sakrovchi genlari». Bular DNK ning goh bir qismida, goho boshqa qismida paydo bo'lish xususiyatiga ega.

**Modda almashinuvi** — tirik organizmlarda sodir bo'ladigan modda va energiyaning qonuniy tartibda o'z-

garib, almashinishi. Hayot asosini tashkil etuvchi kimyoviy reaksiyalar majmui (q. *Metabolizm*).

**Modifikatsiya, o'zgarish** — organizmda tashqi omillar ta'sirida bo'ladigan fenotipik o'zgarishlar. Irsiyat bilan bog'liq emas va gametalarning xromosomasini o'zgartirmaydi.

**Mog'or (po'panak) zamburug'-lar** — oziq-ovqat, yog'och, qog'oz va boshqa mahsulotlarning ustki qismida o'ziga xos g'ubor hosil qiluvchi zamburug'lar. Ba'zi turlari kasallik qo'zg'atsa, ko'pchiligi ferment, antibiotik va vitaminlar manbai hisoblanadi.

**Mokisimon hujayra** — umurtqalilar ko'z to'r pardasining kunduzgi va rangli tasvirni sezib, uni ko'rishni ta'minlovchi fotoretseptorlar.

**Molekular biologiya** — tiriklik belgilari va asosiy xususiyatlarini molekular darajada o'rganuvchi fan. Asosiy vazifasi muhim biologik birikmalar hisoblangan oqsil va nuklein kislotalarning o'zaro ta'siri, xususiyatlari va strukturasi bilan bog'liq bo'lgan irsiyat, oqsil biosintezi, infomatsiyani saqlash hamda uni uzatish kabi hayotga xos xususiyatlarni tadqiq etishdan iborat.

**Molekular genetika** — genetika va molekular biologyaning bo'limi. Organizmlar irsiyat va o'zgaruvchanligining moddiy asoslarini hujayradan past bo'lgan organoidlar va molekular darajada o'rganadi. Molekular genetikaning rivojlanishi mutatsiyaning o'zgarishini chuqurroq o'r ganish imkonini beradi (q. *Gen muhandisligi*).

**Molluskalar, yumshoqtanlilar** — umurtqasiz hayvonlar turi. 400 ga

yaqin turi ma'lum. Boshoyoqli va qorinoyoqli molluskalar zaharli modda ajratuvchi a'zoga ega. Ko'pchilik molluskalar go'shti yeyiladi (masalan, midiyalar).

**Mongoloid irqi** — asosan, Osiyo va Amerika qit'alarida tarqalgan. Badani (terisi) bug'doyrang yoki oqsarg'ish, sochlari to'g'ri, ko'pincha qattiq, burni va lablari o'rtal enli, birmuncha keng yuzli, yapaloqroq ko'rinishga ega.

**Monitoring, ogohlantiruvchi** — odamning xo'jalik faoliyati natijasida atrof-muhitda ro'y beradigan o'zgarishlarni kompleks kuzatish, baholash, payqash va oldindan ilg'ash, odam hamda boshqa tirik organizmlar salomatligiga salbiy ta'sir qiluvchi hollarni aniqlab, uning oldini olish tizimi.

**Mono...** — so'zlarning bir, yakka, yagona ma'nosini bildiruvchi bo'lagi.

**Monofagiya** — hayvonlarning faqat bir turga mansub ozuqa bilan oziqlanishga moslashishi. Masalan, ipak qurtining tut daraxti bargi bilan oziqlanishi.

**Monofiliya — Yakka ajdodlik** — bir guruuh organizmlarning bitta umumiy ajdodga ega bo'lishi.

**Monogen naslga o'tish, yakkagen irsiyanish** — bir juft allellar nazoratidagi bir tomonlama (alternativ) belgilarning naslga o'tishi.

**Monogramiya — Yakka qo'shilish** — hayvon jinslari o'rtasidagi munosabatlar shakli. Hayvonlar erkagining bir yoki bir necha mavsumda bitta urg'ochi zot bilan qo'shilish xususiyati.

**Monokarp o'simliklar** — hayotida faqat bir marta gullab meva qilib, so'ngra quriydigan o'simliklar

**Monoklonal antitanalar — Yak-kapayvand zidditanalar**, — gibridom klonlar tomonidan sintez qilinadigan moddalar. Ular xususiyatlari bo'yicha bir xil, antigenga (yot tanachaga) nisbatan bir xil o'xshashlikka ega va faqat bitta antigen bilan bog'lanadi.

**Monokultura — Ekin yakka-hokimligi** — bir xil ekinning ko'p yil davomida uzlusiz, almashlab ekishga rioya qilmay, bir maydonga ekilishi.

**Monopodial shoxlanish, oddiy shoxlanish** — poya yoki tana shoxlanishining bir turi. Bunday shoxlanish jarayonida o'simlikning asosiy o'q moyasi o'sishda davom etadi va o'sish nuqtadan pastroqda yonshoxchalar hosil bo'lib, ular ham xuddi shu yo'sinda o'sadi va shoxlanadi. Monopodial (o'suvchi) shoxlar asosiy poyaning pastki qismida rivojlanadi. **Monopodiy, asosiy tana** — uchki meristema faoliyati tufayli hosil bo'lgan o'simlikning asosiy tanasi (daraxt tanasi, poya, shox, ildiz).

**Monosaxaridlar — Oddiy uglevodlar, oddiy shakarlar** — aldegi-dospirtlar yoki ketospirtlardan iborat. Tarkibidagi karbon atomining soniga qarab geksoza, pentoz, tetroza va triozalarga bo'linadi. Ularga glukoza, fruktoza, galaktoza, riboza va boshqalar kiradi.

**Monotsitlar** — eng yirik leykotsitlar guruhi.

**Monospermiya — Yakka otalanish** — tuxumhujayraning bitta erkaklik gimetasi bilan otalanishi.

**Morfogenez** — ontogenezda organizm a'zolarining paydo bo'lishi va rivojlanishi.

dori. Ko'p miqdorda iste'mol qilinsa, uxlatuvchi narkotik.

**Morula** — embrion rivojlanish bosqichi. Bunda ko'p hujayrali hayvon embrioni bir-biriga yopishgan ko'p blastomerlarning yig'indisidan iborat bo'ladi. Bu blastomerlarning tashqi ko'rinishi tut mevasini eslatadi. Moruladan so'ng blastula bosqichi keladi.

**Moyli o'simliklar** — meva yoki urug'larida ko'p miqdorda moy to'p-playdigan o'simliklar. Masalan, zig'ir, g'o'za, yeryong'oq, kanakunjut.

**Mukopolisaxaridlar — Shilim-shiqpolisaxaridlar** — uglevodlar va oqsillardan iborat murakkab gliko-proteinlar.

**Multferment kompleksi** — ko'p fermentlik kompleks, ketma-ket keluvchi reaksiyalarda ishtirok etuvchi fermentlar yig'indisi.

**Mumlar** — o'simlik va hayvonlarda keng tarqalgan yog' kislotalar hamda asosan bir atomli yuqori molekulali spirlarning murakkab efiri. Masalan, palma mumi, asalari mumi.

**Muskullar — Mushaklar to'plami** — hayvonlar va odamning harakat faoliyatini ta'minlaydigan mushak to'qimalar. Uning asosiy qisqaruvchi elementlari miofibrillardir. Tuzilishi va bajaradigan vazifasiga ko'ra silliq, ko'ndalang-targ'il skelet, ko'ndalang-targ'il yurak mushak to'qimalari va ixtisoslashgan mushak to'qimasiga bo'linadi.

**Mutagenez** — irlsiy o'zgarishlar, ya'ni mutatsiyalar hosil bo'ladigan jarayon. Mutatsiyaning asosida irlsiy informatsiyani saqlovchi va nasldan-nasliga o'tkazuvchi DNA molekulasi-

**M**

dagi o'zgarishlar yotadi. Mutagenez tabiiy yoki turli omillar yordamida sun'iy yo'l bilan mutagenlar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin.

**Mutagenlar** — genli yoki xromosomali mutatsiyalarni vujudga keltiruvchi tashqi muhit omillari. Bularga ultrabinalsha va ionlashtiruvchi nurlanishlar (fizik omil), turli-tuman kimyoviy birikmalar (kimyoviy omil), viruslar (biologik omil) va boshqalar kiradi. Fizik va kimyoviy omillardan qishloq xo'jaligi o'simliklari seleksiyasida mutatsiyalar olish maqsadida keng foydalaniladi.

**Mutant, o'zgargan organizm** — mutatsiya natijasida boshlang'ich organizmdan biron-bir belgi yoki xususiyati bilan farq qiluvchi, irsiy jihatdan o'zgargan organizm shakli.

**Mutatsiya, o'zgarish, almashish** — barcha tirik organizmlarga xos xususiyat. Bunda irsiy informatsiya yoki irsiy belgilari tabiiy yoki irsiy omillar ta'sirida birdaniga o'zgarib, yangi barqaror belgilari hosil qiladi, keyinchalik bu belgilari nasldan-naslga o'tish xususiyatiga ega bo'ladi. Irsiy asosning o'zgarish xarakteriga qarab mutatsiya genomli, xromosomali va

genli mutatsiyalarga bo'linadi. Hujayra yadroси bilan bog'liq bo'limgan genlarning mutatsiyasi sitoplazmatik mutatsiya deb ataladi.

**Mutatsiyalar haqidagi nazariya** — organizmlarning o'zgaruvchanlik xususiyati bilan bog'liq nazariya. 20-asr boshlarida golland olimi X. De Friz yaratgan. Uning fikricha uzuluksiz va uzlukli (diskret) o'zgaruvchanlikdan faqat bittasi — uzlukli o'zgaruvchanlik nasldan-naslga o'tishi mumkin. Bu nazariyaga muvofiq mutatsiyalar keskin, to'satdan vujudga keladi. Mutant shakllar barqarordir. Mutatsiyalar foydali yoki zararli bo'lishi mumkin. Bu nazariyaning salbiy tomoni tabiiy tanlanishni inkor etishidir.

**Moton, mutatsiya birligi** — DNK ning bir juft nukleotidiga mos keladigan eng kichik mutatsiya birligi. DNK molekulasi dagi bunday o'zgarish genlar mutatsiyasini vujudga keltiradi.

**Mutualizm** — simbioz yashash shakllaridan biri; unda birga yashayotgan organizmlardan har biri boshqasi uchun qandaydir foyda keltiradi.

**Muvozanat a'zolari** — organizm tanasining fazodagi holat o'zgarishini uyg'unlashtirib turuvchi sezgi a'zolari.

## N

**Nafas koeffitsiyenti** — nafas jarayonida ma'lum vaqtida ajralib chiqqan karbonat angidrid hajmining shu muddatda yutilgan kislород hajmiga nisbati.

**Nafas nazorati** — to'qima gomogenatlari yoki mitoxondriyada kechadigan oksidativ fosforlanish jarayonini ADF yordamida nazorat qilish.

**Nafas olish** — aerob organizmlarning asosiy hayotiy vazifalaridan biri;

bunda organizmgan kislород kirib, organizmdan karbonat angidrid va suv hamda moddalar almashuvining ba'zi mahsulotlari chiqariladi. Odam, o'simlik va hayvon organizmining hayot faoliyatini energiya bilan ta'minlovchi asosiy jarayon hisoblanadi.

**Nafas olish zanjiri** — organik birikmalarning oksidlanishini amalga oshiruvchi fermentlar to'plami.

**Nafas teshikchalar** — onixoforlar yoki yerda yashovchi bo'g'imoyoqlilar o'pkasi yoxud traxeyasidagi tashqi nafas teshikchalari.

**Namsevarlar** — namni ko'p talab qiladigan o'simliklar (q. *Gigrofitlar, gidrofitlar*).

**Narkotik moddalar** — odam va hayvonlar markaziy asab tizimiga ta'sir etib, ularni behush qiladigan moddalar guruhi. Masalan, alkogol, morfin, kokain va boshqalar.

**Nasl informatsiyasi, irlsiy axborot** — ontogenezda organizmning rivojlanish va tuzilish rejasi. Bu — nuklein kislotalarda nukleotidlarning ketma-ketligi bilan ifodalanib, hujayrada maxsus oqsillarning sintezlanishini aniqlab beradi.

**Nastiya** — o'simlik barglari va boshqa qismlariga bir tekisda ta'sir etib turgan tashqi omillar (yorug'lik, suv, kimyoziy moddalar, og'irlik kuichi, zararlanish, harorat)ning o'zgarishi natijasida, uning o'sishining ham o'zgarishi. Masalan, fotonastiya, giponastiya va hokazo. Nastik o'zgarishlar qisman fitogormonlarga ham bog'liq. Nastik o'zgarishlarga kishini o'ziga jalg qiluvchi tezda yuz beradigan o'zgarishlar kiradi. Masalan, qorong'i tushishi bilan namozshomgulning ochilishi.

**Nativ — Tabiiy** — biror narsaning tadqiqotlar ta'sirida ham asl ko'rinishining buzilmasligi.

**Natriy-kaliy nasosi** — hujayraning plazmatik membranasida joylashgan fermentativ tizim. Hujayra ichidan natriyning va hujayra ichiga kaliyning ko'chirilishini ta'minlaydigan damlagich vazifasini bajaradi.

**Naturalizatsiya, moslanish** — o'simliklar introduksiyasi shakllaridan

biri; biron zot yoki navning dastlabki genotipini o'zgartirmagan holda o'z vatanidagi sharoitiga o'xshash bo'lgan yangi joyga moslashuvi.

**Nav, sort, xil** — barqaror va qimmatli biologik hamda xo'jalik xossalariiga ega bir turga mansub o'simliklar. Odatta bunady belgi va xususiyatlar nasldan-naslga beriladi. navlar jaydari (xalq seleksiyasi) va seleksion (ilmiy seleksiya) bo'ladi.

**Nav ichida chatish tirish** — bir navga mansub o'simliklarni o'zaro chatish tirish.

**Nayza, nish** — ko'pchilik pardaqnotililar urg'ochisining ko'rinishi o'zgargan tuxum qo'yigichi; himoya yoki hujum vazifasini bajaradi (arilar). Chayonlar nayzasiga zaharli bezlar yo'li ochilgan.

**Neandertal odam** — qadimgi qazilma odam. Dastlab Neandertal vodiysida (Germaniya) topilgan. Hozirgi zamон odami bilan petikantrop o'rta sidagi oraliq o'rinni egallaydi.

**Nefron** — odam va umurtqali hayvonlar buyragining tuzilish hamda funksional birligi. U malpigiy tana chasi, nefron qovuzlog'i va siyidik yig'uv naychalardan tuzilgan.

**Nefrositlar** — ayrim umurtqasiz hayvonlarning ayiruv (chiqarish) hujayralari.

**Negroid irqi** — Avstraliya va Afrika qit'alariga xos irq. Terisi qoramtilir, sochlari jingalak, yuzlari keng, lablari qalin va bir qator boshqa belgilari bilan ajralib turadi.

**Nekrogormonlar — Jarohat gormonlari** — jarohatlangan to'qimalarning parchalanishida ajralib chiqadigan moddalar. Ular uyqudagisi hujayralarni uyg'otib, bo'olina boshlashiga va o'simlikdagi jarohatlarning bitib

N

ketishiga imkon yaratish xususiyati-ga ega.

**Nekroz**, *nobud bo'lish, ko'rishish* — noqulay sharoit ta'sirida organizm to'qima yoki a'zosi ayrim qismining nobud bo'lishi.

**Nektar**, *gulasal, gulshira* — tarkibida turli organik xushbo'y birikmalari bor shakarli eritma. O'simliklarning asal yoki shira bezlari ishlab chiqaradi.

**Nektar bezlari**, *shira (asal) bezlari* — o'simlik gullarida joylashgan maxsus bezlar. Shirin va xushbo'y moddalar (gulasal) ishlab chiqaradi.

**Nematodlar** — yumaloq chuval-changlar sinfi. Ko'pchilik nematodalar o'simlik, hayvon va odam paraziti (gijjalari) hisoblanadi.

**Nematotsidlar** — yumaloq chuval-changlarni yo'qotish uchun ishlatiladigan kimyoiy moddalar.

**Neoantroplar** — hozirgi zamon odami. Bularga qazilma turlari va hozir yashaydigan odamlar kiradi. Ular so'nggi paleolit madaniyatini yaratdilar.

**Neodarvinizm** — genetika rivojlani-shining dastlabki bosqichida A. Veysman tomonidan (1880—1890) yaratilgan evolutsion qarashlar. Genlarning diskretiligi, ularning xromosomalarda joylashganligi va ontogenezdagi roli haqidagi hozirgi zamon tushunchalari neodarvinizm qarashlari bilan bog'liq. Neodarvinizmning endigina vujudga kelgan genetika ma'lumotlarini evolutsion nazariya bilan bog'lash va darvinizmning tabiiy tanlanish to'g'risidagi tushunchalarni to'ldirishdagi urinishlari noto'g'ri bo'lib chiqdi.

**Neofitlar** — ma'lum bir hududga yangi olib kelingan o'simliklar.

**Neogenez** — to'qimalarning tiklanishi.

**Neolamarkizm** — J. B. Lamark nazariyasining asosiy mazmunini rivojlantirishga urinuvchi evolutsion qarashlar yig'indisi. Neolamarkizm orttirilgan belgilarning nasldan-naslga o'tishini tan olsa-da, evolutsiyaning asosiy omili — tabiiy tanlanishni inkor etadi. Neolamarkizm ilmiy jihatdan asosga ega bo'lmasa-da, hozir ham yangi ko'rinishlarda namoyon bo'limoqda.

**Neomorfizm** — qayta tiklanish shakkalaridan biri.

**Neotsitlar** — yosh, yangi hosil bo'lgan hujayralar.

**Nerv regulatsiyasi** — **Asab uyg'unlashtirishi** — asab tizimining hujayra, to'qima, a'zolarga ular faoliyatini organizm ehtiyoji hamda tashqi muhit o'zgarishiga muvofiq holda uygunlashtiruvchi ta'siri.

**Nerv sistema** — **Asab tizimi** — neyron va boshqa asab tuzilmalaridan tashkil topgan va organizmda idrok qilish, boshqarish vazifalarini bajardigan, shuningdek, tashqi hodisalariga juda tez moslashib javob berish xususiyatiga ega asab tolalar tizimi.

**Neteniya**, *yosh yetilish* — ba'zi organizmlarning lichinkaligidayoq yoki ontogenezning dastlabki bosqichlari da jinsiy yetilib, ko'payishi. Ko'pincha umurtqasiz hayvonlar va o'simliklarda uchraydi.

**Nevrologiya** — odam va hayvonlar asab tizimini o'rganadigan fan.

**Neyron**, *neyron* — tolasimon asab hujayrasi; asab hujayrasining asosiy tizimi va funksional birligi. Elektr signallarini qabul qilish, o'tkazish va uzatish vazifasini bajaradi.

**Neyritlar** — pusht (embrion) asab hujayralarining o'simtalari. Ularni ajratib olish birmuncha qiyin.

# N

**Neyrofibrillar** — neyronning ipsimon tuzilmalari.

**Neyrofizinlar** — neyronlar tanasida sintezlanuvchi oqsil moddalar. Neyrogormonlarning ko'chirilishida ishtirok etadi.

**Neyrogormonlar** — maxsus neyronlar ishlab chiqaradigan fiziologik faol moddalar. Ular qon yoki to'qima suyuqliklariga o'tib, gormon vazifasini bajaradi; tuzilishiga ko'ra peptidlardir. Ba'zilari katekolaminlarga kiradi.

**Neyromediatorlar** — asab hujayralari ishlab chiqaradigan va juda qisqa masofada o'z ta'sirini ko'rsatadigan kimyoviy moddalar. Neyromediatorlar faqat bitta nishon — hujayraga ta'sir qilish xususiyatiga ega.

**Neyropeptidlar** — peptid tabiatiga ega bo'lgan neyrogormonlar. Masa-lan, neyrotentin, samotostatin va boshqalar.

**Neyroregulatorlar** — asab uchlardan ajralib chiquvchi kimyoviy mediatorlar bo'lib, nisbatan uzoqroq masofaga tarqaladi; atrofdagi juda ko'p hujayralarga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

**Neyrotropizmlar** — asab tizimida biron-bir parazit yoki moddaning to'planishi.

**Neytrofillar** — leykotsitlarning bir xili. Ularning donachalari na kislotali, na asosli bo'yoqlar bilan bo'yalmaydi. Chunki ular neytraldir.

**Nezofit** — o'simlik dunyosiga mansub bo'lgan patogen organizm.

**Niasin** — nikotin kislotasining amidi, RR vitamini. Nikotinamidli fermentlarning kofermenti. Bu vitaminning yetishmasligi pellagra kasalligini paydo qiladi.

**Nikotin** — tamaki barglarida uchraydigan alkaloid. Asab tizimiga ta'sir qiluvchi kuchli zahar.

**Nilfiyadoshlar** — o'simliklar oиласи.

**Nimfa** — g'umbak bosqichiga ega bo'lмаган ба'зи umurtqasiz hayvonlarning balog'atga yetmagan (tuxumdan chiqqan) davri.

**Ninachilar, so'zanaklar** — hasharotlar turkumi. Katta boshining ko'p qismini yirik ko'z egallagan. Ikki juft uzun to'rsimon qanotlari bor. Lichinkalari suvdala yashaydi.

**Nitragin** — dukkakli ekinlarning hosilini oshirish uchun ishlatiladigan bakterial o'qit. Nitragin ekin turiga qarab tayyorlanadi.

**Nitrifikatsiya** — nitrifikatsiya bakteriyalari yordamida azotning qaytarilgan birikmalarining (ammiak) oksidlangan shakkлага aylantirilishi (nitrat). Nitrifikatsiya tuproq unumdorligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

**Nitrofillar — Azot sevuvchilar** — azot ko'p bo'lgan tuproqlarda o'suvchi o'simliklar.

**Nog'ora bo'shlig'i** — umurtqali hayvonlar va odamning o'rta qulog bo'shlig'i.

**Nog'ora parda** — umurtqali hayvonlar qulog'idagi tashqi eshitish yo'lini nog'ora bo'shlig'idan ajratib turadigan parda.

**Nomogenez** — tirik organizmlar evolutsiyasi ichki qonuniyatlar asosida rivojlanadi deb tushuntiruvchi nazariya. L.S. Berg atamasi.

**Noosfera, idrok doirasi** — biosfera rivojlanishining eng yuqori pog'onasi. Bunda odam aqliy faoliyati biosfera rivojlanishining asosiy omili bo'lib qoladi. V. I. Vernadskiy atamasi.

**Noradrenalin** — neyromediator. Qon tomirlarni toraytirishda kuchli ta'sir qiladi.

**Normushkdoshlar** — ikki pallali o'simliklar oilasi. O'zbekistonda yovvoyi holda ikki turi o'sadi.

**Novda** — asosiy tanadan o'sib chiquvchi bargli shoxchalar.

**Nukleaza** — nuklein kislotalarni nukleotidlarga parchalovchi fermentlar.

**Nuklein kislotalar** — nukleotidlardan tashkil topgan yuqori molekulali organik birikmalar. Tirik organizmlarda irlsiy belgilarni saqlaydi va oqsil biosintezida ishtirot etadi. Ayrim nuklein kislotalar fermentativ faoliyka ega. Tirik organizmning barcha hujayralarida uchraydi. Ularning makromolekulalari bir yoki qo'sh polimer zanjirdan iborat bo'lib, monomer nukleotidlardan tashkil topgan.

**Nukleoplazma** — 1) yadroning xromosomalar va yadrochadan tashqari tarkibiy qismlari; 2) bakteriya, ko'kyashil suvo'tlari hujayrasining yadro vazifasini bajaruvchi qismi.

**Nukleoproteinlar** — nuklein kislota va aminokislotalardan tashkil topgan murakkab oqsillar.

**Nukleosoma, yadro tanachasi** — xromosomaning asosiy tuzilma elementi.

**Nukleotidlar** — azot asoslari: uglevod komponentlari va fosfor kislotalidan tashkil topgan organik birikmalar. Irlsiy informatsiyaning elementar tuzilma birligi hisoblanadi. Ferment-

larning kofermentlari sifatida muhim ahamiyatga ega.

**Nukleozidlar** — azot asoslari va uglevod komponentlariidan tashkil topgan organik birikmalar. Masalan, adenozin, uridin.

**Nuqtali mutatsiya** — DNK yoki RNK molekulasiagi faqat bir juft nukleotidning o'zgarishi, qo'shilishi yoki tushib qolishi bilan bog'liq mutatsiya. Sunday mutatsiya natijasida ayrim gen yoki bir operondagi bir-biri bilan bog'langan bir necha genlar vazifasini o'zgartirishi mumkin.

**Nur taratish**, yorug'lik sochish — ba'zi organizmlar (baliglar, hasharotlar, mikroorganizmlar)ning havo kislorodi ishtirokida o'zidan nur chiqarish xususiyati.

**Nurlanish** — tirik organizmlarga nurlarning ta'siri. Bu odatda ta'sir qilayotgan nurning xiliga (radioaktiv, rentgen va hokazo), dozasiga va organizmning fiziologik holatiga bog'liq.

**Nurli qo'ng'iz** — qo'ng'izlar turkumi. Urg'ochisi qurtga o'xshash bo'lib, qornining yuqori qismida nur tarqatuvchi a'zosi joylashgan.

**Nutsellus** — urug' kurtakning markaziy qismi. Meristema hujayralar va yupqa pardadan iborat.

**Nutatsiya** — ko'pgina chirmashuvchi o'simliklarning buralma, aylanma harakatlanib o'sishi.

## O

**Obligat parazit, zaruriy tekino'rlik** — parazitning mazkur organizm (xo'jayin) to'qimasi yoki shiralarisiz, ya'ni parazitlik qilmasdan yashay olmaslik, ko'paya olmaslik xususiyati.

**Odamsimon maymunlar** — tor burunli maymunlar oilasi. Bularga orangutan, shimpanze, gorilla kiradi.

**Ogohlantiruvchi rang** — zaharli va qo'lansa hidli modda ajratuvchi be-

zları bor hayvonlar rangi. Yirtqich hayvonlardan himoyalanishga xizmat qiladi.

**Oila** — botanika va zoologiyadagi bir-biriga yaqin bo'lgan turkum (avlod) larni birlashtiruvchi taksonomik birlilik.

**Oksalat kislota** — oddiy dikarbon kislota. O'simliklardan shovul, is-maloq va boshqalarda ko'p.

**Oksidativ fosforlanish** — tirik organizmlarda organik moddalarning oksidlanishi natijasida ajralib chiqqan energiya hisobiga ADF va fosfor kislotadan ATF ning hosil bo'lish jaryoni.

**Oksidoreduktazalar** — oksidlanish va qaytarilish reaksiyalarini katalizzlovchi fermentlar sinfi. Hamma tirik hujayralarda uchraydi.

**Oksilofitlar, nordon muhit o'simligi** — nordon tuproqlarda o'suvchi o'simliklar.

**Olabug'asimonlar** — suyakli baliqlar turkumi. Chuchuk va dengiz suvlarida keng tarqalgan.

**Oligo...** — biron narsa miqdorining uncha ko'p bo'lmasligini ta'kidlovchi murakkab so'zlarning tarkibiy qismi.

**Oligofagiya** — kam turga mansub ozuqa bilan qanoatlanadigan hayvon organizmlari. Ular asosan tropik mamlakatlarda keng tarqalgan.

**Oligogenlar, bosh genlar** — kuchli fenotipik samaraga ega bo'lgan genlar. Poligenlardan farqli ravishda muqobil (qarama-qarshi) belgilarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ular mutatsiyasi organizm uchun salbiy. Oligogenlarning namoyon bo'lishiga tashqi muhitga nisbatan genotipik muhitning ta'siri ko'proq.

**Oligosaproblar** — toza yoki organik moddalar bilan kam ifloslangan, kislo-

rodga boy suv havzalarida yashaydigan organizmlar. Bular ko'pincha suvning tozaligini ko'rsatuvchi bio-indikatorlar hisoblanadi.

**Oligosaxaridlar** — molekulasida ikkitidan o'ntagacha monosaxarid qoldiqlarini tutgan uglevodlar. Bular o'z navbatida disaxaridlar, trisaxaridlar, tetrasaxaridlar va boshqalarga bo'linadi.

**Oligosenoz** — tarkibiga faqat bir necha tur kiradigan organizmlar guruhni.

**Oligotroflar** — oziq moddalari kam bo'lgan muhitda rivojlanadigan organizmlar.

**Oliy asab faoliyati** — bosh miya katta yarim sharlarining po'stlog'i bilan bog'liq asab faoliyati. Organizmning barcha muhim hayotiy vazifalarini boshqarib, uni tashqi va ichki muhitning o'zgaruvchan sharoitlariiga moslashuvini ta'minlaydi.

**Olti shu'lali marjonpoliplar** — marjonpoliplar kenja sinfi.

**Ona jins** — tog' jinsi; fizik, fizikkimyoiy jarayonlar hamda odam faoliyati ta'sirida undan tuproq hosil bo'ladi.

**Onkogenlar** — rak (shish, o'sma) hosil qiluvchi genlar. Bular me'yori hujayrani xavfli shish hujayralarga aylantirish xususiyatiga ega.

**Ontogenez** — organizmning individual rivojlanishi. Bunga organizmning paydo bo'lganidan to hayotining oxirigacha ketma-ket yuz beradigan morfologik, fiziologik va biokimyoiy o'zgarishlar kiradi. Ko'p hujayrali organizmlar ontogenezi ikki: pusht davri va pusht davridan keyingi (postembryonal) bosqichlardan iborat. Odam va yuqori tuzilishga ega bo'lgan umurtqali hayvonlarda bu davrlar

antenatal (tug'ilguncha) va postnatal (tug'ilgandan keyingi) davrlarga bo'linadi.

**Oogamiya**, *tuxum qo'shilishi* — jinsiyo ko'payish usullaridan biri bo'lib, qo'shilayotgan gametalar shakli va xususiyatlari bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan, yirik, harakatsiz tuxumhujayra bilan juda kichik, harakatchan, xivchinli spermatozoidning qo'shilishi.

**Ootsit**, *tuxumhujayra* — hayvonlar urg'ochilik hujayrasining o'sish va yetilish davrlardagi nomi.

**Operator gen** — struktura genlarning faol holga kelishini ta'minlovchi genlar.

**Operon** — nazorat qiluvchi bir nechta struktura genlарining to'plami.

**Optimal omillar** — yorug'lilik, harorat, namlik, tuproq va boshqa ekologik omillarning organizm uchun eng yaxshi, qulay shakllari.

**Oq modda** — bosh va orqa miyanning bir qismi. Orqa miya bo'ylab tarqalgan akson to'plamlaridan tashkil topgan.

**Oq qon tanachalari** — q. *Leykotsitlar*.

**Oqsillar** — yuqori molekulali tabiiy organik birikmalar: 20 xil aminokislota qoldiqlaridan tashkil topgan. Tirik organizmlar hayot faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Turli-tuman vazifalarni, jumladan, boshqaruvchilik (gormonlar), katalitik (fermentlar), himoya qilish (zidditanachalar) va boshqalarni bajaradi.

**Oqsillarning bo'kishi** — oqsillarning suvni shimib kattalashishi. Bu jarayon oziq-ovqat sanoatida katta ahamiyatga ega.

**Oqsil minimumi** — oqsilning ozuqa tarkibidagi eng kam miqdori bo'lib,

bunda oqsil tangligi vujudga keladi. Insonning oqsilga bo'lgan kunlik o'rtacha talabi 80—100, og'ir mehnat qilganda esa 150 grammgacha.

**Organ**, *a'zo* — ko'p hujayrali organizm tanasining ma'lum vazifani bajaruvchi bir qismi.

**Organellalar** — hujayra hayot faoliyati jarayonida o'ziga xos biron vazifani bajaruvchi struktura (tuzilma).

**Organizm** — modda va energiya almashinuvni mavjudligi bilan xarakterlanuvchi biologik tizim; ayrim tirik mavjudot.

**Organizmning himoya reaksiyalari** — zararkunanda yoki infeksiya ta'sirida hujayrada paydo bo'ladigan fiziologik va biokimyoiy jarayonlar majmui.

**Orgazm** — jinsiyy uyg'onish hissiyoti.

**Ornitin** — o'simlik va sut emizuvchilar to'qimalarida uchraydigan, oqsillar tarkibiga kirmaydigan aminokislota. Mochevinaning hosil bo'lishida asosiy ahamiyatga ega.

**Ornitofag**, *qushxo'r* — qushlar bilan oziqlanadigan organizmlar.

**Ornitofiliya** — nektar (gulasal) bilan oziqlanadigan qushlar yordamida gulli o'simliklarning changlanishi. Zoofiliya turi.

**Ornitobiya** — zoologiyaning qushlarni o'rganadigan bo'limi. Ornitobiya qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik, sog'liqni saqlash va veterinariya uchun katta ahamiyatga ega.

**Ornitozoriya** — o'simlik urug'larining qushlar yordamida tarqalishi. Zooxariyaning tez-tez uchraydigan shakli.

**Orqa ichak** — hayvonlar ichak yo'lining oxirgi qismi.

**Orqa miya** — umurtqali hayvonlar va odam markaziy asab tizimining kelib chiqishi jihatidan eng qadimiy

**O**

qismi. Umurtqa kanalida joylashgan. Bosh miyaga borayotgan va undan kelayotgan impulslarni uzatish vazifasini bajaradi hamda reflektor markaz sifatida xizmat qiladi.

**Orqa miya suyuqligi** — orqa miya va bosh miya bo'shlqlarini to'ldirib turadigan suyuqlik. Gidravlik amortizator vazifasini bajaradi. Markaziy asab tizimining ba'zi kasalliklarini aniqlashda diagnostik ahamiyatga ega.

**Orttirilgan belgilar** — zot (nav) ning ajdodlarida uchramaydigan belglar. Bular organizmning individual rivojlanishi davomida shakllanadi va nasldan-naslga o'tmaydi. Asosan zot (nav) yashayotgan muhit sharoitlari ta'sirida paydo bo'ladi.

**Osminoglar** — boshoyoqli molluskalar turkumi.

**Osmoregulatsiya**, — bosim yordamida boshqarish — hayvon organizmi ichki muhitidagi osmotik faol moddalar konsentratsiyasining nisbiy doimiyigini ta'minlovchi fizik va kimyoviy jarayonlar yig'indisi.

**Osmos**, *bosim* — ikki eritma orasi ga qo'yilgan yarim o'tkazgich membrana orqali erigan moddalarning o'tish hodisasi.

**Osteologiya** — anatomiyaning suyak va suyak to'qimalarining shakli, joylashishi, vazifasi, jinslardagi tafovuti, kimyoviy tarkibini o'rganadigan bo'limi.

**Osteon**, *gaversov tizimi* — suyak zinch qavatining tuzilish birligi. Tizim bir-birining ichiga joylashgan 5—20 ta ichi bo'sh silindrlardan iborat.

**Otolitlar** — barcha umurtqali va ba'zi umurtqasiz hayvonlar muvozanat a'zosidagi mekanoretseptorlik xususiyatiga ega bo'lgan hujayralar yuzasidagi karbonat kalsiy kristallari.

Ularning siljishi vestibular apparatta ta'sir qiladi.

**Otrad — Turkum** — hayvonlar sistematikasidagi sınıf bilan oila o'rta sidagi taksonomik kategoriya.

**Ovalbumin**, *tuxum albumini* — qushlar tuxumi oqsilining asosiy komponentlaridan biri.

**Ovitsidlar** — hasharot tuxumlarini yo'qotish uchun qo'llaniladigan kimyoviy preparatlar.

**Ovogenez**, *tuhumhujayraning shakllanishi* — urg'ochi jinsiy hujayralarning hosil bo'lish jarayoni.

**Ovotsit — Tuxumhujayra** — ovogenez natijasida o'sib yetilgan urg'ochi jinsiy hujayralar.

**Ovoz apparati** — nutq a'zosi; ikkita tovush pardasidan iborat bo'lib, ularning o'rta sidagi tovush teshigi (yorig'i) mavjud.

**Ovqat hazm qilish tizimi** — ovqat hazm qilish jarayonini amalga oshiruvchi a'zolar majmui.

**Ovulatsiya** — sut emizuvchilarda voyaga yetgan tuxumhujayraning tuxumdonidan tana bo'shlig'iga chiqishi. Ko'pchilik hayvonlarda jinsiy sikl (menstrual) shakllaridan biri. Ayrim hayvonlarda (quyon, mushuk) ovulatsiya juftlashish vaqtida bo'ladi.

**Oyoqsiz suvda va quruqda yashovchilar** — umurtqali hayvonlar turkumi. Yomg'ir chuvalchanglariga o'xshab ketadi. Tropik mamlakatlarda keng tarqalgan.

**Oyquloq orqali nafas oluvchilar** — bo'g'imoyoqlilarning kenja tipi; bitta sinfi — qisqichbaqasimonlar. Oyquloq orqali nafas oladi, ikkita mo'ylovli, dastlabki suvda paydo bo'lgan hayvonlar.

**Oyquloq oyoqlilar** — tuban qisqichbaqasimonlar sinfi. Ko'krak oyoq-

larida parraksimon o'siqlar va oyqu-loqlari bor. Asosan chuchuk suvlarda yashaydi.

**Oyquloq qopchalari** — yumaloq og'izlilarning juft qopchiqsimon na-fas organlari.

**Oziqlanish zanjiri** — dastlabki ozuqa moddasidan ketma-ket energiya va organik birikmalarni oluvchi, o'zaro ozuqa munosabatlari bilan bog'liq turlar qatori. Oldingi qatordagi tur keyingisi uchun ozuqa vazifasini o'taydi.

**Oziq-ovqat zanjiri (tizimi)** — turkumlar hosil qiluvchi populatsiyalar orqali o'tadigan energiya oqimining turlicha yo'llarini tasavvur qilishga imkon beruvchi abstrakt tushuncha.

**Ozuqa moddalar muvozanati** — ma'lum vaqt oralig'ida tuproqda saqlanib turuvchi ozuqa moddalarning miqdoriy ifodasi.

**Ozuqa moddali muhit** — tarkibi o'simliklar, mikroorganizmlarning o'sib, rivojlanishi uchun zarur barcha moddalar aralashmasidan iborat muhit.

**Og'iz tomon** — og'izga yaqin qismalarni anglatadi.

**Og'izcha, yoriqcha, havo (nafas) yo'li** — o'simlik epidermislarining maxsus ixtisoslashgan hujayralari oralig'idagi teshikchalar. Tashqi muhit bilan aloqa, ya'ni gaz almashinuvi va suv bug'lantirish uchun xizmat qiladi.

**Og'riq** — kasallanish va boshqalarda sezuvchi — asab uchlaringin bezovta qiluvchi, ba'zan chidab bo'lmas darajada noxush ta'sirlanishi.

**Ochiqurug'lilar, yalang'ochurug'lilar** — urug'li o'simliklarning katta bir bo'limi. Urug' va urug' kurtaklari urug'chi barg ustida ochiq joylashgan va tugunasiz bo'ladi.

**Oshqozon osti bezi** — umurtqali hayvonlarning ovqat hazm qilish tizimidagi muhim bezlardan biri. Ovqat hazm qilish uchun pankreatik suyuqlik va modda almashinuv jarayonini boshqarishda ishtirot etuvchi insulin, glukagon gormonlarini ishlab chiqaradi.

**Oshqozon shirasi** — tarkibi murakkab, rangsiz, oshqozon suyuqligi: oshqozon shilliq pardasining turli hujayralari ishlab chiqaradi.

**Oshqozon, me'da** — ovqat hazm qilish yo'lining qizilo'ngachdan keyinги kengaygan qismi.

## P

**Pagon — Muzda yashovchilar** — muz ichida (ko'pincha anabioz holda) yashovchi organizmlar yig'indisi. Bularga turli-tuman mikroorganizmlar, ko'pgina o'simliklar va bir qancha umurtqasiz hayvonlar kiradi.

**Paleobotanika** — qazilma holda saqlanib qolgan o'simliklarni o'r-ganuvchi fan.

**Paleontologik yilnomalar, qazilma organizmlar yilnomasi** — hayvon va o'simliklarning yer qatlamidagi qoldiqlari yoki ular hayot faoliyatining cho'kindi jinslardagi tarixiy tasviri. Evolutsianing bevosita dalili hisoblanadi va filogenez hamda ko'pgina evolutsion taraqqiyot yo'llarining o'zaro munosabatlarni tiklashga imkon beradi.

**Paleontologiya** — qadimgi davrlarda yashab, qoldiglari qazilma holda saqlangan organizmlar hamda ular hayot faoliyati haqidagi fan. Paleobotanika va paleozoologiyaga bo'libnadi. Paleontologiyaning asosiy vazifasi hayot rivojlanishining asosiy bosqichlarini aniqlashdan iborat. Bu o'z navbatida biosferaning vujudga kelish tarixi va rivojlanish yo'llarini o'rganishga imkon beradi.

**Paleontoplар** — qadimiy qazilma odamlarning (arxantroplardan keyinagi va neantroplardan oldingi bosqichi) umumiy nomlanishi. Paleogen davring oxirida paydo bo'lgan odamsimon maymunlar. Bu atama neandertallarni tushuntirish uchun ishlatalidi.

**Paleozoologiya** — qazilma holda saqlanib qolgan hayvonlarni o'rganuvchi fan.

**Paleozoy** — qadimgi hayot (mezozoydan oldingi) davri, yerda hayotning rivojlanish bosqichlaridan biri. Bu davrda yuksak o'simliklardan sporali va ochiq urug'li o'simliklarning asosiy guruhlari tez rivojlangan. Hayvонлардан baliqlar, suvda va quruqda yashovchilar, sudralib yuruvchilar, tuban primatlar keng tarqalgan.

**Palisad hujayralar, ustunsimon hujayralar** — o'simlik barglarining ustunsimon, silindrik hujayralari. Mezofilning bir qismi bo'lib, ko'p xloroplastlar tutadi.

**Palla uesti poya** — urug'palla bilan birinchi barg oralig'idagi boshlang'ich poya.

**Palmalar** — bir pallali doim yashil o'simliklar oilasi. Tropik zonada tarqalgan. O'zbekistonda manzaralidari daraxt sifatida o'stililadi.

**Palmitinat kislota** — to'yingan yog' kislotasi. Barcha yog'lar tarkibi-

da uchraydi. U ayniqsa palma (35%) va paxta (25%) moylarida, shuningdek, hayvon yog'larida (30%) ko'p bo'ladi. Yog'larning qattiqligi ko'p jihatdan palmitinat kislotaga bog'liq.

**Pandemiya** — biron yuqumli kasallikning butun jahon bo'ylab yoki bir necha mamlakatlarda yoppasiga tarqalishi. Epidemiyaga nisbatan ancha katta hududni qamraydi.

**Pangolinlar** — kaltakesaksifat zirhli sut emizuvchi hayvonlar turkumi.

**Panja** — yerda yuruvchi umurtqali hayvon oldingi oyoqlarining va odam qo'lining oxirgi qismi.

**Pankreatik shira — Oshqozon osti bezi shirasi** — me'da osti bezlaridan ajralib chiquvchi shira bo'lib, uning tarkibida ozuqa moddalarni parchalovchi fermentlar va boshqa birikmalar bor.

**Panmiksiya** — har xil jinsli va turlicha genotipli organizmlarning populatsiya doirasida yoki tur ichida tasodifan erkin chatishishi yoki changlanishi. To'liq panmiksiya faqat ideal populyatsiyalarda amalga oshishi mumkin.

**Panspermiya** — koinotda hayot bir sayyoradan ikkinchisiga pusht (murtak) orqali tarqaladi deb tushuntiruvchi gipoteza. Bu gipotezaga ko'ra, yerdagi hayot fazodan meteoritlar yoki kosmik changlar bilan keltirilgan.

**Panta** — bug'uning suyagi qotmag'an shoxi. Pantadan dorivor modda — pantokrin olinadi.

**Pantofag** — Xo'ra, hammoxo'r.

**Pantogamiya** — Tasodifiy juftlashish.

**Pantotenat kislota, B<sub>5</sub> vitaminini** — yashil o'simliklar va mikroorganizmlarda sintezlanadi. Koferment A ning tarkibiy qismi.

**P**

**Papain** — proteinaza fermenti. Oqsillarning gidroliz reaksiyalarini katalizlaydi. Qovun daraxtining pishmagan mevalaridan olinadi.

**Papaverin** — ko'knoridan olinadigan alkaloid.

**Papayya — Qovun daraxti** — mevasi qovunga o'xshash daraxt. Tropik mamlakatlarda o'sadi. Mevasi yeyiladi. O'zbekistonda issiqxonalarda o'stiriladi.

**Papirus** — ko'p yillik o'tsimon o'simlik. Qadimda undan qog'oz tayyorlangan va qurilish materiali sifatida foydalanilgan.

**Paporotniklar — Qirqquloqlar** — gulsiz va urug'siz, yaproq, poya va ildizdan iborat yuksak o'simliklar. Bargi orqasida hosil bo'luvchi sporalar orqali ko'payadi. Bularda mustaqil yashovchi sporofit va gametofit bo'g'inlar gallanadi.

**Papovaviruslar** — tarkibida DNK bor viruslar guruhi. Uning nomi uch xil virus: papilomalar, poliomalar va vakuollashgan viruslarning qisqartirilgan nomlaridan tuzilgan. Odam va hayvonlarda shish (o'sma)lar qo'zg'atadi.

**Paraaminobenzat kislota, N vitamini** — mikroorganizmlarning o'sishiga ta'sir qiluvchi omil.

**Paramiksoviruslar — Shilimshiqsimon viruslar** — tarkibida RNK bor viruslar oilasi. Umurtqali hayvon hujayrasining sitoplazmasida ko'payib, nafas yo'llari kasalliklarini tarqatadi.

**Paraseksual jarayon — paraseksual qo'shilish** — irlsiy jihatdan turlicha yadroga ega bo'lgan vegetativ hujayralarning qo'shilishi. Vegetativ hujayralardagi genom bir qismining ko'chirilishi.

**Parasimpatik asab tizimi** — vegetativ asab tizimining bir qismi. Organizm ichki a'zolari va fiziologik tizimlarni boshqarishda ishtirok etadi. Organizmda energiya va moddalarning to'planish jarayonlarini faollashdiradi.

**Paratgormon, qalqonli bez gormonlari** — qalqonoldi bezlar ishlab chiqaradigan peptid tabiatli gormon. Qonda kalsiy va fosfat miqdorini oshiradi.

**Paratiroid bezlar** — qalqonsimon bezlarning ustki qismida joylashgan ikki just kichik bezlar. Odam va umurtqali hayvonlarning (baliqlardan tashqari) ichki sekretsiya a'zolari.

**Paravivipariya, tirik tug'uvchi** — tuxum qo'yish va keyinchalik bu tuxum ota yoki onaning tanasida yetilishi.

**Parazit (fakultativ)** — Ixtiyoriy tekinox'o'r, fakultativ parazit — parazitning xo'jayin organizm to'qimasi yoki shiralarisiz ham mustaqil yashay olish va ko'paya olish xususiyati.

**Parazit o'simlik, tekinox'o'r o'simlik** — boshqa o'simlik (xo'jayin) shirasi hisobiga yashovchi tekinox'o'r o'simlik.

**Parazitizm — Tekinox'o'rlik** — ikki xil turdag'i organizmning o'zaro munosabati, bunda ulardan biri parazit (tekinox'o'r) bo'lib, ikkinchi organizm (xo'jayin) dan ozuqa manbai sifatida foydalanadi, ya'ni uning hisobiga yashaydi. Ko'pincha parazit xo'jayinni halokatga uchratadi.

**Parazitologiya** — parazitlar, parazit bilan xo'jayin hamda tashqi muhit orasidagi munosabatlarni, parazitlar sistematikasi, morfologiya-si, gistologiyasi, fiziologiyasi, biokimyosi va boshqalarni o'rganuvchi

fan. Ko'zga ko'rinmas parazitlar to'g'-risidagi dastlabki ma'lumotlar Abu Ali ibn Sino asarlarida uchraydi.

**Pardaqa-notlilar** — hasharotlarning kenja turkumi. 300 mingga yaqin turni o'z ichiga oladi. Arilar, pindiqchalar, chumolilar, arrakashlar shular jumlasidandir. Ko'pchilik pardaqanotlilarning ikki juft tiniq parda qanotlari bo'ladi.

**Parenxima** — o'simliklarda turlituman vazifalarni boshqaruvchi, deyarli teng (hamma tomoni bir xil) hujayralardan iborat to'qima. Parenxima to'qimalari meristema to'qimaliga qaytish xususiyatiga ega. Ularning asosiy vazifasi organik moddalarni sintez qilish va ularni to'plashdir. Hayvon organizmida parenxima ichki a'zolarning (jigar, taloq, o'pka) asosiy ishchi to'qimasi hisoblanadi. O'simlik organizmida parenxima yuksak ixtisoslashgan to'qimalarni hosil qiluvchi bosh to'qima hisoblanadi.

**Parmasimon apparat** — parmasimon kolovratkalarning harakat va ovqat qidiruv a'zosi.

**Partenogaploid, bokirali gaploid** — gametalardan paydo bo'lgan zot. **Partenogenez, bokirali ko'payish** — tuxumhujayralarning otalanmasdan rivojlanishi. Tabiiy partenogenez ko'pchilik bo'g'imoyoqlilarga xos. Sun'iy partenogenez fizik va kimyo-viy ta'sirlar yordamida yuz beradi. Masalan, ipak qurtida.

**Partenokarpiya, urug'siz meva** — urug'siz mevalarning hosil bo'lishi, rivojlanishi va o'sishi. Bu jarayon otalanmasdan amalga oshadi. Masalan, nok, uzum va boshqa mevalarda kuzatish mumkin.

**Partenospora** — q. *Azigota*.

**Pasoka — O'simlik shirasi** — poyaning kesilgan joyidan ildiz bosimi ostida ajralib chiquvchi suyuqlik.

**Passiv transport** — turli xil moddalarning biologik membranalar orqali oddiy diffuziya yoki yengillashtirilgan diffuziya yordamida o'z-o'zidan ko'chirilishi.

**Pasterizatsiya** — issiqqa chidamsiz sporaga ega bo'lgan mikroorganizmlarni yo'qotish yo'llaridan biri. Bunda 55—80°C gacha qizdiriladi. L. Paster taklif qilgan. Pasterizatsiyada ko'pchilik bakteriyalar, achitqi zamburug'lari hamda boshqa mikroorganizmlar o'ladi, fermentlar o'z xususiyatini yo'qotadi, ammo vitaminlar saqlanib qoladi.

**Pat chiqarish** — qushlarning pat chiqarish jarayoni.

**Patogen** — kasallik tug'diruvchi.

**Patogenlik — Kasallik hosil qilish darajasi** — mikroorganizmlarning inson, hayvon va o'simliklarda kasallik paydo qilish xususiyati.

**Patologiya** — organizmdagi kasalliklar, ularning ayrim belgilarinining paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganuvchi fan.

**Patxo'rlar** — hasharotlar turkumi. Qanoti yo'q; qushlar, ba'zi sut emizuvchilarda parazit (tekinxo'rlik qilib) yashaydi. Patlar, qon va teridan ajralib chiqadigan moddalar bilan oziqlanadi.

**Paxta tolsi** — chigitning ustki qismida rivojlanuvchi tabiiy tola asosan sellulozadan tashkil topgan.

**Pay** — mushak (muskul)ni suyak-larga birlashtiruvchi ko'ndalang-targ'il mushakning biriktiruvchi to'qimali qismi.

**Paypaslagich** — umurtqasiz hayvonlarning harakatchan o'simtalari.

**P**

Tananing oldingi qismida joylashgan bo'lib, ozuqani ushslash, sezish va nafas olish vazifalarini bajaradi.

**Payvandlash, ularsh** — o'simlikning biron qismini boshqa o'simlik tanasiiga ularsh.

**Payvandtag** — payvand qilinadigan o'simlik, ulanuvchi o'simlik.

**Payvandust, ustpayvand** — payvand uchun olingan kurtak yoki novda.

**Pebrina — Qora dog' kasalligi, murch kasalligi** — ipak qurti kasalligi. Zararlangan ipak qurtlarining tanasi xuddi murch sepganday qora dog'lar bilan qoplanadi (nomi shundan).

**Pedomorfoz** — organizmlarning evolyutsion o'zgarish yo'llaridan biri bo'lib, voyaga yetganlik bosqichining butunlay yo'qolib, lichinkalikning oxirgi — voyaga yetgan bosqich shaklida qolishi.

**Pektin moddalar** — o'simlik polisaxaridlari. Ular ayniqsa mevalarda ko'p to'planadi. Oziq-ovqat sanoatida ishlatalidi.

**Pellagra — Dag'al teri** — odamda vitamin RR va triptofan aminokislitasining yetishmasligidan kelib chiqadigan kasallik. Bunda teri po'st tashlab dag'allashadi.

**Pentozalar** — 5-uglerodli monosaxaridlari. Masalan, riboza, dezoksiriboza.

**Pentozofosfat yo'li** — geksozalarning pentozofosfat orqali hosil bo'lishi va parchalanishi.

**Pepsin** — oqsillarning gidrolizlanish reaksiyasini katalizlovchi ferment. Me'da shirasi tarkibida uchraydi.

**Peptid bog'** — bir aminokislitaning karboksil guruhi bilan ikkinchi aminokislitaning amin guruhi o'rtaсидagi bog' hisoblanadi. Peptid bog'larini

boshqa birikmalar ham hosil qilishi mumkin. Masalan, karbamid.

**Peptidazalar** — peptidlar va peptonlarning gidrolitik parchalanish reaksiyalarini katalizlovchi fermentlar. Reaksiya natijasida erkin aminokislotalar hosil bo'ladi.

**Peptidlar** — ikki va undan ortiq aminokislota qoldiglarining peptid bog' orgali birikishi natijasida hosil bo'ladigan organik birikmalar.

**Pereaminlanish — Qayta aminolanish, transaminlanish** — bir aminokislitaning aminoguruhni ketokislotaga ko'chirish va yangi aminokislota hosil qilish reaksiyasi. Dastlab 1937 yilda rossiyalik olimlar A. E. Braunshteyn va M. G. Krisman kashf etishgan.

**Perfuziya** — qon tomirlari orqali qon yoki fiziologik eritma o'tkazish.

**Periarterial** — arterial qon tomirlarining atrofiga oidlikni anglatadi.

**Periblema** — yuksak o'simliklar ildizining o'sish konunsidagi boshlang'ich meristemmatik to'qima.

**Periderma** — po'kak, kambiy va felloderma qavatlaridan iborat qoplovchi to'qima.

**Periferik asab tizimi** — umurtqали hayvonlar bosh miyasi hamda orqa miyasidan iborat miyani barcha receptorlar va effektorlar (muskullar va bezlar) bilan bog'lab turuvchi tizim.

**Perikambiy, perisikl** — o'simlik ildizi va poyasini qoplovchi qalin qobiqli mexanik hujayralar to'plami.

**Perikartion** — asab hujayrasining o'sintasiz tanasi.

**Perikarpiy** — mevaning ustki qavati, haqiqiy mevaning qavachog'i.

**Perisikl, perikambiy** — hosil qiluvchi to'qima. Bular bir yoki bir necha

qatlam parenxima hujayralaridan iborat bo'lib, yosh ildiz, poyaning o'tka-zuvchi to'qimasi atrofida joylashgan. **Perisperm** — jamg'arma ozuqa moddalar (oqsil, moy) to'planadigan o'simlik to'qimalari. Murtak rivojlanshida sarflanadi.

**Perissploid** — Toq xromosomali hujayra — toq sonli xromosoma to'plamiga ega hujayra.

**Peristaltika** — Ritmik qisqarish — me'da, ichak, o't yo'li va boshqa shu kabi kovak a'zolar devorining silliq muskullarining ritmik, to'lqinsimon qisqarishi. Buning natijasida ulardag'i quyuq va suyuq massa oldinga qarab siljiydi.

**Peristaz** — genotipga irlsiy bo'l-magan ta'sir ko'rsatuvchi muhit.

**Perm davri** — paleozoy erasingin so'nggi davri. Karbondan keyingi va triasdadan oldingi davrga to'g'ri keladi.

**Permeazalar** — ko'chiruvchi oqsillar. Membranalar orqali moddalarning faol ko'chishini ta'minlaydi. Masalan, aminokislotalar, shakarlar va boshqalarni.

**Peroksidazalar** — oksidareduktanza sinfiga mansub turli polifenollarning vodorod peroksiyi yordamida oksidlanishini kattalizlovchi fermentlar.

**Peroksisomalar** — hujayra organoidlari; membranalar bilan o'rallan, oksidlovchi fermentlari bor pufak. Asosan vodorod peroksidini parchalovchi va hosil qiluvchi fermentlardan iborat.

**Pessimum, noqlay** — juda kam qulaylikka ega bo'lgan sharoit.

**Pestik** — Urug'chi — o'simlik urg'ochi jinsiy a'zosi: Tuguncha, ustuncha va tumshuqchadan iborat.

**Pestitsidlar** — qishloq xo'jalik o'simliklarini kasal va zararkunani-

dalardan, begona o'simliklardan himoya qilish, shuningdek, o'simlik barglarini to'kish, quritish hamda boshqa tadbirlar uchun qo'llaniladigan zaharli kimyoviy birikmalar. Pestisidlar odam va hayvon organizmi uchun xavfli. Shuning uchun uni ishlatish qat'iy nazorat qilinadi.

**Pechakguldoshlar** — yuksak o'simliklarning keng tarqalgan oilasi. Masalan, qo'ypechak, partak, mingbosh va boshqalar.

**Pigment hujayralar, rangli hujayralar** — hayvonlarga rang beruvchi pigmentlarni sintezlovchi hujayralar.

**Pigmentatsiya** — **Pigment hosil qilish, rang hosil qilish** — hayvon va o'simlik to'qimalarida rangli moddalar — pigmentlar (o'simliklarda karotinoidlar, flavinoidlar, hayvonlarda esa asosan melaminlar) to'planiishi bilan bog'liq jarayon.

**Pigmentlar (o'simlikda)** — **O'simlik pigmentlari** — o'simlik hujayralarida uchraydigan rangli moddalar. Masalan, xlorofill, karotin, antisotsian.

**Pilla** — ko'pchilik hasharotlar g'umbagini himoya qiluvchi hosila. Odatda ipak tolalaridan to'qiladi.

**Pingvinlar** — suzuvchi qushlar turkumi. Qanoti tangachasimon patlar bilan qoplangan kurakoyoqqa aylangan. Teri ostida qalin yog' bo'lib, ularni sovuqdan asraydi.

**Pinotsitoz** — erigan moddalar yoki suyuqliklarni hujayraning plazmatik membranalari bilan qamrab olinib singdirilishi (shimilishi).

**Piretroidlar** — hasharotlarga qarshi qo'llanadigan moddalar — insektitsidlar. Siklopropankarbonat kislotalarning hosilalari bo'lgan tabiiy birikma-

P

lar. O'simliklardan hamda sun'iy yo'l bilan olinadi.

**Piretrum — Moychechak** — murakkabguldoshlarga mansub o'simliklar turkumi. Ba'zi turlaridan hasharotlarga qarshi ishlatiladigan zaharli modda olinadi.

**Pirimidin asoslar** — nukleozidlar, nukleotidlari va nuklein kislotalar tarkibiga kiruvchi tabiiy pirimidinlar ning hosilalari (sitozin, timin, urasil).

**Piroplazmidlar** — parazit sodda organizmlar. Uy hayvonlarida og'ir kasalliklar qo'zg'atadi. Yaylov kanalari tarqatadi.

**Pitekantrop** — tik yuruvchi maymun. Qoldiqlari to'rtlamchi qatlamlardan topilgan. Neandertal odam ajdodi.

**Pitomnik — Ko'chatzor, parvarishxona** — qishloq xo'jaligi uchun ekin ko'chatlarini yoki hayvon zotlarini yetishtiriladigan maxsus joy.

**Pitonlar, — Bo'g'ma ilonlar** — tropik va subtropik o'rmonlarda yashaydigan ilonlarning kenja oilasi. Sut emizuvchilar, sudralib yuruvchi va qushlar bilan oziqlanadi. Uzunligi 1,5—10 m.

**Pichanxo'rlar** — hasharotlar turkumi. Asosan o'simlik va ularning qoldiqlari bilan oziqlanadi. Kitob, gerbariy va boshqalarni ham yeb, zarar keltirishi mumkin.

**Pix** — 1) ba'zi hayvonlar oyog'i yoki qanotidagi shoxsimon hosilalar. Masalan, xo'rozlar oyog'idagi pix; 2) gul-toj tubidagi cho'ziq o'simta. Masalan, isfarakdag'i.

**Piyoz, boshipiyoz** — o'simlikning qisqargan, etli yer osti moyasi. Masalan, piyoz.

**Plankton, qalqib yuruvchi** — suv qatlamida juda sust suzib yuruvchi

organizmlar yig'indisi. Ular faqat suv oqimi bilan harakatlanadi.

**Plantatsiya ekinzor, dala** — biron o'simlik egalagan maydon yoki suv havzasi. Masalan, g'o'za plantatsiyasi.

**Planula** — ko'pchilik kovakichlarning ikki qavatli erkin suzuvchi lichinkasi. Keyinchalik suv tubiga cho'kib, poliplarga aylanadi.

**Platsenta — O'rindiq, yo'ldosh** — 1) urug'kunda, urug'yostiq, urug'o'rni. Tugunchadagi urug'kurtak o'rnashgan joy; 2) yuksak sute nimizuvchilarda pusht bilan ona organizmini bir-biriga bog'lovchi a'zo.

**Plastidalar** — hosil qiluvchi hujayra organoidlari. Bular rangsiz — leyko-tsitlar, rangli — xromoplast va yashil — xloroplastlardan iborat.

**Plastik almashinuv** — moddalarning hosil bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan va anabolik jarayonlarga asoslangan moddalar almashinivi.

**Plastom, plastidom** — xloroplastlardagi irlsiy elementlar yig'indisi.

**Plaundoshlar** — yuksak o'simliklar oilasi. Sporalari hamda vegetativ yo'l bilan ko'payadi.

**Plazma** — qon, limfalar, hujayralarning suyuq qismi.

**Plazmidalar** — hujayraning xromosomalari bilan bog'liq bo'limgan irlsiy omillari. Ko'pchilik plazmidalar halqali qo'shzanzirli DNK molekulasidan iborat. Ular tirik organizmlarda keng tarqalgan bo'lib, gen muhandisligida boshqa genlarni ko'chirish uchun foydalilanadi.

**Plazmodesma** — qo'shni hujayralarni bir-biri bilan bog'lovchi, membrana tuzilmalarining nozik tolalari. Plazmodesmalar orqali kichik molekulali birikmalar bir hujayradan ikkinchi hujayraga o'tib turadi.

**Plazmodiy** — 1) ko'p yadroli sitoplazmatik massa; 2) sporalilar turkmiga mansub bir hujayrali organizmlar.

**Plazmodiy** — 1) ko'p yadroli sitoplazmatik massa; 2) sporalilar turkmiga mansub bir hujayrali organizmlar.

**Plazmogenlar** — yadrodan boshqa hujayra organoidlari — mitoxondriya, xloroplastlarda joylashgan genlar. Irsiy informatsiyani ko'chirish xususiyatiga ega. Plazmogenlar to'plami plazmon deb ataladi.

**Plazmolemma** — protoplazmaning tashqi membranasi bo'lib, uni hujayra qobig'idan ajratib turadi.

**Plazmoliz, hujayra tarangligining yo'qolishi** — hujayradagi suvning chiqib ketishi natijasida, sitoplazmaning qobiqdan ajralib, uzoqlashishi. Turgor holatining aksi.

**Plazmon** — hujayra xromosomasi bilan bog'liq bo'lмаган irsiy elementlar. Ular asosan hujayra sitoplazmasida mujassamlangan. Mustaqil birliklar — plazmogenlardan tashkil topgan bo'lib, hujayraning o'zidan ko'payuvchi organoidlari (mitoxondriya va xloroplastlar)da joylashgan. Hujayraning turli belgilariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

**Plazmosoma** — sitoplazmaning tuzilish birligi.

**Plazmotip** — sitoplazmadagi genetik elementlar to'plami.

**Plevra, kulrang parda** — o'pka va ko'krak bo'shilg'i devorini o'rab turadigan ko'kintir, kulrang parda.

**Pleyotropiya** — bir genning har xil belgilarga ta'siri. Bunda biron-bir genning alleli asosiy belgi bilan birga yana qator boshqa belgilarni rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

**Pleyoxaziy — Soxta soyabon** — soyabonsimon to'pgul. Gul bilan tuyaydigan o'qqa va yana o'zidan uzunroq bo'lgan ikkitadan ortiq o'qlarga ega to'pgul (masalan, sutlamalarda).

**Pleyston** — suvning yuza qismida erkin qalqib yuruvchi yoki bir oz suvga botib yashovchi organizmlar majmuvi. Bularغا suv o'simliklaridan salviniya, baqato'n, hayvonlardan aktiniya, sifonoforalar kiradi.

**Ploidlik — Karralilik** — ma'lum turga mansub organizmlar jinsiy (gaploid) hujayralariga xos hujayra yadrosidagi xromosomalar to'plamining necha karra qaytarilganligini ko'rsatuvchi son. Jinsiy yo'l bilan ko'payadigan organizmlar diploid organizmlar hisoblanadi, ya'ni ikkita xromosoma to'plamiga ega (q. *Poli-ploidiya*).

**Plumula — Kurtakchi** — urug'dagi murtak poyanining birinchi kurtagi.

**Pluschch** — araliyadoshlarga mansub doim yashil, so'rg'ichildizli, yog'ochlangan tanali lianalar.

**Pnevmatoforlar — Havo ildizlari** — suvda va botqoqli joylarda o'sadigan o'simliklarning nafas oluvchi ildizlari.

**Pnevmonokkk** — streptokokklar urug'iga mansub bakteriyalar. Zotiljam va nafas a'zolarining boshqa kasalliklarini qo'zg'atadi. Ularni kasal odam balg'amidan topish mumkin.

**Poda** — sut emizuvchi hayvonlarning o'zaro bog'liq ayrim xususiyatlari ehtiyoji (turi, ko'payishi, xatti-harakati, mutanosibligi)ga ko'ra yoki xo'jalikda parvarishlab, o'stirish maqsadida bir joyga to'planib yashash.

**Pogonoforlar — Soqollilar** — deniz tubida yashovchi umurtqasiz hay-

**P**

vonlar tipi. Ipsimon tanaga ega bo'lib, ular xitindan tashkil topgan himoya naycha ichida joylashgan.

**Poliandriya** — **Ko'p erlilik** — bir urg'ochi zotning bir necha erkak zot bilan jinsiy munosabatlari.

**Polibiont** — **Joy tanlamaydigan** — turli muhit yoki agregat holatlarda (suvda, tuproqda, muzda) yohud turli xo'jayinda (parazitlarga xos) yashovchi organizm.

**Poliembrioniya**, *ko'p pushtlilik* — 1) bir zigota (tuxum)da bir necha pushtning rivojlanishi; 2) bir urug'da bir necha murtakning yetilishi.

**Polifagiya**, *ko'p xil ozuqali* — har xil turga mansub ozuqalar bilan ovqatlanadigan organizmlar, biroq hammaxo'r emas. Masalan, baqalar, kaltakesaklar.

**Polifenollar**, *murakkab fenollar* — tarkibi ikki va undan ortiq aromatik halqadan hamda bir, ikki va undan ortiq gidroksil guruhlardan iborat murakkab organik birikmalar.

**Polifiliya** — **Ko'p ajdodlilik** — biron organizm guruhining bir-biri bilan yaqin qarindoshlik aloqasi bo'limgan bir necha xil ajdodlardan kelib chiqqanligi.

**Polifosfatlar** — **Murakkab fosfatlar** — anorganik tabiatli yuqori energetik birikmalar.

**Poligamiya** — **Ko'p oilalilik** — bir erkak zotning bir necha urg'ochi zot bilan jinsiy munosabatlari. Polian-driya va poliginiya ma'lum.

**Poligen naslga o'tish**, *ko'p genli irsiyanish* — ko'p genlar bilan ifodalananadigan va ayrim holda kuchsiz ta'sirga ega bo'lgan belgilarning naslga o'tishi.

**Poligibrid**, *ko'p duragay* — ko'p sonli genlar bo'yicha farqqa ega

bo'lgan zotlarni chatishtirish natijasida hosil bo'lgan duragay.

**Poliginiya** — **Ko'p xotinlilik**, *ko'p urug'chilik* — 1) bir erkak zotning mavsum davomida bir necha urg'ochisi bilan jinsiy munosabatlari; 2) o'simliklarning bir gulida bir necha urug'-chingin bo'lishi (apokarp).

**Polikarp o'simliklar**, *takror mevalovchi o'simliklar* — ko'p marta gullab, meva beruvchi o'simliklar.

**Polimerazalar** — kichik molekula- li birikmalardan polimer birikmalar hosil bo'lish reaksiyalarini katalizlovchi fermentlar. Masalan, RNK-polimeraza.

**Polimeriya** — bir belgining rivojlanishiga bir qator allel bo'limgan genlarning ta'sir ko'rsatish hodisasi. Tegishli genlar polimerlar deb ataladi.

**Polimorf genlar** — tashqi ko'rinishdan bir xil ta'sir qilish xususiyati ega bo'lgan noallel genlar.

**Polimorfizm** — **Ko'p shakllilik** — bir tur, koloniya, to'da doirasida bir-biridan keskin farq qiluvchi hamda turli xil vazifalarni bajaruvchi individularning mavjudligi. Masalan, ishchi, erkak, ona asalarilar.

**Polinukleotidlar** — **Murakkab nukleotidlar** — mononukleotid qoldiqlaridan tashkil topgan murakkab biorganik birikmalar.

**Polipeptidlar** — **Murakkab peptidlar** — juda ko'p aminokislota qoldiqlaridan tashkil topgan peptidlar.

**Poliploidiya** — **Ko'p karralilik** — hujayralarning yadrolarida xromosomalar sonining karrali ravishda ortib borish hodisasi. Poliploid organizmlar uchta (triploidlar), to'rtta (tetraploid), beshta (pentaploid) va hokazo xromosoma to'plamli bo'ladi. Poliploidiya hodisasidan yangi o'simlik

navlarini yaratishda keng foydalani-ladi.

**Poliribosomalar** — bir informatsion-RNK zanjirida yig'ilgan ribosomalar to'plami.

**Polisaxaridlar — Murakkab uglevodlar** — ikki va undan ortiq monosaxaridlar qoldig'idan tashkil topgan murakkab uglevodlar.

**Polisomalar** — q. *Poliribosomalar*.

**Polispermiya, ko'p spermiyalik** — yuksak o'simliklar va hayvonlarda bir tuxum hujayraga otalanish davrida bir necha spermaning bir vaqtga kirishi. Odatta, tuxum hujayra bitta sperma yordamida otalanadi (changlanadi).

**Politeniya, politen xromosoma** — juda ko'p xromatidalardan iborat katta politen (ipsimon) xromosomalarning ko'p sonli endomitoz ta'sirida hosil bo'lishi. Politen xromosomalar hasharotlar, o'simliklarda uchrab, oddiy xromosomalardan 100 va undan ham ko'proq marta katta bo'ladi. Tur hosil bo'lishini aniqlashda ahamiyati katta.

**Politrof** — xo'raki, har narsani yeyaveradigan.

**Politrop** — 1) turli xil xo'jayin organizmida rivojlanishni anglatadi; 2) har xil to'qimalarga yuquvchanlikni bildiradi.

**Polivoltin — Sernasl, seravlod** — bir yil davomida bir necha avlod beruvchi organizm.

**Polixoriya** — o'simlik urug'larining ko'p xil yo'llar bilan tarqalishi.

**Poliz ekinlari** — qovoqdoshlarga mansub qovun, tarvuz, bodring kabi ekiladigan o'simliklar.

**Pollutant** — atrof-muhitni iflos qiluvchi kimyoviy modda.

**Pomatlar** — pomidor va kartoshka protoplastlarining qo'shilishidan hosil

bo'lib, pomidor hamda kartoshka beruvchi yangi duragay o'simlik (q. *Gen muhandisligi*).

**Pomologiya** — mevali o'simliklarning tur va navlarini o'rganuvchi amaliy fan.

**Popishaklar** — qushlar oilasi; faqat bir tur — sassiqpopishakdan tashkil topgan.

**Popuk, ukparcha** — 1) ba'zi hayvonlar/boshidagi bir tutam tuklar to'plami; 2) ba'zi o'simlik mevasi yoki urug'inining uchki qismida joylashgan uzun tuklar majmui. Shamol vositasi-da tarqalish uchun xizmat qiladi.

**Populatsiya** — o'zaro osonlik bilan va erkin chatishuvchi, uzoq vaqt davomida aniq bir joyni ishg'ol qilib turuvchi bir turga mansub zot yoki navlar majmui. Populatsiya evolutsion, jarayonning elementar birligi bo'lib, u o'zini-o'zi boshqaruvchi tizimlarning belgilariga ega.

**Populatsiya miqdorini boshqarish** — individlar miqdorini ularni qirish yo'li bilan tartibga solish bo'yicha tadbirlarni uyuشتirish.

**Populatsiyalar genetikasi** — populatsiyalarning genotipik tuzilishini, ularning o'zgarish qonuniyatlarini o'rganuvchi genetika bo'limi.

**Porfirinlar** — siklik tetrapirrol tuzilishga ega tabiiy pigment. Xlorofill, gemoglobin, vitamin B<sub>12</sub> va boshqa birikmalar tarkibiga kiradi.

**Postflorial** — o'simlikning gullaganidan keyingi rivojlanishi.

**Poya, tana** — o'simliklarning barg va mevalarini tutib turuvchi hamda ildiz bilan bog'lovchi vegetativ a'zosi.

**Poykiloterm hayvonlar** — q. *Sovuqqonli hayvonlar*.

**Preadaptatsiya, ilk moslashuv** — hali vujudga kelmagan shakl (for-

**P**

ma)ning yangi sharoitlarga moslanishini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lgan organizm xususiyati.

**Prenatal** — tirik tug'uvchi organizmlarning tug'ishga, ko'z yorishga yaqin bo'lgan davri.

**Prepotensiya, naslga o'tkazish** — nasldor erkak zotning belgilarni qat'iy ravishda avlodga o'tkazish xususiyati.

**Preriy** — Shimoliy Amerika (AQSH va Kanada)dagi asosan boshoqdoshlar qoplagan tekis keng maydonlar.

**Preventiv** — profilaktik, ogohlantiruvchi.

**Pretsipitatsiya — Cho'kish** — begona tanacha komplesining zidditanacha bilan cho'kish immunologik reaksiysi.

**Primatlar** — yuksak tuzilgan sut emizuvchi hayvonlar turkumi. Yuqori rivojlangan bosh miya va to'g'riga qarovchi takomillashgan ko'zga ega. Bularga lemurlar, maymunlar kiradi.

**Proantlar** — vegetatsiyaning boshida, ya'ni barg chiqarmasdan gullaydigan o'simliklar; masalan, bodom, o'rik, shaftoli va boshqalar.

**Produtsentlar** — anorganik moddalardan organik moddalarni hosil qiluvchi xemotroflar va avtotroflar.

**Profag** — bakteriya hujayrasida uchraydigan genetik nuqtayi nazardan faol, biroq kasallik tug'dirmaydigan bakteriofag shakli.

**Profaza, boshlang'ich faza** — mitozning birinchi bosqichi, bunda xromosomalar hosil bo'ladi.

**Profermentlar, zimogenlar, faolsiz fermentlar** — ko'pchilik proteoletik fermentlarning faolsiz shakli. Ular ma'lum sharoitlar mavjud bo'lgandagina faol holga o'tadi.

**Progesteron** — tuxumdon sariq tansasi sintezlaydigan steroid gormon.

Bachadon shilliq qavatini otalangan tuxum hujayraning o'sishi uchun tayyorlaydi va homiladorlik davrida embrionning me'yori rivojlanishida qatnashadi.

**Progradatsiya** — hayvonlarning yalpi ko'payishining kuchayib borishi.

**Prokambiy — Boshlang'ich to'qima** — boshlang'ich hosil qiluvchi to'qima; ulardan boshlang'ich o'tkazuvchi to'qimalar hosil bo'ladi.

**Prokariot hujayra** — tirik hujayraning eng oddiy tipi. Bu hujayralarga xos bo'lgan xarakterli belgi — ularda yadro, mitoxondriya, xloroplast yo'q (q. *Prokariotlar*).

**Prokariotlar** — yadrosiz, bir hujayrali organizmlar Bularda yadro qobig'i yo'q, DNKsi birgina halqadan iborat bo'lgan molekulalar sifatida sitoplasmada uchraydi, rivojlangan membrana tizimi ham yo'q. Prokariotlarga sodda tuzilishga ega bo'lgan bakteriyalar, ayrim suvo'tlari kiradi (q. *Sianobakteriyalar*).

**Prolaminlar** — donli o'simliklar urug'idagi oqsillar guruhi. Masalan, makkajo'xoridagi zein, arpadagi gordein.

**Proliferatsiya** — o'simlik yoki hayvon to'qimasining yangi hujayralar hosil qilish yo'li bilan o'sishi (to'qimalarning boshqacha yo'l bilan hajmining katta bo'lishidan farqli ravishda).

**Prolifikatsiya** — o'simlik gulining qaytadan o'sib, yangi gul yoki to'pgul paydo bo'lishi.

**Promitoz** — sodda hayvonlarda mitozning turi.

**Promotor** — operondan oldinda joylashgan triplet guruqlaridan biri bo'lib, RNK va DNK sintezini katalizlovchi RNK-polimeraza bilan birikish xususiyatiga ega.

**Pro-RNK — O'tmishdosh-RNK** — DNKnинг genetik faol va sust qismlari to'g'risida informatsiyaga ega hamda matriksali-RNKning o'tmishdoshi bo'lgan RNK.

**Prostaglandinlar** — hujayra metabolizmini boshqarishda ishtirok etuvchi karbon atomidan iborat yog' kislotalarining hosilalari. Hosil bo'lgan joyning o'zida maxsus fermentlar yordamida tezda parchalanib ketadi va hujayrada to'planmaydi.

**Prostetik guruh** — murakkab oqsillarning, jumladan, ikki komponentli fermentlarning ham oqsil bo'limgan qismi.

**Proteidlar** — tarkibida aminokislotalardan tashqari yana boshqa birikmalar ham bor murakkab oqsillar.

**Proteinkinazalar** — oqsillarning fosforlanishini katalizlovchi fermentlar. Fosforlangan oqsillar hujayra metabolizmini boshqarishda faol ishtirok etadi.

**Proteinlar** — faqat aminokislota qoldiglaridan tashkil topgan oddiy oqsillar.

**Proteinogen aminokislotalar** — faqat oqsil tarkibida uchraydigan aminokislotalar bo'lib, ular 20—22 ta.

**Proteogenez** — oqsillarning hosil bo'lishi.

**Proteoletik fermentlar** — proteazalar, oqsil va peptidlarning gidrolytik parchalanishini katalizlovchi fermentlar.

**Protistlar — Sodda organizmlar** — bir hujayrali organizmlar.

**Protistologiya** — eng sodda hayvonlar, ya'ni bir hujayrali organizmlarni o'rghanuvchi fan.

**Proton nasosi — Proton damlagichi** — nafas olish zanjirida elektronlar oqimini harakatga keltiruvchi

fermentlar tizimi. Elektronlarning ko'chirishida hosil bo'lgan energiya hisobiga «nasos» protonlarni mitoхondriya matriksidan membranalararo bo'shiqqa siqib chiqaradi.

**Protoplast** — hujayraning protoplazma, mag'iz, plastida va mitoхondriya dan tashkil topgan tirik moddasi.

**Protoplazma** — tirik hujayra asosini tashkil qiluvchi rangsiz suyuq modda. Hozirgi zamон tushunchalariga ko'ra protoplazma biokalloyd bo'lib, membrana yoki mikronaychalarni yig'ish, ortiqcha moddalar ni chiqarib tashlash, oqsil molekulalarining konfiguratsiyasini o'zgartirish kabi hujayraning ichida sodir bo'ladigan juda ko'p o'zgarishlarni amalgalashadi.

**Protrombin** — *faolsiz trombin*, trombinning faolsiz shakli, qon ivishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan oqsil.

**Protossing, yetilish, yetilib pishish** — funksional jihatdan faol bo'lgan RNK va oqsil molekulalarining hosil bo'lishi.

**Provirus** — virusning yashash shaklaridan biri; bunda uning xromosomasi xo'jayin-hujayralari bilan birlashib ketgan bo'ladi. Ba'zi bakteriofag va onkogen viruslarga xos.

**Provitaminlar** — vitaminlar hosil qiluvchi moddalar.

**Prozenxima — Cho'ziq hujayrali to'qima** — bo'yи eniga nisbatan bir necha marta uzun va uchlari o'tkiralashgan hujayralardan iborat o'simlik to'qimasi; kelib chiqishi va bajaradigan vazifasiga qarab har xil bo'ladi. Masalan, paxta tolasi.

**Psammofitlar — Qum o'simliklari** — ko'chma qumli yerlarda o'sishga moslashgan o'simliklar.

P

**Psevdogamiya — Soxta urug'-lanish** — zamburug'lar va tuban o'simliklarda uchraydigan urug'lanish turi.

**Psevdogen — Soxta gen** — mutatsiya natijasida ekspressiya jarayoni buzilgan gen.

**Psevdokarp — Soxta meva.**

**Psevdoparazitizm — Tasodifiy tekino'rlik.**

**Psevdopodii — Soxta oyoqlar** — ba'zi sodda organizmlarning harakatlanishi uchun xizmat qiladigan vaqtinchalik sitoplazmatik bo'rtmalar.

**Psixrofil —** nisbatan past haroratta (+5 dan — 100 gacha) yashab, rivojlanuvchi organizmlar.

**Psixrofitlar — Sovuqsevar o'simliklar** — nam va sovuq tuproq sharoitiga moslashgan o'simliklar.

**Pterodaktillar — Qanotpanjalilar** — uchish imkoniyatiga ega bo'lgan sudralib yuruvchilarning qazilma guruhi.

**Pterozavrlar — Uchuvchi kaltesaklar** — o'lib bitgan sudralib yuruvchilar turkumi.

**Ptialin — So'lak fermenti** — amilaza, so'lak shiralaridagi ferment. Kraxmalning parchalanish reaksiysini katalizlaydi.

**Puch gul, bachki gul** — changlanish xususiyatiga ega bo'lмаган gullar. Bular ko'pincha bir jinsli gullardir. Masalan, bodring, osh-qovoq.

**Puch meva** — ichida urug'i (mag'izi) yo'q meva. Bunday mevalar urug'lanmaslik natijasida hosil bo'ladi.

**Puchak, qovjirash** — havoning yuqori darajada quruq bo'lishi va isiqlik oqibatida o'simlik barglari, shuningdek, boshqa yer ustki organlarning zararlanishi natijasida donlarning qovjirab qolishi.

**Pulpa** — 1) o'simlik va hayvon organizmlarining yumshoq to'qimalari; 2) tishning yumshoq to'qimasi. Tishning o'sish va oziqlanishini ta'minlaydi.

**Puls — Tomir urishi** — yurakning qisqarib-bo'shashib urishi natijasida qon tomirlarining ritmik tebranishi.

**Purin asoslari** — purinning tabiiy hosilari. Nukleozidlar, nukleotidlar va nuklein kislotalar tarkibini tashkil etadi (adenin va guanin).

**Pusht (embrion) pardasi** — ba'zi umurtqasiz va barcha yuqori tuzilishga ega umurtqali hayvonlar embrioni hayot faoliyatini ta'minlovchi va himoya qiluvchi pardalar. Bularga amnion, xorion va allantois kiradi.

**Pusht (embrion) qatlamlari** — rivojlanayotgan tuxum hujayraning bo'linishi natijasida hosil bo'ladigan qatlamlar; uch qatlamdan iborat — ektoderma, endoderma va mezoderma.

**Pusht, embrion, murtak** — jinsiy jarayon natijasida hosil bo'lgan homila, embrion.

**Po'kak, probka** — o'simlik a'zolari (poya, ildiz, kurtak qobig'i, meva va boshqalar)ning sirtida rivojlanadigan ikkilamchi qoplovchi o'lik to'qima. Shikastlanishdan, a'zo ichiga mikroorganizmlar kirishidan saqlaydi.

## Q

**Qalamchalash, qalamchadan ko'paytirish** — o'simliklarni vegetativ yo'l bilan ko'paytirish usullaridan biri. Bunda yog'ochlangan (tok, tol, terak), yosh, yog'ochlanmagan (is-siqhonalarda) poya va ildizpoyalardan (malina, limon) foydalilanadi.

**Qalqondorlar** — meva va manzarali daraxtlar zararkunandasi.

**Qalqonoldi bezlar** — umurtqali hayvonlarda paratireoid gormonlarini ishlab chiqaruvchi ichki sekretsiya bezlari.

**Qalqonsimon bez** — umurtqali hayvonlar va odam tomog'idagi maxsus ichki sekretsiya bezi. Tarkibida yod tutuvchi terioid gormoni ishlab chiqaradi va to'playdi. Bu gormonlar organizmnning modda va energiya almashinuvida katta ahamiyatga ega.

**Qanotlar** — hayvonlarning uchish a'zosi.

**Qanotli hasharotlar** — haqiqiy hasharotlar sinfiga mansub kichik sinf.

**Qanotli meva** — quruq, bir urug'li, ochilmaydigan va shamol yordamida tarqalishga moslashgan meva.

**Qariqiz** — murakkabguldoshlarga mansub o'simlik turi.

**Qarish** — organizm individual rivojanishining oxirgi bosqichlaridan biri; bunda voyaga yetgan organizmning o'z vazifasini bajarish imkoniyatlari kamayadi, nobud bo'lish ehtimoli esa ortadi.

**Qarorgoh, manzil** — bir tur yoki shu turga mansub bo'lgan populatsiyaning egallagan ma'lum yashash joyi. Bu joyda ularning yashashi uchun me'yorli sharoitlar mavjud.

**Qatiqqanotlilar, qo'ng'izlar** — to'la o'zgarish bilan rivojlanuvchi

hasharotlar turkumi. Yer yuzasining barcha qismida (Antraktidadan tash-qari), ayniqsa, tropik zonasida juda ko'p tarqalgan. Ko'pchiligi tuproq hosil qilish, ba'zilari sanitariya vazifalarini bajarsa, ayrimlari ekinlar zararkunandasi.

**Qatqorin** — kavsh qaytaruvchi hayvonlardagi ko'p bo'limli qorinning bir bo'limi.

**Qayta duragaylash** — q. *Bek-kross*.

**Qashlag'ichlar, akantotsefallar** — birlamchi bo'shlqli chuvalchanglar sinfi. Qopsimon tanasining bosh qismida ilmoqli xartumchasi bor. Hayvonlarda, ba'zan odamlarda akantotsefaloz kasalligini qo'zg'atadi.

**Qiljag'lilar** — umurtqasiz hayvonlar turi.

**Qirqbo'g'im** — o'simliklar turkumi. Sporalari bilan ko'payadi.

**Qirqquloqsimonlar** — yuksak spormali o'simliklar bo'limi.

**Qisqaruvchi vakuola** — eng sodda organizlarga xos va «damlagich» vazifasini bajaruvchi organella. Uning faoliyati natijasida organizmdagi ortiqcha suv va unda erigan moddalar tashqariga vaqt-i-vaqti bilan chiqarib turiladi.

**Qisqichbaqasimonlar** — bo'g'imo-yoqlilar sinfi. Bular olti kenja sinfga bo'linadi. Ulardan eng muhimlari: jabraoyoqlilar, qisqichbaqasimonlar, chig'anoqlilar, yuksak qisqichbaqalar va boshqalar. Ayrim turlari ovlanadi, masalan, langust, omar va krablar. Chuchuk suvlardagi qisqichbaqasimonlar sanitarlilik vazifasini bajaradi.

**Qizil kitob** — nodir va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan o'simlik hamda hay-

## Q

vonlarning umumiy ro'yxati, ular biologiyasi, tarqalishi kabi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan manba.

**Qishloq xo'jalik biologiyasi** — madaniy o'simliklar, xonaki hayvonlar, foydali mikroorganizmlarning mahsulorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarning nazariy asoslarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi eksperimental biologiya bo'limi.

**Qishloq xo'jalik o'simliklari zarar-kunandaları** — madaniy o'simliklarni shikastlovchi yoki ularning nobud bo'lishiga sabab bo'lувchi organizmlar. Bularga umurtqali hayvonlardan ayniqsa kemiruvchilar, umurtqasiz hayvonlardan molluskalar, nematodalar, hasharotlar, o'rgimchaksimonlar va boshqalar misol bo'ladi.

**Qishlov** — organizmning qishki sovuq davrni boshidan kechirishi.

**Qobiq, po'stloq** — poya yoki ildizdagi kambiydan tashqarida joylashgan tirik hujayralar qavati.

**Qobiqsizlantirish** — fagli genetik materialni qobig'idan ozod qilish, bo'shatish.

**Qomg'toq o'simligi, sho'rak o'simligi** — cho'l va dashtlarning o'tsimon o'simligi. Pishib yetilish davrida yumaloq sharsimon shaklga ega bo'ladi va poyaning asos qismi osonlik bilan uzilib, shamol yordamida uzoq masofaga ko'chirilishi mumkin.

**Qon** — barcha umurtqali va ayrim umurtqasiz hayvonlar qon-tomir tizimida harakatlanadigan biriktiruvchi to'qima xillaridan biri bo'lgan suyuqlik. Organizmda nafas, oziqlanish, shuningdek, moddalar almashinuvni mahsulotlarini tashish kabi vazifalar ni bajaradi.

**Qon bosimi** — qonning yurak bo'limalari va tomirlar devoriga ta'sir

ko'rsatuvchi bosimi. Yurakning qisqarib, qonni haydashi tufayli paydo bo'ladi.

**Qon guruhlari** — qonning me'yori immunogenetik belgilari. Shunga ko'ra bir turga mansub individlar qoni guruhlarga ajratiladi: ular to'rtta.

**Qon plastinkalari** — umurtqali hayvonlarda qon shaklli elementlari dan biri; qon quylishi (ivishi)da ishtirot etadi.

**Qon plazmalari** — qondagi rangsiz, shaklli elementlarsiz hujayralararo suyuqlik.

**Qonning ivishi (quyulishi)** — bir qator o'zaro ta'sirlar natijasida suyuq qonning quyuqlashish jarayoni. Bu jarayonda 10 ga yaqin oqsillar ishtirot etadi. Odam va hayvon organizmining himoya qilish xususiyati bo'lib, qon kamayib ketishining oldini oladi (to'xtatadi).

**Qonning shaklli elementlari** — asosan ilikda hosil bo'lib, tuzilishi va vazifasiga ko'ra, bir-biridan farq qiluvchi qon hujayralari: eritrotsitlar, leykotsitlar va trombotsitlar.

**Qontomir tizimi** — qon yoki gemolimfa harakatlanadigan tomirlar va bo'shliqlar tizimi. Ikki xil qon-tomir tizimi aniqlangan: ochiq yoki lakunar va yopiq tizim. Yopiq qon-tomir tizimi asosan umurtqali hayvonlar va odamga xos.

**Qoplovchi to'qima** — o'simliklarni tashqi tomondan o'rab turuvchi to'qmalar (masalan, po'stloq).

**Qora ilonlar** — zaharli ilonlar oilasi. O'rta Osiyo va Kavkazorti tog'larida keng tarqalgan. Bu ilonlar zahari bilan zaharlangan odam yoki hayvon organizmi og'ir holatga duch keladi, ko'pincha ularning 15—20% halok bo'ladi.

**Qora chigirtkalar, chirildoqlar** — to'g'ri qanotli hasharotlarning katta oilasi.

**Qoraqayindoshlar** — ikki pallali o'simliklar oilasi.

**Qorin** — bo'g'imoyoqlilarning ko'krak bo'limidan keyin keladigan qismi.

**Qorin bo'shlig'i** — umurtqali hayvonlar ikkilamchi bo'shlig'i — seloming bir qismi. Unda buyrak, yurak (sut emizuvchilarda o'pka)dan tashqari barcha ichki a'zolar joylashgan.

**Qorinoyoqlilar** — chig'anoqli molluskalar sinfi. Go'shti, chig'anog'i, sadafi uchun va boshqa maqsadlarda ovlanadi, shuningdek, zararli turlari bor.

**Qorinparda** — odam va hayvonlar qorin bo'shlig'idagi barcha a'zolarni o'rabi turuvchi yupqa parda.

**Qovoqcha** — oshqovoqlarning mevasi, yosh tuguncha holida ovqatga ishlatalidigan bir turi.

**Qoyachiguldoshlar** — ikki pallali o'simliklar oilasi.

**Qubba** — ignabargli o'simliklarning jinsiy ko'payish a'zosi; unda megastrobilalar to'plangan.

**Quloq suprasi** — sut emizuvchilar eshitish apparatining tashqi qismi.

**Qurg'oqchilik** — havo haroratining yuqori bo'lishi, yog'ingarchilikning esa juda kam bo'lishi yoki umuman bo'imasligi natijasida tuproq namligini keskin kamaytirib yuboruvchi uzoq davom etadigan quruq ob-havo sharoiti.

**Qurg'oqchilikka chidamlik** — o'simliklarning suvsizlikka va issiqlikka uzoq vaqt chiday olish xususiyati. Bunda o'simlik hujayralarida kechadigan hayotiy jarayonlar va hosildorlik deyarli o'zarmaydi.

**Qurt** — ko'pchilik hasharotlar, asosan, kapalaklar rivojlanishining lichinkali bosqichi.

**Quyoshsimon asab chigali** — yirik asab tugunlarining yig'indisi. Umurtqali hayvonlarning simpatik asab tizimida-gi asablarining tutashgan joyi. Qorin bo'shlig'ida joylashgan bo'lib, yuqori qismi aortagacha va pastki qismi buyrak arteriyasigacha boradi. Xuddi quyosh nurlariga o'xhash tarqalgan.

**Qushlar** — umurtqali hayvonlar sinfi. Bular yuksak rivojlangan asab tizimi, qanotlar, to'rt kamerali yurakka ega. Tanasining harorati doimiy.

**Qushlar bozori** — qushlarning ommaviy uyalash joylari. Bunday hodisani ko'pincha dengiz bo'yi qoya-larida (ayniqsa shimoliy rayonlarda) kuzatish mumkin.

**Qo'lqanotlilar** — sut emizuvchi hayvonlar turkumi.

**Qo'ng'ir suvo'tlar** — asosan yirik — makroskopik, uzunligi 60 m gacha yetadigan suvo'tlar. Tarkibida sariq-qo'ng'ir ksantofill pigmentlar ko'p.

**Qo'ng'iroqguldoshlar** — ikki pallali o'simliklar oilasi. Masalan, chuchmo'malar.

**Qo'zoq** — quruq ko'purug'li meva. Urug'lar ikki palla o'rtasidagi pardaga joylashgan.

**Qo'zg'alish, uyg'onish** — organizmning evolutsion taraqqiyot jarayonida vujudga kelgan, har xil omillar ta'siriga tirik to'qima yoki hujayraning ko'r-satadigan reaksiysi. Bunda organizm nisbiy tinimlik holatdan faol holatga o'tadi. Qo'zg'alish murakkab fizik va kimyoziy jarayonlarga asoslangan.

**Qo'zg'aluvchanlik** — tirik organizm, organ va hujayraning qo'zg'a-tuvchi ta'sirini qabul qilish va unga javob berish xususiyati. Natijada tirik tizim tinimdan faol holatga o'tadi.

Q

**Qo'sh otalanish** — generativ hujayra mag'zining ikkiga bo'linishidan hosil bo'lgan spermalardan birining tuxumhujayra, ikkinchisining esa markaziy hujayra bilan qo'shilishi. Otalangan tuxumhujayradan murtak (embriyon) va markaziy hujayradan endosperma rivojlanadi. Yopiqqurug'-lilarga xos. Bu hodisani S.G.Navashin aniqlagan (1898).

**Qo'sh spiral** — ikki polinukleotid zanjirdan tashkil topgan DNK molekulasi. Zanjirlar bitta umumiy o'qqa ega va qarama-qarshi tomonga yo'nal-gan. Qo'sh spiralni D.Uotson va F.Krik kashf etgan (1953).

**Qo'shgulqo'rg'on** — gulkosa va gultojbargga ega gulqo'rg'on. Masalan, ayiqtovon gullarida.

**Qo'shimcha a'zolar** — assosiya'zolarning yon tomonidan o'sib chiq-qan qo'shimcha a'zolar. Masalan, poyalarda hosil bo'ladigan ildizlar.

**Qo'shimcha oziq, yem-xashak** — hayvonlarni ma'lum joyga jalb qilish uchun qo'yiladigan maxsus oziq, yem-xashak.

**Qo'shqanotlilar, ikki qanotlilar** — hasharotlar turkumi. Bir juft oldingi qanotlarga ega, orqa qanotlar esa vizillagan tovush chiqaruvchi qanotlarga aylangan. Masalan, chivinlar, iskaptoplar, pashshalar.

## R

**Rabdomerlar** — umurtqasiz hayvonlar ko'rish hujayrasining yorug'likni sezuvchi tuzilmasi.

**Rabdoviruslar** — bir polinukleotid zanjirli RNK tutuvchi xivchinsimon viruslar oilasi. Odam va hayvon organizmi uchun patogen bo'lgan (masalan, quturish kasalini qo'zg'atuvchi) turlari mavjud.

**Radiatsion genetika** — genetikaning nurlanishni irlisyatga ta'siri, ya'ni nurlangan organizmlarda irlisy o'zgarish (mutatsiyalar)ning paydo bo'lishini o'rganuvchi bo'limi. G'o'zaga radiatsiya ta'sir ettirilib, bir qator yangi navlar olishga muvaffaq bo'lindi.

**Radiatsiya (ionlashuvchi)** — **Ionlashtiruvchi radiasiya, ion-lashtiruvchi nurlanish** — u yoki budarajada tirik organizmlarga yutiluvchi va ularda keskin o'zgarishlar paydo qiluvchi elektromagnit (rentgen

nurlar, gamma nurlar) hamda molekular (alfa-zarracha, betta-zarracha, proton va neytron oqimlari) radiatsiya. Tabiiy dozadan yuqori bo'lgan ionlantiruvchi nurlar tirik organizmlar uchun xavflidir.

**Radiatsiya muvozanati** — atmosferada radiatsiya nurlanishi va yutilishining yig'indisi.

**Radio...** — nurlanish yoki radiotexnikaga aloqadorlikni anglatuvchi murakkab so'zlarning tarkibiy qismi.

**Radioaktiv ifloslanish** — radioaktiv moddalarning atrof-muhitda tabiiy me'yordan ortib ketishi. Radioaktiv ifloslanish yadro qurollarini (sinovdan o'tkazish) portlatish, atom elektrostantsiyalari yoki boshqa atom bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlarda sodir bo'ladigan falokatlar, radioaktiv moddalari bo'lgan asbob-uskunalarining ishdan chiqishi natijasida vujudga keladi.

**Radioaktivlik, nur tarqatish** — bir element begaror izotopining boshqa element izotipiga o'z-o'zidan yemirilish yo'li bilan aylanishi. Bunda tirik organizmlarga salbiy ta'sir qiluvchi nur ajraladi.

**Radiobiologiya** — ionlashtiruvchi nurlarning barcha tirik organizmlarga ta'siri va radiatsiyadan himoyalash yo'llarini o'rganadigan fan.

**Radiolariyalar, nurlanuvchilar** — sarkodalilar sinfiga mansub sodda hayvonlarning kenja sinfi. Asosan iliq iqlimli dengizlarda tarqalgan plankton organizmlar.

**Radioprotektorlar** — nurdan himoya qiluvchi tabiiy moddalar yoki kimyoiy birikmalar. Undan tirik organizmlarni ionlashtiruvchi nurlardan himoya qilishda va radiatsiyaga bo'lgan chidamliligini oshirishda foydalaniladi.

**Radiosezgirlik** — **Nurga sezgirlik** — tirik organizmlarning ionlashtiruvchi nurlar ta'sirini sezish xususiyati.

**Rak, saraton kasali, shish** — epiteliy to'qimasidan vujudga keladigan xavfli o'sma (shish). Odamda, hayvonlarda va o'simliklarda uchraydi. Rak hujayralari juda tez bo'linadi, rivojlanadi va atrofdagi sog'lom hujayralarni yemiradi.

**Ra'noguldoshlar** — q. *Atirguldoshlar*.

**Reakklimatizatsiya, qayta iqlimlanish** — organizmlar uchun avval tabiiy hisoblangan, keyinchalik esa noqulay bo'lib qolgan sharoitga qaytadan moslashish.

**Reanimatsiya — Jonlantirish** — biron sababga ko'ra buzilgan organizm hayot faoliyati uchun zarur funksiyalarni qo'shimcha tadbirlar vositasida tiklash.

**Reduksion bo'linish** — gomologik xromosomalarning ajralib, taqsimlanishi bilan ro'y beradigan hujayraning bo'linishi.

**Reduksiya** — organizm individual (ontogenet) va tarixiy taraqqiyoti (filogenet) dastlabki davrlarida me'yori rivojlangan a'zo, to'qima yoki hujayraning keyingi avlodlarda kichiklashishi, soddalashishi yoki butunlay yo'qolib ketishi. Masalan, tekinxo'r va sprofit o'simliklarda barglarning maydalaniib yo'qolib ketishi, fotosintez jarayonini amalga oshiruvchi xlorofillning bo'lmasligi va hokazolar.

**Redutsentlar, destrukturlar** — organik qoldiqlar bilan oziqlanib, uni parchalab, birmuncha oddiy mineral moddalarga aylantiradigan organizmlar (asosan bakteriyalar va zamburug'lar).

**Refleks** — organizmning tashqi va ichki qo'zg'atuvchilar ta'siriga javoban asab tizimi orqali amalga oshirishdagi reaksiyalari.

**Reflektor yoyi** — refleksni amalga oshirishda ishtirok etadigan asab hosilalarining yig'indisi.

**Regeneratsiya — Qayta tiklanish** — organizmning shikastlangan yoki yo'qolgan a'zo yoxud to'qmalarini tiklashi. Bunga organizmning biron-bir qismidan butun bir organizmni hosil qilish ham kiradi (vegetativ ko'payish va somatik embriogenez).

**Regress** — organizm ayrim a'zolari, a'zolar tizimining evolutsiya jarayonida qisman yoki to'liq o'zgarishi orqali soddalashuvi natijasida yashash arealining qisqarishi va ma'lum tur yoki guruhlar sonining kamayishi.

**Regulatorlar (o'simlikda), o'simlik o'sishini boshqaruvchi mod-**

**R**

**dalar** — o'simlik o'sishini tezlash-tiruvchi yoki sekinlashtiruvchi turlituman organik birikmalar.

**Rekombinatsiya** — tirik organizmlarning kombinativ o'zgaruvchanligi. Meyoz va mitoz jarayonida irlsiy belgilarning qayta taqsimlanishi (rekombinatsiyasi) natijasida genlarning yangi o'zgargan birikishlari hosil bo'ladi.

**Rekon** — rekombinatsiya birligi. DNK ning bir yoki bir necha juft nukleotidiga mos keladigan va keyingi qayta taqsimlanishlarda bo'linmaydigan eng qisqa qismi.

**Rekultivatsiya** — mashina va mexanizmlarni qo'llab, foydali qazilmalar olish, qurilish ishlari va boshqalar ta'sirida unumtdorligi hamda o'simliklari nobud qilingan tuproqlarni sun'iy ravishda qayta tiklash, shuningdek, atrof-muhit sharoitini yaxshilash.

**Renaturatsiya** — biopolimerlar molekulasi, masalan, oqsil yoki nuklein kislotalarning tabiiy xususiyatlarini yo'qotish (denaturatsiya) holatidan biologik faol holatga qaytishi.

**Reofil organizmlar** — **Oqar suv sevuvchi organizmlar** — oqar suv havzalarida yashashga moslashgan organizmlar.

**Reoviruslar, qobiqli viruslar** — tarkibida RNKsi bor dumaloq shaklli viruslar oilasi. Oqsil qobig'i ko'p qirrali bir yoki ikki qavatdan iborat.

**Reparatsiya, o'z holiga qaytish** — mutagenlar ta'siridan yoki tabiiy buzilgan DNK birlamchi tuzilishining o'z-o'zidan qayta tiklanishi.

**Repellentlar** — hayvonlarni hurkitib, o'zidan qochiradigan pestitsidlar guruhiiga mansub tabiiy va sun'iy moddalar.

**Replikatsiya** — DNK molekulasining o'zidan nusxa olishi. Bunda ota-

ona DNK sining nukleotidlari ketma-ketligida ifodalangan informatsiyasi yuqori aniqlik bilan bola DNK larga beriladi.

**Repressor** — hujayrada fermentlarning hosil bo'lishini susaytiruvchi modda.

**Reproduktiv organlar, ko'payish a'zolari** — o'simlik va hayvonlarda ko'payish vazifasini bajaradigan a'zolar.

**Retseptorlar** — tashqi muhit qo'zg'atuvchilariga javob berish xususiyatiga ega bo'lgan asab tolalari uchidagi maxsus sezgi hosilalar; odam va hayvon organizmiga xos.

**Retsessivlik, chekinish** — ota yoki ona belgilardan birortasining yangi duragayda namoyon bo'lmashlik hodisasi. Odatda, retsessiv belgi faqat ikkinchi avloddan boshlab bir qism individlarda namoyon bo'la boshlaydi.

**Retsipyent, oluvchi, qabul qiluvchi** — 1) davolash maqsadida yoki hujayra va a'zolar vazifasini eksperimental yo'l bilan o'rghanish maqsadida biron-bir a'zo, to'qima yohud hujayra ko'chirib o'tkazilgan odam yoki hayvon; 2) ko'chirilayotgan irlsiy materialni qabul qilib oluvchi DNK molekulasi, hujayra yoki organizm.

**Retardantlar** — o'simlik poyalaring o'sishini, sustlashtiradigan kimyo-viy chekanka uchun (poya uchini chilpish o'rniiga) «tur» moddasidan foydalilanadi.

**Retroviruslar** — tarkibida RNK tutuvchi viruslar. Ularning hayot sikli uchun RNK dan tashkil topgan genomning teskari transkripsiysi xos. Ko'pchilik retroviruslar leykoz (oq qon), sarkoma (et, go'sht shishi)

va sut bezlari shishi hosil qilishda ishtirok etadi.

**Revertaza** — RNK dan DNKga irlsiy informatsiyani ko'chirish reaksiyasini katalizlovchi qaytar transkriptaza fermenti.

**Rezervat, qo'riqxona**, — tabiiy kompleks elementlari (o'rmon, o'simliklar, ko'l, qushlar, ovlanadigan hayvonlar va hokazo)dan biri muhofaza qilinadigan hudud. Biosfera qo'riqxonalaridan maydonining kichikligi bilan farqlanadi.

**Rezistentlik (o'simlikda)** — **O'simlikning chidamliligi** — o'simlikning patogen omil, biron-bir qo'zg'atuvchi ta'siriga qarshilik ko'rsatish xususiyati.

**Rezus-faktor** — **Rezus-omil** — dastlab makaka-rezus maymunlarida va keyin odam eritrositlarida topilgan begona tanacha (antigen). Aholining taxminan 85% musbat rezusga va 15% manfiy-rezusga ega. Rezus-omil nasldan-naslga o'tib boradi, qon quyishda rezus-omil albatta hisobga olinishi shart.

**Ribonuklein kislotalar** — tarkibida uglevod komponentlaridan ribozza; azot asoslaridan adenin, guanin, sitozin, urasil tutuvchi nuklein kislotasi turi. Asosan hujayra sitoplazmada joylashgan. Bitta polenukleotid zanjiridan tashkil topgan. Tirik organizmlarda sodir bo'ladigan oqsil biosintezida muhim ahamiyatga ega. Ayrimlarida fermentativ faoliyat xususiyatlari mavjud.

**Ribosoma** — RNK va oqsildan tashkil topgan, oqsil biosintezini amalga oshiruvchi hujayra organoidi. Sitoplazmada erkin yoki endoplazmatik to'r va yadro qobig'iga birikkan holda uchraydi. Ribosoma ikki qismidan iborat bo'lib, tashqi ko'rinishidan

yosh qo'zigorinni eslatadi. Ular ko'pincha bir-birlari bilan birikib, poliribosomalar holida uchraydi.

**Rivojlanish davri** — rivojlanayotgan organizmning biron-bir sifatini o'zgarishini ifodalovchi davr. Masalan, g'o'zaning beshta rivojlanish davri mavjud; unib chiqish, haqiqiy barglar hosil bo'lishi, shonalash, gullash, pi'shib yetilish yoki ko'saklar ochilishi.

**Rizoid** — **Sodda ildiz** — ipsimon ildizga o'xhash hosila. Tuban sporali o'simliklar: yo'sinlar, zamburug'lar, ayrim suvo'tlarini substratga biriktirib turadi va xuddi ildizlarga o'xhash suv hamda unda erigan ozuqa moddalarini shimadi.

**Rizosfera** — ildizga yaqin bo'lgan va mikroorganizmlarga boy tuproqning ustki qavat zonasasi. Yuqori biologik faolligi bilan tuproqning boshqa qismalaridan farq qiladi. Mikroorganizmlar tarkibi ko'pincha tuproq turi, o'simlik turi va yoshiga bog'liq. Ular tuproqdagagi ozuqa moddalarni osonlik bilan o'zlashtirishga imkon yaratib beradi.

**Rod** — **Turkum** (botanikada), **urug'** (zoologiyada) — turlarni bir-lashtiruvchi sistematik kategoriya. Bir turkum o'nlab, yuzlab, hatto minglab turlarni o'z ichiga oladi, shuningdek, faqat bitta turdan tashkil topgan turkumlar ham mavjud.

**Rudimentlar** (rudimentar a'zolar), Qoldiq a'zolar — organizm individual rivojlanish jarayonida oldingi avlodlardagiga nisbatan asosiy ahamiyatini yo'qotgan, soddalashgan, rivojlanmay qolgan va yo'qolib borayotgan a'zolar. Masalan, odam tanasi-dagi junlar yoki appendiks.

**Ro'vak** — murakkab shingil, to'pgul. Masalan, sholi, tariq yoki makka-joxori to'pgullari.

**R**

# S

**Sagittal, o'q, tal** — organizm tana-sini bo'yiga (uzunasiga) o'ng va chap tomonlarga bo'luvchi tekislik yoki o'q.

**Sagovniklar** — ochiq urug'li o'simliklar turkumi. Asosan tropik va subtropik mamlakatlarda tarqalgan. O'rta Osiyo mintaqasida manzarali daraxt sifatida o'stiriladi.

**Sakrokarpiy** — yumshoq me-zokarpiy.

**Saksovul** — sho'radoshlarga man-sub buta yoki uncha katta bo'lмаган daraxtlar turkumi. Cho'l va dasht zonalarda o'sadi. Qumliklarni ko'chishdan to'xtatish maqsadida ekiladi. Yog'ochi yoqiladi.

**Salabguldoshlar** — bir pallali o'simliklar oilasi.

**Salamandralar** — suvda va quruq-da yashovchi dumli hayvonlar oilasi. Ukraina va Kavkazda uchraydi. Nam-lik ko'p bo'lgan o'rmonlarda, tog'daryolari qirg'og'ida yashaydi. Tirik tug'ib ko'payadi.

**Salitsilat kislota, aspirin** — aromatik oksikarbonat kislota. Ko'pchilik o'simliklar tarkibida erkin holda uchraydi. Masalan, moychechakda.

**Salitsin** — tol va teraklarning po'st-log'ida uchraydigan glikozid modda.

**Salmonella** — bakteriyalar turkumi. Spora va kapsulalar hosil qilmaydi. Ichterlama, salmonelloz kabi kasalliklarni qo'zg'atadi.

**Saponinlar** — fenantren hosilasi hisoblangan azotsiz murakkab organik birikmalar. Saponinli eritma chayqatilganda ko'pik hosil qilish xususiyatiga ega. Ko'pchilik o'simliklar (qizilmiya, yetmak kabilari) tarkibida uchraydi.

**Saprobiotlar, chirindida yashov-chilar** — turli xil organik birikmalar-

ga boy suvlarda yashovchi organizmlar. Saprobiotlar suvni ifloslovchi organik birikmalarni mineral holatga aylantirish xususiyatiga ega bo'lib, ulardan oqar suvlarning tozalanish jarayonini jadallashtirishda foydalani-ladi.

**Saprofag — Chirindixo'rlar** — or-ganik modda (o'limtik, chirindi, go'ng kabilar) qoldiqlari bilan oziqlanadigan organizmlar.

**Saprofitlar** — tayyor organik moddalar (hayvon yoki o'simlik qoldiqlari, chirindilar) bilan oziqlanadigan organizmlar. Bularga ko'pchilik zamburug'lar, bakteriyalar va ayrim o'simliklar kiradi.

**Saqlanib qolish** — ma'lum davr oralig'ida har bir avlodning o'rtacha miqdordagi zoti (nasli)ning saqlanib qolish ehtimoli.

**Sariq tana** — sut emizuvchilar tu-xumdonida ovulatsiya jarayonidan keyin vaqtinchalik rivojlanadigan va gormonlar ishlab chiqaradigan ichki sekretsiya bezi.

**Sarkmerlar** — muskul tolalaridagi miofibrillarning ketma-ket keluvchi qismlari; miofibrillalarning asosiy tuzilish birliklari.

**Sarkolemma** — muskulning ko'ndalang yo'l-yo'l tolalarini qoplovchi plazmatik membranalar. Muskul faoliyatini tezlashtiruvchi impulslarni o'tkazishda qatnashadi.

**Sarkoma** — biriktiruvchi to'qimalarda rivojlanadigan xavfli shish.

**Sarkoplazma** — muskul tolalari va hujayralarining plazmalar. Miofibrillalar bilan miofilamentlar oralig'in to'ldiradi.

**Sarkoplazmatik to'r** — muskul tolalarining organellasi. Muskul hu-

jayralarda nozik kanallardan iborat to'rlar hosil qiladi va muskullarning qisqarishini nazorat qiladi. Bunga mifibrillarda kalsiy ionlarining regulatsiyasini nazorat qilish tufayli erishiladi.

**Sarsinlar** — sharsimon bakteriyalar; bo'linib ko'paygandan keyin tarqalib ketmasdan to'da hosil qiladi.

**Satelit DNK — Yo'ldosh DNK** — hujayra sentromeralardan ajratib olin-gan yuksak ketma-ketlikka ega DNK. **Satelitzm, yo'ldoshlilik** — bir organizm rivojlanishining shu muhitda yashab turgan boshqa organizm rivojlanishiga ta'sir etishi.

**Savanna** — baland bo'yli o'tlar, siy-rak va yakka holda o'suvchi butalar, past bo'yli daraxtlar bilan qoplangan keng tekis va yarimtekis maydonlar. Asosan tropik va subtropik zonalarda ko'p.

**Savatcha** — bir qancha gullar ken-gaygan gulo'ringa joylashgan to'pgul. Asosan murakkabguldoshlarga xos.

**Saxaraza** — invertaza, saxarozani gidroliz qiluvchi ferment.

**Saxaromitselar** — achitqi zam-burug'lar turkumi. Tabiatda keng tarqalgan bo'lib, non pishirish, pivo tay-yorlash va boshqa maqsadlarda keng qo'llaniladi.

**Saxaroza** — shakarqamish yoki qndlavlagi shakari. Disaxaridlar gu-ruhiga mansub bo'lib, glukoza va fruk-tozadan tashkil topgan. O'simliklар dunyosida juda keng tarqalgan.

**Sayt, mutatsiya o'rni** — mutatsiya yoki rekombinatsiyaning eng kichik birligi. DNKdagi bir juft nukleotidga teng. Nuqtali mutatsiyadagi gen o'rnnini belgilaydi.

**Sayg'oq, oqquyruq** — quvushshox-lilar oilasiga mansub sut emizuvchi

hayvon. Cho'l va dasht zonalarida yashaydi. Mo'g'iliston, G'arbiy Xitoy, Qozog'iston va O'rta Osiyoda keng tarqalgan. O'zbekistonda ruxsat bilan ovlanadi.

**Sekretsiya, shira ajratish** — hu-jayralar, asosan, bez hujayralarining moddalar ajratib chiqarish jarayoni.

**Sekret, ajratma, shira** — odam va hayvon organizmidagi maxsus bez-lar ishlab chiqarib, ajratadigan mod-dalar. Organizmning me'yorli hayot faoliyatida muhim ahamiyatga ega. U ichki (gormonlar) va tashqi sekret-larga bo'linadi. Bularga fermentlar, gormonlar, teri yog'lari, sut misol bo'ladi.

**Sekretlar (o'simliklarda), ajratilgan moddalar** — o'simlikdagi ajratuvchi hujayralar tomonidan ish-lab chiqariladigan va o'simlik tanasi-da qoladigan suyuqlik — shiralari.

**Sekretor hujayralar, ajratuvchi hujayralar** — har xil suyuqlik va esir moddalar ishlab chiqaruvchi bezlar ning hujayralari.

**Seleksiya** — odam uchun foydali belgilari bo'lgan o'simliklarning yangi navlari va duragaylarini, hayvon-larning yangi zotlarini va mikroorganizmlarning yangi shtammlarini yetishtirish, yaratish usullari (gete-rozis, poliploidiya, mutagenez) haqidagi fan. Seleksiyaning nazariy asosi genetikadir.

**Selluloza** — glukoza qoldiqlardan tashkil topgan uglevod. O'simlik hujayrasining qobig'i asosan selluloza dan tashkil topgan.

**Selom, bo'shliq, tananing ikkilam-chi bo'shlig'i** — ko'p hujayrali hayvonlarning ichki a'zolari bilan tana devori o'rtasidagi bo'shliq. Asosan tayanch vazifasini bajaradi.

**Senobioz** — organizmlarning guruh (uyushma)larda birgalikda hayot kechirishi.

**Senogenez** — organizm embrional rivojlanish yoki qurt davridagi o'ziga xos sharoitlarga moslashishi. Bu xususiyat katta yoshdagи individlarda saqlanmaydi. Atamani fanga L.N. Seversov kiritgan (1912).

**Senoz — Uyushma, qavm** — organizmning ma'lum sharoitdagi har qanday uyushmasi. Masalan, zootsenoz, fitotsenoz.

**Sensilla** — sezgirlik elementlari; hasharotlar sezgi a'zolarining asosiy elementi.

**Sensor a'zolar — Sezgi a'zolari** — idrok qilish, ko'rish, eshitish, hidlash, sezish hamda bilish a'zolari va boshqalar.

**Sensor hujayralar, sezgir hujayralar** — umurtqali hayvonlarning tashqi ta'sirlarni sezuvchi eng murakkab hujayralari: ko'rish, eshitish, hid bilish va boshqa shu kabi a'zolarga xos.

**Sentriola, markaziy tanacha** — hujayra yadrosiga yaqin joydan o'ren olgan (silindrik) ikkita tanacha. Har bir sentriola tubulin oqsilining polimerizatsiyaga uchrashi natijasida hosil bo'lgan mikronaychalarining to'qqizta triplotlarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Qutblarga tarqaluvchi urchuqlar yo'nalishini belgilab bera-di. Tarkibida DNK bo'lib, o'zidan ko'payish xususiyatiga ega.

**Sentrosoma** — hujayra organoidi. Ikkita sentrioladan tashkil topgan. Sentrosomaning vazifasi hujayra bo'linishi bilan bog'liq.

**Sepiya** — karakatitsa (dengiz moluskasi)ning och jigarrangli bo'yog'i («siyoh qopi»).

**Sepsis, chirish, zaharlanish** — odam va hayvon organizmining umumiylu yuqumli kasalligi; yiring boylagen joylardagi mikroorganizmlar yoki ularning toksinlari tomonidan qonning zaharlanishi.

**Septalar, to'siqlar, pardalar** — o'simlik va hayvon organizmlaridagi bo'shliqlar yoki hujayra massalarini ajratib turuvchi ko'ndalang pardalar.

**Serebr...** — bosh miyaga taalluqlilikni bildiruvchi qo'shma so'z bo'lagi.

**Serebral suyuqlik — Bosh va orqa miya suyuqligi** — bosh miya bo'shliqlari va orqa miyaning markaziy bo'shlig'ini to'ldirib turuvchi rangsiz suyuqlik.

**Serin** — proteinogen aminokislota. Barcha oqsillar tarkibida uchraydi. Ayniqsa, u ipak oqsili (fibroin)da ko'p.

**Seritsin, ipak yelimi** — ipak qurtining maxsus bezlarida ishlab chiqiladigan oqsil. Xom ipakning 30% ga yaqini seritsindan iborat.

**Serobakteriyalar — Oltingugurt bakteriyalari, tiobakteriyalar** — vodorod sulfidi va boshqa oltingugurtli birikmalarni oskidlab, o'zi uchun zarur energiyani oluvchi bakteriyalar. Tabiatda oltingugurt almashinuvida muhim ahamiyatga ega.

**Serologiya** — qon zardobi xususiyatlarini, begona tanachalar bilan zidditanachalarining o'zaro ta'sirini o'rganuvchi fan. Odam va hayvon organizmlarining yuqumli kasalliklarini aniqlashda qo'llanadi.

**Serotoksin** — qon zardobi zahari.

**Seroz bezlar, zardob bezlari** — tiniq, qon zardobiga o'xshash suvli sekret ishlab chiqaruvchi bezlar.

**Seroz parda** — epitelial qatlama bilan o'ralgan biriktiruvchi to'qimali parda. Odam va hayvon tanasi

bo'shliqlarini o'rabi turadi. Joylashgan o'tniga qarab qorin pardasi, o'pka pardasi, perikard, epikard deb nomlanadi.

**Sezgirlik** — tirk organizmning tashqi va ichki muhit qo'zg'atuvchilari ta'sirini qabul qilib olish xususiyati. Evolutsiya davomida hayvon organizmlarida maxsus assab hosilalari (retseptorlar) shakllanib, ular faqat ma'lum turdag'i qo'zg'atgichni qabul qilishga moslashadi. Masalan, mexanoretseptorlar, fotoretseptorlar, xemoretseptorlar.

**Sezish, tuyg'u** — tashqi muhit ta'sirini bosim yoki tegish yo'li bilan organizmning yuza qismlarida joylashgan retseptorlar yordamida sezish.

**Sferosomalar** — sitoplazmada erkin holda uchraydigan, lipid va oqsillardan tashkil topgan donachalar.

**Sianobakteriyalar** — ipsimon bir hujayrali ko'k-yashil suvo'tlarning ilmiy nomi. (q. *Ko'k-yashil suvo'tlar*).

**Sibrid** — qo'sh sitoplazma, faqat bitta yadrosoi bor hujayra.

**Sideratsiya, Yashil o'g'itlar, ko'kat o'g'it** — tuproq unumdorligini oshirish maqsadida maxsus ekilgan o'simlik (odatda, dukkakdosh)larni ko'karib turgan joyida haydab yuborish usuli.

**Sifonli suvo'tlar, naychasimon suvo'tlar** — tanasi alohida hujayralarga bo'linmagan yashil suvo'tlar sinfi.

**Sifonoforalar** — gidrozoylarning kichik sinfi. Erkin suzib yuruvchi kovakichli organizmlar, ya'ni meduzalar va poliplarning vakillaridan iborat koloniya (to'da) bo'lib, uning yuqori qismida gaz bilan to'lgan pnevmatofor bor. U koloniyaning vertikal (tik) ushlanib turishiga imkon beradi.

**Siklik — Davriylik** — hayvonlar xatti-harakati, ba'zi fiziologik jarayonlarining yashash sharoitiga muvofiq ravishda davriy o'zgarishi.

**Siklik DNK** — halqasimon DNK molekulasi.

**Siklik gul, doirali (halqali) gul** — barcha gul qismlari doira yoki halqa shaklida joylashgan gul.

**Siklik nukleotidlar, halqali nukleotidlar** — gormonlar va boshqa hujayra tashqarisidagi regulatorlarining hujayra ichidagi kimyoviy vositachilari. Bularga siklik adenozin-monofosfat (sAMF) va siklik guanozinmonofosfat (sAMF) kiradi.

**Siklomorfoz** — bir turga mansub hayvonlarda bo'g'inning davriy mavsumiy almashinishi. Bunda har avlod tana tuzilishida o'ziga xos morfologik va funksional o'zgarishlar yuz berib, ular davriy va mavsumiy xarakterga ega.

**Silliq muskul to'qima** — muskul to'qimalaridan biri. Ko'ndalang chiziqlari yo'q. Ichki a'zolar, qontomirlar, teri muskullarini tashkil etadi. Bu muskullar qisqarishi boshqarilmaydi va shuning uchun ixtiyorsiz qisqarish deb ataladi.

**Silos** — biologik yoki kimyoviy ishlov berilgan sersuv va shirali yem-xashak.

**Siloslash, yem-xashaklarni siloslash** — chorva mollarining barcha turлari uchun vitaminlarga boy, uzoq vaqt saqlanadigan yuqori sifatli (ser-suv va shirali) ozuqa tayyorlash usullaridan biri. Silos tayyorlash mikroorganizmlarning hayot faoliyati bilan bog'liq bo'lgan biokimyoviy jarayonlarga asoslangan.

**Simbioz, hamxonalik** — ikki va undan ortiq turlarning hamxona va o'zaro manfaatdorlikda yashashi.

S

Masalan, azotobakterlar bilan dukkakli o'simliklarning hamxonaligi.

**Simpatik asab tizimi** — odam va umurtqali hayvonlar vegetativ asab tizimining bir qismi. U umurtqaning o'ng va chap tomonida joylashgan bo'g'imlari zanjiri hamda ichki a'zolarning asab bo'g'imlaridan iborat. Har bir bo'g'im hujayrasi orqa va bosh miya bilan asab tizimi tolalari yordamida bog'langan bo'ladi.

**Simplast, sinsitiy** — organizmning hujayra tuzilishiga ega bo'lмаган ko'p yadroli protoplasti. Ular hujayralarning birikishidan yoki yadroning sitotomiyasiz ko'payishidan hosil bo'ladi.

**Simpodial shoxlanish, yonshoxlanish** — shoxlanish turlaridan biri; bunda tana uchidagi kurtak o'sishi to'xtab, uning o'rniغا yonshoxlar o'saboshlaydi. Yonshoxlar ham asosiy tana yo'nalishida o'sib, undan ham yuqoriga ko'tariladi.

**Simpodiy, yonshox** — simpodial shoxlanish natijasida hosil bo'lgan yonshoxlar. Masalan, g'o'zada simpodiylar markaziy poyadagi bo'g'im oralig'i soniga qarab cheklangan (bitta bo'g'im oralig'i) va cheklanmagan (bir nechta bo'g'im oralig'i) turlarga bo'linadi.

**Simport, qo'sh ko'chirilish** — ikki muddaning bir-biriga muvofiq ravishda bir yo'nalishda ko'chirilishi. Masalan, saxaroza membrana orqali proton ( $H^+$ ) bilan birkalikda ko'chiriladi.

**Sinantrup turlar, odamga yo'l dosh turlar** — odam yashab turgan joy, uy, hovlilar bilan turli darajada bog'liq bo'lgan o'simlik va hayvon turlari (masalan, uy sichqoni). Ular bunday sharoitlarda populatsiyalar hosil qilish va uzoq yashash xususiyatiga ega.

**Sinantrup, xitoy odami** — eng qadimgi qazilma odam. Dastlab Xitoy hududidan topilgan.

**Sinaps, ulanish, tutatish** — asab hujayralarining bir-biri bilan yoki boshqa hujayralar bilan yondashish joyi.

**Sinekologiya** — ekologiyaning o'simlik, hayvon, mikroorganizmlarning har xil turlarini o'z ichiga olgan uyushma va fitotsenozlardagi hayoti hamda yashash muhiti bilan bog'liq munosabatini o'rganadigan sohasi.

**Sinergizm, hamta'sirlilik** — 1) organizm tizimlari va a'zolarining birkalikda hamda yakka holda ta'sir qilishi; 2) ikki va undan ortiq omillarning (odatda, kimyoviy) birkalikda ta'sir qilishi. Bunda ularning umumiy samaradorligi, har qaysi omilning alohida ta'siriga nisbatan ancha yuqori bo'ladi.

**Singamiya, jinsiy qo'shilish** — o'simlik, hayvon va odamda erkak hamda urg'ochi jinsiy hujayralarning qo'shib, otalanishning ro'y berishi. Jinsiy ko'payishning asosiy turi.

**Sintetazalar** — energiyaning sarf bo'lishi bilan boradigan reaksiyalarni katalizlovchi fermentlar.

**Sirenalar** — sut emizuvchilar turkumi. Panjali kurakoyqlari bor. Asosan tropik zonalarda keng tarqalgan. O'simliklar bilan ovqatlanadi.

**Sirkalar** — bit tuxumchalari.

**Sista, tinimdag'i sporalar** — ko'pchilik eng sodda organizmlarning yashash shakli. Vaqtinchal qalin qobiq bilan o'ralib, noqulay sharoitdan omon qoladi. Parazit turlar sista shakkida tashqi muhit orqali boshqa xo'jayinga o'tadi.

**Sistein** — ko'pchilik tabiiy oqsillar tarkibida uchraydigan oltingugurt

tutuvchi aminokislota. Organizmni har xil zaharli moddalardan saqlashda katta ahamiyatga ega.

**Sistematika, tartiblash** — biologiyaning barcha mavjud va qirilib bitgan organizmlarni aniqlash, nomlash, shuningdek, ma'lum bir tartibda turli darajadagi guruhlarga joylash, ya'ni tasniflash, ularni tavsiflash, ro'yxatga olish bilan shug'ullanuvchi bir bo'limi.

**Sistola** — yurak mushaklari (mio-kard)ning qisqarishi natijasida yurak bo'shilqlari (qorincha, bo'lma)ning siqilishi. Bunda yurakdagi qon hajmi kamayadi.

**Sitoekologiya, hujayra ekologiyasi** — sitologiyaning hujayralarni atrof-muhit sharoitlariga moslashuvi qonuniyatlarini o'rganuvchi bo'limi.

**Sitogenetika, hujayra genetikasi** — irsiyat va o'zgaruvchanlik qonuniyatlarini hujayra va hujayradan kichik tuzilishlar (asosan xromosomalar) darajasida o'rganadigan fan. Sitogenetika asosan xromosomalarning tuzilma va kimyoviy tuzilishlari, morfologiysi, vazifasini, shuningdek, bo'linayotgan va bo'linmaydigan hujayralardagi holatni genetika hamda sitologiya usullari yordamida tadqiq etadi.

**Sitokininlar** — hujayra bo'linishini boshqaruvchi o'simlik gormoni; adenin hosilasi. O'simlik ildizlarida hosil bo'lib, uning yer ustki qismlariga ksilema orqali ko'tariladi.

**Sitoliz, hujayraning parchalanishi** — gidrolitik fermentlar ta'sirida hujayra tuzilishining to'liq yoki qisman buzilishi, parchalanishi.

**Sitobiya** — hujayra tuzilishi, vazifasi hamda individual rivojlanishini o'rganuvchi fan. Hayvonlar histologiyasi va o'simliklar anatomiyasi kabi

fanlarning tarkibiy qismi. Sitoplazma hujayra qobig'i bilan o'ralgan bo'lib, sitozol, sitoskelet va hujara organoid-laridan tashkil topgan. Hujayra mag'izining nazoratida o'sish va ko'payish xususiyatiga ega.

**Sitoplazmatik erkak bepushtligi (SEB)** — ikki jinsli o'simliklarda urg'ochi jinsiy a'zo me'yorli rivojlan-gani holda erkak generativ a'zolarning anormalligi. Bunda urug' va mevanning hosil bo'lishi chetdan changlanishga bog'liq bo'ladi.

**Sitoplazmatik irsiyat** — hujayra yadroси bilan bog'liq bo'limgan irsiyat. Bunda ayrim irsiy belgilarning avloddan-avlodga ko'chirilishi o'simlik va hayvon hujayralarining sitoplazmasidagi ornillar (xloroplast yoki mitocondriya) orqali amalga oshiriladi.

**Sitoskelet, hujayra skeleti** — barcha eukariot hujayralarining tarkibiy qismi. Mikronaylar va faol iplar (filamentlar)dan iborat. Hujayra shakli va harakatlanish xususiyatini belgilaydi.

**Sitotomiya** — hujayra bo'linishining oxirgi fazasi. Mitoz yoki meyoz bo'linishning telofaza davrida ona hujayraning ikkita qiz hujayraga ajralib, ular orasida to'siq hosil bo'lishi.

**Sitoxrom tizimi** — sitoxromlardan va sitoxrom-oksidaza fermentidan tashkil topgan tizim. Hujayraning nafas olish jarayonida muhim ahamiyatga ega.

**Sitoxromlar** — tarkibida temir-porfirinlar tutuvchi oqsillar guruhi. Oksidlanish-qaytarilish jarayonining barcha jabhalarida ishtirot etadi.

**Sitozin** — nuklein kislotalar tarkibiga kiruvchi azot asoslar.

**Sitzozol** — sitoplazmaning shaklsiz, gelsimon qismi. Hujayraning 50

foizdan ortiq qismini tashkil qiladi. Oraliq almashinuvining ko'pchilik reaksiyalari sitozol bilan bog'liq.

**Sitrullin** — kamdan-kam uchraydigan aminokislota. Mochevinanining hosil bo'l shida asosiy o'rinni egallaydi. Soya va tarvuz urug'ida ko'p.

**Sitrus** — mevali daraxtlar va butalar turkumi. Qalin po'stli mevasi esfir moylariga boy. Bularga limon, apelsin, mandarin, greyfrut va boshqalar kiradi.

**Siyohli qopcha, siyohli bez** — boshoyoqli molluskalarning himoya a'zosi.

**Skarifikatsiya** — urug'ni ekishga tayyorlash usullaridan biri. Bunda urug'ning unib chiqishini tezlatish uchun qobig'ini sun'iy yo'l bilan yumshatiladi.

**Skelet** — odam va hayvon organizmidagi qattiq biriktiruvchi to'qimalar majmui. Ular tayanch vazifasini bajaradi, mexanik ta'sirlardan saqlaydi.

**Sklerenxima** — o'simliklarning mustahkam va tarang tolalardan iborat mexanik to'qimasi.

**Sklerifikatsiya, qattiqlanish, yog'ochlanish** — hujayra qobig'ining qalinlashishi va qattiq holga, yog'ochlikka aylanish (q. *Lignifikatsiya*).

**Sklero...** — qattiq, mustahkam, jipslikni bildiruvchi murakkab so'zlarning old qo'shimchasi.

**Sklerofitlar, qattiq po'stli o'simliklar** — barglari, poyalari qattiq, qalin kutikula bilan o'ralgan, qurg'oqchilikka chidamli o'simliklar.

**Skleroproteinlar** — hayvon organizmidagi tayanch va qoplovchi to'qimalar (suyak, soch, jun) dagi oqsillar.

**Skototaksis** — qorong'ilikka tomon harakatlanish.

**Smolalar, tabiiy smolalar, qatronlar** — o'simliklarning me'yorli, fiziologik modda almashinuvu jarayonining mahsuli. Ular ignabargli daraxtlar va ko'pgina tropik hamda suptropik zonalarda o'suvchi ko'p yillik o't, daraxtlar tarkibida bo'ladi.

**Soch ildizi** — sochning teriga botgan qismi.

**Soch, tuklar** — sut emizuvchi hayvonlar va odam teri epidermiyasining hosilasi, shox (mo'guz) simon moddali iplar.

**Solanin** — tomatdoshlarga mansub o'simliklar (ayniqsa, kartoshka)ning turli qismlarida uchraydigan glikozid.

**Solod, don shirasi** — maysa holigacha o'stirilgan donlardan ajratib olinadigan shira. Amilaza va maltaza fermentlari ko'p miqdorda bo'ladi va ular ta'sirida kraxmal glukozagacha parchalanadi. Sumalak, pivo, kvas kabilar tayyorlashda ishlataladi.

**Somatik duragaylash** — o'simlik va hayvonlarning ikki va undan ortiq somatik hujayralarining yoki somatik hujayralari protoplastlarning bitta hujayra hosil qilib qo'shilishi. Biotexnologik va gen muhandisligi tadqiqotlarida keng qo'llanilmoqda.

**Somatik hujayralar, tana hujayralari, diploid hujayralar** — organizmning urug'lanish yoki otalanishdan tashqari vazifalarini bajaruvchi hujayralar.

**Somatik, tana** — tanaga taalluqlilikni anglatadi.

**Somatogamiya** — ikki vegetativ hujayraning qo'shilishi. Ko'pincha zamburg'larda uchraydi.

**Somatotropin** — o'sish garmoni. Gipofiz bezining oldingi bo'lagi ishlab chiqaradi.

**Somitlar** — ba'zi umurtqasizlar, barcha xordalilar va odam embrioni mezodermasining juft qismlari. Tasasining birlamchi segmentlari.

**Somon, poxol** — g'alladoshlarning naychasimon, bo'g'imli va ichi g'ovak moyasi.

**Sorbit** — ko'pchilik meva va rezavor-mevalar tarkibida uchraydigan ko'p atomli spirit. Masalan, olxo'ri, olma mevasida.

**Sosиobiologiya** — tirik mavjudotlar, jumladan, odamning ijtimoiy xulqatvori biologik asoslarini tadqiq etuvchi yo'nalish.

**Sosudlar, tomirlar, naylar** — 1) odam va hayvonlardan limfa hamda qon o'tkazuvchi ichi kovak tomirlar; 2) o'simliklarda suv va unda erigan moddalarni o'tkazuvchi naylar.

**Sovuqqalichidamlilik** — organizmning muhitning past musbat harorat ( $1-10^{\circ}\text{C}$ )ida ham yashay olish hisusiyati. Bu mo'tadil iqlim o'simliklariiga xos.

**Sovuqqonli hayvonlar, poykiloterm hayvonlar** — tana harorati noturg'un, muhit haroratiga bog'liq hayvonlar.

**Sovuqqonlik** — tana haroratining tashqi muhit iqlimiga moslanib o'zgarishi (masalan, hasharotlar, baliqlar, baqlarda).

**Soxta meva** — gul tugunchasidan tashqari yana gulo'rin ishtirokida hosil bo'lgan meva. Masalan, anjir, qulupnay.

**Soxta oyoqlilar** — bo'g'ma ilonlar oilasi.

**Soyaki o'simliklar, soyaga chidamlı o'simliklar** — quyosh nuri kam tushadigan soya joylarda me'yorli o'suvchi o'simliklar.

**Sperma, urug'** — erkak individ jinsiy bezlari ishlab chiqaradigan va

tarkibida spermatozoid bo'lgan suyuqlik.

**Spermaset** — hayvon mumi, kashalotdan olinadi.

**Spermatidlar** — erkak jinsiy hujayralarning rivojlanish bosqichlaridan biri. Ikkinchisi tartibli spermatotsidlarning bo'linishi natijasida hosil bo'ladi.

**Spermatoforlar** — spermatozoidlar bilan to'lgan kapsulalar. Spermatozidlarni qurib qolishdan asraydi. Ichki yoki tashqi-ichki urug'lanadigan hayvonlarga, masalan, molluskalar, bo'g'imoyoqlilar, sudralib yuruvchilar va boshqalarga xos.

**Spermatogenez** — spermatozoidlarning yetilish va shakllanish, ya'ni paydo bo'lish jarayoni; to'rt: ko'payish, o'sish, yetilish va shakllanish davrlaridan iborat.

**Spermatogoni, pusht hujayra** — spermatogenezning birinchi bosqichidagi erkak jinsiy hujayralari.

**Spermatozoid** — yetilgan erkak hujayra; odatda, u boshcha, bo'yin, tana va dum (xivchin)dan iborat bo'lib, juda harakatchan. Xromosomalar gaploid to'plamiga ega.

**Spermiy** — 1) spermatozoidning aynan o'zi; 2) urug'li o'simliklarning erkaklik jinsiy hujayrasi.

**Spetsifiklik, fermentlarning o'ziga xosligi** — fermentlarning faqat bitta yoki bir-biriga o'xshash bir guruhdagi reaksiyalarni katalizlash xususiyati.

**SPID — OITS** (orttirilgan immun taqchilligi sindromi) — odam organizmi himoya tizimining sustlashishi bilan bog'liq virusli kasallik. Kasallik jinsiy aloqa, donor qoni yoki yaxshi tozalanmagan shpris ignalari orqali yuqishi mumkin. Kasalning oldi olinmasa, hozircha davolash qiyin.

**Spiroxetalar** — hujayralari uzun spiralsimon buralgan bakteriyalar tarbibi. Hujayra qobig'iga ega bo'lgan protoplazmatik silindr dan iborat. O'ta harakatchan, ko'pchiligi yuqumli kasalliklar tarqatadi.

**Spirulina** — ko'k-yashil suvo'tlar turkumi, oqsilga boy. Afrika (Chad), Lotin Amerikasi (Meksika) dagi ko'lma suvlarda o'sadigan xillaridan yerli xalq ozuqa sifatida foydalanadi. O'zbekistonda ipakchilik va parrandachilikda foydalanish tavsiya qilingan. **Splaysing, ulab uzaytirish** — RNK jarayoni (yetilishi) turlaridan biri. Juda katta molekulali geterogen yadroli RNKLarning kichikroq sitoplazmatik RNK molekulalarga aylanishi. **Spontan, tabiiy, ixtiyoriy** — o'z-o'zidan ichki ta'sirlar natijasida (ichki ehtiyoja ko'ra) birdaniga o'zgarib ketuvchi hodisa. Masalan, spontan mutatsiya.

**Sporalar** — 1) ona o'simlik tanasida shakllanib jinssiz ko'payish uchun xizmat qiluvchi hujayra; 2) eng sodda tuzilgan parazit organizmlarda qalin himoya qobig'i bilan o'ralgan bir yoki ko'p hujayrali tuzilma; 3) tuban o'simliklarda esa noqulay sharoitlarda saqlanib qolishni ta'minlovchi hujayra.

**Sporali o'simliklar** — sporalarini orqali ko'payuvchi o'simliklar. Masalan, yo'sinlar, qirqquloqlar, qirqbo'g'inalar.

**Sporalilar** — eng sodda hayvon turining sinfi. Bularga xos xususiyatlardan biri — hayotiy siklida tarqalishi uchun xizmat qiladigan sporalar hosil bo'ladi.

**Sporangiy, spora xaltachasi** — ichida spora hosil qiluvchi a'zo.

**Sporofit, jinssiz nasl** — avlodlarning ketma-ket almashinuvidagi jins-

siz nasl. Sporofitning o'sishi zigotadan boshlanib, spora hosil qilish bilan tugallanadi.

**Sporogenez** — sporalarning hosil bo'lish jarayoni.

**Sporotsid** — sporalarini nobud qiluvchi moddalar.

**Stafilokokklar** — yumaloq bakteriyalar turkumi. Bo'linib ko'payganda, ajralib ketmasdan, uzum shingillari ga o'xhash shakl oladi. Yakka holda ham yashayveradi. Ko'pgina kasalliklar, jumladan, angina (tomoq og'rig'i), yiringli yaralar sababchisi.

**Staminodiy** — chang hosil qilmaydigan naslsiz, ko'rinishi o'zgargan changchilar. Ko'pincha gulshira — nektar ajratuvchi bezlarga aylangan.

**Statsiya, yashash joyi, qarorgoh** — qisqa vaqt davomida foydalaniladigan (mavsumiy, kechasi yoki kunduzi) yoki biror maqsadlar uchun zarur bo'lgan (ovqatlanish, ko'payish) istiqomat joyi.

**Stearin** — qattiq yuqori molekular yog' kislotalar aralashmasi (asosan stearin va palmitin kislotalar). Hayvon yog'laridan olinadi.

**Steatoz, moyli, yog'li** — sitoplazmada moyli birikmalar (donachalar)ning ko'p miqdorda bo'lishi.

**Stela, markaziy nay** — o'tkazuvchi to'qimalarni o'z ichiga olgan poyaning markaziy nay qismi.

**Stenobiontlar** — yashashi uchun ma'lum shart-sharoitlar (namlik, bosim, harorat)ning nisbatan doimiy bo'lishini qat'iy talab qiluvchi organizmlar. Masalan, suv ayg'iri (begemot).

**Stenofaglar** — ozuqaning birgina yoki bir-biriga yaqin bir necha turi bilangina ovqatlanuvchi organizmlar. Masalan, o'txo'rlar.

# S

**Stenotroflar** — me'yorli o'sishi uchun maxsus ozuqa bo'lishini talab qiluvchi o'simliklar.

**Stereidlar, tosh hujayralar** — o'simliklarning mexanik to'qima hujayralari.

**Sterilizatsiya, tozalash** — turli moddalar, narsalar, asbob-uskunalar, oziq-ovqat mahsulotlarini tirik mikroorganizmlardan butunlay tozalash. Yuqori harorat va bosim yordamida amalga oshiriladi.

**Sterillik** — organizmda, ma'lum jismda yoki muhitda mikroorganizmlarning bo'lmasligi.

**Sterillik (o'simlikda), bepushti o'simliklar** — urug' hosil qilish xususiyati qisman yoki to'liq yo'qolgan o'simliklar.

**Steroid gormonlar** — odam va hayvonlar hayot faoliyatini nazorat qiluvchi va modda almashinuvi jarayonini boshqaruvchi bir guruh fiziologik faol moddalar. Masalan, jinsiy gormonlar.

**Steroidlar** — hayvon va o'simliklarda uchraydigan tabiiy organik birikmalar sinfi. Bularga o't (safro) kislotalar, jinsiy gormonlar kiradi.

**Stigma, dog', ko'zcha** — fototaksis xususiyatiga ega ko'pchilik bir hujayrali organizmlarning yorug'lik sezuvchi a'zosi, qizil dog'cha. Masalan, xivchinilarda.

**Stimulatorlar, o'sish stimulatorlari, o'sishni tezlashtiruvchilar** — juda kam miqdordagisi o'simliklarning o'sishini tezlashtiruvchi moddalar. Yuqori dozada esa, aksincha, o'sish jarayonini sekinlashtiradi.

**Stop kodonlar, ifodasiz kodonlar** — hech bir aminokislotani ifodalamaydigan kodonlar. Ular polipeptid zanjir sintezini to'xtatish vazifasini bajaradi.

**Stratifiksatsiya** — urug'ning unib chiqishini tezlatish maqsadida uni nam qumda va past haroratda saqlash.

**Streptokokklar** — yumaloq bakteriyalar turkumi. Kokklari juft-juft yoki zanjir hosil qilib joylanishi bilan xarakterlanadi. Ko'p turlari og'ir kasalliklar qo'zg'atuvchisi.

**Streptomitselar** — aktinomitselar oilasi. Asosan tuproqda yashaydi. Qimmatbaho antibiotiklar hosil qiladi.

**Stress, tanglik holati, zo'riqish** — tirik organizmlarning tashqi ta'sir va og'ir sharoitlarga nisbatan psixik tanglik holati.

**Struktura geni** — organizmlar belgi va xususiyatlarining rivojlanishida bevosita ishtirok etuvchi, biron-bir oqsilning aminokislotali tarkibini ifodalovchi DNK yoki RNKnning eng kichik bo'lagi.

**Sublimatsiya** — moddaning qattiq holatdan suyulmasdan turib, to'g'-ridan-to'g'ri gazsimon holatga o'tishi.

**Substrat, muhit** — 1) mikroorganizm va o'simliklar o'sadigan ozuqali muhit; 2) biokimyoda — ferment ta'sir qiladigan modda.

**Subtropik o'simliklar** — subtropik zonada o'sib, yil bo'yи rivojlanuvchi o'simliklar. Masalan, limon, apelsin, anjir, anor, xurmo va hokazo.

**Sudralib yuruvchilar** — umurtqali hayvonlar sinfi. 600 dan ortiq turni o'z ichiga oladi. Qushlar va sut emizuvchilarning kelib chiqishi sudralib yuruvchilar bilan bog'liq. Ayrim jinsi, tuxum qo'yib, tuxumdan tirik tug'ib ko'payadi.

**Sukkulentalar, semizo'tlar** — bargi va poyasi qalin, sersuv o'simliklar. Odatda, qurg'oqchil cho'l zonalarda o'sadi. Suvni juda kam bug'latadi.

**Suksessiya, izchil almashinish** — bir o'simlik guruhining boshqa tur o'simlik guruhlari bilan gallanib, almashishi. Bu jarayon tabiiy omillar ta'sirida bo'ladi. Masalan, toshda dastlab bakteriya va suvo'tlarning, keyin lishaynik hamda yo'sinlarning (shu muhitga mos hayvonot olami bilan) rivojlanishi, keyinchalik tuproq qavatining hosil bo'lishi bilan bog'liq navbatdagi gallanishlar.

**Sun'iy tanlash** — o'simlik va hayvonlarning xo'jalik jihatidan birmuncha ahamiyatli bo'lgan zotlari va navlaridan tanlab chatishtirib, yangilarini yaratish.

**Supernatant** — cho'kma ustidagi suyuqlik. Suspenziyalarning sentrifuga qilish jarayonida hosil bo'ladi.

**Suppressor gen** — gomo yoki geterozigota holatdagi allal bo'lmasgan mutant genlar ta'sirini siqib qo'yadigan gen. Oqsil molekulasinging hosil bo'lishini sekinlashtirib, to'xtatadi.

**Suspenziya** — muallaq zarrachalar. **Sustav, bo'g'im** — suyaklarning harakatchan birikishini ta'minlovchi tuzilma.

**Sut bezlari** — sut emizuvchi hayvonlar urg'ochisining a'zosi. Laktatsiya davrida o'zidan sut ishlab chiqaradi.

**Sut tishlar** — odam va sut emizuvchi hayvonlar tishlarining birinchi generatsiyasi.

**Sut yo'li** — o'simliklarning barg va poyasi asosiy parenxima to'qimalaridagi sutsimon shira to'plovchi hujayralar.

**Sutachitqi bakteriyalar** — sut achish jarayonini qo'zg'atuvchi bakteriyalar.

**Sutdumbul** — donning pishishidagi boshlang'ich davr.

**Sut emizuvchilar** — umurtqali hayvonlar sinfi.

**Sutlamadoshlar** — ikki pallali o'simliklar oilasi.

**Sutsimon shira** — mum, oqsil, shakar, kraxmal, fosfotid va boshqa moddalardan iborat murakkab tarkibili suyuqlik.

**Suv kulturalari, suvda o'stirish** — o'simliklarni eritmali muhitda ilmiy va ishlab chiqarish maqsadlarida yetishtirish.

**Suvli (shirali) ozuqalar** — tarkibi sersuv ozuqali o'simliklar.

**Suvning gullashi** — plankton suvo'tlarning yoppasiga ko'payshi tufayli suv rangining o'zgarishi.

**Suvsarlar** — asosan oqar suvlarda yashovchi hayvonlar urug'i. Qizil kitobga kiritilgan.

**Suv-tuz almashuvi** — odam va hayvon organizmida suv hamda tuz iste'mol qilish, so'rilib, taqsimlanish, chiqarish jarayonlari majmui.

**Suv-to'lar** — tuban avtotrof suv o'simliklari guruhi. Sernam joylarda va suv havzalarida o'sadi. Morfologik tuzilishi va tarkibidagi xlorofill pigmentiga qarab guruhlarga bo'lingan: ko'k-yashil, oltinrang, diatomli, sariq-yashil evglenalilar, yashil xarali, qo'ng'ir, qizil suvo'tlar va boshqalar.

**Suv o'simliklari** — suv ichida yoki suvda qalqib o'suvchi o'simliklar.

**Suyak** — umurtqali hayvonlar skeletining asosiy elementi.

**Suyakli baliqlar** — umurtqali hayvonlar sinfi. Hozirgi zamон baliqlarining eng katta guruhi.

**Suyuq o'g'itlar** — azotli yoki murakkab o'g'itlar eritmasi. Suyuq holda ishlataladi. Masalan, ammiak.

**Sug'orish** — yer holatini yaxshilash uchun unga suv berish.

**Sxizokarpiy, ajraluvchi meva** — bo'laklarga ajraladigan meva.

**So'lak** — so'lak bezlarining og'iz bo'shlig'iga ajratadigan qovushoq, shirali suyuqligi (sekreti). Tarkibi, asosan, suv (98,5—99,5%) va unda erigan tuzlar, gazlar, organik birikmalar, leykotsitlar, amilaza va malt-taza fermentlari hamda boshqa moddalardan tashkil topgan ovqatni hazm qilishda muhim ahamiyatga ega.

**So'lak bezlari** — quloq oldi, jag' osti, til osti bezlarining yig'indisi. Asosan og'iz bo'shlig'iga so'lak ajratadi.

**So'rg'ichlilar** — yassi chuval-changlar sinfining eski nomi.

**So'ta, so'g'ata** — yo'g'on etli, bitta o'qda boshoqdagi kabi bir qancha gullar joylashgan to'pgul. Masalan, makkajo'xori so'tasi.

**So'zanbaliq, barbuslar** — karpsi-mon baliqlar oilasi. Orol dengizida yashaydi.

## T

**Tabiatda moddalar aylanishi** — moddalarning bir komponentdan ikkinchisiga o'tishi bilan kechuvchi, nisbatan takrorlanuvchi o'zaro bog'liq fizik, kimyoviy va biologik jarayonlar tabiiy halqasi.

**Tabiatni muhofaza qilish** — tabiy resurslarni saqlash, qayta tiklash va ratsional foydalanish bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar kompleksining majmui.

**Tabiatshunoslik** — 1) tabiat haqidagi fanlar to'plami. Tabiatshunoslik fanining maqsadi tabiatning obyektiv qonunlarini o'rganish va ularni odam manfaati uchun foydalanishga tatbiq etish; 2) tabiatni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy sohalar kompleksi.

**Tabiiy dushmanlar** — hayvon va o'simlik populatsiyalari bilan tabiatan bog'liq bo'lib, ba'zan ularni shikastlovchi patogen mikroorganizmlar, shuningdek, parazit yoki yirtqich organizmlar.

**Tabiiy tanlanish** — organizmlar evolutsiyasini harakatlantiruvchi omil-

lardan biri; Ch.Darvin kashf etgan. Bunda yashash uchun kurash natijasida tabiiy sharoitga eng yaxshi moslasha olgan organizmlargina rivojlanadi va nasl qoldiradi.

**Taksis** — erkin harakatlanuvchi organizmlar (bakteriya, zamburug', suvo'tlar, gametalar kabilalar)ning biron-bir qo'zg'atgich manbai yoki unga nisbatan teskari tomonga harakat qilishi.

**Takson, tartib** — sistematik birlik yoki sistematik kategoriya. Obyektlarning umumiyligi, ya'ni taksonomik birligi (tur, turkum, oila), ularning xususiyatlari va belgilari, ya'ni kelib chiqishi, tuzilishi, tarkibi, shakli, vazifasi va boshqalar bilan aniqlanadi.

**Taksonomik birlik** — sistematikada organizmlarni o'rganish qulay bo'lishi uchun ularni ma'lum bir tartibda birlashtirish. Masalan, tur, turkum (urug'), oila, qabila, sinf, tip va boshqalar.

**Taksonomiya, tartiblash** — sistematikaning organizmlarni tartibga solish

## T

prinsiplari, qoidalari va usullarini ishlab chiquvchi bo'limi.

**Tallofitlar** — tanalari poya, ildiz va barglarga bo'linmagan tuban o'simliklar; masalan, zamburug'lar, suvo'tlar, lishayniklar va hokazo.

**Tallom, gavda, tana** — suvo'tlar, shilimshiqlar, zamburug'lar, lishayniklar va yo'sinlarning ildiz, tana, barglarga hamda haqiqiy to'qimalarga ega bo'lmagan gavdasi.

**Taloq, qora jigar** — umurtqali hayvonlarning qorin bo'shlig'ida joylashgan qon hosil qilish va organizmni himoya qilish vazifalarini bajaradigan a'zo. Ba'zan mexanik vazifani ham bajaradi (o'zidagi qonni qon tomirlarga siqib chiqaradi).

**Tamnobiont** — butalar va butasimon o'simliklarda hayot kechiruvchi organizmlar (hasharotlar). Masalan, lubxo'rlar, po'stloqxo'rlar.

**Tananing birlamchi bo'shlig'i** — yumaloq chuvalchanglar, ba'zi boshqa organizmlar ichagi hamda tana devori o'rtaсидagi bo'shliq.

**Tangacha, qipiқ** — baliqlar, qushlar va boshqalar terisidagi qattiq plastinkalar, himoya vazifasini bajaradi.

**Tangaqanotlilar** — q. *Kapalaklar*.

**Tanglay** — umurtqali hayvonlar og'iz bo'shlig'inining tepe qismi.

**Taninli o'simliklar, oshlovchi moddali o'simliklar** — tarkibida (po'stloq, yog'ochli qismi va ildizlari) oshlovchi modda to'planadigan o'simliklar.

**Tanlash** — evolutsion jarayonga xos uchta asosiy omillardan biri. Organizmlarning yashash uchun kurashda faqat chiniqqanlarining tanlanishi.

**Tanlash omillari** — muhitning organizm yashovchanligini nazorat qiluvchi shart-sharoitlari.

**Tannin moddalar, oshlovchi moddalar, tanninlar** — choy, eman kabi o'simliklar bargida uchraydigan polymer fenol birikmalar. Teri va mo'yanni oshlashda oqsil moddalarni denaturatsiyaga uchratadi. Bular o'simlik, hayvonlardan va sun'iy yo'l bilan olinadi. Tishni qamashtirish xususiyati ga ega; tibbiyotda dori-darmon sifatida ishlatiladi.

**Tanninlar** — dubil moddalar.

**Tanosil tizim** — odam hamda hayvonlarda jinsiy va ajratish a'zolarining majmui.

**Tapetum, ichki parda** — changdon va sporangiyning chang donachalari hosil qiladigan ichki, bir qavat hujayralardan iborat pardasi.

**Tarakanlar, suvaraksimonlar** — hasharotlar turkumi. Aholi yashaydigan joy bilan ekologik bog'liq. Mo'tadil va issiq iqlimli mamlakatlarda keng tarqalgan.

**Tashqi muhit** — fizik, kimyoviy, biologik xususiyatlar hamda ijtimoiy omillar yig'indisi bo'lib, tirik organizmga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

**Tashqi urug'lanish, tashqi otalinish** — erkak va urg'ochi jinsiy hujayralarning organizmdan tashqarida qo'shilishi; masalan, baliqlarda.

**Tasmasimon chuvalchanglar** — odam va umurtqali hayvonlar ichagidagi parazit. Tana uzunligi bir necha mm dan 30m gacha; odadta bo'g'imlarga bo'lingan. Himoya qobig'iga va xo'jayin organizmiga yopishish uchun moslamalarga ega.

**Ta'm bilish tizimi** — kimyoviy qo'zg'atgichlar (birikmalar)ni aniqlashni ta'minlovchi tizim.

**Ta'sir potensiali** — asab, mushak, ba'zi bezlar, shuningdek, o'simlik

hujayralari qo'zg'alganda sekunddan ham qisqa bo'lgan vaqt davomida membrana potensialining o'ziga xos o'zgarishi.

**Ta'sirlanuvchanlik** — tirik organizmlar, ularning hujayralari, to-qimalarining tashqi va ichki omillar ta'siriga o'zining holati hamda faoliyatini o'zgartirish bilan javob berish xususiyati.

**Tayga** — Shimoliy yarim shardagi ignabargli o'rmonlar zonasasi. Asosan qarag'ay, qora qarag'ay, pixta kabi daraxtlardan iborat bo'lib, o'ziga xos hayvonot olami va tuproqlarga ega.

**Tayoqchalar** — ko'z to'rpardasidagi fotoretseptor hujayralar. Yorug'lik se-zuvchi oqsil majmualari va ko'rish pigmentlaridan iborat.

**Teleologiya** — tabiatda azalii maqsadga muvofiqlik mavjudligi haqidagi ta'limot.

**Telergonlar** — hayvonlar ajratadigan moddalar; ular mazkur turga mansub (feromonlar) yoki boshqa tur organizmlariga ta'sir qiladi (kayronlar, allomonlar).

**Teloblastlar** — birlamchi og'izli hayvonlar embrionining ichki (endoderma) va tashqi (ekdoderma) qatlamlari o'ttasida joylashib, mezoderma qatlamiga asos soluvchi hujayralar.

**Telofaza, so'nggi faza** — hujayra mitoz bo'linishining to'rtinchi oxirgi bosqichi; bu davrda xromosomalar atrofida yadro qobig'i shakllanadi va yangi hosil bo'lgan hujayralar to'liq ajraladi.

**Telom nazariyasi** — yuksak o'simliklar, jumladan, urug'li o'simliklar barcha a'zolarining mustaqil ravishda telomdan rivojlanishini va ularning kelib chiqishi umumiyligini tushuntiruvchi nazariya.

**Telom, murakkab tallom** — dastlabki yuksak o'simliklar tanasining uchki qismi.

**Telomerlar** — xromosomalarning oxirgi uchlari; DNK replikatsiyasida ishtirok etadi, xromosomalar uchini yopishib qolishdan saqlaydi va aniq qutblanish xususiyatiga ega.

**Temir bakteriyalari** — temir oksidlarini hujayra ustki qismida to'plovchi mikroorganizmlar.

**Temir daraxt** — yog'ochi juda qat-tiq va vazni og'ir daraxt. Tropik o'rmonlarda o'sadi.

**Teng qanoltilar** — hasharotlar turkumi. Bularning ko'pchiligi qishloq xo'jalik ekinlarining zararkunandalari (masalan, koksidlar, o'simlik bitlari).

**Ter bezlari** — sut emizuvchilar terisining ichki qatlamlariga botib kirgan tomoni berk (yopiq) uzun naychalar. Organizmda ishlangan moddalarni ajratib chiqarish va tana haroratini boshqarish vazifalarini bajaradi.

**Ter chiqarish** — sut emizuvchilar organizmda terning hosil bo'lishi va teri yuzasidan ajralib chiqish jarayoni.

**Terapsidlar** — sut emizuvchilarining kelib chiqishiga asos bo'lgan sudrab yuruvchilarining o'lib bitgan ajdodlari.

**Terat...** — mayiblik, majruhlik kabi anormal holatlarni anglatuvchi murakkab so'zlarning tarkibiy qismi.

**Teratologiya** — o'simlik, hayvon va odamlardagi irlsiy, shuningdek, tug'ma kasalliklar hamda tug'ma nuqsonlarining kelib chiqish mexanizmlari va sabablarini aniqlash, ularning oldini olish choralarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan fan.

T

**Teratoma** — differensiatsiya bo‘lmagan hujayralar bilan juda ko‘p ixtisoslashgan har xil hujayralarning aralashib, hosil qilgan me'yordan chetlashgan massasi. O’sma, shish hujayralarga aloqador.

**Teri** — umurtqali hayvonlar tansini tashqi muhitdan ajratib turadigan qoplam. Qator vazifalar: himoya, ajratish, nafas, tana haroratini boshqarish va boshqalarни bajaradi. Teri rangi hujayra pigmentlariga bog‘liq.

**Teri bezlari** — hayvonlar va odam terisidagi tuzilishi hamda bajaradigan vazifasi turli-tuman bezlar. Masalan, moy, ter bezlari va boshqalar.

**Teriologiya, mammaliogiya** — zoologiyaning sut emizuvchi hayvonlarni o‘rganadigan bo‘limi.

**Terminal** — oxirgi organ yoki qism ekanlikni bildiradi. Masalan, asab uchlarining terminal (oxirgi) tarmoqlanishi.

**Terminatsiya, chegaralash, tamomlash** — ma’lum terminator — kodonlar yordamida polipeptid zanjir sintezining tamomlanishi.

**Terminator, chegaralovchi** — sintezlanib bo‘lgan polipeptid zanjirning ribosomadan ajralishini chegaralovchi, belgilovchi triplet.

**Termittlar, oq chumolilar, qir chumolilar** — «jamoatchi» hasharotlar turkumi. Asosan tropik va subtropik mamlakatlarda tarqalgan. Yer ustida (balandligi bir necha metrgacha) va tagida (chuqurligi 12 metrgacha) uya quradi. Inshootlarning yog‘ochi, o‘simliklarni kemirib zarar keltiradi.

**Termofillar, issiqsevarlar** — yuqori haroratli (taxminan 70°C) muhitda yashashga moslashgan organizmlar. Bular ko‘pgina mikroorganizmlar va

hokazolar bo‘lib, ularning tabiiy qarogohlari asosan issiq suv manbalaridir.

**Termoregulatsiya, haroratni boshqarish** — tashqi muhit iqlimi o‘zgarib turgan sharoitda ham issiq qonli hayvonlar tana optimal harorating fiziologik hamda biokimyoiy jarayonlar yordamida ma’lum darajada turg‘un ushlab turilishi.

**Termoretseptorlar** — organizmning tashqi yoki ichki muhit harorati o‘zgarishini sezuvchi maxsus asab to‘qimalari.

**Termotaksis, issiqqa yo‘nalish** — organizmning issiqlik ta’sirida ma’lum yo‘nalish bo‘yicha harakati. Musbat termotaksisda harakat birmuncha issiq, manfiyda esa birmuncha sovuq tomonga bo‘ladi.

**Terofitlar** — bir yillik o‘simliklar.

**Terpenlar** — o‘simlik efir moylarining tarkibiy qismi. Alifatik va siklik qatorga mansub uglevodorodlar. Parfumeriyada, insektitsidlar olishda keng qo’llaniladi.

**Territoriallik, hududga egalik** — individlarning ma’lum maydonga ega bo‘lgan joyda erkin harakat qilishga intilib, bu joydan boshqa individlarni quvib chiarishi bilan bog‘liq tug‘ma xususiyati.

**Teskari transkriptaza** — RNK dan DNK ni sintezlanish reaksiyasini katalizlovchi ferment.

**Testosteron** — umurtqalilarning asosan erkak jinsiy a’zolari, shuningdek, buyrak usti bezlari, tuxumdonlar, platsenta, jigar ishlab chiqaradigan gormon.

**Tetanus, tomir tortish** — mushak (muskul)ning uzoq vaqt qisqarib turiishi va maksimal darajada kuchlanishi. Bunda mushaklar bo‘shashga ulgurmay, qisqargan holicha turaveradi.

**Tetrada**, *to'rt hujayra* — reduksion bo'linish (meyoz) natijasida bitta ona diploid hujayradan to'rtta qiz hujayraning hosil bo'lishi.

**Tetraploid** — gaploid xromosomaga nisbatan to'r marta ortiq xromosomaga ega bo'lgan xujayra yoki organizm.

**Texnika ekinlari** — sanoatning turli tarmoqlari uchun xom ashvo vazifasini ado etadigan o'simliklar. Masalan, g'o'za, kanop va boshqalar.

**Texnologiya gibrodomali, duragay hujayra texnologiyasi, gibridoma texnologiyasi** — o'sma (shish) hosil qiluvchi hujayralar bilan zidditana yoki qimmatli moddalar ishlab chiqaruvchi me'yorli hujayrani qo'shish yo'li bilan duragay hujayralar (gibridomalar) olish va olingen gibrodomali hujayra tizim (nasl)larini klonlash yoki ko'paytirish.

**Tiamin** — **B<sub>1</sub> vitamini** — o'simliklar va ayrim mikroorganizmlarda sintezlanadigan, suvda eriydigan birikma. Sholi va bug'doy kepagida, kartoshkada ko'p bo'ladi.

**Tigmonastiya** — o'simlik a'zolarining mexanik ta'sir (tegish, ishqalanish)ga javoban harakatga kelishi.

**Tikan** — o'simliklardagi uchi qatting, odatda yog'ochga aylangan ko'rinishi o'zgargan barg yoki novda. Himoya vazifasini bajaradi.

**Tikanaklar** — 1)o'simliklarda shakli o'zgargan poya yoki barg; 2)hayvonlar teri (qoplovchi) qatlamidagi himoya o'simtlari.

**Tilakoid** — xloroplastning tuzilish elementi. Fotosintetik apparatning mujassamlashgan disklar to'plamidan iborat kompleksi.

**Tillaqo'ng'izlar** — o'simliklar bilan oziqlanuvchi qo'ng'izlar.

**Timin** — DNK ning muhim azot asoslaridan biri.

**Timopoetinlar** — T-limfotsitlarning differensiatsiyalanishini tezlashtiruvchi oqsil tabiatli gormonlar, timusda hosil bo'ladi.

**Timus, bo'qoq bezi, ayrisimon bez** — umurtqali hayvonlar himoya tizimining markaziy a'zosi. Odamning ko'krak bo'shlig'ida joylashgan.

**Tinim potensiali** — fiziologik tinim holatida hujayra tarkibi bilan tashqarisidagi muhit oralig'idagi potensiallar farqi.

**Tiobakterin** — q. *Oltингugurt bakteriyalari*.

**Tip** — hayvonlar va o'simliklar sistematikasidagi eng yuqori sistematik kategoriya bo'lib, qarindosh sinflarni qamraydi.

**Tip birligi** — hayot kechirish tarzidan qat'i nazar umumiy tuzilishi bir-biriga o'xhash bo'lgan bir sinfga mansub organizmlar a'zo yoki qismalarining o'xhashligi.

**Tireoglobulin** — glikoproteinlarga mansub qalqonsimon bezlarda hosil bo'ladigan murakkab oqsil.

**Tireoid gormonlar, qalqonsimon bez gormonlari** — odam va hayvonlar qalqonsimon bezi ishlab chiqaradigan gormonlar. Organizmning ko'pgina vazifalariga ta'sir qiladi.

**Tirik modda birligi** — biosferada hayot kompleksini hosil qiluvchi tirik organizmning moddiy bog'liqligi va shubhasiz irlsiy o'zaro aloqadorligi, biokimiyoviy o'xhashlik.

**Tirik qazilma organizmlar** — geologik qatlamlarda o'zining morfologik ko'rinishini saqlab qolgan va

**T**

ba'zan o'lib bitgan deb hisoblangan qadimiy organizmlar. Masalan, latimeriya.

**Tiroksin, tetraiodtironin** — umurtqali hayvonlar qalqonsimon bezi ajratadigan yod tutuvchi gormon. Tiroksin yetishmasligi yoki ortiqchaligi og'ir kasalliklarni vujudga keltiradi.

**Tirozin** — oqsillar tarkibida uchraydigan halqali aminokislota. Dofamin, adrenalin, melaninlar kabi birikmalarining biosintezida ishtirok etadi.

**Tish ildizi** — tishning jag'dagi chuqurchaga botib kirgan qismi.

**T-limfotsitlar** — timusda rivojlanuvchi limfositlar bo'lib, keyinchalik qon bilan limfatik tugunchalar hamda ovqat hazm qilish yo'lining boshqa qismlariga o'tadi-da, T-limfotsitlarga aylanadi. Hujayra immunitetining shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

**Tokoferol** — E vitamini — o'simliklarda sintezlanadigan va yog'da eriydigan vitamin. Organizm jinsiy jarayonlarida muhim ahamiyatga ega.

**Toksikant** — zaharli modda.

**Toksikologiya** — zaharli moddalarning xossalari, organizmgaga ta'siri hamda ularga qarshi tadbirlar haqidagi fan.

**Toksinlar, tabiiy zaharlar** — ayrim mikroorganizmlar, o'simliklar va hayvonlarda hosil bo'ladigan oqsil tabiatli va oqsil tabiatiga ega bo'lmagan moddalar. Masalan, arilar, ilonlar, chayonlar, o'rgimchaklar zahari.

**Tola bezlar** — hasharotlarning tola, ipak ishlab chiqaruvchi bezlari. Bu bezlar ayniqsa ipak qurtlarida yaxshi rivojlangan.

**Tolali o'simliklar** — tola olish maqsadida ekiladigan o'simliklar. Tola o'simlik tanasi, mevasi yoki barglari-

da hosil bo'ladi. Masalan, kanop, g'o'za, yukka o'simligi.

**Tolborg** — onagradoshlarga mansub ko'p yillik o'tsimon o'simlik. O'rta Osiyo tog'larining zax yerlarida o'sadi.

**Toldoshlar** — ikki pallali o'simliklar oilasi. Bularga tol va terak turkumi kiradi.

**Tolerantlik** — chidamlilik, barqarorlik, bag'rikenglik (q. *Immun chidamlilik*)

**Tomirlar** — 1) odam va hayvonlarda limfa hamda qon o'tkazuvchi ichi kavak tomirlar. 2) o'simliklarda suv va unda erigan moddalarni o'tkazuvchi naylar.

**Tonoplast** — o'simlik hujayrasi vakuolasining parda (membrana)si. Moddalarni faol ko'chirish va tanlab o'tkazish xususiyatiga ega.

**Tonus, taranglik** — organizmnning faoliyat darajasi. Asab markazlarining doimo qo'zg'algan va shunga ko'ra muskullarni beixtiyor tarang turishi bilan bog'liq organizmnning me'yori holati.

**Toq tuyuqlilar** — o'txo'r sut emizuvchi hayvonlar turkumi.

**Tog'ay** — kemirchak.

**Tog'ayli baliqlar** — umurtqalilar sinfi. Skeleti tog'aydan iborat. Asosan dengizlarda yashaydi. Ichki osmotik bosim qonda erigan mochevina hisobiga bir xilda ushlab turiladi. Agar chuchuk suvlarga ko'chirilsa halok bo'ladi.

**Toza tizim** — bir gomozigotali doimo o'zidan changlanuvchi o'simlik urug'i, nasli, avlodи. Toza urug'larni ko'paytirish natijasida olingen navlar morfologik, xo'jalik va biologik belgilari bo'yicha yuqori darajada baravarlashgan, barqarorlashgan bo'ladi. Biroq uzoq vaqt davomida bir navni qayta-

qayta ekish uning aynib ketishiga sabab bo'ladi. Toza urug'larda tanlash ishlari samara bermaydi. (q. *Liniya*)

**Toshbaqalar** — sudralib yuruvchilar turkumi. Ularning tanasi suyak-shoxsimon moddali yoki suyak-terili kosa bilan o'ralgan. Go'shti, yog'i, tuxumlardan oziq-ovqat sifatida foydaliladi.

**Toshqayrarlar** — ikkitabaqali mollyuskalar. Qattiq jinslarni o'yib kirib, o'zlariga yo'l ochish xususiyatiga ega. **Toshsevarlar, tosh o'simliklari** — tosh va qoyalarda yoki ularning yoriqlarida o'sadigan o'simliklar.

**Trans...** — yo'nalish, harakat ma'nosini anglatuvchi qo'shimcha.

**Transduksiya, ko'chirish, joyni o'zgartirish** — genetik informatsiya (DNK molekulasining bir qismi)ni bir bakteriyadan (donor) ikkinchisi (retsipiyyent)ga viruslar (bakteriofaglar) yordamida ko'chirish hodisasi. Bu jarayonda retsipiyyent hisoblangan bakterial hujayra genotipida o'zgarish sodir bo'ladi.

**Transferazalar** — bir birikmadan ikkinchisiga har xil kimyoviy guruuhlar yoki radikallarning ko'chirilish reaksiyalarini katalizlovchi fermentlar sinfi.

**Transformatsiya** — belgililar va xususiyatlarni ekzogen (begona) DNK preparatlari yordamida hujayraga kiritish jarayoni. Bunda transformatsiyaga uchragan hujayrada yangi belgililar paydo bo'ladi.

**Transgenerezis** — irsiy belgilarning qayta namoyon bo'lishi. O'simliklarda irsiy informatsiyaning bir hujayradan boshqasiga ko'chirilib, keyinchalik fenotipda namoyon bo'lishi.

**Transkripsiya, ko'chirib yozish** — irsiy informatsiyani DNK molekulasi dan informatsion-RNK molekulasiiga ko'chirish. Bunda DNK molekulasi dagi nukleotidlar ketma-ketligi RNK

molekulasidagi nukleotidlar ketma-ketligiga mos keladi. Irsiy informatsiya ko'chirilishining dastlabki bosqichi hisoblanadi.

**Translokatsiya** — mutatsiya davrida yoki krossingoverda gomologik va gomologik bo'limgan xromosomalar qismlarining o'rin almashib qolishi.

**Translatsiya** — irsiy informatsiyani i-RNKning nukleotidli tuzilishidan oqsillarning aminokislotali tizimiga ko'chirib yozish jarayoni. Bu jarayonda t-RNK va ribosomalar ishtirok etadi.

**Transpiratsiya intensivligi, suv bug'latish jadalligi** — belgilangan vaqt birligida ma'lum og'irlikka ega bo'lgan barg yuzasidan yoki yuza birligidan bug'langan suv miqdori.

**Transpiratsiya, bug'lanish** — o'simlik barglaridagi labchalar orqali suv bug'latish jarayoni.

**Transplantatsiya, ko'chirib o'tkazish** — o'simliklar, hayvonlar va odamlarda biror to'qima yoki a'zoni ko'chirib o'tkazish.

**Transport (faol), faol transport, faol ko'chirilish** — ATP yoki membrana potensiali energiyasi yordamida biologik membranalar orqali kon-sentratsiya gradiyentiga qarshi ion (molekula)larning ko'chirilishi.

**Transport RNK (t-RNK), tashuvchi RNK** — faol holdagi aminokislotalarni o'ziga biriktirib, oqsil sintez qilinadigan joyga — ribosomaga ko'chirilishini hamda polipeptid zanjirdagi o'rning aniplanishini ta'minlovchi ribonuklein kislotalar tipi.

**Transpozonlar, sakrovchi irsiy elementlar** — genomdagi o'z o'rnnini almashtrish xususiyatiga ega bo'lgan DNK fragmenti (q. *Harakatchan generlar*).

**Traxeidlar, uchli naylar** — o'simliklarning yog'ochlangan o'lik hu-

jayralari. Suv va unda erigan mod-dalarni o'tkazish uchun xizmat qiladi.

**Traxeyalar** — 1)bir qator bo'g'im-oyoqlilarning nafas olish a'zolari; 2) o'simliklarda o'tkazuvchi naylar — tomirlar tarkibiy qismi; 3) ko'pchilik umurtqali hayvonlar va odamda na-fas yo'lining hiqildaq bilan bronxlar orasidagi qismi — kekirdak.

**Treonin** — deyarli barcha oqsillar tarkibida uchraydigan zaruriy aminokislota.

**Trilobitlar** — dengiz bo'g'im oyoqli hayvonlarining qirilib bitgan ajodolari.

**Triplet** — irsiy informatsiyaning elementar ma'nosini ifodalovchi birligi. Ma'lum tratibda joylashgan uchta nukleotiddan iborat.

**Tripsin** — oshqozon osti bezida dast-lab faol bo'limgan tripsinogen holida sintezlanadigan va oqsillarni gidroliz qiladigan ferment.

**Trixotsista, ipli hujayra** — sodda hayvonlar hujayrasidagi sitoplazmatik organoidlar. Ta'sirlanganda «otilish» xususiyatiga ega. Odatda, himoya vazifasini bajaradi.

**Trofik daraja, oziqlanish darjasи** — organizmlarni ovqatlanish xiliga qarab ajratish. Masalan, avtotrof.

**Troglomiontlar, g'orda yashovchilar** — faqat g'or va u bilan bog'liq muhitdagina hayot kechiradigan organizmlar.

**Trombotsit** — umurtqali hayvonlar va odam qoni shaklli elementlaridan biri. Qon ivish jarayonida ishtirok etadi.

**Tropik o'rmon** — yerning ekvatorial, subekvatorial va tropik zonalalarda tarqalgan o'rmon.

**Tropizm, burilish, yo'nalish** — muhit omil (yo'zg'atgich)laridan biri (yorug'lik, yerning tortish kuchi, kimyoviy moddalar kabilar)ning ta'sirida o'simlik, hayvon a'zolarining

yoki ayrim hujayraning harakati. Ha-rakat yoki o'sishning yo'nalishi qo'zg'atgich yo'nalishi bilan aniqlanadi. Bular foto-, geo-, gidro-, termo-, xemotropizmlarga bo'linadi.

**Tuban o'simliklar** — eng sodda tuzilgan o'simliklar guruhi. Bular il-diz, barg yoki poyaga bo'linmagan. Yangi nomenklatura bo'yicha tuban o'simliklar guruhiga kiruvchi orga-nizmlar prokariotlarga (bakteriyalar, ko'k-yashil suvo'tlari), eukariotlarga (zamburug'lar) va o'simliklar dunyosiga (haqiqiy suvo'tlari) kiri-tilgan.

**Tuganak** — o'simlikning ko'rinishi o'zgargan yer osti moyasi. Bular da asosan polisaxaridlar (kraxmal, inulin) va qisman yog'lar (yeryong'oq) to'planadi. Vegetativ ko'payish uchun xizmat qiladi.

**Tuganak bakteriyalari** — dukkakli o'simliklar bilan simbioz (hamkorlikda) yashaydigan bakteriyalar. Ular havodagi erkin azotni ildiz tuganaklarida o'simliklar o'zlashtira oladigan birikma-larga aylantirish xususiyatiga ega.

**Tuganakpiyz** — ko'rinishi o'zgar-gan, shakli piyoza o'xshash yer osti moyasi. Ularda tangachasimon po'st va seret poya bo'ladi. Aslida tuganak hisoblanadi. Masalan, shafran, ilongul piyozları.

**Tuguncha** — o'simlik gulidagi urug'ching pastki kengaygan qismi.

**Tullash, po'st tashlash** — hayvon-lar va hasharotlarning vaqt-i-vaqt'i bi-lan tana tashqi qoplagichini, po'stini tashlab, yangisini hosil qilish ja-rayoni.

**Tumshuq** — qushlar jag' qismini o'rab olgan zinch shoxsimon g'ilof.

**Tumshuqcha** — guldag'i tuguncha ustunchasining chang tutadigan qismi.

**Tundra** — Yerning Arktika zonasidagi mayda o'simliklar bilan qoplangan yalanglik yerlar.

**Tuplanish bo'g'imi** — g'allasimon o'simliklar poyasining tubidagi bo'g'implarda bir qancha yonshoxlarning paydo bo'lib, baravariga rivojlanishi.

**Tuproq** — iqlimiylar va biologik omillarning o'zaro ta'siri tufayli hosil bo'lib, o'simlikning o'sishi, rivojlanshi uchun kerakli suv hamda ozuqa moddalar bilan ta'minlanish xususiyatiga ega bo'lgan geologik jins (yer)ning ustki unumtdor qatlami.

**Tuproq degradatsiyasi, tuproqning yemirilishi, buzilishi** — tuproq xususiyatlarini yomonlashtiruvchi va uning unumtdorligini pasaytiruvchi jarayon.

**Tuproq tuzilishi** — ma'lum shakl va o'lchamga ega tuproq zarrachalari. Uvalanadigan changsimon tuproq tuzilishi, ya'ni kuchsiz, unumi yo'q tuproq deb ataladi.

**Tuproqning sho'rланishi** — tuproqda oson eriydigan tuzlar miqdorining ko'payishi.

**Tuproqxo'r** — tuproqni yutib, undagi mayda tirik organizmlar, chala parchalangan organik birikmalar hisobiga ovqatlanuvchi suv hayvonlari.

**Tuproqshunoslik** — tuproqning paydo bo'lishi, rivojlanishi, geografik tarqalishi va unumtdorligini har tomonlama o'rganuvchi fan. Tuproqshunoslik ayniqsa qishloq va o'rmon xo'jaligida muhim ahamiyatga ega.

**Tur** — tashqi va ichki tuzilishi, genetik va fiziologik xususiyatlari o'xshash bo'lgan, tabiiy sharoitda o'zaro chatishib serpusht nasl beruvchi, ma'lum arealga ega tirik orga-

nizmlar majmui; sistematikada asosiy taksonomik birlik.

**Tur hosil bo'lishi** — populatsiyaning adaptiv (moslashuv) o'zgarishlari asosida yangi turlarning hosil bo'lishi jarayoni. Uning yetakchi omili tabiiy tanlanishdir.

**Turgor, tarang holat** — hujayra si-toplazmasining bosimi ortishi bilan po'stining taranglashishi.

**Tuxum sarig'i, deytoplazma** — tuxumda to'plangan jamg'arma ozuqa moddalar.

**Tuyalar** — juft tuyoqli hayvonlar turkumi. Hozirgi kunda ikki turi mavjud: bir o'rkachli (dromedalar) va ikki o'rkachli.

**Tuyoqlilar** — sut emizuvchi hayvonlarning katta turkumi: juft va toq tuyoqlilari bo'ladi.

**Tuzga chidamlilik** — o'simliklarning tuproq va ozuqa sho'riga (karbonatli, sulfatli, xloridli tuzlarning yuqori konentratsiyasiga) chidamliligi.

**Tuzoq yem, qopqon xo'rak, zaharli xo'rak** — kemiruvchi hayvonlar yoki hasharotlarga qarshi kurashishda foydalaniladigan zaharli ozuqa. Buning uchun don, yorma, pichan va boshqalarga pestitsid aralashtirib qo'yiladi.

**Tuzsevarlar, galofillar** — sho'rxok muhitni yoqtiruvchi organizmlar.

**Tug'ilish** — ko'payish hisobiga organizmlar populatsiyasidagi individlar miqdorining ortishi.

**To'pgul, gulto'da** — poyada yoki shoxchada to'p bo'lib o'rashgan gullar. Odatda, ular orasida barg bo'lmaydi.

**To'pmeva** — murakkab meva; bir to'p guldan hosil bo'lib, zich joylashgan. Masalan, ananas, uzum, anjir.

**T**

**To'q qizil bakteriyalar** — tarkibida gunafsha va qizil pigmentlari ko'p bakteriyalar.

**To'qaylar** — O'rta Osiyo vohalari-dagi daryo va soylar qirg'og'idagi ser-nam sharoitda o'suvchi ko'p yillik o'tlar hamda daraxtlar majmui.

**To'qima** — kelib chiqishi, tuzilishi va vazifasi o'xhash bo'lgan hujayralar yig'indisi.

**To'qima suyuqligi** — hujayralararo bo'shliqda uchraydigan tana suyuqlilaridan biri; organizmning ichki muhiti.

**To'r parda** — ko'z soqqasining bir-muncha qalin ichki pardasi. Yorug'-likni sezuvchi va ranglarni ajratuvchi hujayralar ham shu pardada joylash-gan.

**To'r qanotlilar** — hasharotlar tur-kumi. Lichinkalari (qurtlari) har xil bog' va o'rmon zararkunanda hasharotlari bilan oziqlanib, katta foyda kel-tiradi.

**To'r qorin** — kavsh qaytaruvchi hayvonlar oshqozonining ikkinchi bo'limi: chandiq va qatqorin orasida joylashgan. Bu yerda mexanik ishlov hamda dastlabki kimyoviy parchalanish jarayonlari amalga oshadi.

**To'rsimon hujayralar** — floemaning asosiy o'tkazuvchi elementlari.

**To'rtlamchi struktura** — oqsil molekulasini tashkil qiluvchi polipeptid zanjirlarning o'zaro fazoviy joy-lanishi. Bu faqat ikki va undan ortiq polipeptid zanjirlardan tashkil topgan oqsillarga xos.

**To'xtash, sekinlashish** — faol asab jarayonlari ta'sirida qo'zg'alishning pasayishi yoki yo'qolishi.

**To'g'ri ichak, ko'tanichak** — yo'g'on ichakning oxirgi bo'limi.

**To'g'ri qanotlilar** — hasharotlar tur-kumi. Bularda orqa qanotlar birmun-chaga rivojlangan, sakrovchi orqa oyoqlar-ga ega. Masalan, chigirkasimonlar.

## U

**Uabain** — tibbiyotda keng qo'llani-ladigan yurak qisqarishini tezlashtiruvchi (stimulator) modda.

**Ubikvist, vatansiz** — ekologik am-plitudasi keng bo'lgan, ya'ni ko'p joy-larda yashay oladigan hayvon va o'simliklar.

**Ubixinonlar** — vitaminlik xususi-yatiga ega bo'lgan modda. O'simliklar, hayvonlar va mikroorganizm hujayralarida uchraydi.

**Uglevodlar, karbon suvlar, glisid-lar** — tabiatda keng tarqalgan muhim organik birikmalar. O'simliklarning asosiy qismi karbon suvlardan tashkil topgan.

**Ultrabinafsha nurlar** — ko'zga ko'rinnmaydigan, to'lqin uzunligi 400 nonamirkondan kichik bo'lgan elektromagnit tabiatli nurlar.

**Ultramikroskopik obyektlar** — oddiy yorug'lik mikroskoplari yorda-mida ko'rib bo'lmaydigan juda kichik obyektlar.

**Ultratsentrifugalash** — asbobning asosi — rotorni haddan tashqari tez aylantirish hisobiga Yerning tortish kuchidan yuz ming, million marta yuqori bo'lgan markazdan qochish kuchini hosil qilish usuli. Biologiya-da makromolekulalarni o'rganishda ishlatalidi.

**Umurtqalilar** — xordalilar turiga mansub hayvonlarning kichik turi. Umurtqa pog'onasi va bosh suyakka ega eng yuksak tuzilgan hayvonlar ning turli-tuman guruhlari kiradi. O'z ichiga 6 ta sinfn oladi. Bular to'garakog'izlilar, baliqlar, suvda va quruqda yashovchilar (amfibiyalar), sudralib yuruvchilar (reptiliyalar), qushlar sut emizuvchilardir. Birinchi 3 ta sinf anamniya guruhini tashkil qilib, ularning rivojlanishi pusht qobig'isiz amalgal oshadi. Keyingi 3 tasi amniota guruhiga mansub. Ular rivojlanishida pusht qobig'i ishtirot etadi.

**Umurtqasizlar** — umurtqa pog'onsasi yo'q hayvonlar. Bularga eng sodda hayvonlar, bulutlar, kovakichlilar, molluskalar, bo'g'imoyoqlilar, ignatanlilar va boshqalar kiradi.

**Unabidoshlar** — ikki pallali o'simliklar oilasi.

**Uniport, yakka ko'chirish** — maxsus ko'chiruvchi modda yordamida bitta modda yo birikmani biologik membrana orqali o'tkazish (transport qilish).

**Unumidorlik** — tuproqning o'simlikni suv va oziq moddalarga bo'lgan ehtiyojini uzluksiz qondirib turish xususiyati.

**Urasil** — pirimidin asoslari; RNK va erkin nukleotidlardan tarkibiga kiradi.

**Ureaza** — gidrolaza sinfiga mansub ferment. Karbamidni karbonat angidrid va ammiakkacha parchalanish reaksiyasini katalizlaydi. Tarvuz va soya urug'larda ko'p.

**Uredospora** — zang zamburug'i sporasi — zang zamburug'larining yozgi sporalar. Odatda, ustunchaga ega bir hujayrali.

**Uremiya** — qonda ortiqcha miqdorda karbamidning to'planishi. Odatda,

bunday holat buyrak faoliyatining buzilishi bilan bog'liq.

**Ureogenez** — organizmda karbamidning hosil bo'lishi.

**Urikoteliya** — azot va oqsil almashinuvli turi. Jarayonning oxirgi mahsuloti — urat kislota.

**Urobakteriyalar** — karbamidni ammiak va karbonat angidridgacha parchalaydigan bakteriyalar. Ammonifikasiya jarayonining faol ishtirokchisi.

**Uroteliya** — oqsil va azot almashinuvli turi. Jarayonning oxirgi mahsuli — karbamid.

**Uvildiriq, ikra** — baliqlar amfibiyalar va boshqa dengiz hayvonlarining tuxumi.

**Uvildiriq sochish** — ko'payish jarayonida baliq va to'garakog'izlilar urg'ochilarining uvildiriq tashlashi va uni erkaklarining urug'lantirishi.

**Uyqu** — issiqqonli hayvonlardagi qattiq qish yoki uzoq davom etgan qurg'oqchilik mavsumlarini shikastlanmasdan o'tkazishga imkon beradigan karaxtlik yoki uyqu davri.

**Uyqu arteriya qon tomirlari** — umurtqali hayvonlar bo'yin va bosh qismini qon bilan ta'minlovchi tomirlar.

**Uyushma, to'da** — tirik mavjudot vakillarining ma'lum tabiiy hududda birgalikda yashashi (fitotsenoz, zootsenoz).

**Urug'** — urug'li o'simliklarning jinsiyligi ko'payish va tarqalish vazifasini bajaruvchi a'zosi.

**Urug'don** — spermatozoidlarni va jinsiyligi gormonlar hosil qiluvchi erkak jinsiyligi bezlar.

**Urug'ko'chat** — asosan daraxt va butalarning urug'idan ekib yetistiriladigan ko'chat.

U

**Urug'lanish, otalanish** — ikki jinsi hujayraning qo'shilishi.

**Urug'larning yetilganligi** — urug'larning unish xususiyati eng yaxshi bo'lgan holati.

**Urug'larning tinim davri** — yangi terilgan urug'ning unish xususiyatiga ega bo'lмаган holati.

**Urug'larning unishi** — urug'ning tinim davrdan faol holatga o'tishi.

**Urug'ning unuvchanligi** — urug'ning belgilangan muddatda unish darajasi. Odatta, ungan urug' soni 100 ta ekilgan urug'ga nisbatan olinib, foiz hisobida aniqlanadi.

**Urug'palla** — ikki pallali o'simliklar urug'idagi murtakning bиринчи bargi.

**Urug'siz mevalar** — urug'lanishsiz rivojlangan meva (q. *Partenokarpiya*).

**Urug'chibarg** — yopiq urug'li o'simliklarda tuguncha hosil qiluvchi urug'chi bargi.

**Uzun qanotlilar** — o'tkir uzun qanotga ega qushlar turkumi. Masa-лан, kolibrilar.

**Uchlamchi davr** — kaynazoyning paleogen va neogen davrlarini qo'shib nomlash.

**Uchma meva** — shamol yordamida tarqalishga moslashgan tukli meva (urug')lar. Masalan, murakkabguldoshlar urug'i.

**Uchuvchi qushlar, ko'krak tojli qushlar** — to'sh qismida ko'krak tojlari bo'lib, kuchli rivojlangan mushaklarni qo'shimcha ravishda mustah-kamlab turadi.

## V

**Vaksinalar** — kuchsizlantirilgan yoki o'ldirilgan mikrob hujayralari, shuningdek, mikroorganizmlar hayot faoliyati mahsulotidan tayyorlanadigan preparatlar. Yuqumli kasalliklarga qarshi qo'llanib, organizmning chidamliligini oshiradi.

**Vaksinatsiya, emlash** — kasallikning oldini olish maqsadida vaksinalar qo'llab, organizmda immunitet hosil qilish.

**Vakuollar, bo'shlik** — 1) sitoplazmadagi hujayra metabolizmining mahsuli bo'lgan suyuqlik bilan to'la va membrana bilan chegaralangan kavak. Hujayra osmotik bosimini boshqarishda, chiqindi moddalarini tashqariga chiqarish va boshqalarda ishtirok etadi; 2) Ayrim sodda hayvonlarning hazm qilish a'zosi.

**Vakuoma** — hujayradagi membranalalar tuzimi. Bu endoplazmatik tur,

Golji majmuasi, lizosomalardan iborat.

**Vakuum-infiltrlash** — o'simlik to'qimalariga ba'zi eritilgan moddalar ni kiritib, fermentativ faoliyat va boshqa jarayonlarni o'rganish usuli.

**Valeriana** — valerianadoshlarga mansub bir va ko'p yillik o'simliklar turkumi. Ildizpoya va ildizidan dorivor modda olinadi.

**Valin** — ko'pchilik oqsillar tarkibiga kiradigan zaruriy aminokislota.

**Valinomitsin** — membranalar orqali kaliy ionining o'tishini oshiruvchi polipeptid. Antibiotik sifatida foydalaniadi.

**Vampirlar — Arvohshapalaklar, qon so'ruchilar** — ko'rshapalaklar oilasi. Qon so'ruchilar deb noto'g'ri talqin qilingan.

**Vanilin** — vanil o'simligi mevalarida uchraydigan dezoksibenzoat alde-

gidining efiri. Oziq-ovqat va parfumeriya sanoatida xushbo'y modda sifatida ishlatalidi.

**Variatsion qator** — biron-bir belgi miqdoriy ifodasining pasayuvchi yoki ko'tariluvchi qiymatlar qatorida joylanishi.

**Varoliyev ko'prigi** — o'rta va uzunchoq miya o'rtasida joylashgan miya tanasining qismi.

**Vazoaktiv moddalar** — qon tomirlarning torayishini jadallashtiruvchi moddalar.

**Vazomotor regulatsiya, qon aylanishini boshqarish** — metabolik tabablarga ko'ra, qon tomirlarini toraytirish va kengaytirish bilan pereferik qon aylanishining boshqarilishi.

**Vazopressin** — gipofizning orqa bo'lakchasi ishlab chiqaradigan peptid tabiatli gormon. Qiltomirlar faoliyatiga va organizmda suv-tuz almashinuviga ta'sir qiluvchi omillardan biri.

**Vegetativ** — o'simlik yoki hayvonlar oziqlanishi yoxud o'sishi bilan bog'liq a'zolar yo a'zolar tizimini, shuningdek, ular faoliyatiga aloqadorlikni anglatadi. Masalan, o'simlikning vegetativ organlari, vegetativ asab tizimi.

**Vegetativ asab tizimi** — asab tizimining bir qismi; qon aylanish, nafas olish, ovqat hazm qilish, chiqarish, ko'payish a'zolari tizimi faoliyatini, shuningdek, moddalar almashinuvchi va a'zolari holati (qo'zg'aluvchanlik, ishga layoqat va boshqalar)ni boshqaradi. Simpatik va parasimpatik asab tizimlariga bo'linadi.

**Vegetativ duragaylash** — nav yoki turlarni bir-biriga payvandlash bilan yangi nav olish usullaridan biri.

**Vegetativ hujayra, o'suvchi hujayra** — o'simlik changi yadrosining

dastlabki bo'linishi natijasida hosil bo'ladigan ikkita hujayradan biri. Chang unayotganda undan generativ hujayra uchun yo'l bo'lib xizmat qiluvchi naycha rivojlanadi.

**Vegetativ ko'payish** — organizmning jinssiz ko'payish shakli. Bunda ayrim a'zo yoki qismidan (novda, kurtak, ildiz) yangi organizm vujudga keladi.

**Vegetativ organ (a'zo)lar** — o'simlikning o'sishi va oziqlanishi uchun xizmat qiladigan a'zolar (ildiz, poya, barg va hokazo).

**Vegetatsion davr, vegetatsiya davri** — bir va ikki yillik o'simliklarda urug'ning unishidan umrining tuga-shigacha bo'lgan, ko'p yilliklarida esa har yili takrorlanadigan va fotosintez yuz beradigan, dehqonchilikda ekin ekishdan hosilni yig'ib olungangacha o'tgan davr (kun hisobida). Masalan, kuzgi bug'doyning vegetatsion davri 200—300 kun, g'o'zaniki esa 90—140 kun.

**Vegetatsion usul** — o'simliklarni sun'iy sharoit (tajriba idishlariga solingan suv, qum, tuproq)da o'stirib, ular hayot faoliyatini o'rganish yo'li.

**Vektor** — retsipyent (qabul qiluvchi) genomi yoki plazmoniga ko'chirilgan, mustaqil qayta tiklana olish xususiyatiga ega genetik tizim (DNK ning ma'lum uzunlikdagi kesmasi).

**Vektorlar (klonlovchi), payvandlash vektorlari** — klonlash (payvandlash) vektorlari sifatida plazmida DNK sidan foydalananiladi (q. *Plazmidalar*).

**Venalar** — moddalar almashinuv jarayoni natijasida karbonat angidrid va boshqa mahsulotlarga boyigan qoni a'zo hamda to'qimalardan yurakka o'tkazuvchi (ko'ktomirlar) tomirlar.

**Venoz qon, harom qon** — karbonat angidridga boy qon.

**Ventral, qorin tomon** — tananing qorin qismi, yuzasi yoki unga joylashganlikni bildiradi. Masalan, tananing ventral, ya'ni qorin qismi.

**Venulalar** — juda mayda vena qon tomirlari.

**Vertitsilloz kasalligi** — ko'pgina o'simliklar (masalan, g'o'za)ning zamburug'li kasalligi.

**Vestibular apparat, sezgi a'zosi** — umurtqali hayvonlar ichki qulog'i-dagi retseptor (qabul qiluvchi) apparat. Bosh va tananing fazodagi vaziyati o'zgarishini hamda gavda harakati yo'nalishini belgilaydi.

**Vibriolar** — spora hosil qilmaydigan vergulsimon harakatchan bakteriyalar turkumi. Odamda vabo kasalligini qo'zg'atadi.

**Vikariatlar, o'rnbosarlar** — geografik yoki ekologik jihatdan bir-birining o'mini bosish xususiyatiga ega yaqin qarindosh o'simlik yoki hayvon turlari.

**Vilt, so'lish** — qishloq xo'jalik o'simliklarining asosan parazit zamburug'lar vujudga keltiradigan so'lish kasalligi. Eng zararlisi g'o'za viltidir.

**Viroidlar** — yuqumli agentlar; kichik molekulalni bir polinukleotid zanjirdan tashkil topgan halqali RNA dan iborat. Kasalliklarga sabab bo'ladi.

**Virulentlik** — kasallik qo'zg'atuvchanlik darajasi. Patogen mikroorganizmlarning kasallik tug'dirish faolligini bildiradi.

**Viruslar** — tirik hujayra ichiga kiring va faqat unda ko'payish xususiyatiga ega hayotning hujayrasiz shakli. Odam, hayvon, o'simliklarda yuqumli kasalliklarga sabab bo'ladi.

**Virusologiya** — viruslar tuzilishi, sistematikasi, genetikasi, biokimyo-

si, shuningdek, inson va hayvonlar hayotida tutgan o'rnnini o'rganuvchi fan.

**Vitalizm** — biologiyadagi hayotiy hodisalarni moddiy bo'lmanan g'ayri tabiiy kuch («hayotiy kuch»)lar bilan bog'lovchi oqim.

**Vitaminlar, darmondorilar** — tirik organizmlarning hayot faoliyati uchun juda zarur bo'lgan, kichik molekulalni organik birikmalar; asosan o'simliklarda va mikroorganizmlarda hosil bo'ladi. Odam va hayvon organizmidagi fiziologik, biokimyoviy jarayonlarning me'yorli kechishini ta'minlaydi.

**Vivariy, joni vorlar xonasi** — tajriba o'tkazish maqsadida har xil hayvonlar (kalamush, quyon va boshqalar) saqlanadigan bino.

**Vivipariya — Tirik tug'ish** — nasl qoldirish turi.

**Vixuxol** — hasharotxo'r, qimmatba-ho mo'ynaga ega sut emizuvchi hayvon. Asosan molluskalar bilan ovqatlanadi. Don, Volga va Ural daryolari atrofida keng tarqalgan. Qizil kitobga kiritilgan.

**Vodorod bakteriyalar** — molekulal vodorodning oksidlanishi natijasida vujudga keluvchi energiya hisobiga rivojlanuvchi bakteriyalar guruhi.

**Vodorod bog'lar** — azot, kislород kabi elektromanifiy hisoblangan atomlar va vodorod atomi o'rtasida hosil bo'ladigan bog'lar. Biopolimerlar tuzilishlarini hosil qilishda muhim ahamiyatga ega.

**Voltinizm** — ipak qurtining yillik nasl miqdori. Keyingi yillarda boshqa organizmlar uchun ham qo'llanmoqda.

**Volvoks** — suvo'tlar turkumi. Yuma-loq shakldagi koloniylar hosil qiladi.

## X

**Xalaza** — urug'kurtakning pastki bo'lagi.

**Xaltalilar** — sut emizuvchi hayvonlarning kichik sinfi. Avstraliya va Janubiy Amerikada yashaydi. Masa-lan, xaltali chumolixo'r, kenguru.

**Xamefit** — qishlaydigan kurtagi yerga yaqin joylashgan chala buta va butachalar.

**Xameleonlar, buqalamunlar** — kaltakesaklar oilasi. Ularning tili uzun bo'lib, ancha uzoqdagi o'ljani ham ushlab olish xususiyatiga ega. Rangi tashqi omillar (harorat va yorug'lik) ta'sirida tez o'zgaradi.

**Xara suvo'tlari, xarasimonlar** — yuksak suvo'tlar guruhi. Asosan chuchuk va sho'r suvli havzalarda yashaydi.

**Xartumlilar** — sut emizuvchilar turkumi.

**Xazmofitlar, yoriqlarda o'suvchi** — qoyalar va toshlarning yorilgan joylarida o'suvchi o'simliklar.

**Xazmogamiya, ochiq holda qo'shilish** — gul kosasi ochiq holda changlanadigan oddiy gul.

**Xazonrezlik** — o'simlik barglarining tabiiy to'kilishi. Odatda, daraxtlar va butalarda kuzatiladi.

**Xemosmotik nazariya** — biologik membranalarda energiyaning bir turdan ikkinchisiga o'tish mexanizmini tushuntiruvchi nazariya. Ingliz olimi P.Mitchel ishlab chiqqan. Bu jarayonda bir vaqtning o'zida osmotik va kimyoviy ish bajariladi.

**Xemo...** — kimyo va kimyoviy jarayonlarga aloqadorlikni anglatuvchi murakkab so'zlarning tarkibiy qismi.

**Xemogenez** — otalanmagan tuxum-hujayralarning kimyoviy moddalar ta'sirida bo'linishi.

**Xemokinez** — organizmning kimyoviy moddalar ta'siridagi harakati.

**Xemoliz** — kimyoviy agentlar ta'sirida organik birikmalarning par-chalanishi.

**Xemonastiya** — o'simlik a'zosining kimyoviy qo'zg'atuvchi ta'siriga javoban harakati.

**Xemoretseptorlar** — kimyoviy qo'zg'atuvchilar ta'sirini qabul qiluvchi asab uchlari. Bular tashqi yoki muhitdagi kimyoviy moddalar konse-ntratsiyasi o'zgarishini sezadi.

**Xemorezistentlik** — tirik organizmlarning kimyoviy moddalarga nisbatan sezgirligi.

**Xemosezuvchanlik** — organizmning kimyoviy moddalarga nisbatan sezgirligi.

**Xemosintezi** — mikroorganizmlarning oziqlanish turlaridan biri. Bunda bakteriyalarning karbonat angidrid gazidan organik moddalarni sintez qilishi, anorganik moddalarning oksidlanishi natijasida hosil bo'ladigan energiya hisobiga amalga oshadi. Jarayonni S.N.Vinogradskiy kashaf qilgan (1887).

**Xemosistematika** — organizm, a'zo to'qima va hujayralar sistematikasi (tur, turkum, oila kabilalar)ni ularning kimyoviy tarkibi asosida tuzish. Organik dunyoning to'liq tasnifini yaratishda qo'llaniladi.

**Xemotaksis** — erkin harakatlanuvchi organizm (bakteriya, zamburug' va boshqa)larning bir tomonidan bo'ladigan kimyoviy ta'sirga javoban harakati.

**Xemoterapiya** — q. *Ximioterapiya*.

**Xemotropizm** — o'simlik o'suvchi a'zolarining kimyoviy moddalar ta'sirida yo'nalishini o'zgartirishi.

## X

**Xetotaksiya** — hasharotlar tanasi-dagi tukcha va qilchalarining taqsim-lanishi.

**Ximera** — har xil organizm hujayra-si, to'qimasi, a'zosi yoki tana qism-larini qo'shishdan hosil bo'ladigan mavjudotlar.

**Ximera DNK** — gen muhandisligi usullari yordamida har xil tabiiy DNK qismlaridan tuzilgan sun'iy molekula. **Ximera o'simliklar** — irsiy sifat-dan farq qiluvchi qismlar, histologik qatlamlar yoki hujayralarni ulashdan hosil bo'ladigan o'simliklar. Masalan, har xil o'simliklarni payvandlash.

**Ximioterapiya, kimyoviy davolash, xemoterapiya** — kasallik qo'zg'a-tuvechilarga qarshi kimyoviy preparat-lar qo'llab, bermorni davolash.

**Ximotripsin** — ozuqa tarkibidagi oqsillarning parchalanish reaksiya-larini katalizlovchi gidrolitik ferment. Oshqozon osti bezlari ishlab chiqaradi.

**Xin daraxti, sinxona** — ro'yandosh-larga mansub o'simliklar. Barglarining cheti tekis, po'stlog'i alkoloidlar (ma-salan, xinin)ga juda boy.

**Xinin** — xin daraxtidan yoki sun'iy olinadigan alkoloid. Bezgak kasaliga qarshi ishlatiladi.

**Xitin** — organizm qobig'iga qattiq-lik beruvchi modda. Bo'g'imoyoqlilar va boshqa umurtqasiz hayvonlar tash-qi skeletining asosiy qismini tashkil qiladi. Zamburug' va bakteriyalar hu-jayra devorining tarkibiga kiradi.

**Xivchinlar, kiprikchalar** — sperma-tozoid, zoospora, qator sodda hayvon-lar va bakteriyalarning harakat a'zosi.

**Xivchinlilar** — eng sodda hayvon-lar turiga mansub bir hujayrali orga-nizmlar sinfi. Xivchinlari yordamida harakatlanadi. Oziqlanish usuliga

ko'ra o'simliklar yoki hayvonlarga kiritiladi.

**Xlamidomonada** — volvokssimon o'simliklar turkumi. Ko'pincha iflos-langan chuchuk suvlarda keng tar-qalgan. Ulardan suvni zararli organ-ik birikmalardan tozalovchi inshoot-larda foydalaniladi.

**Xlamidospora — Qattiq qobiqli spora, xlamidospora** — ba'zi zam-burug'larning qalin qobiqli sporasi; jinssiz ko'payish davrida vujudga ke-ladi.

**Xlorella** — xlorokokksimon mik-roskopik suvo'tlar turkumi. Tarkibi-da oqsil moddasi ko'p. Tez va osonlik bilan ko'payadi. Chorvachilikda qo'shimcha ozuqa sifatida foydalanish mumkin.

**Xlorofill** — o'simlik xloroplastlari-da mujassamlangan yashil pigment. Quyoshning yorug'lik energiyasini organik moddalar kimyoviy energiya-siga aylantirishda asosiy vazifani ba-jaradi. Xlorofill molekulasining asosini magniy-porsirin kompleksi tashkil qiladi. Xlorofillning yorug'lik nurlari tur-li spektrlarini yutish layoqatiga ko'ra a, v, s turlarga bo'linadi.

**Xloroplast** — o'simlik hujayrasining organellasi. Xloroplastlarda quyosh-ning yorug'lik energiyasi kimyoviy energiyaga aylantirilib, uglevodlar sintezlanadi.

**Xloroz, rangsizlanish (oqarish) kasali** — ba'zi mikroorganizmlar ta'sirida yoki mikroelementlar yetish-maganda o'simlik barglarining rang-sizlanish kasalligi.

**Xolesterin** — sterinlar guruhiga mansub yarim halqali spirt. Barcha tirik organizmlarda uchraydi. Ayniq-sa, asab hujayralari, sperma va eri-trositlarda ko'p.

**Xolin** — barcha tirik organizm hujayralarida uchraydigan vitaminga o'xshash modda. Fosfoloidlar, atsetilxolin tarkibiga kiradi.

**Xolinesterazalar** — xolin efirlarining gidrolitik yo'l bilan parchalanish reaksiyalarini katalizlovchi fermentlar. Odam va hayvon to'qimalarida ko'p.

**Xonakilashtirish** — estetik ko'ngil ochish yoki inson uchun foydali mahsulot olish maqsadida yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rnatish va ularni ko'paytirish.

**Xondriom** — mitoxondriya DNKsi genlarining majmui.

**Xondrogenez** — tog'ay to'qimalarining hosil bo'lish jarayoni.

**Xondroitinsulfatlar** — biriktiruvchi to'qima (pay, tog'ay)larning asosiy tarkibiy qismi.

**Xorda** — xordali hayvonlar (lanse-nik, to'garakog'izlilar)ning bo'g'imlarga bo'limmagan elastik skelet o'qi. Yuksak tuzilishga ega umurtqali hayvonlar embrionida uchraydi.

**Xordalilar** — *Skelet o'qi* — xordaga ega hayvonlar turi.

**Xotira** — ko'rgan hamda eshitgallarini esda saqlash va shu asosda mantiqiy fikrlash, tasavvur etish qobiliyati. Asab tizimining asosiy xususiyatlaridan biri.

**Xromatida** — hujayra bo'linishida ikki karra ortgan xromosomaning ikki nukleoprotein ipidan biri.

**Xromatin** — DNK va yadro oqsillari hisoblangan gistonlardan tashkil topgan nukleoprotien tolalar.

**Xromatoforalar, rangli donachalar** — 1)suvo'tlarning har xil shaklgaga ega bo'lgan pigmentli donachalari,

fotosintez jarayonida ishtiroy etadi; 2)ayrim bakteriyalar hujayrasidagi membrana tuzilishlar bo'lib, tarkibida pigmentlar bor.

**Xromoplastlar, rangli tanachalar** — hujayra sitoplazmasidagi sariq rangli pigmentlar. Bularning rangi karotinoidlarga bog'liq. Ba'zan faqat qizil, sariq-qizg'ish va sariq rangli plastidalar ham xromoplastlar deb yuritiladi.

**Xromoproteinlar, rangli oqsillar** — aminokislotalar va rangli birikmaldan tashkil topgan murakkab oqsillar.

**Xromosoma to'plami** — hayvon yoki o'simliklar organizmining har qanday hujayra yadrosidagi xromosomalar majmui. Har bir biologik tur o'zining doimiy xromosomalar to'plamiga ega bo'lib, ular ma'lum kattalikka va morfologik xususiyatga ega.

**Xromosomalar** — hujayra mag'izi (yadrosi)dagagi o'zidan ko'payadigan xromatin iplaridan hosil bo'lgan yaxshi bo'yaluvchi donachalar. Ular DNK va oqsil molekulalaridan tashkil topgan. Xromosomalar yig'indisi organizmning asosiy irsiy xususiyatlarini belgilaydi.

**Xromotip** — organizm mag'iz genlari tizimi.

**Xromatologiya** — hayvon va o'simliklarning ranglari haqidagi fan.

**Xronobiobiologiya** — biologik tizimlarning muvaqqat uyushmalari va ularning ma'lum vaqtida davriy yoki davriy bo'lmagan o'zgarishlarini o'rganadi.

**Xushbo'y moddalar** — o'ziga xos yoqimli hidga ega organik birikmalar. O'simliklar dunyosida keng tarqalgan.

**Yadro** — evkariot organizmlar hu-jayrasidagi organoid tarkibida oqsil-lar, nuklein kislotalar, oz miqdorda unga katta bo'lмагan organik mole-kulalar va ionlar bo'ladi. Yadro qobiq va yadro shirasiga ega.

**Yadro qobig'i, mag'iz po'sti** — perinuklenar bo'shliq bilan ajralgan, ikki qatlamdan iborat qobiq. Yadro qobug'ida juda ko'p teshikchalar bo'lib, ular orqali yadrodan si-toplazmaga va aksincha, turli-tuman moddalarning ko'chirilishi amalgalashadi.

**Yalpi tanlash, umumiy tanlash** — o'simliklarning yangi navini yaratish maqsadida, dastlabki navlarning ge-notipini tekshirmsandan, umumiy standartga javob beruvchi bir qator tash-qi belgilariqa qarab, eng yaxshi o'simliklarni tanlab olish. Afzalligi ko'p kuch va mablag' talab qilmasligidadir.

**Yaltiroq don, qattiq don** — shaffof ko'rinishi va qattiqligi bilan ajralib turuvchi donlar. Don yaltiroqligi un sifatini belgilaydi.

**Yantooq** — dukkaklilar oilasiga mansub o'simliklar turkumi. O'rta Osiyoda keng tarqalgan.

**Yaproq diagnostikasi** — bargdan tayyorlangan kesmalar, to'qima yoki shiralarini kimyoviy tahlil qilish yo'li bilan o'simlikning ozuqa elementlariga bo'lgan ehtiyojini aniqlash usuli.

**Yarimqattiq qanotlilar, qandalar** — hasharotlar turkumi.

**Yasmiqchalar** — peridermaning g'ovak joylashgan hujayralardan iborat bo'rtmalar. Poyaning ichki qismini havo bilan ta'minlaydi.

**Yassi chuvalchanglar** — tuban chuvalchanglar tipi. Ko'pchiligi tekino'rlik bilan hayot kechiradi.

**Yashash muhiti** — organizm yashayotgan joydag'i abiotik, biotik va antropogen omillar majmui.

**Yashash uchun kurash** — Ch.Dar-vinning evolutsion nazariyasidagi asosiy tushunchalardan biri. Bu atama turlararo, shuningdek, organizmlar bilan turli-tuman yashash muhiti omillari o'rtasidagi barcha o'zaro munosabatlarni ifodalash uchun qo'llanadi.

**Yashil chavra** — butalar yoki past bo'yli daraxtlarni qalin, zinch ekib hosil qilingan devor. Bularga damba-dam shakl berib, kesib turish kerak.

**Yashirin kurtak** — tinimdag'i, uyqudag'i kurtak; o'zidan yuqorida kurtaklar shikastlanganda yoki nobud bo'lganda uyg'onib, ko'karadi.

**Yelpig'ichqanotlilar** — hasharotlar turkumi. Ko'pchilik turlari hasharotlarning endoparaziti.

**Yengil diffuziya** — moddalarning ko'chirilishini ta'minlovchi oqsillar ishtirokida energiya sarflamasidan ularni biologik membranalar orqali ko'chirish.

**Yenotlar** — yenotsimonlar oilasiga mansub sut emizuvchilar urug'i. Yenotlarning bir necha xil turlari mavjud. Ozarbayjon, Belorussiya va O'rta Osiyoda iqlimlashtirilgan.

**Yerlarni quritish** — yer sharoitlarini yaxshilash uchun undagi ortiqcha suvni yo'qotishga yordam beradigan meliorativ tadbir.

**Yetiltirish** — yaxshi pishmagan meva, sabzavot va boshqalarni sun'iy sharoitda yetiltirib pishirish. Ko'pin-

cha kimyoviy preparatlar, masalan, etilenden foydalaniladi.

**Yevgenika** — odamning irlsiy sog'ligi va uni yaxshilash yo'llari haqidagi fan. Odam evolutsiyasini o'rganish va insoniyatni irlsiy kasalliklardan himoya qilish, kishilik jamiyatini sog'lomlashtirish masalalari bilan shug'ullanadi.

**Yevropeoid irqi** — asosiy katta irqlardan biri; terisi tiniq, mayin sochli, qirra burunli, yupqa labli bo'ladi. Europa, Shimoliy Afrika, Old Osiyo, Shimoliy Hindistonda tarqalgan.

**Yevstaxiyev nayi, eshitish nayi** — umurtqali hayvonlarda halqumni o'rta qulqoq bo'shlig'i bilan birlashtiruvchi nay. Nog'ora pardaning har ikkala tomonidagi bosim muvozanatini boshqaradi.

**Xedidnalar** — aspidlar oilasiga mansub zaharli ilonlar. Uzunligi 2 m cha. Avstraliyada tarqalgan. Suvga yaqin joylarda hayot kechiradi.

**Xedidnasimonlar** — kloakalilar turkumiga mansub sut emizuvchilar. 5 turi ma'lum. Avstraliyada yashovchi yexidnanining uzunligi 50 sm cha. Yilda 1—2 tuxumini qorindagi xaltasiiga qo'yadi. Tuxumdan chiqqan bolasi emib oziqlanadi.

**Yillik halqalar** — 1) o'simlik tanasida vegetatsion davrda hosil bo'ladigan halqa; 2) ba'zi hayvonlarning ayrim to'qimalari (baliq tangachasi, molluskalar chig'anog'i)da hosil bo'lib, uzoq saqlanadigan tuzilma. Yillik halqalarni sanab, organizm yoshini aniqlash mumkin.

**Yirtqichlar** — sut emizuvchilar turkumi. Asosan, go'shtxo'r, kamdan-kam boshqa narsalarni ham yeydi. Yer yuzining hamma joyida uchraydi. Ko'pchiligi qimmatbaho teri, ba'zilari

yuqumli kasalliklar manbai. Ayrimlari chorvachilikka zarar yetkazadi. Qizil kitobga kiritilgan turlari ham bor.

**Yirtqichlik, qonxo'rlik** — bironbir yirtqich hayvon tomonidan boshqasi (o'lja)ning tutib, yeyilishi. Yirtqichlik populatsiya miqdorini boshqarib turishda muhim ahamiyatga ega.

**Yol** — bir qator hayvonlar (ot, sherning boshi va bo'ynidagi qalin uzun soch).

**Yomg'ir chuvalchanglari** — kamqilli chuvalchanglar sinfi bir necha oilasining umumiy nomi. Asosan tuproqda yashovchi turlari ko'p tarqalgan. Tuproq hosil qilish jarayonlari da katta ahamiyatga ega.

**Yon chiziqlar** — to'garakog'izlilar, baliqlar, ba'zi suvda va quruqda yashovchilarning sezgi a'zolari tizimi.

**Yon ildizlar** — o'q ildiz yonidan rivojlanadigan ildizlar.

**Yonbargchalar** — barg bandining asosidagi kichik bargchalar.

**Yong'oqcha, cho'chqa yong'oq** — asosan qoraqayindoshlarga mansub daraxtlarning bir urug'li, ochilmaydig'an quruq mevasi.

**Yong'oqdoshlar** — ikki pallali o'simliklar oilasi.

**Yopiq urug'li o'simliklar** — yusak o'simliklar turi. Bularga xos bo'lgan eng muhim xususiyat shundan iboratki, ularning urug'lari tuguncha ichida rivojlanadi; qo'shurug'lanish natijasida murtakdan tashqari endosperm ham paydo bo'ladi.

**Yorug'likda nafas olish** — fotosintezening qo'shimcha yo'li. Bu jarayonda ham kislород yutiladi va karbonat angidrid ajraladi, biroq nafas olishdan

Y

farqli ravishda ATFning hosil bo'lishi kuzatilmaydi.

**Yorug'sevar o'simliklar** — rivojlanish uchun ko'p yorug'lik talab qiluvchi o'simliklar.

**Yog' bezlari** — sut emizuvchilar terisidagi bezlar bo'lib, yo'li tuk qopchig'iga ochiladi.

**Yog' kislotalari** — ochiq zanjirli organik kislotalar guruhi. Yog'lar va yog'simon birikmalarning tarkibiy qismi.

**Yog' to'qimasi** — biriktiruvchi to'qima turi; hujayralari yog' tomchilari bilan to'la. Asosiy energiya manbai.

**Yog'lar** — glitserin va yog' kislotalarning murakkab efiri. Biologik membranalar tarkibiga kiradi, asosan energiya manbai; hujayradagi jarayonlarni boshqarishda ishtirok etadi.

**Yog'och** (q. *Ksilema*).

**Yuksak o'simliklar** — o'simliklar dunyosini tashkil qiluvchi ikkita katta guruhdan biri. Bular tuban o'simliklardan ildiz, poya, barg va gullarning borligi bilan farqlanadi.

**Yuqish** — patogen mikroorganizmning kasallikka moyil xo'jayin tanasiga kirishi.

**Yuqori energetik birikmalar** — ATF va fermentativ reaksiyalarda ATF hosil qilish xususiyatiga ega modalar. Bularning gidrolizlanishi natijasida ko'p miqdorda kimyoviy energiya ajralib chiqadi.

**Yura davri** — mezozoyning ikkinchi davri. Bu davrda ayniqsa ignabarglli daraxtlar (sagovniklar) keng tarqalgan. Hayvonot olami esa chig'a-noqliklar, dumsiz amfibiyalarning

ko'pligi bilan xarakterlangan. Dinozavrular, keyinchalik esa dastlabki qushsimonlar, hasharotxo'r sut emizuvchilar paydo bo'lgan.

**Yurak** — odam va hayvon organizmi qon aylanish tiziminining markaziy a'zosi. Yurakning ritmik qisqarishi kuchi hisobiga qon butun organizm bo'ylab harakat qiladi. Yurak ikki kamerali (baliqlar), uch kamerali (sudralib yuruvchilar) va to'rt kamerali (qushlar va sut emizuvchilar) tuzilishga ega.

**Yurak bo'lmasi** — qonni to'plab, yurak qorinchasiga o'tkazuvchi qismi.

**Yurak sikli** — yurakning har bir alohida qisqarishi (sistola va diastola) tufayli paydo bo'ladigan ketma-ket jarayonlar.

**Yutish** — murakkab reflektor harakat bo'lib, ovqat og'iz bo'shlig'idan qizilo'ngachga o'tadi.

**Yuvenil gormoni — Yoshlik gormoni** — hasharotlarning rivojlanish bosqichlarini boshqaruvchi gormon.

**Yuvenillik, yoshlik davri** — o'simliklarda urug'ning unib chiqishidan gullahgacha bo'lgan o'sish davri.

**Yo'ldosh hujayralar** — skelet muskullardagi ustun hujayralar. O'zo'zidan ko'payuvchi populatsiyani ifodalaydi. Differensiatsiyaga uchrayotgan hujayralarning manbai bo'lib xizmat qiladi.

**Yo'sinlar** — yuksak o'simliklarning qadimiy, eng sodda tuzilgan vakillari.

**Yo'g'onichak** — oshqozon-ichak yo'lining ingichka ichakdan keyingi bo'limi. Bu bo'limda hazm qilish va so'rish jarayonlari (ayniqsa suvning so'rilishi) tugallanadi.

# Z

**Zaharlanish** — organizmada zaharli moddalar ta'sirida vujudga keladigan kasallik. Kuchli va surunkali zaharlanish bo'ladi. Organizm ichki muhitni doimiyligining buzilishi bilan bog'liq.

**Zamburug'lar** — xlorofilsiz tuban o'simliklar (organizmlar) bo'limi. Faqat tayyor organik moddalar bilan oziqlanadigan geterotrof organizmlar. Ko'pchilik zamburug'lar yeyiladi; ba'zilari odam va hayvonlar uchun zaharli.

**Zang** — tok novdasi.

**Zardob** — odam yoki hayvon qonining shaklli elementlardan tozalangan suyuq qismi bo'lib, diagnostik yoki davolash ishlarida qo'llaniladi.

**Zarpechak, kuskuta, devpechak** — chirmovuqdoshlarga mansub o'simliklar turkumi. Ildizsiz va bargsiz, bir yillik, chirmashib o'suvchi tekinxo'r o'simlik.

**Zaruriy (almashmaydigan) aminokislotalar** — inson va hayvon organizmida sintez qilinmaydigan yoki juda kamdan-kam sintez qilinadigan aminokislotalar; ular organizmga asosan oziq-ovqat bilan kiradi. 10 ga yaqin xili mavjud bo'lib, ulardan eng muhimlari: lizin, metionin, treonindir.

**Zaytundoshlar** — ikki pallali o'simliklar oilasi. Yevropa zaytuni asosan mevasidan moy olish yoki konserva tayyorlash uchun yetishtiriladi. Qrim, Kavkaz, Turkmanistonda tarqalgan.

**Zebralalar** — otlar turkumiga mansub toq tuyoqli hayvonlar kenja urug'i. Terisida oq va qora ko'ndalang yo'llar bor. Afrika savannalarida yashaydi.

**Zigota** — onalik va otalik jinsiy hujayralari — gametalarning qo'shilishiidan hosil bo'lgan hujayra.

**Zimogenlar** — q. *Profermentlar*.

**Ziravor o'simliklar** — tarkibida xushbo'y, ziravor moddalari bor o'simliklar. Masalan, zira, murch, rayhon.

**Zirh, kosa, qalqon,sovut** — 1) ayrim hayvonlarning tashqi qattiq, himoya qoplamasi; 2) mevalar ustida bo'ladigan dag'al va qalin po'st.

**Zirhlilar** — chalatishli sut emizuvchilar oilasi. Ular gavdasi ustidagi himoyalovchi suyak shoxsimon moddali zirhli qalqonchalar bilan qoplangan.

**Zoo...** — hayvonot olamiga taalluqlikni bildiruvchi murakkab so'zlar qo'shimchasi.

**Zoobentos** — chuchuk va dengiz suv havzalari ostida yashovchi hayvonlar majmui.

**Zoofag** — **Go'shtxo'r** — hayvonlar bilan oziqlanuvchi organizmlar.

**Zoofiliya** — o'simliklarning hayvonlar yordamida changlanish jarayoni.

**Zoogigiyena** — **Hayvonlar gigiyenasi** — qishloq xo'jalik hayvonlarining sog'liq va mahsulorligiga muhit ta'sirini o'rganuvchi fan.

**Zoolit, toshhayvonlar** — toshga aylangan qazilma hayvonlar.

**Zoologiya** — biologyaning asosiy bo'limlaridan biri; hayvonlarning xilma-xilligi, tuzilishi, hayot faoliyatining xususiyatlari, tarqalishi, yashash muhiti, o'zaro aloqasi va boshqalarini o'rganadi.

**Zoospora** — ba'zi zamburug'lar va yashil suvo'tlarining harakatchan sporalarini.

**Zootsenozlar** — ma'lum sharoitlarda birgalikda yashayotgan hayvonlar majmui. Biotsenozning tarkibiy qismi.

# Z

**Zoosidlar** — umurtqali zararkunandalarga qarshi qo'llaniladigan zaharli kimyoviy moddalar.

**Zooxoriya** — o'simlik mevalari va urug'larining hayvonlar yordamida tarqalishi.

## O'

**O'lím soni (miqdori)** — berilgan vaqt birligida ma'lum hududda yashab turgan individlar shartli sonining shu davr ichida o'tib bitgan (halok bo'lган)lar soniga nisbati.

**O'limtikxo'rlar** — o'limtik yoki o'laksalar bilan oziqlanuvchi qushlar. Masalan, kalxatlar yoki qoraqushlar.

**O'mrov suyagi** — umurtqali hayvonlar va odamning yelka kamarini qoplab turgan juft suyak.

**O'n ikki barmoq ichak** — ingichka ichakning boshlang'ich, birmuncha kengaygan qismi. Odamda uzunligi 12 barmoq enicha. Oshqozon osti bezi va o't pufagining yo'llari shu ichakka ochildi.

**O'pka** — barcha umurtqalilar va ayrim baliqlarning nafas olish a'zosi. **O'q ildiz, bosh ildiz** — o'simlikning asosiy ildizi.

**O'raluvchi o'simliklar** — biror tayanchga o'ralib o'suvchi o'simliklar; masalan, pechakgul.

**O'rgimchak to'ri** — o'rgimchak bezlari ajratadigan fibrion oqsilidan iborat moddaning havoda qotishidan hosil bo'lувchi ipdan to'qilgan to'r.

**O'rgimchakkana** — o'rgimchak-simon kanalar sinfi. O'simlik parazitlari bo'lib, barg va poyalarni zararlaydi.

**O'rgimchaklar** — bo'g'imoyoqlilar turkumi. Ularning tanasi boshko'krak, qorincha va olti juft oyoqlardan iborat. Ko'pgina o'rgimchaklar zararkunanda hasharotlarni qirib

tashlaydi. Masalan, g'o'za biti, g'alla zararkunandasini hisoblangan xasvani, bezgak kasalligini tug'diruvchi chivinlarni yo'qotishda yaxshi natija beradi. Ayrimplari zaharli. Masalan, qoraqurt.

**O'rgimchaksimonlar** — umurtqasiz hayvonlar sinfi. Tanasi boshko'krak va qorinchadan iborat, olti juft oyoqlari bor. Keng tarqalgan, ko'pchiligi yerda hayot kechiradi. Bulariga chayon, o'rgimchak va kanalar kiradi.

**O'rim** — ma'lum joydan o'rib olin-gan o'simlik yashil massasining miqdori.

**O'rmon** — bir yoki bir necha turga mansub daraxtlar, butalar, turli-tuman o'simliklar va boshqa organizmlar hamda o'ziga xos tuproq qatlamidan iborat tabiiy kompleks. Yer yuzidagi o'simlik qoplamlarining asosiy turlaridan biri.

**O'rmon-dasht** — o'rmon va dasht zonalar belgisiga ega zona.

**O'rmonchilik** — o'rmonlarni samsarali yetishtirish asoslarini ishlab chiquvchi fan.

**O'rtta quloq** — quruqlikda yashovchi umurtqali hayvonlar eshitish tizimining bir bo'limi bo'lib, unda eshitish suyakchalari joylashgan. Yevstaxiyev naychasi orqali kekirdak bilan tutashgan, tashqi quloqdan nog'ora pardasi bilan to'silgan.

**O'simlik «yoshi», o'simlik shirasi** — o'simlik tanasi kesilganda yoki qir-

qilganda oqib chiqadigan suyuqlik, shira.

### **O'simlik assotsiatsiyasi (qavmi)**

— o'simlik qoplamlarining asosiy klassifikatsiya birligi. Bir xil fitotse-nozlar majmui. Bunga tur tarkibi, tuzilishi va yashash sharoiti bir xil bo'lgan o'simliklar kiritiladi.

**O'simlik bezlari** — o'simliklarning suv, qatron, shilliq va boshqa moddalarni tomchi holida ajratadigan bezlari; asosiyları: gidatoda, gul shiradon va boshqalar.

**O'simlik mo'ylovları, yotiq novda** — o'simliklarning yerbag'irlab o'suvchi poyalari, masalan, qulupnaydagi.

**O'simlik skeleti** — o'simlik mexanik to'qimalari yig'indisi.

**O'simliklar** — sporalar, urug'lar va vegetativ qismlari bilan ko'payuvchi, organik moddalar hosil qiladigan xlorofilli (avtotrof) yoki xlorofillsiz (xemotrof) tirik organizmlar. Ular asosan tuban va yuksak o'simliklarga bo'linib o'rganiladi.

**O'simliklar karantini** — mammalakatning o'simlik boyliklarini xavfli begona o'tlar, kasalliklar va zararkunandalardan himoya qilishga qaratilgan davlat ahamiyatiga molik tadbir hamda choralar majmui.

**O'simliklar morfologiysi** — o'simliklar (barg, poya, ildiz)ning shakllanishi va tashqi ko'rinishini o'rganuvchi fan.

**O'simliklar suv muvozanati** — o'simlikning ma'lum vaqt oralig'ida qabul qilgan va sarflagan suvi o'rtasidagi nisbat.

**O'simliklarni chiniqtirish** — o'simliklarni noqulay sharoitlarga bardosh berish xususiyatini mustahkamlash maqsadida ularni parva-

rishlab, chidamliligini oshirish. Bunda o'simlik hujayrasida chuqur fiziologik va biokimyoviy o'zgarishlar yuz beradi.

**O'simliklarni himoya qilish** — ekinlar va ko'chatlarga, madaniylash-tirilgan yerkarda hamda tabiiy o'tloq-larga zarar keltiruvchi organizmlar ga qarshi kurash choralar. Agrotexnik, biologik, kimyoviy, fizik va mehanik usullari bor.

**O'simliklarning mineral oziqlanishi** — o'simliklar hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan kimyoviy elementlarning tuproqdan olinishi va o'zlashtirilish jarayonlari yig'indisi.

**O'simliklarning so'lishi** — suv balansining buzilishi yoki boshqa hayotiy moddalarning yetishmasligi natijasida paydo bo'ladigan fiziologik jarayon.

**O'simliklarning tinim davri** — o'simlikning o'sishdan to'xtagan, modda almashinuv jarayonining jadalligi eng past bo'lgan davri. Yilning ma'lum davrida, mavsumida tashqi noqulay sharoitlarni yengish uchun moslanish xususiyati hisoblanadi.

**O'simlikning o'sish aktivatorlari** — o'sishni tezlashtiruvchi moddalar. O'simlik organizmida hosil bo'ladi (q. *Fitogormonlar*).

**O'simlikning o'sish nuqtasi** — poya va ildizning eng uchki hosil qiluvchi (o'suvchi) to'qimali qismi.

**O'simlikning suv rejimi** — o'simlikning suvni shimish (yutish), o'zlashtirish va chiqarish jarayonlari majmui. Suv o'simliklar massasining 80—95 foizini tashkil qilib, biokimyoviy reaksiyalar uchun qulay muhit yaratadi, sitoplazma kolloidlarining tuzilishini ta'minlaydi.

**O'simlikshunoslik** — madaniy o'simliklarni ekish va parvarish qilish haqidagi fan.

**O'simta, maysa** — urug' o'sishining boshlang'ich davridan avtograf oziqlanish boshlangungacha bo'lgan o'simta yoki o'simlik.

**O'sish konusi** — poya yoki ildiz uchidagi o'suvchi meristemali qism.

**O'sma** — butguldoshlarga mansub o'simliklar turkumi. Ba'zi turi barglaridan to'q ko'k tusli bo'yoq olinadi.

**O't pigmentlari** — gemoglobinning parchalanishi natijasida hosil bo'ladigan oxirgi mahsulotlar.

**O't pufagi** — o't (safro) vaqtincha to'planadigan a'zo.

**O't, safro** — jigarning maxsus bez hujayralarida hosil bo'ladigan ovqat hazm qilish shiralari (suyuqlik). Asosan yog'larning hazm bo'lishida ishtirok etadi.

**O'ta sezgirlik** — o'simliklarning himoya reaksiyasi. O'simlikning kasallangan qismi atrofidagi hujayralarning tezda nobud bo'lishi natijasida kasallik qo'zg'atgan parazit o'lik hujayralar halqasi bilan o'ralib, uning tarqalishiga yo'l qo'yilmaydi. Bu o'simlik to'qimalarining o'ta sezgirlik xususiyatiga bog'liq.

**O'tadominantlik, yuqorius tunlik** — monogibrid chatishtirishdan olin-gan geterozigotaning (Aa), ikki xil tipdagi monozigotadan (AA, aa) afzalligi. geterozigotalarda yaxshi belgililar to'planadi va moslashish xususiyati ancha yuqori bo'ladi.

**O'tkazuvchi naylor to'plami** — o'tkazuvchi mexanik va parenxima to'qimalarining elementlari, ya'ni traxeidlar, traxeyalar, naysimon to'rlar majmui.

**O'tkazuvchi to'qimalar** — o'simlik bo'ylab suv va unda erigan moddalarni o'tkazuvchi to'qimalar; to'rsimon naylar hamda traxeyalardan iborat.

**O'tkazuvchi to'qimali o'simliklar** — naysimon va g'alvirsimon o'tkazuvchi to'qimalarga ega o'simliklar. Bu to'qimalar suv, mineral va organik moddalarni o'tkazadi. Yo'sinlardan tashqari barcha yuksak o'simliklar kirdi.

**O'tloq, ko'kalamaydon** — tabiiy o'sgan yoki sun'iy ravishda ekilgan o'tlar bilan qoplangan yer maydoni. Yaylov hamda pichanzor sifatida katta ahamiyatga ega. Masalan, Alp yaylovlari (baland tog'dagi o'tloqlar).

**O'txo'rlik** — aksariyat o'tlarning vegetativ a'zolari bilan ovqatlanuvchi hayvonlar.

**O'tzor, maysazor** — turli o'tlar bilan qoplangan yer maydoni; pichan tayyorlash va chorvani o'tlatishda foydalilanildi.

**O'zak** — urug'li o'simliklar poyasining markaziy qismi. Rangsiz, jamg'arma moddalar to'planadigan parenxima hujayralaridan tashkil topgan.

**O'zgaruvchanlik** — tashqi muhit ta'sirida organizm belgi va xususiyatlarining o'zgarishi, ya'ni biron-bir belgini yo'qotish yoki yangisiga ega bo'lish jarayoni. Irsiyatga qaramaqarshi hodisa.

**O'zidan changlanish** — o'simlik gulining o'z changi bilan changlanishi.

**O'zidan ko'payish** — DNK molekulasing o'zidan xuddi o'ziga o'xshash molekula hosil qilish xususiyati.

**O'zidan urug'lanish** — o'simliklarning o'zidan changlanganda

me'yorli urug'lar hosil qilish xususiyati.

**O'zini o'zi boshqarish** — tirik organizmning hatto tashqi muhitning o'zgaruvchan sharoitlarida ham o'ziga xos ichki doimiylik xususiyatlarini saqlab turish qobiliyati. Bunda qaytar bog'lanish prinsipidan foydalaniadi.

**O'z-o'zini yig'ish** — biopolimerlarning, chunonchi, ferment kom-

plekslari, oqsil globulalari va tolalari, ribosomalar, viruslar, membranalarning kuchsiz kimyoviy bog'lar ta'sirida ma'lum tartib asosida o'zo'zidan birikishi.

**O'g'itlar** — Yer xususiyatlari va o'simliklarning oziqlanishini yaxshilash, unumdorlik hamda hosildorlikni oshirish uchun qo'llanadigan anorganik va organik moddalar.

## G'

**G'ovak to'qima** — hujayralari siyrak va bir necha qavatdan tashkil topgan to'qimalar; asosan o'simlik bargi etida uchraydi.

**G'umbak** — hasharotlarning rivojlanish bosqichlaridan biri.

**G'uncha, gulkurtak** — ularning kattalashib yaproq yozishidan, gul hosil bo'ladi.

**G'unchalash** — o'simliklarning gullash davrlaridan biri; g'o'zada shonalash deyiladi.

## SH

**Shabko'rlik** — ko'z to'r pardasida gi yorug'likni sezuvchi tayoqchasimon hujayralar vazifasining buzilishidan kelib chiqadigan kasallik. Kasallik A vitaminini yetishmasligidan yoki tug'ma bo'ladi.

**Shajara, shajara daraxti** — evolutsiya jarayonida turli guruhg'a mansub bo'lgan organizmlarning rivojlanish yo'lini (qarindoshchilik aloqalarini) chizma ravishda tasvirlash. Shajara daraxtini tuzish g'oyasining nazariy asoslari Ch.Darvin nomi bilan bog'liq.

**Shakar** — shirin ta'mga ega bo'lgan, suvda yaxshi eruvchi birikmalar. Masalan, saxaroza, glukoza va boshqalar.

**Shakarli o'simliklar** — jamg'arma modda sifatida o'zida shakar to'p-

lovchi o'simliklar. Masalan, shakarqamish, qand lavlagi.

**Shakl hosil qilish jarayoni** — duragaylash va mutatsiya natijasida populatsiyalarda o'simliklar turli shakllarining paydo bo'lishi. Shu asosda tanlash yo'li bilan yangi navlar hosil qilinadi. Shakl hosil qilish jarayoni kombinatsion va mutatsion o'zgaruvchanlik qonuniyatlarasi asosida amalga oshadi.

**Sharpeyev tolalari** — payning suyak bilan tutashgan joyidagi suyak parda va suyakni biriktirib turuvchi bir tutam kollagen tolalar.

**Shartli reflekslar** — odam va hayvon organizmining individual hayoti davomida orttirilgan moslanish reak-

**G'-S**

siyalari. Ma'lum sharoitda shartli qo'zg'atgich bilan shartsiz reflektor harakati o'rtasida vaqtinchalik aloqaning vujudga kelishi tufayli paydo bo'ladi.

**Shartsiz reflekslar** — evolutsiya davomida shakllangan, avloddan-avlodga o'tish xususiyatiga ega tug'ma reflekslar.

**Shershnyalar** — **Qovog'arilar** — asl arilar urug'i; arilarning eng yirigi. Chaqqan joyida kuchli og'riq paydo bo'ladi. Asalarichilikka zarar yetkazadi.

**Shilliq bezlar** — yopishqoq va elimshiq suyuqliklar ishlab chiqaruvchi bezlar.

**Shilliqqurtlar** — quruqlikda yashaydigan qorinoyoqli molluskalar. Qishloq xo'jalik ekinlarining xavfli zararkunandalari.

**Shimpanze** — yirik odamsimon maymunlar turkumi. Bo'yi 150—165sm, vazni 45—80kg. Biokimoyiy ko'rsatkichlari bo'yicha boshqa odamsimon maymunlarga nisbatan odamga yaqinroq turadi.

**Shingil, shoda** — gullari bir gulpoja asosidan uchiga qarab rivojlana-digan to'pgul (masalan, marvaridgulda).

**Shira (suv) harakati** — o'simliklar tanasida shira (suv) va unda erigan plastik muddalarning yuqoriga tomon kuchli harakat qilishi. Bu, ayniqsa, bahor oylarida kuchayadi.

**Shirabargli o'simliklar** — fotosintez jarayonida bargida shakar hosil bo'luvchi o'simliklar (odatda, boshqa o'simliklar krammal to'playdi). Masalan, lola, piyoz.

**Shizogoniya** — eng sodda hayvonlardan sporalilarga va ba'zi suvo'tlarga xos jinsiz ko'payish tipi. Shizogoniya bir necha avlodda qaytarilgandan so'ng yana jinsiy jarayon sodir bo'ladi.

**Shoxlanish, butoqlanish** — yangi novdalarning hosil bo'lishi, ularning poyada bir-biriga nisbatan joylanish xarakteri. Bir necha xili mavjud: dixotomik, monopodial, simpodial shoxlanish.

**Shoxlar** — ko'pgina tuyoqli hayvonlar bosh qismida joylashgan har xil shaklga ega shoxsimon moddali qattiq o'simtalar.

**Shtamm** — ma'lum manbadan olin-gan mikroorganizmning genetik jihatdan bir xildagi (toza) kulturasi.

**Shvann hujayralari** — asab tolalari qobig'ini shakllantiruvchi hujayralar.

**Sho'rsevar o'simliklar** — sho'rxok va sho'rtob yerlarda o'sadigan o'simliklar (galofitlar).

**Sho'rxok yer** — tuproq tiplaridan biri. Yuza qismi oppoq va zich (qattiq) tuz (ustki gorizontlarda 1% dan yuqori) qavat bilan qoplangan bo'ladi.

**Sho'rxok o'simliklar, galofitlar** — o'ta sho'rxok tuproqlarda o'sishga moslashgan o'simliklar. Masalan, sho'rak, karmak va boshqalar.

## CH

**Chala buta, yarim buta, butasimon** — moyasining pastki qismi yog'ochlanib, qishda qurimaydi, qolgan o'tsimon qismi esa qurib qoladigan ko'p yillik o'simlik.

**Chalacho'l o'simligi** — cho'l va tog' zonalari orasida joylashgan adirlardagi o'simliklar.

**Chandiq** — o'lgan to'qimalar (yara) o'rnida hosil bo'lgan biriktiruvchi to'qimalar.

**Chang** — o'simlik changdonida hosil bo'ladigan donachalar (mikrospora).

**Changchi** — erkak generativ a'zo. Gulning changdon va changchi ipidan iborat qismi.

**Changlanish** — o'simliklarda changdondagi changning urug'chi tumshug'iga borib tushishi.

**Chanoq (tos) suyagi kamari** — skeletning keyingi oyoq suyaklari bilan tanani bog'lovchi qismi.

**Chanoqcha** — bo'g'imoyoqlilar oyog'inining birinchi bo'g'imi.

**Chanqoqlik, suvsash, tashnalik** — organizmning suvga talabini ifodalovchi umumiy fiziologik holat.

**Chatishirish, duragaylash** — o'simlik, hayvon organizmlarining har xil zoti (navi), turlarini yoki ikki xil hujayrani o'zaro chatishirib, yangi organizm yoki hujayra yaratish. Duragay o'simlik va hayvonlar xo'jalik jihatdan foydali belgilarga ega bo'lib, yangi nav (zot)lar yetishtirish uchun dastlabki material hisoblanadi.

**Chavandozlar** — pardaganotli hasharotlar guruhi. Ular o'z tuxumini zararkunanda hasharotlarning qurtlariiga qo'yadi. Tuxumdan chiqqan qurtlar esa zararkunanda hisobiga yashab,

uni halok qiladi. Biologik kurash usulalarida yaxshi natija beradi.

**Chayonlar** — o'rgimchaksimonlar turkumi. Tanasi bosh-ko'krak, 7 bo'g'imli old qorin, 6 bo'g'imli orqa qorin va nayzadan iborat. Orqa qorining oxirgi bo'g'imida 2 ta zaharli bez bo'lib, yo'llari nayzaning uchiga ochilgan.

**Chetdan changlanish, allogamiya** — bir gulning shu tur yoki naviga tegishli bo'lgan boshqa o'simlik gulining changi bilan changlanishi. Ochiqurug'lilar va ko'pchilik gulli o'simliklarga xos. Biroq qat'iy chetdan changlanuvchi o'simliklar kam bo'ladi. Masalan, suli.

**Chidamlilik, barqarorlik, tolerantlik** — o'simliklarning tashqi muhitning noqulay sharoitlari (sovuz, turli kasalliklar, qurg'oqchilik va boshqalar)ga chidash xususiyati.

**Chigirtka** — gala (to'da) bo'lib yashovchi chigirtkalarning umumiy nomi; qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandasi.

**Chigit tuklari, tivit** — g'o'za chigitidagi qisqa va dag'al, uzunligi 2—5mm keladigan tolalar. Tola qatlarning pastki yarusi.

**Chilpish, chimitish, chekanka** — 1) g'o'zaning o'sish nuqtasi (poyaning uchki qismi)ni uzib tashlash; 2) mevalarning pishishini tezlashtirish va urug'lik mahsulotni ko'paytirish maqsadida o'simlikning uchki qismini kesib tashlash.

**Chig'anoq** — 1) shilliqqurtning himoya a'zosi; 2) ichki quloqning tovush to'lqinlarini qabul qilish va uni o'zgartirish xususiyatiga ega bo'lgan qismi; 3) molluskalar va ba'zi sodda

CH

hayvonlar tanasini qoplochi qattiq skelet hosila.

**Chok** — meva va urug' sirtidagi chandiq bo'rtmalar.

**Choydoshlar** — ikki pallali o'simliklar oilasi.

**Chuvalchanglar** — birlamchi og'izli chuvalchanglar, yassi chuvalchanglar, nematodalar, halqali chuvalchanglar, nemertinlar va boshqalardan iborat umurtqasiz hayvonlarning umumiynomi. Chuvalchanglarning ko'pgina turllari o'simlik, hayvon va odam organizmida yashab, gelmintozlarni qo'zg'atadi. **Cho'l** — yozi issiq, qishi sovuq, o'ta qurg'oqchilligi va o'ziga xos o'sim-

liklari bilan xarakterlanuvchi landshaft turi.

**Cho'lbaqalar, qurbaqalar** — suvda va quruqda yashovchi dumsizlar oilasi.

**Cho'lga aylantirish** — odam xo'jalik faoliyatining ta'sirida yerning biologik potensiallarini yo'q qilib, cho'lnikiga o'xshash sharoitlarning hosil bo'lishiga olib kelish.

**Cho'rtanbaliqsimonlar** — asosidan uchiga tomon yalpaygan cho'zinchoq tumshuqli, pastki jag' tishlari xanjarsimon baliqlar. Asosan chuchuk suvlarda yashaydi. Yirtqich.

## **MUNDARIJA**

A .....	5
B .....	22
D .....	34
E .....	39
F .....	45
G .....	49
H .....	60
I .....	62
J .....	68
K .....	69
L .....	79
M .....	83
N .....	92
O .....	96
P .....	100
Q .....	113
R .....	116
S .....	120
T .....	131
U .....	140
V .....	142
X .....	145
Y .....	148
Z .....	151
O' .....	152
G' .....	155
SH .....	156
CH .....	157

**A. ZIKRIYAYEV, S. FAYZULLAYEV**

## **BIOLOGIYA**

**ATAMALARINING IZOHLI LUG'ATI**

*Muharrir A. Ziyodov  
Musahhih M. Akramova  
Kompyuterda tayyorlovchi E. Kim*

Terishga berildi 14.11.03. Bosishga ruxsat etuldi 06.02.04.  
Bichimi 60x90<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Tayms garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.  
Shartli b.t. 10,0. Nashr. b.t. 11,51. Adadi 5000. Buyurtma № 56.

«Arnaprint» MCHJ bosmaxonasida bosildi. Toshkent. H. Boyqaro, 51.

O'zgeodezkadastrning "Kartografiya" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasida  
nashr etilgan.  
700170, Toshkent sh., Polkovnik Asom Muhiddinov k'och., 6

1500